

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI
MARKAZIY OSIYO XALQLARI TILLARI VA MADANIYATI INSTITUTI**

**RAXMATOVA DILFUZA AXMEDOVNA
MONOGRAFIYA**

SOLETSIZM VA ANJAMBMANGNING LINGVOPOETIK TALQINI

SAMARQAND-2026

Raxmatova Dilfuza Axmedovna.

Soletsizm va anjambmangning lingvopoetik talqini [Matn]: monografiya/
D.A.Raxmatova. – Samarqand: SamDChTI nashri. 2026. – 255 b.

Ushbu monografiyada soletsizm va anjambmangning lingvopoetik xususiyatlari badiiy matn, xususan, she'riy nutq doirasida tahlil qilinadi. Unda mazkur hodisalarning til me'yorlari bilan munosabati, badiiy-estetik vazifalari, muallif individual uslubini shakllantirishdagi o'rni hamda poetik mazmunni ifodalash imkoniyatlari yoritiladi. Monografiya soletsizm va anjambmangning lingvopoetik tabiatini ochib berish, ularning badiiy nutqdagi funksional xususiyatlarini aniqlash va zamonaviy tilshunoslik nuqtayi nazaridan baholashga qaratilgan.

Taqrizchilar:

J.Suvonova – SamDU, Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti professori

O.Anorqulova – Samarqand davlat pedagogika instituti professori

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Kengashining 2026-yil 30-iyundagi 12-sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida bugungi kunda lisoniy hodisalar mohiyatini ochishga antropotsentrik nuqtayi nazardan yondashilayotganligi, lisoniy hodisalar voqelanishi, inson omiliga bog‘lab talqin qilinishi ko‘plab tadqiqotlarda o‘z aksini topmoqda. Shu bois bugungi badiiy matnlarda an‘anaviy sintaktik me‘yorlar ko‘pincha buziladi yoki transformatsiyaga uchraydi. Soletsizm (grammatik me‘yor buzilishi) va anjambmang (satrlararo sintaktik uzilish) zamonaviy poetik nutqning faol vositalaridan biri bo‘lib, matnning ekspressiv va estetik imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu sababli ularni birgalikda o‘rganish dolzarb masalalardan sanaladi. Vaholanki, hozirgi tilshunoslikda matn markazli yondashuv kuchayib, poetik sintaksis va diskursiv strategiyalar chuqur tahlil qilinmoqda. Soletsizm va anjambmang nutqiy strategiya sifatida she‘riy diskursni tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi, ammo ularning qiyosiy-tipologik tadqiqi yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Bu esa o‘z navbatida til birliklarining muloqot jarayonida qo‘llanishida ham o‘z aksini topmoqda.

Dunyo va o‘zbek tilshunosligida soletsizm va anjambmang hodisasi o‘quvchiga ta’sir qilish, ritmni o‘zgartirish, semantik urg‘u yaratish kabi estetik va kommunikativ vazifalarni bajaradi. Ularning umumiy va farqli mexanizmlarini aniqlash badiiy matnni talqin qilishda yangi nazariy yondashuvlarni shakllantirish bilan bog‘liq tadqiqotlar, ayniqsa, lingvopoetika va diskurs tahlilining rivojlanishi masalalarining zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlarida tadqiq etilishi estetik va pragmatik funksiyalar to‘g‘risidagi qarashlarni yangi ma’lumotlar bilan boyitadi. Ayniqsa, bu boradagi kuzatishlarni poetik tahlil materiallari bo‘yicha olib borish muayyan ilmiy-nazariy xulosalar chiqarishga zamin yaratadi. Xususan, soletsizm va anjambmang va ularning umumiy poetik mexanizmlarini qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilish asosiy vazifalardan biri hisoblanmoqda.

Mamlakatimiz o‘z mustaqilligiga erishgan dastlabki kunlardanoq tilimizning o‘ziga xos xususiyatlarini zamonaviy talablar asosida tadqiq etishga bo‘lgan qiziqish kuchaydi. Bu borada salmoqli yutuqlar qo‘lga kiritildi. Ayniqsa, tilimizni lingvokognitiv, lingvopsixologik, lingvopragmatik nuqtayi nazardan o‘rganish yo‘lga qo‘yildi va qator ishlar maydonga keldi. Bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar davom etmoqda. Milliy va jahon she‘riyati qiyosida yangi ilmiy natijalar imkoniyati kengaydi. Turli tillardagi she‘riy matnlarda soletsizm va anjambmang turlicha namoyon bo‘ladi. Qiyosiy-tipologik tadqiq ularning universalligi va milliy xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi, bu esa o‘zbek lingvopoetikasini boyitadi.

Zamonaviy she‘riy matnlar an‘anaviy sintaktik me‘yorlardan chekinish, yangi ifoda shakllarini yaratish va poetik nutqni individuallashtirish tendensiyasi bilan tavsiflanadi. Bu jarayonda soletsizm til me‘yorining ongli buzilishi orqali ekspressivlik va uslubiy yangilikni yuzaga keltirsa, anjambmang satrlararo sintaktik uzilish yordamida ritm, semantik urg‘u va estetik ta’sirni kuchaytiradi.

Mazkur hodisalar she‘riy diskursda keng qo‘llanayotgan bo‘lsa-da, ularning o‘zaro aloqasi, umumiy poetik mexanizmlari hamda funksional o‘xshash va farqli

jihatlari yetarli darajada tizimli qiyosiy-tipologik yondashuv asosida o'rganilmagan. Shu bois ushbu mavzu poetik sintaksis, lingvopoetika va diskurs tahlilining dolzarb muammolarini yoritishga xizmat qiladi, badiiy matnni chuqurroq talqin etish hamda zamonaviy she'riyatning til xususiyatlarini ilmiy asosda izohlash imkonini beradi. Ammo haliga qadar sintaktik me'yorlardan chekinish sabablari, umumiy poetik mexanizmlari hamda funksional o'xshash va farqli jihatlari yetarli darajada tizimli qiyosiy-tipologik yondashuv asosida o'rganilganligi alohida tadqiqot obyekti bo'lgan emas. Shu jihatdan mazkur tadqiqot dolzarblik kasb etadi.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847- sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi"gi farmonlari hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida grammatik moslik buzilishi muammosi turli lingvistik maktab va yo'nalishlar doirasida izchil o'rganilgan bo'lib, ularning tabiati, nutqiy maqomi va funksional yuklamasi masalasiga turlicha yondashuvlar mavjud. Xususan, bu masala antik davrda Kvintillian, Donat, Priskian, Otto Jespersen, Leonard Bloomfield, Geoffrey Leech, Roman Jakobson¹; she'riy ritm, satr chegarasi va sintaktik uzilishlar muammosi

¹ Kvintillian (Marcus Fabius Quintilianus). Institutio Oratoria. Taxminan milodiy 95-yil. 12 kitob, –595 p.; Donat (Aelius Donatus). Ars Grammatica; Priskian (Priscianus Caesariensis). Institutiones Grammaticae. – 352 p.; Jespersen Otto. The Philosophy of Grammar. 1924. – 359 p.; Leonard Bloomfield. Language. 1933. – 564 p.; Leech Geoffrey. Linguistic Guide to English Poetry. 1969. – 240 p.; Jakobson Roman. Linguistics and Poetics. 1960. – 377 c.

¹ Sievers Eduard. Altgermanische Metrik. – Niemeyer, 1893. – 252 p.; Fussell Raus. Poetic Meter and Poetic Form. Random House. – New York, 1965. – 208 p.; Жирмунский Виктор. Теория стиха. – Ленинград: Сов. писатель. 1975. – 326 с.; Томашевский Борис. Теория литературы. Поэтика. – Москва: 1925. – 229 с.; Тынянов Юрий. Проблема стихотворного языка. – Москва: Сов. писатель. Academia: 1965. – 301 с.; Димитриенко Ольга. Мактабда В.Набоков асарларини ўрганишда мазмуний ва стилистик тўсиқларни енгиб ўтиш: Пед. фан. номз. дисс. – Москва: 1997. –198 б.; Николаевна Анна. Жозеф Бродский шеърятда тоник шеърятнинг эволюцияси: Фил. фан. номз. дисс. – Москва: 2003. – 223 б.; Пашков Александр. В.В.Маяковскийнинг шеърый нутқининг тўғри ташкил этилиши. Силлабо-тоник шеър: Фил. фан. номз. дисс. – Москва: 2006; – 200 б.; Сулова Елена. Шеърый нутқининг интонацияси ва услуби: XX аср шеърятига асосланган: Фил. фан. номз. дисс. – Самара: 2005. – 178 б.; Сергеевна Юлия. Шеърый матн ва бадий услубда интонацион хотиралар: Фил. фан. номз. дисс. 2005. – 226 б.; Константин Власов. Система стиха И.А.Бродского (проблемы метра и ритма): Фил. фан. номз. дисс. – Москва: 2005. – 284 б.; Кольцова Людмила. Шеърый нутқда гапнинг ҳақиқий бўлиниши ва уни лойihalашнинг график воситалари (рус совет шеърятини): Фил. фан. номз. дисс. 1984. – 183 б.; Степанов

Yevropa poetika va metrika maktabida Eduard Sievers, Paul Fussell; rus formalizmi va struktural poetikada Viktor Jirmunskiy, Boris Tomashevskiy, Yuriy Tinyanov, Olga Dimetrenko, Anna Nikolayevna, Aleksandr Pashkov, Elena Suslova, Aleksandr Stepanov, Yuliya Sergeyevna, Konstantin Vlasov, Ludmila Kolitsova, Sergey Monaxov, Natalya Matbeyeva, Tatyana Vaseleva, Svetlana Kopylova, Roman Butov, Olga Fomina; zamonaviy poetika va kognitiv yondashuvda Derek Attridge, Nigel Fabb² kabi olimlarning tadqiqotlarida yoritilgan.

O'zbek tilshunosligida soletsizm va grammatik me'yorlardan chekinish derivatsion sintaksis masalalari qamrab olingan tadqiqotlar I.K.Mirzayev, Sh.Qodirov, A.Qodirov; satrlararo sintaktik uzilishlar masalalari bo'yicha K.Tajiyev, I.K.Mirzayev, Z.Tursunov, N.Eshqulov³lar tomonidan amalga oshirilgan.

Tilshunosligimizda keyingi yillarda til hodisalarini, ayniqsa, sintaksis masalalarini o'rganish bo'yicha yutuqlarga erishilsa-da, poetik devyatsiya, normadan chekinish, stilistik buzilishlar satr chegarasi va sintaktik uzilishlar, ularni yuzaga keltiruvchi omillarni o'rganish bo'yicha ko'zga ko'rinarli ishlar amalga oshirilgan emas. Bu esa mavzuni alohida o'rganish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining "O'zbek tili va adabiyoti ta'limining dolzarb masalalari" mavzusidagi ilmiy tadqiqot rejasining tarkibiy qismi sifatida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi. O'zbek she'riy matnlarida soletsizm va anjambang fenomenini qiyosiy-tipologik yondashuv asosida o'rganish, ularning struktural, funksional va estetik xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari. Belgilangan maqsadga erishish uchun dissertatsiya

Александр. Ше'рий шаклнинг семантикаси: мажозий графика, мисралар, энжамбмент: Фил. фан. номз. дисс. – Тверь: 2004. –186 б.; Монахов Сергей. Рус адабиёти тарихидаги уч бўғинли метрлар: ритмик эволюция муаммолари ва ше'рий тилнинг семантик моделларини шакллантириш: Фил. фан. номз. дисс. – Санкт-Петербург: 2008. –186 б.; Матвеева Наталья. Инглиз ше'рининг ритмик тузилиши ва унинг концептуал мазмунининг эволюцияси: мисол сифатида силаботоник ше'риятнинг ривожланиши: Фил. фан. номз. дисс. автореф. – Москва: 2009.– 233 б.; Веселова Татьяна. Якут лирик ше'риятида мустахкам шакллар поэтикаси: Шарқ ва Европа бадий аъналарини ўзлаштириш хусусиятлари: Фил. фан. номз. дисс. – Якутск: 2007.– 172 б.; Копылова Светлана. XVIII-XX аср рус адабий матнларида эллипснинг функцияси: Фил. фан. номз. дисс. – 2000. – 198 б.; Бутов Роман. Ше'рий матндаги графика: аъналар ва инновациялар: XX аср ше'рияти асосида: Фил. фан. номз. дисс. автореф. – Ижевск: 2010. –227 б.; Фомина Ольга. В.С.Высоцкийнинг ше'риятлаштириши ва унинг контексти муаммоси: Фил. фан. номз. дисс. автореф. – Самара: 2005. – 239 б.; Attridge Derek. Poetic Rhythm: An Introduction. Cambridge University Press: 1995. – 274 p.; Attridge Derek. Poetic Rhythm: An Introduction. Cambridge University Press: 1995.– 274 p.; Fabb Nigel. Language and Literary Structure. – Buyuk Britaniya:Cambridge University Press: 2002.– 230 p.

² Мирзаев И.К. Ше'рий матннинг лингвопоэтик талқини муаммолари (Замонавий ўзбек ше'рияти материали асосида): Фил. фан. докт. дисс. – Тошкент: 1992.– 220 б.; Qodirov Sh. O'zbek she'riyatida sintaktik devyatsiya. – Toshkent: Fan. 2011; Qodirov A. O'zbek badiiy matnida lingvistik innovatsiyalar. – Toshkent:Fan. 2018;

³ Тажиев Канимкул. Мақсуд Шайхзоданинг иши – таржимон: Фил. фан. номз. дисс. – Тошкент: 1984.– 192 с.; Мирзаев И.К. Ше'рий матннинг лингвопоэтик талқини муаммолари (Замонавий ўзбек ше'рияти материали асосида): Фил. фан. докт. дисс. – Тошкент: 1992. – 398 б.;Tursunov Z. O'zbek she'riyatida satr chegarasi va ritmik struktura. Fil. fan. nomz.diss. – Toshkent: Fan. 2010. – 162 б. Eshqobilov N. O'zbek zamonaviy she'riyatida poetik transformatsiyalar. – Toshkent: Fan. 2016. –162 с.;

oldiga quyidagi vazifalar qo'yildi:

- soletsizm va anjambmang tushunchalari, tarixiy rivojlanish va nazariy asoslarini o'rganish;
- o'zbek va jahon tilshunosligida soletsizm va anjambmang fenomenlarining namoyon bo'lishini aniqlash;
- zamonaviy o'zbek she'riyatida soletsizm va anjambmangning namoyon bo'lishini aniqlash;
- soletsizm va anjambmangning struktural, semantik va pragmatik xususiyatlarini tahlil qilish;
- ikkala fenomenning o'xshash va farqli jihatlarini qiyosiy-tipologik yondashuv asosida belgilash;
- tadqiqot natijalarini she'riyat tahlili, estetik va diskursiv kontekstlarda amaliy qo'llash imkoniyatlarini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti. O'zbek she'riy matnlarida soletsizm va anjambmang fenomenlari tadqiqot obyekti bo'lib, uning funksiyalari, ifoda imkoniyatlari va estetik ta'siri o'rganiladi.

Tadqiqotning predmeti. Soletsizm va anjambmangning struktur-funksional, tipologik va estetik xususiyatlari material vazifasini o'taydi.

Tadqiqot usullari. She'riy matnda soletsizm va anjambmang shakllarini aniqlashda va kognitiv imkoniyatlarini ochishda tilshunoslikdagi qiyoslash, tavsiflash, transformatsiya, statistik usul, diskursiv, lingvopoetik tahlil kabi metodlardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- o'zbek tilshunosligida soletsizm va anjambmangning struktural, funksional va estetik xususiyatlari qiyosiy-tipologik yondashuv asosida integrativ tahlilda tadqiq qilindi;
- milliy va jahon she'riy matnlarini solishtirish orqali soletsizm va anjambmang universalligi va milliy xususiyatlari aniqlandi;
- soletsizm va anjambmangning she'riy ritm, semantik urg'u va ekspressiv ta'sir yaratishdagi rolini tadqiq qilish orqali badiiy matnning lingvopoetik tahliliga yangi yondashuvlar taqdim etish orqali ochib berildi;
- she'riyat tahlili, tarjima va badiiy matnni talqin qilish jarayonida struktural, semantik, pragmatik xususiyatlarni tahlil qilish orqali aniqlandi;
- soletsizm va anjambmangning o'xshash va farqli jihatlarini qiyosiy-tipologik yondashuv asosida dalillandi;
- tadqiqot natijalarini she'riyat tahlili, estetik va diskursiv kontekstlarda amaliy qo'llash imkoniyatlari aniqlandi.

TIL VA RITM KATEGORIYASINING NAZARIY ASOSLARI

Til va ritm tushunchalarining lingvopoetik talqini

Bugungi kunga kelib dunyo tilshunosligida tilni nazariy jihatdan o'rganishdan ko'ra undan foydalanuvchi shaxsning tildan foydalanish qobiliyati – nutqi, yoshi, kasb-kori, jinsi kabilar bilan bog'liq holda o'rganishga e'tibor kuchaymoqda. Buning natijasida esa antroposentrik tilshunoslik bir necha yangi yo'nalishlar bilan boyidi. Masalan, psixolingvistika, lingvokulturologiya, neyrolingvistika, etnolingvistika, matn tilshunosligi, kompyuter lingvistikasi, sotsiolingvistika kabi. Bularga qo'shimcha tarzda lingvopoetika ham yangi yo'nalish sifatida o'tgan asrning so'nggi choragidan boshlab rivojlana boshladi va tez fursatda yangi bilimlar bilan boyidi. O'zbek tilshunosligida ham lingvopoetika bo'yicha salmoqli tilshunos va adabiyotshunoslar ma'lum bir yozuvchi asarlarining lingvopoetikasi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan. G.Muhammadjonova “80-yillar oxiri va 90-yillar boshlari o'zbek she'riyatining lingvopoetik tadqiqi”⁴ nomli dissertatsiya ishida esa o'zbek she'riyatida lingvopoetikaning shakllanishi xususida fikr yuritib, she'riyatda qo'llaniladigan antonim, omonim, sinonim, jonlantirish, sifatlash, o'xshatish kabi badiiy tasvir vositalarini lingvopoetik tahlil qiladi. Lingvopoetika bugun paydo bo'lgan fan emas, bu soha qadimdan ijtimoiy fanlar oralig'ida yuzaga kelgan. A.Nurmonov esa lingvopoetikaga shunday izoh beradi:”Lingvopoetika lingvistik poetikaning qisqargan shakli bo'lib, badiiy asarlarda qo'llanilgan lisoniy birliklarning (fonetik, morfemik, leksik va boshqalar) badiiy-estetik vazifalarini, tilning konnotativ funksiyasini o'rganadi. Boshqacha aytganda, lingvopoetika tilshunoslikning badiiy nutqini o'rganuvchi bo'limidir”⁵. Bu yo'nalish badiiy asar tilini, unda qo'llanilgan til birliklarining qanday maqsadda qo'llanilganini va tilning konnotativ hamda estetik ta'sir etish funksiyalarini tahlilga tortadi. Lingvopoetika – til va badiiy matn o'rtasidagi murakkab aloqani tahlil qiluvchi lingvistik shoxobchasi bo'lib, u tilning ifodaviy, badiiy-estetik imkoniyatlarini, ya'ni til vositalarining poetik effektlarini o'rganadi. Bu soha stilistika, yaratuvchan tilshunoslik va semiotikadan ildiz olgan va til tuzilishi orqali matnning estetika va semantik o'ziga xosligini tahlil qiladi⁶. Lingvopoetika - til birliklarining badiiy matn doirasida estetik, ekspressiv va obraz yaratishdagi funksional imkoniyatlarini o'rganuvchi tilshunoslikning maxsus yo'nalishidir. Ushbu soha tilshunoslik, adabiyotshunoslik va poetika chorrahasida shakllangan bo'lib, badiiy nutqning semantik, stilistik va pragmatik jihatlarini kompleks tahlil qilishni nazarda tutadi.

Lingvopoetika fan sifatida XX asrning ikkinchi yarmida rus va yevropa tilshunosligida shakllandi. V.V.Vinogradov, R.O.Yakobson, B.A.Larin, F.F.Lipgard kabi olimlarning tadqiqotlarida badiiy nutqning lingvistik tahliliga ilmiy asoslar yaratildi. Xususan, R.Yakobson tomonidan ilgari surilgan “poetik

⁴ Muhammadjonova G. 80-yillar oxiri va 90-yillar boshlari o'zbek she'riyatining lingvopoetik tadqiqi. – Andijon, 2003.–136 b.

⁵ Nurmonov A. Tilshunoslikning adabiyot bilan munosabati. Tanlangan asarlar. 3 jildli. – Toshkent:Akademnashr, 2012. – 416 c.

⁶ Якобсон Р. Лингвистика и поэтика. – В кн.: Структурализм: «за» и «против». сб. статей / под ред. Е. Я. Басина, М. Я. Полякова. – Москва: Прогресс, 1975. – 470 с. .

funksiya” nazariyasi lingvopoetik yondashuvning metodologik poydevorini tashkil etadi. O‘zbek tilshunosligida lingvopoetik tadqiqotlar M.Yo‘ldoshev, B.Umirqulov, N.Mahmudov, S.Rajabova kabi olimlar tomonidan rivojlantirildi. Ularning ishlarida badiiy matnni tahlil qilishda leksik, fonetik, grammatik va stilistik birliklarning estetik funksiyasi izchil ochib berilgan. Lingvopoetik tahlilning obyekti – badiiy matn, ya’ni estetik maqsadga yo‘naltirilgan til mahsulidir. Predmeti esa badiiy matndagi til birliklarining obraz yaratish, emotsional-ekspressivlikni ta’minlash hamda muallif individualligini namoyish etishdagi funksional-semantik xususiyatlaridir. Lingvopoetik tahlil doirasida quyidagi birliklar asosiy tadqiqot obyektlari sifatida qaraladi: fonopoetik vositalar (alliteratsiya, assonans, tovush takrori); leksik-poetik birliklar (epitet, metafora, metonimiya, ramz, oksumoron); grammatik-poetik vositalar (takror, anafora, epifora); matn darajasidagi poetik vositalar (kompozitsiya, ritm, ohang, anjambang)⁷. Lingvopoetik tahlilda bir necha metodlar kompleks holda qo‘llanadi. Struktur-semantik metod -til birliklarining tuzilishi va ma’nosini badiiy kontekstda aniqlashga xizmat qiladi. Funksional-stilistik metod – birliklarning estetik va stilistik vazifasini ochib beradi. Kognitiv yondashuv - badiiy obrazlar orqali konseptlar va muallif dunyoqarashini tahlil qiladi. Pragmatik yondashuv -muallif va o‘quvchi o‘rtasidagi kommunikativ munosabatlarni hisobga oladi. Diskursiv tahlil – matnni ijtimoiy-madaniy kontekstda talqin qilish imkonini beradi. Lingvopoetik tahlilda obrazlilik, ekspressivlik, emotsionallik, subyektivlik⁸ kabilar muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur kategoriyalar orqali matnning estetik qiymati, g‘oyaviy-badiiy yo‘nalishi va lingvistik mexanizmlari aniqlanadi. Lingvopoetika adabiyotshunoslik bilan chambarchas bog‘liq. Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda lingvopoetik tahlil kognitiv tilshunoslik bilan uyg‘un holda olib borilmoqda. Bu esa badiiy matndagi konseptual strukturalar, mental modellarning tahlilini amalga oshirish imkonini beradi. Natijada lingvopoetik tahlil nafaqat til birliklarini, balki badiiy tafakkurning konseptual asoslarini ham ochib beruvchi kompleks ilmiy yondashuv sifatida namoyon bo‘ladi. Til va ritm badiiy matnning lingvopoetik tuzilmasida o‘zaro uzviy bog‘langan kategoriyalar bo‘lib, matnning estetik tashkil etilishi va semantik yukini belgilovchi asosiy omillardan hisoblanadi. Til badiiy tafakkurning moddiy asosi sifatida obraz yaratish, muallif pozitsiyasini ifodalash hamda estetik ta’sir ko‘rsatish vazifasini bajaradi. Ritm esa ushbu til birliklarining muayyan takror, urg‘u va struktur tartib orqali estetik jihatdan uyushishini ta’minlovchi lingvopoetik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Ritm borliqdagi barcha hodisa va holatlar tovlanishlarini ro‘yobga chiqaruvchi, ularni izchillik bilan bir me’yorda takrorlanishini ta’minlovchi asosdir. Shuning uchun ham insonning yurak urushida ham, qorning yog‘ishida ham, fasllar almashinuvida ham, raqqosaning o‘yinida ham, taralayotgan kuyda ham ritm bor⁹. Bu dunyoning yaratilish qonuniyati. U adabiyotga ham daxldordir, faqat she’riyatda ayrica xususiyat kasb etadi, musiqiylikni yaratuvchi asosiy elementlardan biriga

⁷ Виноградов В.В. О языке художественной литературы. – Москва: Гослитиздат. 1959. – 654с.

⁸ Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. -Toshkent: Fan, 2007. –197 b.

⁹ Umurov H. Adabiyot qoidalari. –Toshkent: O‘qituvchi, 2002

aylanadi va “she’riy nutqning bosh alomati”(I.Sultonov), uning maftunkorligini ta’minlovchi vosita, nutqni “ziynatli nutq”qa (Aristotel) aylantiruvchi sanaladi.

“She’riy nutq ritmga, ritm she’riy nutqqa muayyan shakl, yaxlitlik hadya etadi. Ritm she’riy nutqni, har qanday oddiy fikrni ham bir daraja yuqori ko’taradi. Ritmdan so’zga sehr, ta’kid, ko’tarinkilik nasib bo’ladi. Ritm orqali fikr ishonch, muhimlik ato etganday bo’ladi; she’riy ritmli so’z obro’li so’zdir, ritmli fikrni yodlash oson va esdan uzoq vaqtgacha chiqmaydi... Qolaversa, ritmdorlik kishiga zavq-shavq bag’ishlaydi, nutqdagi hissiyot, emotsionallikni orttiradi, ruhiy ehtiyojni qondiradi. Aristotel aytganidek, nutqqa zeb-u ziynat taqdim qiladi, g’oyaning kishiga singdirishga ko’maklashadi”¹⁰. Til va ritm masalasi poetika, stilistika va lingvopoetika kesishgan nuqtada o’rganiladi.

Til va ritmning lingvopoetik tahlili badiiy matnda til vositalari va ohangning estetik ta’sir va ma’no yaratishini o’rganadi. Til – lingvistik qatlam matndagi so’zlar, iboralar, tasviriy vositalar orqali obraz yaratadi, muallifning munosabatini ifodalaydi. Ritm – bu nutqning ichki musiqiyliigi bo’g’inlar tartibi, urg’u va takrorlar, pauza va sintaktik bo’linishlar orqali matnga ta’sirchanlik va hissiylik beradi. U fonetik, morfologik, sintaktik va semantik birliklar orqali shakllanadi. Roman Jakobson ritmni tilning poetik funksiyasi bilan bog’lab, she’riy nutqda fonologik parallelizm va takror asosiy rol o’ynashini ta’kidlaydi. Uning fikricha, she’riyatda “ekivalentlik prinsipi” sintagmatik o’qda proyeksiya qilinadi¹¹. Viktor Jirmunskiy esa metr va ritmni farqlab, metrni abstrakt sxema, ritmni esa real nutqiy amalga oshish shakli sifatida izohlaydi. Unga ko’ra, ritm til materialisiz mavjud bo’la olmaydi¹². Fonetik sathda tilning tovush tizimi urg’u (aksent), bo’g’in miqdori, intonatsiya, pauza ritmning asosiy tayanchidir. Boris Tomashevskiy she’riy ritmni bo’g’in va urg’u tizimi bilan bog’laydi. Unga ko’ra, ritm – bu urg’uli va urg’usiz bo’g’inlarning tartibli almashinuvidir¹³. Ritm faqat tovush emas, balki sintaktik qurilish parallel konstruksiyalar, takror (anafora, epifora), inversiya, anjambmang orqali ham yuzaga keladi. Yuriy Lotman ritmni matnning semantik strukturasiga bog’lab, uni “ma’no generatori” sifatida talqin qiladi¹⁴. Sintaktik bo’linish va pauza mazmuniy zo’riqish hosil qiladi.

Ritm hissiy intensivlikni oshiradi, dramatik pauza hosil qiladi, semantik urg’u beradi, diskursiv fokusni belgilaydi. Mixail Gasparov ritmni “mazmunning tashkiliy mexanizmi” deb ataydi va ritmik buzilish ma’no hosil qiluvchi omil ekanini ko’rsatadi¹⁵.

V. P. Grigoryevning she’riy til haqidagi ta’rifi e’tiborga loyiq: “She’riy til ijodga yo’naltirilgan til sifatida belgilanadi, chunki har qanday ijod estetik bahoni ham nazarda tutadi, estetik jihatdan ahamiyatli ijod esa, hatto eng minimal darajada,

¹⁰ To’ychiyev Ummat. O’zbek poeziyasida aruz sistemasi. – Toshkent: Fan, 1985, –B 212.

¹¹ Jakobson R. Linguistics and Poetics. – In: Style in Language. – Cambridge.1960.

¹² Jirmunskiy V. Teoriya stixa. – Leningrad: Sov.pisatel. 1975.

¹³ Tomashevskiy B. Teoriya literaturi. Poetika.Gosizdat.1931.

¹⁴ Lotman Yu. Analiz poeticheskogo teksta. – Leningrad: Procvesheniye. 1972.

¹⁵ Gasparov M. Ocherk istorii yevropeyskogo stixa.1989.

birgina soʻz bilan cheklangan boʻlsa ham, mavjud boʻladi”¹⁶. Bunday taʼrif “poeziya” soʻzining bevosita, etimologik maʼnosiga ham mos keladi, u yunoncha *poieo* – “yaratmoq”, “ijod qilmoq” soʻzidan kelib chiqqan. Ijodiy jihatning mavjudligi yoki yoʻqligi nutq faoliyatida sheʼriylikni ajratishga yordam beradi va faqat ijodiy, badiiy hamda estetik jihatlarining oʻzaro taʼsiri “sheʼriy” atamasining sifat jihatdan aniq belgilanishini taʼminlaydi.

Shu bilan birga, “sheʼriy”, “badiiy” va “sheʼrga oid” tushunchalarini aralashtirish mumkin emasligi bir necha bor taʼkidlangan. V. V. Vinogradov “badiiy” soʻzidan foydalanish estetik qabulga, soʻz mahoratiga yoʻnaltirilganlikni anglatadi, aks holda u “adabiy mahorat toifasi” boʻlib qoladi, deb koʻrsatgan¹⁷. “Sheʼriy” soʻzi esa “umuman ijodning, eng avvalo, soʻz ijodining oliy darajasini ifodalaydi, sheʼriy – poeziya choʻqqilariga erishgan, poeziyaning mohiyatini mujassam etgan – bu sheʼriy ijod kategoriyasidir”¹⁸. “Sheʼriy” va “sheʼrga oid” tushunchalarini aniqlashtirmasdan turib ham, aynan sheʼriy nutqda – uning tovush, maʼno, sintaktik va hatto grafik tuzilishining oʻziga xosligi tufayli sheʼriy nutqning asosiy sifatlari eng yaqqol namoyon boʻlishini tan olmaslik mumkin emas.

Sheʼriy nutq boshqa nutq turlaridan ritmik va strukturaviy tartibliligi, turli xil takrorlar va parallelliklar, evfoniya, kutilmagan maʼnoviy yaqinlashuvlar hamda qarama-qarshi qoʻyishlar bilan ajralib turadi. Bu esa semantik qayta talqinlar, okkazional emfatika maʼnolarining yuzaga kelishi, semantik axborotning ortishi va shu orqali bayon yoki butun matnning umumiy mazmun hajmining kengayishi uchun qulay sharoit yaratadi. Sheʼriy nutq masalalari, sheʼriy asarlar materiali asosida oʻrganilgan holda, yaʼni sheʼriy ifodaning standartligi va nostandartligi, adabiy yoki okkazional meʼyordan chetga chiqishning mumkinligi yoki mumkin emasligi, sheʼriy poetika, lingvostilistika, ularning hamkorligida yoki hatto yangi sifat asosida ularning organik qoʻshilishida koʻriladi”¹⁹.

Lingvistik poetika muammolari qatorida sheʼriy tilni aniqlash, uning oʻziga xos belgilari, umummilliy til tarkibida ajralib turishi, adabiy til hamda badiiy adabiyot tili bilan munosabati masalasi asosiy oʻrinlardan birini egallaydi. Hozircha sheʼriy tilning umumtan olingan va har tomonlama asoslangan nazariyasi mavjud emas. “Sheʼriy” soʻzining oʻzi ham, zamonaviy filologlar va oʻtmish olimlari asarlarida berilgan talqinga koʻra, bir maʼnoli emas. Jumladan, bu soʻzning kamida ikki maʼnosini ajratish lozim, chunki ular milliy til tarkibida muayyan turdagi hodisalarni ajratish muammosiga bevosita taalluqlidir. Birinchi maʼno sifatida “sheʼrga oid”, yaʼni sheʼrlarga, poeziya tiliga xos boʻlgan maʼno eʼtirof etilishi kerak. Bu eng sodda va ravshan maʼnodir, sheʼriy til muammosiga bagʻishlangan tadqiqotlarning aksariyati sheʼriy asarlarmateriali asosida bajarilgan. Biroq “sheʼriy” soʻzining maʼnosini bunday biryoqlama tushunish uning murakkab

¹⁶ Григорьев В.П. Поэтика слова. – Москва: Наука. 1976. – 74 с..

¹⁷ Виноградов В.В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. - Москва: Изд-во АН СССР, 1963.13.– С. 161.

¹⁸ Оʻsha manba.– В 161.

¹⁹ Виноградов В.В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. - Москва: Изд-во АН СССР, 1963. 13.–В 195.

semantik tuzilishi, qo'llanishi bilan muqarrar ravishda bog'liq bo'lgan ma'no nozikliklari haqidagi tasavvurni toraytiradi²⁰.

Mazkur so'zning ikkinchi ma'nosi – "badiiy", "estetik jihatdan ahamiyatli". Bunday tavsifning noaniqligi va amaliy jihatdan yetarlicha mos emasligi ta'kidlangan [Grigoryev 1979, 75-bet], biroq bu, ko'rinadiki, lingvistik poetika doirasida badiiylik va estetik qadriyat tushunchalarining o'zlari ham noaniq va yetarlicha aniq belgilanmaganligi bilan bog'liq.

"She'riy" so'zining mohiyatan xususiyatlarini tadqiq etishda mazkur tushunchalar asarning ijodiy ruhi, uning kreativ sifatlari bilan eng chambarchas bog'liq bo'lib chiqadi, ularning namoyon bo'lishi qanchalik yaqqol bo'lsa, matn shunchalik "badiiy", "estetik jihatdan belgilangan" deb baholanadi.

V. M. Jirmunskiy so'zlarning mazmuniy, tematik birlashuvining muhim rolini ta'kidlagan, qofiyaning ma'noviy ahamiyatini va uning tarixiy rivojlanishini tadqiq etgan²¹. Yu.N.Tinyanov ishlari uchun asosiy yo'nalish she'riy asar unsurlarining ma'nosiga, ularning tarixiy sharoitga va gap tarkibidagi rolga qarab o'zgarib borishiga e'tibor qaratishdir. "She'riy til muammosi" (1965) nomli monografiyasida (dastlabki nomi "She'riy semantika muammolari" bo'lgan)²² Tinyanov asar mazmunini belgilovchi semantik omillarning ta'sirini ko'rsatib bergan.

Tinyanov so'zni obrazli tarzda "xameleon" deb ta'riflaydi, unda har safar nafaqat turli ohanglar, balki ba'zan turli ranglar ham yuzaga keladi. She'riy leksika tuzilishi prozaik leksika tuzilishidan butunlay farq qiladi: she'riy qatorning birligi va zichligi, she'rda so'zning dinamiklashuvi, she'riy nutqning ketma-ketligidan iborat²³. So'zning dinamiklashuvi bir o'zakdan yasalgan, bir asosni takrorlovchi va "so'zning oqib borishi, uning dinamikasini his etish"ni beruvchi she'riy konstruksiyalar misolida ko'rsatib beriladi²⁴.

She'riy shaklning dinamikasini, uning dialektik rivojlanishini ta'kidlar ekan, Tinyanov bu shaklning tarixiy o'zgaruvchanligi va uning tarkibiy konstruktiv unsurlarining nisbiyligini tushunish zarurligini ilgari suradi. She'riy nutqda avtomatlashtirishga qarshi kurash zarurligi alohida qayd etiladi, bu jihatdan u amaliy nutqqa qarama-qarshi qo'yiladi. Bu haqda V. Shklovskiy ham yozgan bo'lib, uning fikricha, amaliy tilning eng muhim qonuni nutqiy kuchni tejash qonuni, ya'ni nutqning avtomatlashtirilishidir. She'riy tilda esa aksincha, avtomatik holatdan chiqarish, "sekinlashtirish", "qiyinlashtirish" ustunlik qiladi, buning maqsadi e'tiborni aynan shaklga qaratish, uni shunchaki tanib olinadigan emas, balki his etiladigan qilishdir²⁵.

"Formalistlar"ning asosiy tezisi she'riy til bilan amaliy tilni qat'iy qarama-qarshi qo'yish yana bir jihatga ega: go'yoki faqat she'riy tilga xos bo'lgan estetik funktsiyani amaliy tilga xos kommunikativ funktsiyaga qarshi qo'yish. "Poeziya bu

²⁰ Кожин А.Н. Структура и функционирование поэтического текста. Очерки лингвистической поэтики. – Москва: Наука. 1985. – С. 38.

²¹ Жирмунский В.М. Шеър назарияси. – Ленинград: Сов писател. 1975. – В 290.

²² Тынянов Юрий. Проблема стихотворного языка. – Москва: Сов. писатель. Academia: 1965. – 301 с..

²³ Тынянов Юрий. Проблема стихотворного языка. – Москва: Сов. писатель. Academia: 1965. – 301 с.

²⁴ Тынянов Ю. Н. *Поэтика. История литературы. Кино*. — Москва: Наука, 1977. – 246 б

²⁵ Шкловский В.Б. О поэзии и заумном языке. - Сб. по теории поэтического языка. Пг. 1919. –168 с.

tilning estetik funksiyasidir... Kommunikativ funksiya bu yerda minimumga tushiriladi” [Yakobson 1921, 10-11-betlar]. Yakobsonning bu tezisi “formalistlar”ning ikkinchi postulatiga, she’riy asarni o’ziga xos til xususiyatlariga ega bo’lgan nutqning alohida shakli sifatida tushunishga olib keladi. Ritm hodisalari va uning konstruktiv ahamiyati, qofiya, uning morfologik tuzilishi va ma’noviy asoslanishi, vazn (metr), intonatsion va sintaktik omillarning o’zaro munosabati, sintaksis va semantika masalalari batafsil o’rganiladi. She’riy nutq nazariyasi amaliy til fonida ajralib turadigan she’riy tilning mustaqil, o’ziga xos strukturaviy belgilarini o’rganish asosida shakllana boshlaydi. Poetikaning asosiy obyekti, “bosh qahramoni” sifatida usullar e’tirof etiladi, badiiy asar esa turli darajadagi usullar yig’indisi sifatida qaraladi, tovushlar, tovush birikmalari va hokazo kabi eng sodda estetik ahamiyatga ega til faktlarigacha izohlanadi²⁶. Usul estetik bo’lmagan materialni san’at asariga aylantiradi. U yoki bu birikma talqin jarayonida asarning barcha elementlari estetik jihatdan uyg’unlashtiriladi, ularning o’zaro bog’liqligi, o’zaro shartlanganligi aniqlanadi, bir unurning ma’nosi boshqasi orqali ochiladi.

Yuqori darajadagi tahlilda poetik matn nafaqat mazkur muallifning konteksti va an’analari bilan, balki kengroq adabiy jarayon bilan ham bog’liqlikda ko’rib chiqiladi. Shu bosqichda ayon bo’ladiki, poetik kompetensiya muallif va o’quvchida turlicha hajmda bo’lishi mumkin, biroq aynan u matnning ta’sir kuchi va badiiy qimmatini belgilaydi. Bu bosqichda poetik tilning asosiy funksiyasi estetik funksiya namoyon bo’ladi, bunda matn voqelikni bevosita tasvirlash vositasi bo’lishdan ko’ra, estetik tajriba maydoniga aylanadi²⁷.

Turli yondashuvlar va maktablar doirasida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, poetik tilning mohiyati, eng avvalo, uning o’ziga xos lingvistik belgilarida, umumxalq tilidan, yanada kengroq ma’noda, oddiy nutqdan farqlanib turadigan strukturaviy xususiyatlarida namoyon bo’ladi. Poetik tilning estetik jihatdan belgilangan faoliyatini aynan shu belgilar orqali o’rganish mumkin. Bu jihatlarni tizimli ravishda tahlil qilish, ehtimol, kelgusida poetik tilning umumiy nazariyasini yaratishga olib keladi.

O’zbek she’riyatida aruz, barmoq va erkin vazn tizimlari tilning fonetik xususiyatlari bilan bog’liq rivojlangan. Alisher Navoiy asarlarida aruz vazni fonetik uyg’unlik va semantik chuqurlik bilan birlashadi. Zamonaviy she’riyatda (erkin vaznda) ritm sintaktik va intonatsion asosga ko’chadi. Til va ritm o’zaro ajralmas birlikdir, ular fonetik qatlam ritmning fizik asosini beradi. Sintaktik qatlam strukturaviy tartibni shakllantiradi, semantik qatlam esa ritm orqali ma’no intensivligini kuchaytiradi. Ritm – bu shunchaki shakliy hodisa emas, balki ma’no yaratish mexanizmidir. Ritm inson miyasi uchun tabiiy qabul qilinadigan struktura hisoblanadi. Kognitiv tadqiqotlarga ko’ra, takroriy birliklar xotirada tezroq mustahkamlanadi va qayta ihlash jarayonini yengillashtiradi. George Lakoff va

²⁶ Якобсон Р. Новейшая русская поэзия. Набросок первый. В. Хлебников. – Прага: Политика. 1921. –В. 11.

²⁷ Кожин А.Н. Структура и функционирование поэтического текста. Очерки лингвистической поэтики. – Москва: Наука. 1985. – В.38.

Mark Jonson nazariyasiga ko'ra, til strukturalari tanaviy tajriba bilan bog'liq²⁸. Ritm ham insonning yurak urishi, nafas olish sikli kabi biologik ritmlariga mos tushadi. Demak, she'riy ritm – bu nafaqat estetik, balki psixofiziologik hodisadir. Eksperimental psixolingvistika ko'rsatishicha, ritmik segmentatsiya matnni tushunishni tezlashtiradi. Tinglovchi yoki o'quvchi nutqni ritmik bloklarga ajratadi. David Crystal ritmni og'zaki nutqning prosodik tashkilotchisi deb ataydi. Unga ko'ra intonatsion birliklar, pauza, temp nutqni semantik qismlarga ajratadi²⁹. Ritm diskursiv strategiya sifatida urg'u orqali ma'lumotni fokallashtiradi, pauza orqali kutilish effektini hosil qiladi, ritmik buzilish orqali pragmatik signal beradi. Paul Grikening implikatura nazariyasiga ko'ra, normadan og'ish qo'shimcha ma'no hosil qiladi. Ritmik me'yorning buzilishi ham qo'shimcha pragmatik yuk tashiydi³⁰. Matn darajasida ritm kompozitsion yaxlitlikni ta'minlaydi, tematika rivojini boshqaradi, semantik cho'qqilarni belgilaydi.

Ritm makrostrukturani shakllantiruvchi omillar qatorida formal takror va strukturaviy parallelizmni ko'rsatadi. Ritm matnning global semantik arxitekturasini barqarorlashtiradi. Erkin she'riyatda ritm an'anaviy vazn tizimidan farqli ravishda, sintaktik segmentatsiya, vizual joylashuv, pauza grafikasiga tayanadi. Til va ritm munosabati ko'p qatlamli hodisadir: biologik asos – tabiiy ritmlar bilan uyg'unlik, fonologik asos – urg'u va bo'g'in tizimi, sintaktik asos – konstruksion parallelizm, kognitiv asos – segmentatsiya va xotira mexanizmi, pragmatik asos – ma'no intensivikasi, diskursiv asos – kompozitsion yaxlitlikdan iborat. Shu jihatdan ritmni “tilning vaqt o'lchovidagi semantik tashkilotchisi” deb ta'riflash mumkin.

She'riyatda ritmni yaratuvchi doimiy elementlar – bo'g'in, turoq, ritmik pauza, turkum va vazn sanaladi. Albatta, ritmni yaratishda qofiya ham, band ham ishtirok etadi, lekin ular faqat o'lchov, metrikaga aloqador bo'lmagani uchun ularni alohida o'rganish lozim. Bo'g'in bir nafas zarbi bilan aytiladigan tovush va tovushlar birikmasi. So'zlar talaffuz qilinganda chiqarilayotgan havo oqimi turli-tuman kasb etib, bo'g'inlarni hosil qiladi. Bo'g'inni hosil qiluvchi narsa nutq tovushidir. Bo'g'in ritmni hosil qiluvchi eng kichik o'lchov birligi sanaladi. U ritm yaratish uchun guruhlanadi, ayni paytda, ritm qaysi misrada bo'g'in soni ko'p yoki kam ekanligini aniqlaydi. U ritm yaratish vazifasini bajarish uchun turoqlarga uyushadi.

Lingvopoetik nuqtayi nazardan ritm faqat she'riy vazn bilan cheklanmaydi, balki nasriy matnda ham sintaktik parallelizm, takrorlar, intonatsion qurilmalar orqali yuzaga chiqadigan ichki ritmik tizim sifatida qoraladi. Ritm til birliklarining muayyan davriylik, takroriylik va struktur muvozanat asosida joylashuvi natijasida yuzaga keladigan estetik hodisadir. Tilshunoslikda ritm quyidagi darajalarda namoyon bo'ladi: fonetik daraja-urg'u, bo'g'inlar ketma-ketligi, alliteratsiya va

²⁸ Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. – Chicago: University of Chicago Press. 1980.

²⁹ Crystal D. *Prosodic Systems and Intonation in English*. - London. Buyuk Britaniya:Cambridge University Press. 1969.

³⁰ Grice P. *Logic and Conversation. Syntax and Semantics*. Vol.3: *Speech Acts*. Academic Press, New York, pp.1975. –B 41-58.

assonans; leksik daraja- soʻz va soʻz birikmalarining takroriyligi; sintaktik daraja – parallel konstruksiyalar, anafora, epifora; matn darajasi- kompozitsion takror, semantik boʻlaklarning ritmik joylashuvi³¹. Bu holat ritmning lingvopoetik tahlilini faqat metrik mezonlar bilan emas, balki matnning umumiy struktur-semantik tizimi doirasida olib borishni talab etadi. Alliteratsiya -nutqda tovushlarning bir-biriga ohangdosh boʻlish hodisasi. Ikki xil koʻrinishga ega: vokal alliteratsiya – misra tarkibidagi unli tovushlarning ohang jihatidan oʻzaro mosligi: *Oʻtar dunyo oʻtarini oʻyladi, Tanqa tashlab Olatogʻni yoyladi* (“Alpomish” dostoni). Konsonant alliteratsiya – misra tarkibidagi undosh tovushlarning ohang jihatidan oʻzaro mosligi: *Qaro qoshing, qalam qoshing, qiyiq qayrilma qoshing, qiz / Qilur qatlima qasd, qayrab qilich qotil qaroshing, qiz* (ErkinVohidov).

Assonans (lot.asonare – hamohang) satr, misra va bandda bir xil unli tovushlarning takrorlanishi: *Botirlari kanal qazadi/shoirlari gʻazal yozadi* (H.Olimjon). Parallelizm (grekcha palallellos – yonma-yon boruvchi) ikki yoki undan ortiq hodisa, narsa, predmet kabilarni yonma-yon tasvirlash, zidlantirish, qiyoslantirish, muqoyasalashtirish orqali asardagi poetik fikrni muayyanlashtirish, uning taʼsirchanligini kuchaytirish vositasidir³². Mirtemirning yosh qalamkashlarga atagan “Kipriklarim” sheʼri misol boʻla oladi: *Kipriklarim qoʻngʻirmisan yo qora?/Kipriklarim yuztamisan yo ming?/ Kipriklarim muncha aziz va sara, /Koʻzginamning kipriklari*³³...

Takror-ayrim soʻz va iboralarning, baʼzan misralar yoki bir necha misralarning muayyan bir tartib asosida qayta-qayta qoʻllanishidir. Takrorlar asardagi poetik maqsadni roʻyobga chiqarish uchun, unga mos tarzda fikrni goh boʻrttiradi, goh kuchaytiradi, goh detallashtiradi, asosiy diqqatni jalb etadi, takrorlarning koʻrinishlari koʻp. Jumladan, anafora - sheʼriy misralarning yoki nasriy gaplarning boshida bir xil soʻz va iboralarning, tovushlarning takrorlanib kelishidan hosil boʻladi: *Ozmuncha janglar qilmadim men, / Ozmuncha qonlar chekmadim. //Ozmuncha togʻlar oshmadim men, / Ozmuncha suvlar ichmadim* (Shuhrat). Epifora – sheʼriy asarning misralari oxirida tovushlar, soʻzlar, iboralarning takrorlanib kelish hodisasidir: *Kulgan boshqalardir, yigʻlagan menman, / Oʻynagan boshqalar, ingragan menman* (Choʻlpon)³⁴.

Badiiy matnda til birliklari ritm hosil qiluvchi faol element sifatida qatnashadi. Xususan, feʼllarning zamon va shaxs shakllari orqali harakat dinamikasi yaratiladi, takroriy birliklar matnga ichki ohang va urgʻu beradi, qisqa va uzun gaplarning almashinuvi ritmik kontrastni yuzaga keltiradi. Anjambmang hodisasi satr va sintaktik chegaralar oʻrtasidagi ziddiyat orqali dinamik ritm yaratadi³⁵. Bu jarayonda ritm nafaqat formal-estetik hodisa, balki semantik-psixologik yukni ham oʻzida mujassam etadi. Lingvopoetik tahlilda ritm matnning emotsional-ekspressivligini

³¹ Umirqulov B.Poetik nutq leksikasi. – Toshkent: Fan, 1990

³² Umurov H. Adabiyot qoidalari. – Toshkent: Oʻqituvchi. 2002.–B 114.

³³ Toʻxliyev B., Shermurodov T., Isayeva Sh.Adabiyot.III qism. – Toshkent: Choʻlpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2010.

³⁴ Umurov H Adabiyot qoidalari. – Toshkent: Oʻqituvchi, 2002. –B 116.

³⁵ Lipgard F.F. Osnoviy lingvopoetiki. – Moskva, 2016.

shakllantiruvchi muhim vosita hisoblanadi. Tez-tez takrorlar, qisqa gaplar ketma-ketligi keskinlik, hayajon, dramatismni kuchaytirish, uzun, murakkab sintaktik qurilmalar sookinlik, tafakkur, epik kenglikni ifodalashi mumkin. Shu sababli ritm muallifning psixologik holati, nutq strategiyasi va estetik maqsadini ifodalovchi vosita sifatida ham talqin qilinadi. Ritm va til birliklarining o'ziga xos uyg'unligi muallifning individual uslubini belgilovchi muhim lingvopoetik belgidir. Har bir ijodkorning ritmik modeli uning dunyoqarashi, estetik ideali va nutqiy tafakkuriga bog'liq holda shakllanadi. Shu bois ritm lingvopoetik tahlilda muallif uslubining markaziy ko'rsatkichlaridan biri sifatida o'rganiladi.

Zamonaviy lingvopoetik tadqiqotlarda til va ritm kognitiv yondashuv asosida ham talqin qilinmoqda. Bu yondashuvda ritm inson ongida vaqt, harakat, emotsiya va konseptual tuzilmasining ham ifodachisiga aylanadi. Lingvopoetika tilning estetik funksiyasini o'rganadi, fonetika, leksika, sintaksis, obraz va semantika orqali poetik effekt yaratiladi. Tilning poetik funksiyasi matnni estetik obyektga aylantiruvchi til birliklari tizimi³⁶. Ritm, ohang va prosodiya tilning poetik komponenti sifatida lingvopoetik tahlilning ajralmas qismidir. Ritm tilshunoslikda ko'plab yo'nalishlarda o'rganiladi: prosodiya va fonetika doirasida u nutq oqimining tartibli naqshini anglatadi, ya'ni tovushlar, urg'ular va pauzalarining muayyan ketma-ketligidir. Lingvistik ritmning asosiy jihatlari: nutq ritmi stress, ohang va intonatsiya orqali shakllanadi, ritm nutq tuzilishini idrok etishda va hatto tilni egallashda muhim omil sifatida ishlaydi. She'riyat va badiiy yozuvlarda ritm tilning badiiy effektini yaratadi, u nafaqat fonetik, balki semantik, obrazli qatlamlarda ham mujassam. Ritm, alliteratsiya va assonans kabi vositalar poetik o'qish tajribasini shakllantiradi. Lingvopoetika tilning badiiy funksiyasini tadqiq etadi. Unda fonetik (urg'u, pauza, tovush takrori), leksik (takror, parallelizm), sintaktik (gap qurilishi, anjambmang) vositalar orqali ritm hosil bo'lishi tahlil qilinadi. Ritm bu yerda faqat she'riy vazn emas, balki nutq oqimining ichki tartibi, ma'no va hissiyotlarni kuchaytiruvchi poetik mexanizm sifatida talqin etiladi. Lingvopoetik yondashuvda ritm matnning emotsional ta'sirchanligini oshiradi, obraz va mazmunni idrok etishni boshqaradi, muallif uslubining muhim belgisi sifatida namoyon bo'ladi. Lingvopoetika - tilning badiiy, poetik funksiyasini sistematik tahlil qiluvchi tilshunoslik yo'nalishidir. U til birliklari orqali yaratilgan estetika, obraz, ritm va semantik birliklarni o'rganadi. Lingvopoetika tahlili orqali til oddiy kommunikatsiya vositasi emas, balki badiiy ma'no yaratadigan kompleks mexanizm sifatida ko'riladi. Asosiy ilmiy yondashuvlari til birliklari (fonetik, leksik, sintaktik) poetik nutqda estetik effekt yaratadi.

Lingvopoetika badiiy matnning obyekti va predmeti, ya'ni tilning poetik funksiyasi, obrazlar tizimi, ritm hamda uning tahlil vositalarini o'z ichiga oladi, lingvopoetika tilshunoslik, stilistika va adabiy nazariya sintetik yondashuvini

³⁶ Якобсон Р. Лингвистика и поэтика. – В кн.: Структурализм: «за» и «против». – Москва: Прогресс, 1975. – 470 с.

yaratadi. Lingvopoetika – badiiy matnda til birliklari orqali poetik effekt, ritm, obrazlilik va semantik strukturasini tahlil qiluvchi tilshunoslik sohasi. Ritm – tilshunoslikda nutq yoki matn ichidagi tartibli tovush, urg‘u, pauza va intonatsiya naqshlari orqali yaratiladigan strukturaviy elementdir. U tilning prosodik (fonetika) qatlamiga kiradi va nafaqat she‘riyatda, balki og‘zaki nutqda ham seziladi. Prosodiya, ya‘ni intonatsiya, urg‘u, pauza nutq ritmini shakllantiradi. She‘riy matnda ritm poetik strukturaning talaffuz va semantik ritmini aniqlaydi. Ritm alliteratsiya, assonans, fonetik effektlar bilan birgalikda she‘rni ohangdor qilib beradi. Ritm tilning fonetik va semantik qatlamlarida tashkil topgan bo‘lib, u poetik va badiiy matnda mazmunni estetiklashtiradi. Lingvopoetika ritmni tilning poetik effekt yaratuvchi eng muhim elementlaridan biri sifatida ko‘radi. Ritm poetik matnning tempi va naqshini belgilaydi, ohang, urg‘u va tovush takrorlari orqali ma‘no ta‘sirini oshiradi, badiiy matndagi fonetik-semantik strukturani tashkil etadi. She‘rda ritm fonetik kesimlarning takrorlanishi, urg‘ular qatori va ohangning ritmik o‘zgarishlari orqali yaratiladi, bu til birliklarining lingvopoetik funksiyasini namoyon etadi. She‘rlarning lingvopoetik xususiyatlari she‘riyat tilida ritm, ohang va poetik vositalar ko‘rsatkichlarini tahlil qiladi. Xalq dostonlari tilining lingvopoetikasi xalq og‘zaki ijodida ritm va poetik sintaksis bog‘liqligini o‘rganadi. Ritm nutqning vaqt va urg‘u asosida tashkil topgan ichki harakatdir. U she‘rning estetik ta‘sirchanligini belgilovchi asosiy omillaridan biri bo‘lib, nutqdagi takrorlanish, urg‘ular ketma-ketligi, bog‘inlar muvozanati orqali yuzaga chiqadi. Ritm quyidagi birliklar orqali shakllanadi: bo‘g‘inlar soni va ularning joylashuvi, urg‘uli va urg‘usiz bo‘g‘inlar almashinuvi, sintaktik parallelizm, leksik va fonetik takrorlar. Ritm faqat tashqi shakl emas, balki mazmuniy va emotsional qatlamni ham tashkil etadi. Ohang she‘riy nutqning emotsional -ekspressiv ifodasi bo‘lib, u ritm bilan uzviy bog‘langan. Ohang she‘rning pafosi, muallif munosabati, estetik badiiyatini belgilaydi. Ohang pauza va tanaffuslar, sintaktik qurilish, so‘z tartibi, undov va ritorik savollardan iborat. She‘riyatda ohang ritmni mazmun bilan uyg‘unlashtiruvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Poetik vositalar she‘riy matnning obrazlilik va ta‘sirchanligini oshiradi. Ular ritm va ohang bilan birgalikda yagona badiiy tizimni hosil qiladi. Leksik-semantik vositalar: metafora ma‘noni ko‘chirish orqali obraz yaratish, epitet sifatlash orqali tasvirni kuchaytirish, tashbeh o‘xshatish asosida ifoda, ramz abstrakt ma‘noni obraz orqali berish. Sintaktik poetik vositalardan parallelizm sintaktik tuzilmalarning takrori, anjambmang misra chegarasining buzilishi, inversiya so‘z tartibining o‘zgarishi kabilar. Fonetik vositalar: alliteratsiya undosh tovushlar takrori; assonans – unli tovushlar uyg‘unligi; onomatopoeiya tovush taqlidi kabilar. She‘riy matnda ritm, ohang va poetik vositalar ajralmas yaxlitlik hosil qiladi. Ritm – strukturaviy asos, ohang emotsional ifoda, poetik vositalar obrazlilik va estetik ta‘sir manbayi. Ularning uyg‘unligi she‘rni oddiy nutqdan farqlab, poetik nutq darajasiga olib chiqadi.

Til inson tafakkuri va estetik idrokning asosiy vositasi bo‘lib, u nafaqat ma‘no yetkazadi, balki ohang, urg‘u, takror, pauza, sintaktik tartib orqali badiiy ta‘sirni ham yuzaga chiqaradi. Ritm esa nutqning ichki tashkil etuvchi mexanizmi bo‘lib, til birliklarining vaqt, takror va intonatsiya asosida tartiblanishini ifodalaydi.

Lingvopoetik tadqiqotlarda ritm faqat she'riy vazn emas, balki proza, folklor, dramatik nutq, og'zaki ijodda ham faol estetik hodisa sifatida talqin qilinadi. Ritm tilning barcha sathlari bilan uzviy bog'liq. Fonetik ritm bo'g'inlarning takrorlanishi, urg'u va pauzalarning joylashuvi, alliteratsiya va assonanslardan iborat. Xalq qo'shiqlari va dostonlarida takrorlanuvchi ohanglar eslab qolishni osonlashtiradi. Linvopoetik talqinda ritm faqat fonetik hodisa emas, balki poetik sintaksis bilan chambarchas bog'liq tizim sifatida qaraladi. Jumla uzun-qisqaligi, inversiya, parallel konstruksiyalar ritmik strukturaning shakllanishiga xizmat qiladi. Bu yondashuvga ko'ra, ritm-grammatik-semantik bo'linishlar orqali yuzaga keladigan poetik vaqtdir. Ya'ni ritm nafaqat tovushda, balki sintaktik tuzilmada ham namoyon bo'ladi³⁷.

Zamonaviy lingvopoetik qarashlarda ritm ma'no bilan barqaror aloqada tahlil qilinadi. Xususan, xalq dostonlari va klassik she'riyatda ayrim ritmik shakllar muayyan semantik maydonlar: qahramonlik, iztirob, lirizm, marosimiylik bilan bog'lanadi. Bu yo'nalish ritmni "semantik-ritmik model" sifatida talqin qiladi. Ma'lum ritmik shakl-ma'lum poetik mazmunni faollashtiradi. Lingvopoetik talqinda ritm estetik funksiyaning muhim tashuvchisi hisoblanadi. Bu yondashuvda ritm emotsional intensivlikni oshiradi, poetik ta'sirchanlikni kuchaytiradi, matnning badiiy vaqtini tashkil etadi. Natijada ritm linvopoetik funksiyani amalga oshiruvchi vosita sifatida baholanadi. O'zbek lingvopoetik an'analarda ritm milliy poetik tafakkur bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Ayniqsa, xalq og'zaki ijodida ritm formulal ifodalar, takrorlar, alliteratsiya va assonans orqali milliy badiiy ongni aks ettiradi. Ritmni lingvomadaniy hodisa sifatida ham talqin qilish imkonini beradi³⁸. Ritm lingvopoetik tizimda fonetik, sintaktik va semantik darajalarning o'zaro uyg'unligi natijasida shakllanadigan, badiiy vaqt va estetik ta'sirni tashkil etuvchi kompleks hodisadir.

Zamonaviy lingvopoetik tadqiqotlarda ritm hodisasi faqat fonetik daraja bilan chegaralanmay, balki sintaktik, semantik va estetik qatlamlarning o'zaro uyg'unligi sifatida talqin etiladi. Lingvopoetik yondashuvga ko'ra, ritm badiiy matnning ichki tashkil etuvchi mexanizmi bo'lib, u til birliklarining tartibi, takrori, urg'u tizimi hamda sintaktik segmentatsiya orqali shakllanadi. Natijada ritm poetik matnda "badiiy vaqt"ni tashkil etuvchi omil sifatida namoyon bo'ladi va matnning estetik qabul qilinishida muhim rol o'ynaydi. Ritmning lingvopoetik talqinida uning poetik sintaksis bilan uzviy aloqasi alohida ahamiyat kasb etadi. Jumla bo'linishi, parselyatsiya, inversiya, parallel sintaktik konstruksiyalar va segmentlangan tuzilmalar ritmik strukturaning yuzaga kelishiga xizmat qiladi. Bu jarayonda ritm faqat tovushiy muvozanat emas, balki shakllanadigan murakkab lingvopoetik tizimdir. Parselatsiya – bu sintaktik va lingvopoetik hodisa bo'lib, aslida bir butun bo'lishi mumkin bo'lgan gap yoki sintaktik konstruksiyaning maqsadli ravishda bir necha mustaqil qismlarga bo'linib berilishidir. Bu bo'linish nutqda va badiiy matnda ta'sirchanlikni kuchaytirish, intonatsiyani o'zgartirish va muayan ma'no bo'lagini alohida ta'kidlash uchun qo'llanadi. Parselatsiya – bu yagona sintaktik butunlikka

³⁷ <https://oriens.uz/uz/journal/article/tilshunoslikda-lingvopoetika-va-lingvopoetik-vositalarning-organilishi-tarixi>

³⁸ Lingvopoetik va xalqona poetik tasvir. <https://adabiyotxazinasi.com/index.php/conf/article/view/126>

mansub bo'lgan gapning kommunikativ-pragmatik maqsadlarda intonatsion va grafik jihatdan alohida ajratilib, mustaqil gap shaklida berilishi natijasida yuzaga keladigan lingvistik hodisadir. Asosiy xususiyatlari: sintaktik jihatdan bo'lingan qismlar aslida bitta gapga tegishli bo'ladi, intonatsion jihatdan pauza va urg'u kuchayadi. Grafik jihatdan nuqta, tire, ko'p nuqta orqali ajratiladi, lingvopoetik jihatdan ritmni o'zgartiradi va poetik ta'sirni kuchaytiradi. Masalan: U kecha juda charchagan edi va shu sababli tez uxlab qoldi (oddiy shakl). U kecha juda charchagan edi. Juda (parselatsiya bilan). Bu yerda "*Juda*" qismi parselat bo'lib, kuchli emotsional urg'u va ritmik ta'kid hosil qiladi. Parselatsiya ritmik segmentatsiyani kuchaytiradi, badiiy vaqtni bo'laklaydi va o'quvchi idrokida dinamiklik hamda psixologik ta'sirchanlikni oshiradi. Shu bois parselatsiya til va ritmning lingvopoetik talqinida muhim poetik vosita sifatida qaraladi.

Lingvopoetik yondashuvda ritmning semantik yuklama bilan bog'liqligi ham muhim nazariy masala sifatida qaraladi. Ma'lum ritmik shakllar muayyan semantik maydonlar bilan bog'lanib badiiy mazmunning faollashuviga xizmat qiladi. Jumladan, takroriy ritmik tuzilmalar dramatik zo'riqish, hissiy intensivlik yoki marosimiy ohangni kuchaytirsa, uzilishi va notekis ritm ichki kechinma, iztirob yoki psixologik tanglikni ifodalash vositasiga aylanish mumkin. Bu holat ritmni semantik-ritmik model sifatida talqin qilish imkonini beradi. Shuningdek, ritm lingvopoetik tizimda estetik funksiyaning muhim tashuvchisi hisoblanadi. Ritmik tashkil etilish matnning ta'sirchanligini oshiradi, badiiy idrok jarayonini faollashtiradi va poetik ifodaning emotsional-ekspressiv qatlamini kuchaytiradi. Shu sababli ritm lingvopoetik funksiya doirasida estetik qiymat hosil qiluvchi vosita sifatida talqin qilinadi. Milliy poetik tafakkur kontekstda ritm lingvomadaniy hodisa sifatida ham namoyon bo'ladi. Xususan, o'zbek xalq og'zaki ijodida formulali ifodalar, takrorlar, alliteratsiya va assonans kabi vositalar orqali yuzaga keladigan ritmik tuzilmalar milliy badiiy ongni aks ettiradi. Bu esa ritmni nafaqat lingvistik, balki madaniy-semiotik tizimning tarkibiy qismi sifatida talqin qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Shunday qilib, lingvopoetik yondashuvda ritm fonetik, sintaktik, semantik va madaniy qatlamlarning integratsiyasi asosida shakllanadigan kompleks poetik hodisa sifatida baholanadi. Til va ritm tushunchalarining lingvopoetik talqini shuni ko'rsatadiki, ritm badiiy matnda faqat fonetik hodisa sifatida emas, balki fonetik, sintaktik va semantik darajalarining o'zaro integratsiyasi natijasida shakllanadigan kompleks poetik tizim sifatida namoyon bo'ladi. Bu holat ritmni badiiy matnning ichki tashkil etuvchi mexanizmi sifatida baholash imkonini beradi. Ritmning lingvopoetik tizimdagi estetik funksiyasi badiiy matnning ta'sirchanligini oshirish, poetik idrokni faollashtirish va emotsional-ekspressiv qatlamni kuchaytirish orqali namoyon bo'ladi. Bu esa ritmni lingvopoetik funksiya doirasida estetik qiymat hosil qiluvchi asosiy vositalardan biri sifatida e'tirof etishga asos bo'ladi. Milliy poetik tafakkur kontekstida ritm lingvomadaniy hodisa sifatida shakllanadi. Xalq og'zaki ijodi va milliy she'riyatda takror, formulali ifodalar, alliteratsiya va assonans orqali yuzaga keladigan ritmik tuzilmalar milliy badiiy ongning o'ziga xosligini aks ettiradi. Bu esa ritmning lingvomadaniy va semiotik tizimning tarkibiy qismi sifatida talqin qilish zaruratini ko'rsatadi. Umuman

olganda, til va ritmning lingvopoetik talqini ritmni badiiy matnning strukturaviy, semantik va estetik yaxlitligini ta'minlovchi asosiy poetik kategoriyalardan biri sifatida baholash imkonini beradi. Bu yondashuv ritmning badiiy matn tahlilidagi nazariy va metodologik ahamiyatini yanada kengaytiradi.

She'riy nutqda strukturaviy buzilish va estetik effekt

“She'riyat shoir va o'quvchi o'rtasidagi dil suhbatidir. Shoir uchun bu suhbat – yurakni borlig'i bilan ochmak, o'quvchi uchun bu yurak zarblarini anglamakdir. She'rni anglamakning o'zi ham iste'dod. Biz bu iste'dodning nomini nazokat deymiz, nozik fahmlik deymiz. Bu fazilatga yangilikni anglash va baho bera olish sifati qo'shilganda u didga aylanadi. Didni esa yoshlikdan tarbiyalamoq, bilim va tuyg'ular boyligi bilan kamolotga yetkazmoq kerak”³⁹ ekan, demak, shoir bo'lish uchun ham, she'rni anglovchi iste'dod egasi bo'lmoq uchun ham, dastavval, she'riyatning qonun-qoidalarini, uning oddiy texnikasini bilish, uni chuqurroq o'rganish zarur. Struktura (lot.structure-tuzilish, bog'lanish) muayyan narsalarning tuzilishi, qurilishi, tarkibiy qismlarning o'zaro bog'liqligi, obyektning yaxlitligi va aynan o'zligini anglatadigan, ya'ni tashqi va ichki o'zgarishlarda asosiy xususiyatlarini saqlab qoladigan barqaror aloqalar majmuyi. Struktur sistemani tashkil etadi. Narsa va hodisani bir xil yoki har xil jinsligi, uning muayyan nisbiy mustaqil qismlariga, elementlarga, komponentlarga bo'linishini, bu qismlar, elementlar, komponentlarning o'zaro ta'sir va aks ta'sirlarini, ular o'rtasidagi aloqadorlik va bog'lanishlarni, bu bog'lanishlarga oid qonuniyatlarni, narsa yoki hodisaning qanday elementlardan tashkil topganidan qat'iy nazar birligini, yaxlitligini va bir butunligini ifodalaydi. Zamonaviy poetika va lingvopoetika tadqiqotlarida she'riy nutq strukturasi tilning me'yoriy sintaktik, morfologik va prosodik qoidalaridan ongli ravishda chetga chiqish orqali tashkil etilish mumkinligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Ushbu holat ilmiy adabiyotlarda strukturaviy buzilish yoki poetik chetlanish sifatida talqin qilinadi. Strukturaviy buzilish she'riy nutqda oddiy til tizimining avtomatlashgan qabul qilinishini izdan chiqarib, o'quvchi idrokida badiiy ta'sirchanlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Rus formalistlari, xususan, V.Shklovskiy tomonidan ilgari surilgan begonalashtirish nazariyasiga ko'ra badiiy matnda me'yoriy tuzilmalarning buzilishi idrok jarayonini sekinlashtiradi va o'quvchini matnni faol idrok etishga majbur qiladi. Shu jihatdan strukturaviy buzilish estetik effekt hosil qiluvchi asosiy poetik mexanizmlardan biri

³⁹ Vohidov E. Shoir-u she'ru shuur: Adabiy o'yalar – Toshkent: Yosh gvardiya.1987. –B 76.

sifatida qaraladi. Strukturaviy chetlanish poetik nutqda tilning avtomatik qabul qilinishini buzib, badiiy idrokni intensivlashtiradi (Leech, Mukarovskiy, Shklovskiy an'analari).

Zamonaviy eksperimental poetika tadqiqotlari ham strukturaviy buzilish va estetik effekt o'rtasida barqaror bog'liqlik mavjudligini tasdiqlaydi. Xususan, Menninghaus va hammualliflar olib borgan tadqiqotlarda grammatik va sintaktik chetlanishlar o'quvchi tomonidan past grammatik qabul qilinish bilan baholangan bo'lsa-da, ayni paytda ayrim buzilish turlari matnning poetikligini oshirishi aniqlangan. Bu esa strukturaviy buzilishning estetik qiymat yaratishdagi funksional rolini ko'rsatadi. Tadqiqotlarga ko'ra, aynan me'yoriy sintaksisdan chetga chiqish ta'sirchanlikni kuchaytiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. She'riy nutqda strukturaviy buzilishning asosiy shakllari sifatida parselatsiya, anjambmang, inversiya, ellipsis, fragmentatsiya va sintaktik parallelizmning buzilishi ko'rsatiladi. Parselatsiya orqali yagona sintaktik butunlik sun'iy ravishda bo'linib, ritmik pauzalar va intonatsion urg'ular kuchaytiriladi. Anjambmang esa misra va sintaksis chegaralari o'rtasidagi moslikni buzib, semantik kechikish va poetik taranglik hosil qiladi. Bu hodisa o'quvchining kutish mexanizmini faollashtiradi va estetik ta'sirni kuchaytiradi. Strukturaviy buzilishning estetik effekti shundan iboratki, u poetik nutqda ritm va sintaksis o'rtasida ziddiyatli munosabatni yuzaga keltiradi. Ushbu ziddiyat badiiy matnda semantik va prosodik qatlamlarning ajralishini kuchaytirib, o'quvchi idrokida poetik intensivlikni oshiradi. Zamonaviy tadqiqotlar anjambmang va sintaktik buzilishlarning aynan shu ziddiyat orqali poetik kuch hosil qilishini ko'rsatadi⁴⁰. Shuningdek, kognitiv poetika doirasida strukturaviy buzilish o'quvchi ongida kognitiv yuklamani oshiruvchi vosita sifatida talqin qilinadi. Me'yoriy tuzilmalarning buzilishi o'quvchini qayta talqin qilishga majbur etadi, natijada badiiy idrok chuqurlashadi va estetik baholash jarayoni faollashadi. Shu bois strukturaviy buzilish she'riy nutqda nafaqat shakliy, balki kognitiv-estetik mexanizm sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. She'riy nutqida strukturaviy buzilish til me'yorlaridan og'ish orqali poetik idrokni intensivlashtiruvchi, ritmik va sintaktik taranglikni kuchaytiruvchi hamda estetik effekt hosil qiluvchi markaziy lingvopoetik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu hodisa she'riy nutqning badiiy tabiati va uning estetik ta'sir mexanizmlarini tushuntirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy stilistika va lingvopoetikada strukturaviy buzilish she'riy nutqning muhim tashkiliy mexanizmi sifatida talqin qilinadi. Bu hodisa tilning me'yoriy sintaktik, morfologik va prosodik tuzilishidan ongli ravishda chetga chiqish orqali badiiy ta'sirchanlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Geoffrey Leechning nutq me'yoridan ajratib ko'rsatish (foregrounding) nazariyasiga ko'ra, poetik nutqda estetik effekt asosan me'yoriy til tizimiga nisbatan kutilmagan chetlanishlar orqali yuzaga keladi. Bunday chetlanishlar o'quvchi idrokida til birliklarini avtomatik qabul qilish jarayonini buzadi va poetik idrokni faollashtiradi. Foregrounding nazariyasida strukturaviy buzilish parallelizm bilan bir qatorda

⁴⁰ Haider, 2024; Studia Metrica et Poetica. University of Tartu Press. -Tartu, Estoniya. ISSN:2346-6901

poetik ta'sirning markaziy mexanizmlaridan biri sifatida baholanadi. Deviation – kutilmagan notekislik sifatida, parallelizm esa kutilmagan muntazamlilik sifatida talqin qilinadi. Ushbu ikki hodisaning o'zaro munosabati poetik matnda ritmik-sintaktik taranglikni yuzaga keltiradi va estetik idrokni kuchaytiradi⁴¹. She'riy nutqda strukturaviy buzilish ko'pincha poetik sintaksis darajasida namoyon bo'ladi. Jumladan, inversiya, ellipsis, fragmentatsiya, parselatsiya va anjambmang kabi hodisalar sintaktik me'yorlarning buzilishi orqali ritmik va semantik taranglik hosil qiladi. Bunday sintaktik chetlanishlar poetik nutqda grammatik yaxlitlik va ritmik segmentatsiya o'rtasida ziddiyatli munosabatni yuzaga keltiradi. So'nggi eksperimental poetika tadqiqotlari shuni ko'rsatiki, sintaktik va grammatik chetlanishlar o'quvchi tomonidan past grammatik qabul qilinish bilan baholansa-da, ayrim holatlarda aynan shu chetlanishlar matnning poetikligi va estetik qiymatini oshiradi. Meninghaus va hammualliflar olib borgan tajribalar sintaktik noan'anaviylik va poetiklik o'rtasida funksional bog'liqlik mavjudligini emperik tarzda isbotlaydi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ritmik o'zguruvchanlik poetik ta'sirchanlikni oshiruvchi omillar sifatida namoyon bo'ladi⁴².

Kognitiv poetikada strukturaviy buzilish o'quvchi ongida kognitiv yuklamani oshiruvchi va integretativ faollikni kuchaytiruvchi mexanizm sifatida talqin qilinadi. Me'yoriy tuzilmalarning buzilishi o'quvchini matnni qayta tahlil qilishga majbur etadi, natijada badiiy idrok chuqurlashadi va estetik baholash jarayoni faollashadi. Ushbu jarayon Shklovskiy tomonidan ilgari surilgan begonalashtirish tamoyiliga nazariy jihatdan yaqin bo'lib, poetik tilning avtomatlashtirilgan idrokini izdan chiqarish orqali estetik effekt hosil qilish mexanizmini tushuntiradi. Zamonaviy emperik tadqiqotlar strukturaviy chetlanishning poetik idrokda "konseptual qiyinchilik" va "perseptiv ravonlik" o'rtasidagi muvozanatni yaratishini ko'rsatadi. Aynan shu muvozanat poetik matnning estetik jozibasini oshiradi va o'quvchi tomonidan yuqori badiiy baholanishga olib keladi. Bu holat strukturaviy buzilishni kognitiv-estetik mexanizm sifatida talqin qilishga ilmiy asos yaratadi. She'riy nutqda strukturaviy buzilish ko'pincha ritm va sintaksis o'rtasidagi moslikning buzilishi orqali yuzaga keladi. Anjambmang hodisasi bu jarayonning eng yorqin namunasidir. Misra chegarasi bilan sintaktik birlik chegarasining mos kelmasligi poetik kechikish va ritmik taranglik hosil qiladi. Natijada o'quvchi kutish mexanizmi faollashadi va poetik ta'sir kuchayadi. Zamonaviy metrik va poetik tadqiqotlar ritm va ma'no o'rtasidagi barqaror bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Metrik shakllar uzoq tarixiy davrlar davomida muayyan semantik maydonlar bilan bog'lanib kelgani aniqlangan. Bu esa strukturaviy va ritmik chetlanishlarning faqat shakliy emas, balki semantik-estetik ahamiyatga ham ega ekanini ko'rsatadi⁴³.

Umuman olganda, she'riy nutqda strukturaviy buzilish lingvopoetik tizimda estetik effekt hosil qiluvchi markaziy vosita sifatida namoyon bo'ladi. U poetik

⁴¹ <https://en.wikipedia.org/wiki/Foregrounding>

⁴² <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0304422x17300864>

⁴³ Sela, Plechac, Lassche, 2021) <https://arxiv.org/abs/2109.071480>.

nutqda ritmik-sintaktik taranglikni kuchaytiradi, semantik faollikni oshiradi va o'quvchi idrokini avtomatlashtirilgan qabul qilishdan chiqaradi. Shu jihatdan strukturaviy buzilish she'riy nutqning badiiy tabiati va uning estetik ta'sir mexanizmlarini tushuntirishda muhim nazariy kategoriya sifatida baholanadi.

She'riy nutqda so'z tartibining ongli ravishda buzilishi, inversiya sintaktik me'yorni o'zgartirib, emotsional-pragmatik markazni kuchaytiradi. Bu holatda strukturaviy buzilish estetik maqsadga xizmat qilib, muayyan so'z yoki obrazni oldinga chiqaradi. Estetik effektda urg'u va ta'kid kuchayadi, lirik subyekt hissiyoti markazga chiqadi, ritmik va ohangdorlik o'zgaradi.

Ellipsis badiiy asarda qisqalikni, siqqlikni ta'minlovchi stilistik vositadir. U matndan osongina bilinib olinadigan so'zlar bo'lib, poetik fikrni ifodalashda ishtirok etmaydi. Ellipsis gapning ayrim bo'laklarini ongli tushirib qoldirish natijasida yuzaga keladigan strukturaviy to'liqsizlikdir. Bu buzilish o'quvchini semantik bo'shliqni o'zi to'ldirishga majbur qiladi. Estetik effekt: ichki dramatizm kuchayadi, sukut va pauza poetik mazmun kasb etadi, ma'no ko'p qatlamli bo'ladi. Poetik sintaksisda ellipsisning estetik vazifasi ahamiyatli. Anjambmang orqali ham sintaktik butunlik buzilish holati uchraydi. Anjambmangda gapning satr chegarasida sun'iy bo'linishi natijasida sintaktik butunlikning buzilishidir. Natijada grammatik va grafik struktura o'rtasida nomuvofiqlik paydo bo'ladi. Estetik effekti: ritmik taranglik kuchayadi, o'qish jarayonida kutilmagan pauza yuzaga keladi, poetik dramatizm va intonatsion o'zgarishlar hosil bo'ladi. Poetik sintaksisda shakl va mazmun uyg'unligi buzilishi estetik vosita sifatida talqin qilinadi. Strukturaviy me'yorning o'zgarishi asindeton, polisindeton orqali ham namoyon bo'ladi. Polisindeton va asindetonning poetik vazifalari alohida o'rganilgan. Parallel konstruksiyalarning ataylab izdan chiqarilishi strukturaviy simmetriyani buzadi. Bu esa she'riy nutqda ichki ziddiyat va lirik dissonansni yuzaga keltiradi. Dissonans (nouyg'un tovush) och qofiyadagi faqat undosh tovushlarga asoslangan moslikdir: *Shaharlarga ishga **chiqib el**, /Odam bilan to'lar **Tekstil*** (H.Olimjon). Ichki konflikt kuchayadi, shakily nomutanosiblik mazmuniy ziddiyatni aks ettiradi, obrazlilik chuqurlashadi. Poetik sintaksisda parallelizm va uning buzilishi badiiy ta'sir vositasi sifatida izohlanadi. She'riy nutqda strukturaviy buzilishlar (inversiya, ellipsis, anjambmang, asindeton, polisindeton, parallelizmning buzilishi) grammatik me'yorni izdan chiqarish orqali estetik, emotsional va semantik chuqurlikni ta'minlaydi. Bu hodisalar poetik matnda "me'yor-og'ish-estetik ta'sir" zanjiri asosida ishlaydi va strukturaviy buzilish badiiy qiymat kasb etadi.

So'z birikmalarining standart me'yorlaridan chetga chiqishi yoki ularning noodatiy qo'llanilishi she'riy matnning o'ziga xosligini shunchalik aniqlamaydi, bu hodisalarning kutilish va odatlanish omili muhimroqdir [Culler 1975, 164]. Eng an'anaviy nuqtayi nazarga ko'ra, she'riy effekt ko'pincha ma'lum bir stereotipning buzilishi bilan belgilanadi: umumiy ma'noga oid norma yoki kontekstual norma. Ikkinchi holatda ikki variant mumkin: butun asar kontekstidan kelib chiqqan norma

buziladi yoki mazkur bayon doirasida shakllangan norma-model buziladi⁴⁴. Bu uning shakli va ma'lum bir matn uchun "normal" hisoblangan kutilish tuzilmalaridir. Stilistik effekt kontekstual modelning, ya'ni kutilgan ehtimolliklar buzilishi orqali hosil bo'ladi va ularning tasdiqlanishi she'rlarning osongina yodda qolishini ta'minlaydi⁴⁵. Beaugrande aslida ikkala nuqtayi nazar juda yaqin: ular she'riy matnning eng muhim xususiyatlaridan biri elementlarning ma'lum bir tartibda ketishi ehtimoli ekanini tan oladilar, shunda o'quvchi boshlangan strukturaning tartibli yakunini kutib, matnni to'g'ri talqin qila olishini ta'kidlaydi. Bu holat she'riy matnga odatda xos bo'lgan va haqiqatan ham mavjud elementlarning barcha matn darajalarida, hattoki asarning mavzusini rivojlantirishda ham qayd etiladigan takrorlanishiga to'liq mos keladi.

She'riy til va adabiy standart til munosabatini hamda qator pragmatik va psixologik jihatlarni inobatga olib, she'riy asarni adekvat talqin qilish maqsadida matn tadqiqotida uch bosqichni ajratish maqsadga muvofiq. Avvalo an'anaviy lingvistik tahlil o'tkaziladi, bu she'riy matnlarni o'qish bo'yicha minimal ko'nikmaga ega tildosh uchun mavjud. Bunda standart strukturalar va ma'nolar, shuningdek she'riy tilda odatda ishlatiladigan elementlar (arxaizmlar, poetizmlar, turli takrorlanish turlari va h.k.) qayd etiladi. Ana shu fon muallif tomonidan joriy qilinadigan poeziya uslublarining, matnning o'ziga xos strukturasi va kontekstual bog'lanish shakllarining yaqqol namoyon bo'lishi uchun asos bo'ladi.

Poetik talqin jarayonida asarning barcha unsurlarini estetik jihatdan qamrab olish muhimdir, chunki har bir xulosa umumiy asosga tayanishi kerak. Aks holda, yuqori darajadagi tahlil shunchaki subyektiv taassurotlar yoki muallifning didi va qarashlariga bog'lanib qolishi mumkin. Shu bosqichda aniq bo'ladiki, poetik kompetensiya, ya'ni ma'lum bir janr qonuniyatlarini bilish, matnni to'g'ri anglash va uning ta'sir kuchini baholash uchun zarurdir. Shuningdek, poetik tilning asosiy vazifasi estetik vazifa ekanini unutmash lozim, ya'ni matn idrok, tushunish va shakllantirishga qaratilgan⁴⁶.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, poetik til mavjud bo'lib, u umumxalq tilining alohida estetik tashkil etilgan shakli sifatida namoyon bo'ladi va adabiy hamda kengroq ma'noda madaniy tajribada qo'llanadi. Poetik tilning imkoniyatlarini o'rganish tilshunoslik tadqiqotining muhim yo'nalishlaridan biridir hamda poetik tilning umumiy nazariyasini yaratishga xizmat qiladi.

V. Jirmunskiy: "She'riyatning ta'rifi faqat uning qanday bo'lishi kerakligini ko'rsatishi mumkin, ammo uning tarixda qanday bo'lganini yoki amalda qanday ekanini to'liq ifodalay olmaydi. Aks holda, bunday ta'rif ma'lum bir davr yoki hodisaga nisbatan tor doiradagi hukmga aylanib qoladi⁴⁷".

⁴⁴ Riffaterre M. Stilistik kontekst.- Word, N.Y., vol.16.n3. 1960.

⁴⁵ Beaugrande R.A. Information, expectation, and processing; On classifying poetic texts.— Poetics, Amsterdam, vol.7.N 1.1978.—S 20.

⁴⁶ Кожин А.Н. Структура и функционирование поэтического текста. Очерки лингвистической поэтики. — Москва: Наука. 1985. — С. 38.

⁴⁷ Жирмунский В.М. Введение в метрику. — Ленинград: Академия, 1925, — 284 с.

Zamonaviy stilistikada ham e'tibor markazini o'quvchining stilistik effektlarni aniqlashdagi roliga qaratish tendensiyasi kuzatiladi⁴⁸ (Taylor, 1980). Bu esa kognitiv psixologiya bilan yaqinlashuvga, ya'ni til materialini qabul qilish va qayta ishlash strategiyalariga asoslangan yo'nalishning shakllanishiga olib keladi. Shu nuqtayi nazardan, ifoda vositalari ular o'quvchida qanday ta'sir uyg'otishiga qarab tasniflanadi. Muallifning individual uslubi esa badiiy asarni qabul qilish jarayonida turli o'quvchilarda turlicha namoyon bo'ladigan muayyan tafakkur faoliyati turlariga mos keluvchi hodisa sifatida tavsiflanadi.

Metaforalarga boy, bir-biriga kam mos yoki umuman mos kelmaydigan tushunchalarning to'qnashuvi, ma'no ortishining xilma-xilligi, o'ziga xos, ko'pincha "uzilgan", mantiqsiz sintaksis, semantik jihatdan ahamiyatli tovush takrorlari va boshqalar bilan to'yingan poetik matnni qabul qilish murakkab jarayondir. Poetik matn ma'lum darajada o'quvchining qabul qilishini "tashkil etadi", unga muallifning tafakkur tarzini, his-tuyg'ularini va hukmlarini "singdiradi", o'quvchini muallif yaratgan hamda ko'pincha real, obyektiv olamga zid bo'lgan dunyoni qabul qilishga undaydi⁴⁹.

O'quvchi shoir tasavvuri yaratgan xayoliy olamni qabul qilishga tayyor bo'lishi kerak, aynan shunda "badiiy ishonch", ya'ni poetik matn yuzaga keladi. Agar o'quvchi bu shartlarni qabul qilmasa, poetik matnni talqin qilish imkonsiz bo'ladi. Bu jarayon muallif va o'quvchi o'rtasidagi o'ziga xos "kelishuv"ni anglatadi: agar unda har ikki tomon ishtirok etsa, haqiqat mezoni ham o'zgaradi. Kontekstual haqiqat mezoni qaror topadi va unga ko'ra baholash amalga oshiriladi.

Poetik matnni qabul qilishni belgilovchi omillar orasida o'quvchining tajribasi va tayyorgarligi muhim o'rin tutadi. Tadqiqotchilar ta'kidlashicha, badiiy asarni tushunish jarayoni faqat matnning o'ziga emas, balki o'quvchining madaniy saviyasi, estetik didi va oldingi o'qish tajribasiga ham bog'liqdir. Alohida ravishda o'quvchining idrok etish faoliyati tahlil qilinadi. U nafaqat matnda berilgan ma'lumotni qabul qiladi, balki uni o'z tajribasi bilan solishtiradi, talqin qiladi va ma'no hosil qiladi. Shu sababli bir xil poetik matn turli o'quvchilarda turlicha tushunilishi mumkin. Bu esa poetik kommunikatsiyaning murakkab va ko'p qatlamli tabiatini ko'rsatadi. Poetik obrazni anglash jarayonida o'quvchi so'zlarning lug'aviy ma'nosidan tashqari, ularning ramziy, konnotativ va assotsiativ jihatlarini ham hisobga oladi. Metaforik ifodalar, noodatiy sintaktik qurilmalar va tovush takrorlari o'quvchining estetik hissiyotini kuchaytiradi hamda matnni chuqurroq idrok etishga undaydi. Shuningdek, poetik matnni talqin qilishda kontekst muhim ahamiyatga ega. Matn yaratilgan davr, muallifning dunyoqarashi va adabiy an'analar mazmunni tushunishga yordam beradi. O'quvchi matnni qabul qilish jarayonida go'yoki muallif bilan "muloqot"ga kirishadi va shu tariqa badiiy ma'no yuzaga keladi⁵⁰.

⁴⁸ Taylor T.J. Linguistic theory and structural structural stylistics. oxford etc.: Pergamon press, 1980.

⁴⁹ Mack, D. Metaphoring as speech act: Some happiness conditions for implicit similes and simple metaphors. - Poetics. Amsterdam, 1975, vol. 4, N2/3. - P. 221-256.

⁵⁰ Кожин А.Н. Структура и функционирование поэтического текста. Очерки лингвистической поэтики. - Москва: Наука. 1985. - С. 66.

U. Empson ta'kidlaganidek, poetik matnning ta'siri "yarim shakllangan" ma'nolar va konstruksiyalarning oddiy mos kelishida, qandaydir tayyor xulosalarda emas, balki o'quvchining izlanish jarayonining o'zida namoyon bo'ladi⁵¹. O'quvchiga so'zga nisbatan poetik munosabat, ya'ni materialga ijodiy yondashuv, poetik effektlarni yaratishda hamkorlik qilish qobiliyati singdirilishi lozim. O'quvchi ma'lum bir "o'yin"ga jalb etiladi, bu jarayonda matnni talqin qilishda odatda qo'llanadigan umumiy sotsiomadaniy kodlar mazkur poetik asarning o'ziga xos estetik kodlari bilan to'ldiriladi⁵².

Lingvistik poetika esa bunday kodlarning namoyon bo'ladigan ko'pligini obyektivlashtirish va ularni poetik tilning harakatlanuvchi tizimi tushunchalari orqali umumlashtirish vazifasini qo'yadi. Matnda yangi, jumladan poetik axborotni aniqlash jarayoni matn qabul qiluvchisining adabiy kompetensiyasiga, ya'ni u biladigan muayyan konvensional dasturlarga bog'liq⁵³. Shu bilan birga, talqin jarayonining anglanganlik darajasi va matnni "dekodlash" uchun sarflanadigan kuch ham matnning o'quvchi kutganlariga qanchalik mos kelishiga bog'liq. Agar matn o'quvchining taxmin va bilimlariga to'liq mos kelsa, uni qayta ishlash jarayoni avtomatik bo'ladi. Agar ayrim taxminlar o'zini oqlamasa, dekodlash jarayoni sekinlashadi va qo'shimcha sa'y-harakatlarni talab qiladi, matn kutilganlarga mutlaqo mos kelmasa, talqin qilish imkonsiz bo'lib qoladi.

Poetik til tushunchasi, ya'ni birliklarni tanlash va ularning ishlashining o'ziga xos qoidalari, so'z yasaliishi tizimi, tovush jihatdan bezatilishi, takrorlanuvchi sintaktik konstruksiyalar kabi xususiyatlar majmuyi bir poetik asar doirasida ham, bitta muallifning barcha asarlari, ya'ni shoir yoki yozuvchining idiolekti doirasida ham, yoki ma'lum bir davrdagi butun bir til poetik asarlari korpusi doirasida ham qo'llanishi mumkin⁵⁴.

Poetik vositalarning tizimlilik, poetik tilning sistemaviyligi va uning alohida til voqeligi maqomiga egaligini tan olish haqidagi tezis⁵⁵ o'z tarafdorlari va muxoliflariga ega. Masalan, V. V. Vinogradov ta'kidlashicha, har qanday til hodisasi ma'lum ijodiy-funksional sharoitlarda poetik xususiyat kasb etishi mumkin⁵⁶.

E. Koseriu esa yanada qat'iyroq pozitsiyani egallab, poetik til, jumladan adabiy til barcha til imkoniyatlarining mujassamlashgan tizimi ekanini ta'kidlaydi. Uning fikricha, adabiy til me'yorlari poetik tilda amal qiladigan me'yorlarning o'ziga xos qisqartirilgan shaklidir. Poetik til standart tilning og'ishi emas, aksincha, boshqa barcha til qo'llanish turlari, masalan, og'zaki-so'zlashuv yoki ilmiy nutq

⁵¹Кожин А.Н. Структура и функционирование поэтического текста. Очерки лингвистической поэтики. – Москва: Наука. 1985.–В 69.

⁵² Григорьев В.П. Поэтика слова. – Москва: Наука. 1976. – С.74..

⁵³Кожин А.Н. Структура и функционирование поэтического текста. Очерки лингвистической поэтики. – Москва: Наука. 1985.–В 69.

⁵⁴ Hendricks, W.O. Three models for the description of poetry. - Journal of Linguistics. - Leningrad, 1969, vol.5, N1. - P.1-22.

⁵⁵ Винокур Г.О. Понятие поэтического языка. – Москва: Учпедгиз. 1959.– С. 393.

⁵⁶ Виноградов В.В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. - Москва: Изд-во АН СССР, 1963.–255 с.

umumiy tilning chetlanishlari hisoblanadi. Shu bois agar poetik og‘ishlar mavjud bo‘lmasa, “stilistik og‘ishlar” haqida ham gap bo‘lishi mumkin emas⁵⁷.

Poetik tilning tizimligini aniqlash, uning me‘yoriyligi, muntazamligi va turli vosita hamda usullarni qo‘llashdagi maqsadga yo‘naltirilganligini belgilash nuqtayi nazaridan B. P. Grigoryev taklif etgan istiqbolli dastur asosida poetik idiolektlarni qat’iy ilmiy va izchil taqqoslash maqsadga muvofiqdir⁵⁸. Bunda yirik so‘z san’atkorlarining “poetik modellari” ajratib ko‘rsatiladi, so‘ngra poetik makon “o‘xshashliklar tutamlari” ko‘rinishida tasvirlanadi. Bu tutamlar poetik individualliklar, yo‘nalishlar va maktablarni birlashtiradi hamda o‘zaro farqlaydi. Yana bir yo‘nalish “proyeksion poeziya” tarafdorlari o‘z kechinmalarini maksimal darajada erkin ifodalash uchun til me‘yorlarini buzishga yo‘l qo‘yadilar. Hatto eng qadimgi davrlargacha, og‘zaki poetik ijod hukmron bo‘lgan paytlargacha, muallif poetik shaklning ayrim universal unsurlari mavjudligi haqida xulosaga keladi. Bizga ma’lum bo‘lgan poetik ifoda shakllaridan keskin farq qiladigan qandaydir ekzotik ko‘rinishlar aniqlanmadi. Bundan tashqari, poetik shaklning ataylab buzilishi holatlari ham maxsus tadqiq etilgan (ayniqsa, XX asrda). Bularning barchasi poetik ifodaning asosiy unsurlari o‘zgarmagan, degan xulosaga olib keladi. Bu vositalarning universal xususiyati ularning vaqt, milliy yoki boshqa biror o‘ziga xos belgilaridan ko‘ra ko‘proq e’tiborni tortadi.

A.N.Kojin umumxalq tili tarkibida poetik tilning ajralib turishi muallifga xos okkazonalizmlarning – hali adabiy til tarkibiga kirmagan yoki allaqachon undan chiqib ketgan birliklari mavjudligini ham ta’kidlaydi. Bunday birliklar til egalari xotirasi va ongida saqlanib qoladi hamda muayyan shoir yoki yozuvchining ijodi bilan bog‘lanadi. Adabiy til tarkibiga kirmasa-da, bunday hosilalar poetik tilning alohida tizimida o‘z o‘rnini topadi⁵⁹ (Grigoryev, 1979). Ushbu tizimning o‘ziga xosligi va boshqa til tizimlaridan farqi shundaki, unda tizimning barcha unsurlari uchun majburiy bo‘lgan qat’iy poetik me‘yor mavjud emas. Umumtilning standart talablari asosida yozuvchi va shoirlar o‘z idiolektlari me‘yorlarini o‘zlari belgilaydilar, bu me‘yorlar yig‘indisi poetik tilning murakkab tizimini tashkil etadi. Poetik matnlarni alohida idiolektlar sifatida ko‘rib chiqish masalasi har bir asarga xos bo‘lgan ma’lum bir fonetik, sintaktik yoki semantik dominantaning mavjudligi, o‘quvchiga turli darajadagi unsurlarni tizimli takrorlash orqali bog‘lanishi so‘nggi paytlarda, ayniqsa, dolzarb bo‘lib bormoqda⁶⁰. Ayrim zamonaviy poetik matnlar tili turli yo‘nalishdagi tajribalar maydoniga aylanmoqda, natijada ma’no tomonidan yuzaga keltirilmagan, balki ma’noni yuzaga keltiruvchi, uni butunlay yo‘q qiluvchi kombinatsiyalar va tuzilmalar paydo bo‘lmoqda.

⁵⁷ Кожин А.Н. Структура и функционирование поэтического текста. Очерки лингвистической поэтики. – Москва: Наука. 1985. – С.61.

⁵⁸ Григорьев В.П. О задачах лингвистической поэтики. – Изв. АН СССР, СЛЯ, – Москва: 1966. т.25. вып.6.– С.489-499.

⁵⁹ Григорьев В.П. Поэтика слова. – Москва: Наука. 1976. –343 с.

⁶⁰ Кожин А.Н. Структура и функционирование поэтического текста. Очерки лингвистической поэтики. – Москва: Наука. 1985. – 66 с.

Grammatik jihatdan to'g'ri gaplarni yaratishga yo'naltirilgan hosil qiluvchi grammatika nostandart gaplarning mavjudligini muvaffaqiyatli qayd etgan bo'lsa-da, ularni adekvat (talabga mos) semantik talqin qilish uchun zarur tizimni ishlab chiqarolmadi, garchi nostandart birliklarni standartlar bilan qiyoslash uchun bir qator yordamchi protseduralar aniqlangan bo'lsa ham. Birinchi turdagi gaplarning paydo bo'lishi muayyan qoidalar tizimining buzilishi bilan bog'liq bo'lib, bu qoidalar ma'lum iyerarxiyani tashkil etadi. Shunga ko'ra, gapning grammatiklik darajasi tahlil qilinayotgan bayon qaysi qoida buzilganiga qarab avtomatik ravishda aniqlanishi mumkin⁶¹. Taklif etilgan iyerarxiyada daraja qanchalik yuqori bo'lsa, gap me'yordan shunchalik ko'proq og'adi, ya'ni kategoriyaviy komponentlar, subkategoriyaviy komponentlar, seleksion cheklovlar yoki transformatsiya qoidalarining buzilishi hisoblanadi. Qoidabuzarliklarni aniqlash protsedurasining o'zi va ularning darajalanishi nostandart elementni majburiy ravishda "normal", ya'ni standart ko'rinishga keltirishni nazarda tutadi. Bu esa semantik hisoblagichni joriy etish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin. U standart hamda nostandart bayonlarning semantik talqinini ta'minlashi lozim. Bunda grammatika qayta taqsimlash va ko'chirish qoidalarini qo'llash orqali me'yordan chetga chiqadigan bayonlarni hosil qila oladi⁶². Birinchi qoidadan foydalanish muayyan leksik birlikning kompleks simvolik tasviriga ziddiyatli belgilarni kiritish imkonini beradi. Ko'chirish qoidasi esa belgi nomi bilan uning kontekstual tashuvchisi o'rtasidagi ziddiyatni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Zamonaviy poetik matnlarni talqin qilishda ularning sintaktik shakllari, noodatiy semantikasi va hokazolarni, shuningdek, matndan ajratib olingan metafora, metonimiya va boshqa poetik usullarni tahlil qilishda qimmatlidir. Biroq poetik matnlarning ko'p ma'noliligi, ularni talqin qilishdagi noaniqlik ko'rsatilgan yondashuvlarning maqsadga muvofiqligi va obyektivligiga shubha uyg'otadi. Darhaqiqat, qaysi komponentni normadan chetga chiqish deb hisoblash kerak? Buni faqat butun asarni uning tuzilishi, mavzu rivoji, bog'lanishlari va boshqalarni tahlil qilish natijasida aniqlash mumkin. Chunki poetik matn chiziqli emas, balki bir vaqtning o'zida qabul qilinadi; bunda nafaqat uning semantik belgilangan, ko'pincha o'zaro zid ma'nolari, balki tashkil etilish prinsipi ham idrok etiladi. Bundan tashqari, yakuniy natija "normal", to'g'ri shakllantirilgan gaplarni rekonstruksiya qilish ko'p hollarda originalning mohiyatini aks ettirmaydi, uning poetik yo'nalishini va poetik ma'nosini yo'qqa chiqaradi⁶³ (qarang: Mack 1975, 236). Bu yerda metaforik ifodalarni normativ obrazlarga keltirish mumkin emasligi ta'kidlanadi, chunki bunday holatda poetik matn o'ziga xos bo'lgan mazmuniy ko'p qatlamlilikdan mahrum bo'ladi. Shuning uchun transformatsion-generativ grammatika metodlari poetik matnlarni tahlil qilish uchun kam mos keladi. Poetik ifoda anomal tuzilma bo'lib, umumiy til me'yorlari bilan hal etilmaydigan

⁶¹ Кожин А.Н. Структура и функционирование поэтического текста. Очерки лингвистической поэтики. — Москва: Наука. 1985. — 66 с.

⁶² Weinreich U. Explorations in semantic theory. — in Current trends in linguistics, vol. 3. Theoretical foundations. The Hague: Mouton, 1966. — 66 с.

⁶³ Кожин А.Н. Структура и функционирование поэтического текста. Очерки лингвистической поэтики. — Москва: Наука. 1985. — В 58.

ziddiyatda turadi, degan tasavvur keng tarqalgan. “Agar ilgari birinchi o‘rinda poetik so‘z tanlovi turgan bo‘lsa, - deydi B. Karstensen, – endilikda u tobora ko‘proq og‘ish prinsipi emas, balki og‘ishning o‘zi prinsipi sifatida qaralmoqda” (Karstensen 1970).

Stilistika haqida ham shunday tasavvur shakllanganki, u anomal poetik konstruksiyalarni kataloglashtiruvchi va tasniflovchi hamda ularni talqin qilish bilan shug‘ullanuvchi fan, ya’ni o‘ziga xos “kontrgrammatika” sifatida qaraladi. Stilistik tadqiqotlarning alohida sohasi – “og‘ishlar stilistikasi” – shakllanadi. Bu yo‘nalish me‘yorlashtirilgan tilda faqat yordamchi hodisani ko‘radi, u esa faqat adabiy tilning “og‘ishlari” uchun mavjud deb hisoblanadi⁶⁴. Bunday nuqtayi nazarga yo‘naltirilish til haqidagi ushbu fan sohasining maqsad va vazifalarini toraytiradi hamda poetik til mohiyatini tushunishni buzadi.

X. Uiddousonning fikricha, stilistikani semantik va sintaktik anomaliyalarni tasvirlashga emas, balki standart til qanday qilib poetik bayon kabi murakkab va o‘ziga xos kommunikativ funksiyada qo‘llanishi va adabiy tilning potensial imkoniyatlari turli ifoda vositalarini yaratishda qanday ishlatilishini aniqlashga yo‘naltirish prinsipial jihatdan to‘g‘ridir⁶⁵. Biroq poetik asarlar tilining oddiy ifoda shakllaridan farqi faqat me‘yordan og‘ishlarda emas. Aslida bu og‘ishlar aynan shu poetik asar kontekstida uning uchun “to‘g‘ri” deb baholanishi, ya’ni uning okkazonal me‘yorini buzmay, aksincha, shu namunadagi poetik nutqning o‘ziga xosligi va takrorlanmas “kolorit”ini yaratishi mumkin. So‘nggi paytlarda poetik til tadqiqotchilari alohida poetik asar tilining “dialektal” xususiyatini ta’kidlamodalar.

U. Oomen qayd etadiki, og‘ishlarning tizimli xususiyati, shu poetik matn uchun o‘z me‘yorini yaratadi va, ehtimol, “biz she’rni o‘zimizga noodatiy bo‘lsa ham, bog‘langan va yaxlit tuzilma sifatida qabul qilishimizni ta’minlaydi”⁶⁶. Shu bilan birga poetik til asosida umumxalq va adabiy tilni tan olish lozim. Poetik va adabiy til aynan bir narsa emas, biroq ular o‘rtasidagi organik bog‘liqlik shubhasizdir.

F. P. Filin ta’kidlaydiki, yozuvchi “o‘z til ijodkorligida erkindir va uning tilining jozibasi individual hamda takrorlanmas o‘ziga xosligidadir, biroq u faqat ma’lum darajagacha erkindir...”

Tilning tashkil etilgan, tizimli ravishda me‘yorlarni buzishi bu to‘la qonuniy hodisa sifatida qaralishi mumkin, chunki poetik til o‘zining maxsus maqsadlariga erishish uchun alohida usullarga muhtojdir [Strukturalizmning asosiy yo‘nalishlari 1964, 118]. Poetik matnni keyingi tadqiqotlarda, ayniqsa transformatsion-generativ grammatika doirasida, adabiy til me‘yorlarini ataylab buzish haqidagi qarash yanada rivojlantiriladi. Shu bilan birga ta’kidlash lozimki, bu qarash bahsli hisoblanadi, chunki yetarli miqdorda badiiy ta’sir kuchiga ega bo‘lgan, biroq standart ifoda shakllarini ochiqchasiga buzmaydigan poetik matnlar mavjud. Ushbu yondashuv poetik tilni adabiy til bilan uzviy bog‘liq, biroq unga aynan teng bo‘lmagan, mustaqil hodisa sifatida tasdiqlashga xizmat qiladi. Biroq nutq faoliyatining ikki turini keskin qarama-qarshi qo‘yish, ularga alohida “tillar” maqomini berish va ularni o‘ziga xos

⁶⁴ Sanders W. Linguistische Stiltheorie; Problems, Prinzipient und modern Perspektiven des Sprachstils. Göttingen: Vandenhoeck & Ruprecht. 1973, –S 86.

⁶⁵ Widdonson H. On the deviance of literary discourse. – Style, Fayetteville, 1972, vol. 6, N 3.

⁶⁶ Linguistische Grundlagen poetischer Texte. Tübingen: Niemeyer, 1973. –S 87.

“shartli tizimlar” bilan tavsiflash, poetik tilni ijtimoiy tildan maxsus ajratilgan holda talqin qilish, poetik tilning semiologik tuzilmasini mazmunga emas, balki belgining o‘ziga, so‘z ifodasiga yo‘naltirilgan deb hisoblash, bundan esa poetik til evolyutsiyasining “immanentligi”ni, ya’ni uning “madaniy-tarixiy, sotsiologik va psixologik g‘oyalardan”, poetik tilga nisbatan “begona” omillardan mustaqil rivojlanishini tan olish – ham rus formal maktabi, ham Praga lingvistik to‘garagi konsepsiyalarida xato deb baholanadi.

Hozirgi vaqtda ham poetik til, adabiy til va milliy til tushunchalari o‘rtasidagi haqiqiy munosabat masalasi to‘liq hal etilgan deb bo‘lmaydi. Biroq poetik tilni alohida, izolyatsiyalangan hodisa sifatida talqin qilish prinsipi, shubhasiz, uning boshqa til faoliyati shakllari tizimidagi o‘rnini noto‘g‘ri tasavvur etishga olib keladi. E’tiborlisi shundaki, keyingi davr “chex” tilshunoslari Praga maktabining ayrim qoidalarini tanqidiy baholaganlar. Jumladan, ulardan ba’zilari poetik tuzilmaning yopiq, “o‘z-o‘ziga yetarli” va “o‘z-o‘ziga yo‘naltirilgan” ekanligi haqidagi tezisni rad etib, badiiy asarning ijtimoiy va tarixiy shartlanganligini ta’kidlaydilar.

Lingvistik va lingvopoetik kontekstda “strukturaviy buzilish”, ya’ni til birliklari yoki xatolik sabab chetga chiqishida me’yoriy tartib buzilgan bo‘ladi. She’riy nutqda to‘liq gapning parchalarga bo‘linishi (fragmentatsiya) sintaktik yaxlitlikni buzadi. Bu usul orqali lirik subyektning ichki holati, uzilgan fikrlar, ruhiy beqarorlik yoki keskin hissiy kechinma aks ettiriladi. Ichki monolog taassuroti kuchayadi, psixologik taranglik yuzaga keladi, she’r ohangda “uzilish” obrazli ma’noga ega bo‘ladi. She’riyatda fragmentatsiya va sintaktik parchalash estetik ekspressiya vositasi sifatida talqin qilinadi. Rus formalistlari, xususan, Shklovskiy ta’kidlaganidek, til me’yoridan og‘ishi o‘quvchi idrokini yangilash uchun xizmat qiladi. She’riy sintaksisdagi noodatiy tuzilma matnni “begonalashtirib”, oddiy fikrni noodatiy shaklda taqdim etadi. O‘quvchi matnni sekin va chuqurroq idrok qiladi, poetik obraz yangicha qabul qilinadi, avtomatik o‘qish buziladi. Lisoniy o‘qish va foregrounding nazariyasi doirasida strukturaviy buzilish estetik vosita sifatida izohlanadi. Ba’zi she’rlarda vazn bilan sintaksis o‘rtasida ataylab nomuvofiqlik yaratiladi. Gap tabiiy joyda tugamay, vazn talabiga ko‘ra cho‘ziladi yoki bo‘linadi. Ritm va ma’no o‘rtasida poetik dinamika kuchayadi, o‘quvchi ohang va mazmunni birgalikda sezadi. She’riy metr va semantika o‘rtasidagi murakkab munosabat strukturaviy estetikaga ta’sir ko‘rsatadi. She’riy nutqda yangi so‘z yasash shakllari, noodatiy affiksatsiya yoki me’yoriy bo‘lmagan so‘z yasash orqali morfologik struktura buziladi. Poetik yangilik va individuallik kuchayadi, tilning ijodiy imkoniyatlari ochiladi, ma’no va shakl o‘rtasida kutilmagan bog‘lanish paydo bo‘ladi. Morfologik og‘ish Jakobsonning “poetik funsiya”si doirasida estetik qiymat yaratishi ko‘rsatiladi. Parallel konstruksiyalar kutilgan holda davom etmay, to‘satdan o‘zgartirilsa, strukturaviy simmetriya buziladi. Bu o‘quvchi kognitiv kutuvini izdan chiqaradi. Kognitiv kutilmaganlik yuzaga keladi, lirik ziddiyat kuchayadi, semantik urg‘u kuchliroq seziladi. Parallelizm va uning buzilishi poetik idrokda kognitiv-estetik ta’sir ko‘rsatishi ta’kidlanadi. Elliptik uslubda gaplar ataylab to‘liq berilmaydi, natijada strukturaviy bo‘shliqlar yuzaga keladi. O‘quvchi hamkor muallifga aylanadi, sukut va bo‘shliq ham poetik vositaga aylanadi, yashirin

ma'nolar kuchayadi. Elliptik poeziyada sintaktik uzilish estetik imkoniyat sifatida talqin qilinadi. She'riy nutqda strukturaviy buzilishlar (fragmentatsiya, metr-sintaksis nomuvofiqligi, morfologik og'ish, simmetriyaning buzilishi, elliptiklik) faqat me'yorni buzish emas, balki estetik va kognitiv ta'sirni kuchaytiruvchi mexanizm sifatida ishlaydi. Bu hodisalar orqali she'riy matn o'quvchi idrokini faollashtiradi, hissiy va obrazli chuqurlikni oshiradi.

Strukturaviy buzilish – bu she'riy matnda tilning odatiy grammatik, sintaktik, metrik yoki kompozitsion me'yorlaridan ongli ravishda chekinishdir. Bu chekinish xatò emas, balki poetik litsenziya bo'lib, estetik, semantik va pragmatik ta'sirni kuchaytirish uchun qo'llanadi. Lingvopoetikada bunday hodisa deviasiya, foregrounding yoki ikkinchi darajali me'yor buzilishi sifatida talqin qilinadi. Strukturaviy buzilishning bir necha turlari mavjud: anjambmang – satr oxirida sintaktik birlik tugallanmay keyingi satrga o'tib ketishi. Ma'no kechikishini yuzaga keltirish, ritmik taranglikni kuchaytirish, o'quvchi diqqatini muhim so'zga jamlash. Anjambmang poetik sintaksisning muhim vositasi bo'lib, ritm va semantik effekt yaratadi. Parselatsiya – sintaktik jihatdan bitta gap bo'lishi mumkin bo'lgan birlikning sun'iy ravishda bir necha bo'lakka ajratilishi. Parselatsiyaning vazifasi emotsional-ekspressiv ta'sir, intonatsion pauzalarini kuchaytirish, ma'no markazini ajratib ko'rsatish. Inversiya (lot. inversed-o'rin almashtirish)da ijodkor xohishiga ko'ra ta'kidlamoqchi bo'lgan fikrni ta'sirchan qilmoq maqsadida grammatik qoidalardan chekinadi va kitobxonning diqqatini aynan shu fikrga tortadi: Aytarlar bu tunda yorug' sham yonmas, / Chaqmasa gugurtni asl o'g'illar...(Cho'lpon). Cho'lponning bu satrlari grammatika qonuniga binoan shunday tarzda bo'lishi lozim: "Asl o'g'illar gugurtni chaqmasalar, bu tunda yorug' sham yonmasligini aytardilar". Bunday holda she'riy nutq so'nadi, ta'sirchanlik, chaqiriq, ifodalilik yuzaga kelmaydi, oddiy xabar – bayon tug'iladi... Xullas, allomalar so'zni hali qayta ishlanib tozalanmagan oltinga o'xshatadilar. Tozalanmagan, pardoatlanmagan, tanlanmagan, qisqaroq aytsak, poetik "yuk"ni o'zida tashimaydigan so'z adabiyotga daxldor bo'la olmaydi. Badiiylilikni yuzaga chiqarishga qurbi yetmaydigan, holat va kayfiyatni ifoda qila olmaydigan so'zning o'zi yo'q, faqat uni topa bilish, o'z o'rnida qo'llay bilish san'atini egallash talab etiladi. Bunday mahoratga ega yozuvchi "butun bahorni atigi chigitdek keladigan g'o'ra ichiga qamab bera biladi" (A.Qahhor). Inversiya so'z tartibining buzilishi. Gapdagi odatiy so'z tartibining o'zgarishi. Inversiyaning vazifasi ritm va qofiyaga moslashish, muayyan komponentni urg'ulash, poetik darajani oshirishdan iborat. Strukturaviy buzilish she'riy nutqda foregrounding (ajratib ko'rsatish) mexanizmini yaratadi, o'quvchi idrokini faollashtiradi. Ritm va ma'no o'rtasida dinamik munosabat hosil qiladi. Individual poetik uslubni shakllantiradi. Ilmiy adabiyotda bu hodisa normadan chekinish orqali yangi estetik qiymat yaratish sifatida baholanadi. Strukturaviy buzilish – bu she'riy matnda odatiy sintaktik, grammatik, metrik, grafologik yoki kompozitsion me'yorlarning ongli ravishda buzilishi yoki o'zgartirilishidir. Lingvopoetikada bu hodisa deviasiya va foregrounding tushunchalari bilan izohlanadi. Praga lingvistika maktabi J.Mukarovskiy va G.Lich nazariyasiga ko'ra, she'riy tilning estetik funksiyasi aynan me'yorning buzilishi

orqali nutqni avtomatlashtirilgan qabuldan chiqarish bilan bog‘liq. Ya’ni o‘quvchi tilni oddiy axborot vositasi sifatida emas, balki estetik obyekt sifatida idrok etadi. Rus formalistlari nazariyasida strukturaviy buzilish “begonalashtirish” (defamiliarization) bilan bog‘lanadi⁶⁷. Bunda tanish sintaktik yoki ritmik tuzilmalar buzilib, o‘quvchi idroki sekinlashtiriladi va chuqurlashtiriladi. Natijada idrok jarayoni cho‘ziladi, estetik ta’sir kuchayadi, matnning shakliy tomoni mazmun bilan teng darajada muhimlashadi. Bu jarayon she’riy strukturaning dinamik xarakterini ta’minlaydi. Strukturaviy buzilish turli xil sathlarda namoyon bo‘ladi. 1. Sintaktik daraja: inversiya-so‘z tartibining buzilishi, parselatsiya- gapning bo‘laklanishi, ellipsis – bo‘laklarning tushirilishi, anjambmang- satr va gap chegaralarining mos kelmasligi. Bu vositalar she’rda ritmik-sintaktik ziddiyat yaratadi va ma’no urg‘usini kuchaytiradi. 2. Metrik-kompozitsion daraja: metrik pauza bilan sintaktik pauzaning mos kelmasligi, satr bo‘linishining semantik bo‘linishga zid kelishi, band va satr strukturasi buzilishi. Bu holat “kutishning buzilishi” effektini yuzaga keltiradi va o‘quvchi e’tiborini faollashtiradi. 3. Grafologik (vizual) daraja: satrlarning g‘ayrioddiy joylashuvi, tinish belgilarining ataylab buzilishi yoki ortiqcha qo‘llanilishi, bo‘shliqlar orqali pauza yaratish. Vizual struktura ham semantik yuk tashuvchisi omilga aylanadi. Strukturaviy buzilish shoirning ideolektini belgilaydi, muallif poetikasining asosiy belgilaridan biriga aylanadi, an’anaviy poetik me’yorlar bilan ziddiyatli dialog hosil qiladi. G.Lich va M.Short nazariyasiga ko‘ra, badiiy matnni boshqa diskurs turlaridan ajratib turuvchi asosiy omil aynan lingvistik devyatsiya darajasidir. Strukturaviy buzilish muhim birliklarni oldinga chiqarish, emotsional-ekspressiv kuchayish, ritm va ma’no o‘rtasida taranglik yaratish, ko‘pqatlamli semantika hosil qilish, o‘quvchi idrokini faollashtirish lingvopoetik funksiyalarni bajarish kabilarni o‘z ichiga oladi. Shu sababli zamonaviy lingvopoetikada strukturaviy buzilish she’riy tilning zaruriy va qonuniy komponenti sifatida baholanadi, xatò yoki normadan chekinish emas, balki estetik strategiya sifatida talqin qilinadi.

Soletsizm va anjambmangning poetik diskursdagi umumiy va farqli jihatlari

Poetik tilni sinxron tavsiflash asoslarini ishlab chiqish poetik tilni umumiy muloqot tili bilan aynanlashtirishda yo‘l qo‘yilgan xatolardan xalos bo‘lishga qaratilishi kerak. Poetik ijod til belgilarining avtonom qadriyatiga tayanishga intiladi, bundan kelib chiqadiki, muloqot tilida faqat yordamchi rol o‘ynaydigan lingvistik tizimning barcha tomonlari poetik nutqda mustaqil ahamiyat kasb etadi... Ifoda vositalari, shu jihatdan ularning o‘zaro munosabatlari muloqot tilida avtomatlashtirishga intilsa, poetik tilda, aksincha, aktualizatsiyaga yo‘naltiriladi⁶⁸. Poeziyaning tashkil etuvchi belgisi so‘z ifodasiga yo‘naltirilganlikdir. Poetik til

⁶⁷ Шкловский, В. Воскрешение слова. СПб. 1914. – 16 с.

⁶⁸ Кожин А.Н. Структура и функционирование поэтического текста. Очерки лингвистической поэтики. – Москва: Наука. 1985. – С. 48.

evolyutsiyasining immanent xarakteri qisman adabiyot tarixida madaniy-tarixiy, sotsiologik va psixologik g'oyalarning ustuvorligi bilan tushuntiriladi, ya'ni o'rganilayotgan hodisaga nisbatan begona bo'lgan hodisalardan foydalanish bilan izohlanadi. Turli tizimlar o'rtasidagi bog'lanishlarni o'rganish o'rniga poetik tilni o'z ichki xususiyatlarini o'rganish lozim⁶⁹. J. Mukarjovskiy fikricha, poetik til adabiy tilning bir ko'rinishi emas, chunki u leksika va sintaksis jihatidan barcha strukturaviy hosilalarga ega, ba'zi hollarda esa mazkur til taraqqiyotining turli davrlariga oid elementlarni ham o'z ichiga oladi⁷⁰. Biroq bunday qarash, rus "formal" maktabi konsepsiyasida bo'lgani kabi, poetik tilni amaliy tilga qarama-qarshi qo'yuvchi va Mukarovskiy ishlarida eng yorqin ifodasini topgan talqin Praga maktabi nazariyasida unchalik qat'iy shaklda namoyon bo'lmaydi. Birinchidan, bu til tizimlari o'rtasidagi yaqin aloqa inkor etilmaydi, u, avvalo, adabiy til poetik til uchun fon vazifasini bajarishiga asoslanadi, ya'ni estetik maqsadlar bilan asarning til qismlarini ataylab deformatsiya qilish, til me'yorini qasddan buzish aynan shu fon asosida namoyon bo'ladi. Adabiy me'yorning buzilishi, ayniqsa, tizimli buzilishi, tildan poetik maqsadlarda foydalanish imkonini beradi. Ma'lum bir qonuniyat kuzatiladi: adabiy me'yor qanchalik barqaror bo'lsa, uni buzish imkoniyatlari shunchalik xilma-xil bo'ladi, aksincha, adabiy me'yor sust bo'lgan til poeziyaga kamroq vosita beradi. Ikkinchidan, Praga maktabining ayrim vakillari, masalan B. Gavranek, poetik tilni adabiy tilga tur sifatida mansub deb hisoblaydi. Poetik til umumiy adabiy til tizimidagi funksional tillardan biri sifatida, ya'ni so'zlashuv, rasmiy ish yuritish va ilmiy tillar bilan bir qatorda talqin qilinadi yoki u adabiy til bilan parallel ravishda mavjud bo'lgan til sifatida belgilanadi⁷¹.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, "formalistlar" (ayniqsa, Tinyanov) ishlarida poetik til hodisalarini tahlil qilishda funksional yondashuv allaqachon sezila boshlagan, biroq "funksiya" atamasidan foydalanish izchil emas va "maqsadli yo'nalish" ma'nosini to'liq ifodalamaydi. Tilni belgilar tizimi sifatida tasavvur qilgan Praga maktabi uchun til funksiyasi tushunchasi nihoyatda muhimdir, ularning talqinida funksiya maqsadli yo'nalishga tenglashtiriladi. Poetik til bilan adabiy til o'rtasidagi farq, shuningdek til hodisalarining avtomatlashtirilish muammosi ham aynan shu nuqtayi nazardan ko'rib chiqiladi. Poetik tilning funksiyasi til ifodasining maksimal aktualizatsiyasidan iborat bo'lib, u xabarni bayonotning maqsadi sifatida ikkinchi planga suradi va uni "o'z-o'ziga maqsad"ga aylantiradi, ya'ni bu jarayon ifoda, gapirish aktining o'zini oldinga chiqarish uchun amalga oshiriladi⁷².

Poetik til umumxalq tiliga tayangan holda, ammo undan estetik maqsad bilan og'ishlar orqali farqlanuvchi nutq shaklidir. Bunda grammatik, sintaktik va ritmik imkoniyatlar kengaytiriladi. Roman Jakobson poetik funksiyani tilning

⁶⁹Mukarovskiy J.O jazyce basnickem.— Slovo a slovesnost. Praha, 1940. R.6. — S 407.
O'sha manba.— B 407.

⁷¹ Гавранек Б. О функциональном расслоении литературного языка. — Москва: Прогресс. 1967.— С.432-444.

⁷² Mukarovskiy J.O jazyce basnickem. — Slovo a slovesnost. — Praha, 1940. R.6. —S 407.

estetik markazlashuvi, ya'ni shaklning mazmundan ustuvorligi bilan izohlaydi. Demak, poetik nutqda shakily o'zgarishlar jumladan, soletsizm va anjambmang maqsadli hodisa hisoblanadi. Soletsizm – grammatik yoki sintaktik me'yordan og'ish. Oddiy nutqda bu xatô sanalsa, poetik nutqda u uslubiy vosita sifatida xizmat qiladi. Qahramon nutqini individuallashtirish, og'zaki nutq effektini berish, hissiy-ekspressivlikni kuchaytirish ijtimoiy yoki psixologik xarakter ochish kabi poetik vazifalarni bajaradi. Soletsizm poetik tilda simmetriyani buzadi, o'quvchi e'tiborini shaklga qaratadi, ritmik notekislik orqali poetik ta'sir qiladi. Anjambmang misra yoki bayt chegarasida sintaktik butunlikning uzilishi va fikrning keyingi satrga ko'chishi. Bu hodisa she'riy nutqda ritmni jonlantiradi, pauza va intonatsiyani boshqaradi, ma'no cho'zilishini ta'minlaydi. Viktor Jirmunskiy anjambmangni she'riy sintaksisning muhim ko'rinishi sifatida baholab, uni poetik nutqning dinamik elementi deb ko'rsatadi. Anjambmang sintaktik qisqarish va kengayish jarayonlari bilan ham bog'liq. Ya'ni misra oxiridagi pauza grammatik tugallikni bermaydi, natijada o'quvchi keyingi misraga majburiy ravishda o'tadi.

Soletsizm grammatik norma buzilishi bo'lib, gap tuzilishida sintaktik yoki morfologik xatolik yuzaga kelishini bildiradi. Klassik tilshunoslikda bu hodisa xato sifatida baholansa-da, poetik diskursda u stilistik vosita sifatida ataylab qo'llanib, nutqning normadan chekinishini estetik va semantik maqsadlarga xizmat qildirish uchun ishlatiladi. Soletsizm asosan sintaktik noto'g'rilik bilan bog'liq bo'lib, u poetik matnda subyektiv nutq, obrazli buzilish yoki ijtimoiy-psixologik effekt yaratishda muhim bo'lishi mumkin⁷³.

Anjambmang she'riy satr oxirida sintaktik birlik tugallanmasdan, keyingi satrga o'tib ketishi hodisasidir. Bu texnika ritm, intonatsiya va semantik kuchlanishni oshiradi hamda o'quvchida kutish effektini yuzaga keltiradi. Anjambmang poetik shakl va sintaksis o'rtasidagi ziddiyat orqali estetik ta'sirni kuchaytiradi. Soletsizm va anjambmang poetik diskursda quyidagi umumiy funksional xususiyatlarga ega: normadan chekinish har ikkisi tilning odatiy grammatik yoki strukturaviy me'yorlarini buzadi. Estetik effekt yaratish o'quvchi e'tiborini kuchaytiradi, poetik nutqni "oddiy" tildan ajratadi. Diskursiv kuchlanish mazmunni qabul qilish jarayonida pauza, kutilmaganlik yoki semantik uzilish hosil qiladi. Individual poetik uslubni ko'rsatish shoirning uslubiy strategiyasi sifatida xizmat qiladi. Bu jihatlar poetik diskursda til va shakl o'rtasidagi dinamik munosabatni ko'rsatadi⁷⁴.

Farqli jihatlar (asosiy tafovutlar):

Mezoni	Soletsizm	Anjambmang
Til darajasi	Grammatik (sintaksis/morfologiya)	She'riy satr va sintaksis chegarasi

⁷³ Wikipedia – Solecism

⁷⁴ Wikipedia – Enjambment; Rumeli DE Journal. Sariaslan, 2023.

Asosiy mohiyat	Grammatik xató yoki ataylab buzilish	Satr oxirida sintaktik tugallanmaslik
Normativ baho	Odatda xató sifatida qaraladi	Qonuniy poetik texnika
Estetik vazifa	Disbalans, g'ayrioddiylik, nutqni buzish	Ritm, kuchlanish, ma'no cho'zilishi
Deviatsiya turi	Mikro (gap ichida)	Makro (satrlararo)
Diskurdagi roli	Til normasini buzish orqali obraz yaratish	Strukturaviy uzilish orqali semantik dinamika
Poetik vazifa	Obrazli nutq, ekspressiya	Ritm, dinamika

Poetik diskurs nuqtayi nazaridan soletsizm til normasining buzilishi orqali grammatik darajada estetik effekt yaratadi. Anjambmang esa she'riy shakl va sintaksis o'rtasidagi ziddiyat orqali strukturaviy-estetik effekt hosil qiladi. Shu bois ular o'xshash funksional natijalarga ega bo'lsa-da, soletsizm mikro (grammatik) darajada, anjambmang esa makro (satr va ritm) darajada ishlaydi. Poetik diskurs tilning me'yoriy tizimidan ongli ravishda chekinish orqali estetik va semantik intensivlikni oshirishga qaratilgan diskurs turi hisoblanadi. Stilistika va lingvopoetika nazariyalariga ko'ra, bunday chekinishlar foregrounding (oldinga chiqarish) mexanizmi orqali o'quvchi diqqatini shakl va mazmunga bir vaqtda jamlashga xizmat qiladi (D. Yusupov, 2018). Shu nuqtayi nazardan, soletsizm va anjambmang poetik nutqda devitsiya, ya'ni normadan og'ishning ikki turli darajasini ifodalaydi: soletsizm grammatik darajadagi devitsiya, anjambmang satr-sintaksis munosabatidagi strukturaviy devitsiya. Soletsizm grammatik me'yorlarning buzilishi, sintaktik kelishmovchilik, noto'g'ri shakl, ikki karra inkor, noto'g'ri kelishik va h.k. Klassik grammatika uchun bu xato, biroq poetik diskursda u stilistik figura sifatida ishlatiladi. Poem Analysis va stilistik manbalarga ko'ra, soletsizm ko'pincha nutqning tabiiyligini kuchaytirish, obraz nutqini individuallashtirish, psixologik holatni ko'rsatish, tilning ekspressiv imkoniyatlarini kengaytirish uchun qo'llanadi. Soletsizm poetik diskursda quyidagi funksiyalarni bajaradi: 1.Ekspressivlik - grammatik buzilish orqali hissiy holatni kuchaytirish. 2.Obrazli individuallik- qahramon nutqini ijtimoiy yoki psixologik jihatdan belgilash. 3.Normaga qarshi poetik pozitsiya – tilning qotib qolgan me'yorlariga qarshi estetik isyon. 4.Semantik noaniqlik – ma'noda qasddan buzilish orqali ko'pqatlamlilik yaratish. Bu jihatlar soletsizmni poetik diskursda mikrostrukturaviy stilistik vosita sifatida tavsiflaydi. Anjambmang strukturaviy-estetik mexanizm. Anjambmang satr oxirida sintaktik birlik tugallanmasdan, keyingi satrga ko'chishi. Bu holat satr chegarasi bilan sintaksis chegarasi o'rtasida ziddiyat hosil qiladi. Adabiyotshunoslik manbalariga ko'ra, anjambmang semantik kuchlanish, ritmik dinamika, o'qish jarayonida kutilmaganlik yaratadi. Diskursiv va ritmik funksiyalar. Anjambmangning asosiy poetik vazifalari ritmik tezlikni oshirish, satr oxiridagi pauzaning semantik jihatdan “bekor qilinishi”, kuchlanish va ma'noning keyingi

satrda ochilishi. Satr va ma'no o'rtasidagi ziddiyat poetik shaklning semantik rolini kuchaytiradi, narrativlik (hikoya qilish) she'riy matnda hikoyaviy oqimni uzluksiz qiladi. Tadqiqotlarda, xususan, ingliz va qiyosiy poetika bo'yicha ishlar, anjambmang modern va erkin she'riyatda asosiy strukturaviy vositalardan biri ekani ta'kidlanadi.

Modern she'riyat XX asr boshlaridan shakllanib, an'anaviy aruz va barmoq tizimidan chekinib, yangi badiiy ifoda vositalari, erkin shakl va individual tafakkurga tayangan she'riyat yo'nalishidir. Modern she'riyatda shakliy erkinlik, ya'ni vazn va qofiya qat'iyligi buziladi, erkin she'r – verlibr keng qo'llanadi. Ichki kechinma va subyektivlik shoirning ruhiy holati, ichki iztirobi, ong oqimi tasviri kuchayadi. Ramziy va obrazli tafakkur – ramz metafora, timsol va assotsiativ tasvir yetakchi o'rin tutadi. Til tajribasi va yangilik – so'zlarning noodatiy qo'llanilishi, sintaktik qisqarishlar, parchalangan gaplar uchraydi. Modern she'riyat – bu an'anaviy qoliplardan chiqib, insonning ichki olamini yangi badiiy shakl va til orqali ifodalashga intilgan adabiy hodisadir. Unda mazmun shakldan ustun turadi, individual poetik tafakkur esa asosiy mezonga aylanadi. Aynan soletsizm va anjambmangda ham mazmun shakldan ustuvor bo'lib, kuchli poetik effekt hosil qiladi.

Soletsizm va anjambmang quyidagi umumiy lingvopoetik xususiyatlarga ega:

1. Foregrounding: har ikkisi tilning "odatdagi" oqimini buzib, poetik shaklni oldinga chiqaradi.
2. Normadan chekinish orqali estetik effekt: me'yor buzilishi poetik qiymatga ega bo'ladi.
3. Diskursiv kuchlanish: o'quvchi uchun ma'no qabul qilish jarayoni murakkablashadi.
4. Individual poetik uslubni shakllantirish: shoirning individual til uslubini belgilaydi.

Lingvopoetik nuqtayi nazardan soletsizm – poetik diskursda grammatik me'yor buzilishi orqali estetik va ekspressiv effekt yaratadigan mikrostrukturaviy vosita. Anjambmang- poetik diskursda satr va sintaksis chegaralarini ziddiyatga keltirish orqali ritmik va semantik dinamika hosil qiladigan makrostrukturaviy vosita. Shu bois ular funksional jihatdan yaqin bo'lsa-da, poetik tizimda turli darajalarda ishlaydi va turli tipdagi estetik mexanizmlarni ishga soladi.

Foregrounding va deviatsiya nazariyasi bilan bog'liqlik. Praga maktabi (Jan Mukařovský)⁷⁵ va G. Leech stilistika nazariyasiga ko'ra, poetik tilning asosiy belgisi -foregrounding, ya'ni til me'yoridan og'ish orqali badiiy shaklni oldinga chiqarishdir. Soletsizm va anjambmang aynan shu mexanizm orqali ishlaydi. Soletsizm grammatik me'yorlardan deviatsiya orqali foregrounding hosil qiladi. Anjambmang satr va sintaksis chegaralarining mos kelmasligi orqali strukturaviy

⁷⁵ Mukařovský, J. The Word and Verbal Art. – London: Yale University Press, 1977. – 238 p.

foregrounding yaratadi. Leech (1969) poetik tilni “normadan ongli chekinish” deb talqin qilib, grammatik va strukturaviy buzilishlar badiiy ma’no tashuvchi birliklarga aylanishini ta’kidlaydi⁷⁶. Soletsizm o’quvchi uchun kognitiv dissonans (kutilmaganlik) keltirib chiqaradi. Grammatik jihatdan “noto’g’ri” shakl o’quvchini matnga qayta e’tibor qaratishga, yashirin ma’nolarni izlashga, obrazli talqinga o’tishga majbur qiladi. Bu holat lingvopoetikada defamiliarizatsiya (odatiylilikni buzish) mexanizmi bilan izohlanadi. Anjambmang esa o’qish jarayonini chiziqli emas, balki kuchlanishli qiladi. Satr oxiridagi pauza semantik jihatdan “aldovchi” bo’lib, o’quvchi keyingi satrga majburiy ravishda o’tadi. Natijada o’qish tezligi o’zgaradi, intonatsion model buziladi, semantik kutish effekti kuchayadi. Diskurs stilistikasi tadqiqotlarida bunday holat prosodik va semantik nomutanosiblik sifatida baholanadi. Soletsizmning janrga bog’liqligi. Soletsizm, ayniqsa, dramatik poeziyada, dialogik she’rlarda, folklor yoki og’zaki nutqqa yaqin uslublarda keng uchraydi. Bu holatda soletsizm qahramon nutqini individuallashtiradi, ijtimoiy qatlamni ko’rsatadi, “tirik nutq” effektini beradi. Elena Semino (2002) poetik matnda til variantlarining qo’llanishi obraz va diskurs tipini shakllantirishini ko’rsatadi⁷⁷.

Anjambmangning tarixiy va uslubiy evolyutsiyasi. Anjambmang klassik she’riyatda cheklangan, modern va erkin she’riyatda esa markaziy vositaga aylangan. Bu evolyutsiya she’riy shaklning qat’iy metrga bo’ysunishdan erkin sintaktik oqimga o’tishi bilan bog’liq. Metr va ma’no o’rtasidagi munosabat haqidagi zamonaviy tadqiqotlar ham shakl va semantika o’rtasidagi ziddiyat poetik innovatsiyaga olib kelishini ko’rsatadi. Lingvopoetik jihatdan soletsizm mikrostrukturaviy daraja, ya’ni gap ichidagi grammatik munosabatlar, anjambmang makrostrukturaviy daraja, satrlararo, ritm-sintaksis munosabati. Bu tafovut poetik diskursni ko’p qatlamli tizim sifatida tahlil qilish zarurligini ko’rsatadi. Semiologik va “literariness” bilan aloqasi. “Literariness” (badiiylik) nazariyasiga ko’ra⁷⁸, badiiy matn oddiy kommunikativ matndan aynan shunday devitsiyalar orqali farqlanadi. Soletsizm va anjambmang avtomatlashtirilgan tilni buzadi, belgilar tizimida ikkilamchi semioz, ramziy ma’no yaratadi, matnni “oddiy axborot”dan “badiiy diskurs”ga aylantiradi. Bu yondashuv Rossiya formalistlari va zamonaviy stilistika bilan uyg’unlashadi. Lingvopoetik va diskursiv nuqtayi nazardan soletsizm poetik diskursda grammatik darajadagi ongli buzilish orqali ekspressivlik, obrazlilik va kognitiv faollikni kuchaytiruvchi vosita. Anjambmang poetik diskursda satr va sintaksis o’rtasidagi ziddiyat orqali ritmik, semantik va reseptiv dinamikani yuzaga keltiruvchi strukturaviy mexanizm. Shu sababli ular umumiy jihatdan foregrounding va devitsiya vositalari, farqli jihatdan biri grammatik, ikkinchisi strukturaviy-poetik darajada ishlovchi mexanizmlar sifatida tavsiflanadi.

Soletsizm nutq yoki matnda grammatik, sintaktik yoki mantiqiy me’yordan ongli yoki ongsiz og’ishdir. Poetik diskursda soletsizm ko’pincha estetik maqsadda,

⁷⁶ Leech, G. A Linguistic Guide to English Poetry. – London: Longman, 1969, – S 240.

⁷⁷ Semino, E. (2002). Stylistics and Linguistic Variation in Poetry. – London: University of London, 1997.

⁷⁸ Wikipedia. Enjambment: Literariness.

ya'ni til normasini buzish orqali ifodaning ekspressivligini oshirish uchun qo'llanadi. U poetik litsenziya doirasida ishlatilib, poetning individual uslubini, obrazning nutq xususiyatlarini yoki kutilmagan semantik effektlarni yaratishga xizmat qiladi.

Soletsizm poetik matnda normadan chetlanish orqali diqqatni jalb qilish, nutqning tabiiylik yoki og'zaki nutqqa yaqinlashuvi, semantik paradoks va stilistik keskinlik hosil qilish, muallifning individual poetik idiolektini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Grammatik jihatdan "xato" bo'lsa-da, poetik kontekstda qasddan ishlatilgan birliklar obrazlilikni kuchaytiradi va poetik nutqni jonlantiradi. Anjambmang – sintaktik birlikning (jumla, so'z birikmasi) she'riy misra chegarasida tugallanmay, keyingi misraga o'tib davom etish hodisasidir. Bu hodisa she'riy ritm va sintaksis o'rtasida kuchlanish hosil qiladi hamda o'quvchini matnni davom ettirishga majbur etuvchi dinamik effekt yaratadi. Anjambmang ritm va sintaksis o'rtasida nomuvofiqlik yaratish, semantik kutilmaganlik hosil qilish, misra oxiridagi so'zga alohida urg'u berish, poetik oqimni tezlashtirish yoki sekinlashtirish kabi funksiyalarni bajaradi. Anjambmang, shu jihatdan, nafaqat metrik hodisa, balki poetik diskursning sintaktik va semantik tomoniga ta'sir etuvchi muhim mexanizm sifatida qaraladi⁷⁹. Zamonaviy poetika va tarjimashunoslik tadqiqotlarida anjambmang she'riy strukturaning muhim diskursiv mexanizmi sifatida talqin qilinadi. Soletsizm va anjambmang poetik diskursda bir qator umumiy xususiyatlarga ega: ikkalasi ham til normasidan chetlanish orqali estetik effekt hosil qiladi, har ikkisi o'quvchi idrokini faollashtiradi, ya'ni matnni oddiy o'qishdan ko'ra chuqurroq tahlil qilishga undaydi, poetik nutqda individual uslubni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Diskursda kutilmaganlik va ekspressivlikni kuchaytiradi.

Mazkur umumiylik ushbu ikki hodisani poetik deviatsiyaning muhim ko'rinishlari sifatida baholash imkonini beradi. Soletsizm va anjambmang o'z funksional yo'nalishi va til tizimdagi faoliyat darajasi jihatidan farqlanadi:

Mezon	Soletsizm	Anjambo'mang
Tizim darajasi	Grammatik-sintaktik norma	She'riy-metrik va sintaktik chegara
Buzilish obyekti	Til qoidalar	Misra va sintaksis mosligi
Asosiy effekt	"Xato"lik orqali ekspressivlik	Ritm-sintaksis ziddiyat orqali dinamika
Diskursdagi roli	Lingvistik og'ish	Strukturaviy-poetik og'ish
Talqin yo'nalishi	Lingvopoetik	Metrik-sintaktik va diskursiv

⁷⁹ Attridge, D. Poetic Rhythm; An Introduction. – Cambridge: Cambridge University Press, 1995
Fussell, R. Poetic Meter and Poetic Form. – New York: McGraw-Hill, 1979

Bu farqlar shuni ko'rsatdiki, soletsizm, asosan, til me'yorlari darajasida, anjambmang esa poetik struktura darajasida faoliyat yuritadi.

Poetik diskursda soletsizm ko'proq til me'yoring buzilishi orqali stilistik va semantik ekspressivlikni ta'minlasa, anjambmang esa she'riy strukturani parchalash orqali ritmik va diskursiv kuchlanishni yuzaga keltiradi. Shu bois soletsizm lingvistik darajada, anjambmang esa asosan poetik-sintaktik va metrik darajada faoliyat yuritadi. Har ikkala hodisa ham zamonaviy poetik tahlilda norma va ijodiy erkinlik o'rtasidagi dialektik munosabatni yorituvchi muhim tushunchalar sifatida baholanadi. Poetik diskurs tilning kommunikativ emas, balki estetik-funksional imkoniyatlarini namoyon etuvchi maxsus nutq turi sifatida tavsiflanadi. Bunda adabiy til me'yorlari mutlaq qoida sifatida emas, balki ijodiy qayta talqin qilinadigan tizim sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan poetik diskursda normadan chetlanish hodisalari, ya'ni deviatsiya, estetik qiymat kasb etib, matnning badiiy ta'sirchanligini kuchaytiradi.

O'zbek mumtoz adabiyotining yuksak namoyandasi A.Navoiy g'azallarida til va uslub masalasi alohida estetik hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Shoir o'z poetik tafakkurida an'anaviy aruz tizimi, qat'iy sintaktik me'yorlar va mumtoz uslub talablariga tayangan holda, ayrim o'rinlarda me'yoriy til qoidalaridan ongli chekinishdan ham mahorat bilan foydalangan.

Soletsizm (yunoncha *solecismos*-nutqdagi me'yoriy buzilish) badiiy matnda grammatik yoki sintaktik me'yoring ataylab buzilishi orqali muayyan uslubiy ta'sir uyg'otishga xizmat qiladi. Mumtoz she'riyatda bu hodisa ko'pincha sintaktik qurilmaning o'zgarishi, gap bo'laklarining noodatiy joylashuvi, grammatik moslashuvning buzilishi yoki semantik nomutanosiblik shaklida ko'zga tashlanadi.

A.Navoiy g'azallarida ham so'z tartibi o'zgarishi tasvirni poetik va nafis qiladi. Navoiyning "Deyin" radifli g'azali mashhur g'azallaridan biri. G'azalda til me'yoridan chekinish hodisasi poetik maqsadga xizmat qiluvchi uslubiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur g'azalda ayrim sintaktik qurilmalar mantiqiy-grammatik jihatdan to'liq yoki odatiy shaklda emas. Bog'lovchi yoki to'ldiruvchi tushirib qoldiriladi, gap bo'laklari o'rnini almashtiriladi. Mantiqiy izchillikni buzayotgandek tuyuladigan konstruksiyalarni qo'llaydi. Bu esa lirik qahramonning ichki hayajoni, iztirobli va oshuhtaligini ifodalashga xizmat qiladi. Yetti baytli bu g'azalda "deyin" so'zi faqat radifdagina takrorlanib kelmaydi. Bu so'z radifda qo'llanishidan tashqari, yana 12 (jami 20) bor takroriy tarzda qo'llaniladi. Radd ulmatla', ya'ni matla'ni takrorlash san'ati asosida birinchi misra g'azalning so'nggi satri sifatida yana bir karra qaytariladi. "Deyin"(ya'ni "aytay") shakli buyruq-istak maylini ifodalovchi fe'l shakli bo'lib, har bayt oxirida takrorlanishi natijasida sintaktik mustaqillik susayadi, gaplar ichki jihatdan tugallanmagandek taassurot uyg'otadi, fikr emotsional tus oladi. Shu jihatdan radifning o'zi ham ma'lum darajada normadan og'ish bo'lsa ham soletsizm hisoblanmaydi.

Bu takrorlar ham g'azal ohangi-yu jarangini, ham fikr ta'kidini, ham oshiq hishayajoni ifodasini kuchaytirgan. G'azaldagi ohangdorlik faqat qofiya va radif

orqaligina ta'minlanmagan. Baytlarning birinchi misralarida ham ichki ohangdorlik ("yosinmu"-qarosinmu', qahrinmu-zahrinmu...) mavjud:

*Qoshi yosinmu deyin, ko'zi qarosinmu deyin,
Ko'nglima har birining dard-u balosinmu deyin?!*

*Ko'zi qahrinmu deyin, kirpiki zahrinmu deyin,
Bu kudurat ora ruxsori safosinmu deyin?!⁸⁰*

G'azalda boshdan oxir qiyos usulidan foydalaniladi. Bir qarashda, g'azal boshqa ishqiy mavzudagi lirik she'rlardan keskin farq qilmagandek, oshiq ma'shuqaning, odatdagidek, chiroyini turli uzvlari, ya'ni qoshi, ko'zi, sochi, yuzi, labidan chiqqan so'zlar va kiyimi, ya'ni moviy ko'ylagi, gulrang to'ni ta'rifi orqali tasvirlab, ishqiy iztiroblarini bayon etayotgandek tuyuladi. Biroq aslida, buyuk shoir qalamining qudrati bilan ana shu so'z va qiyoslar zahirida ajib bir badiiy go'zallik yashiringan. Bu o'quvchida ayrica zavq-shavq uyg'otadi.

G'azalda "kiprigi" so'zi "kirpigi" shaklida, "mi" so'roq yuklamasi "mu", "ko'nglima" so'zida "ga" jo'nalish kelishigi "a" tarzida qo'llanib, til buzilishi emas, balki lingvopoetik maqsadga xizmat qiluvchi usul sifatida namoyon bo'lgan. Bu jarayon g'azalda nutqning tabiiy mantiqiy oqimini buzib, dramatik pauza hosil qiladi, subyektiv hissiyotning ustuvorligini ko'rsatadi. Natijada grammatik "nomuvofiqlik" aslida estetik maqsadga xizmat qiladi, oshiqning iztirobi va murojaat ohangini kuchaytiradi. Navoiy g'azallarida grammatik shakllarning noodatiy qo'llanilishi, avvalo, poetik intensivlikni oshirish, obrazning ichki drammatizmini kuchaytirish hamda fikrning emotsional yukini ta'kidlash vositasi [www.ziyouz.com] sifatida namoyon bo'ladi. Shoir ba'zan grammatik izchillikni buzish orqali lirik qahramon ruhiyatidagi iztirob, hayrat, ishqiy kechinma yoki falsafiy mushohadani yanada ta'sirchan ifodalaydi. Bu esa tilning nafaqat kommunikativ, balki estetik imkoniyatlarini ham kengaytiradi.

Navoiyning "Yo'q" radifli g'azali baytlardagi mantiqiy bog'liqlik nuqtayi nazaridan "Jong'a chun dermen:"Ne erdi o'lmakim kayfiyati?.."g'azaliga o'xshaydi. G'azal ramali musammani mahzuf (yoki maqsur), ya'ni foilotun-foilotun-foilotun-foilon (foilon) vaznida bitilgan. Shoir matla'ning o'zidayoq yordan ayri ko'ngilni sultoni yo'q mamlakatga, keyin esa sultoni yo'q mamlakatni joni yo'q jismga o'xshatadi:

Yordin ayru ko'ngil – mulkedurur, sultoni yo'q,

⁸⁰Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami. 15-tomlik. Navodir ush-shabob.2-tom. –Toshkent: O'zSSR davlat badiiy-adabiyot nashriyoti.1963. – B 278.

Ikkinchi baytda mulohaza shu tarzda davom etadi: “Ey musulmonlar, jonsiz jismdan qanday hosil unadi, u gul-u rayhoni yo‘q bir qora tuproqning o‘zginasi-ku”. Uchinchi baytda aytiladiki: “Agar gul-u rayhoni yo‘q bir qora tuproq bo‘lsa, u bir porlab turgan Oyi yo‘q qorong‘i kecha ekan-da”. To‘rtinchi baytda aynan ana shu qorong‘i kecha ta’rifi ketadi: “Porlab turgan Oyi yo‘q qorong‘i kecha bo‘lsa, u hayot sarchashmasi yo‘q zulmat ekan-da”. Beshinchi baytda aynan shu hayot sarchashmasi yo‘q zulmat lirik qahramonni do‘zaxiy kimsaning jannatdan noumidligi haqida so‘zlashga undaydi, do‘zax esa shunday bir xumordirki, unda mastlikning imkonini yo‘q (mastlik deganda shoir ishqni, ya’ni Yaratganga intilishni ko‘zda tutgan). Maqta’da lirik qahramon Navoiyga murojaat qilib: “Unga shunday uqubatlar yuborilganki, hajridan dardi, lekin vaslidan darmoni yo‘q”, - deydi. Navoiyning “Yo‘q” radifli g‘azalida grammatik va sintaktik me’yorning eski o‘zbek tili yondashuvi bilan qiyoslasak, ongli buzilishi orqali badiiy-ekspressiv ta’sirni kuchaytirish usuli muhim poetik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. G‘azalda “dan” shaklining arxaik shakli “*din*”; “mulkedurur” so‘zidagi “*durur*” shaklida “*dir*” bog‘lamasi takrori grammatik; “*ayru ko‘ngil*” iborasi frazeologik nomuvofiqlikni tashkil etgan. Bu g‘azalda inkor drammatizmni kuchaytiradi, lirik qahramonning ichki bo‘shlig‘ini sintaktik bo‘shliq bilan uyg‘unlashadi. Radif orqali ritmik keskinlik yaratadi, nutqqa og‘zaki, iztirobli ohang beradi. Navoiy bu g‘azalda grammatik to‘liqlikdan voz kechish, elliptik tuzilmalar va inversiyalar orqali inkor kayfiyati chuqurlashtirilishini ongli poetik strategiya sifatida qo‘llaydi. Sintaktik buzilish mazmuniy iztirob bilan uyg‘unlashuiv, kuchli poetik effekt hosil qiladi.

Zamonaviy lingvopoetik yondashuvlarda poetik norma va uning buzilishi o‘rtasidagi munosabat ijodiy erkinlik va strukturaviy cheklovlar dialektikasi sifatida talqin qilinadi. Aynan shu nuqtada soletsizm va anjambmang kabi hodisalar poetik diskursning muhim strukturaviy va stilistik mexanizmlaridan biri sifatida maydonga chiqadi.

Soletsizm grammatik, sintaktik yoki mantiqiy me’yorlarning buzilishi bilan bog‘liq hodisa bo‘lib, klassik tilshunoslikda u odatda xato sifatida baholanadi. Biroq poetik diskurs doirasida soletsizm stilistik vosita maqomini oladi va muallif tomonidan ongli ravishda qo‘llanilishi mumkin. Poetik matnda soletsizm grammatik me’yordan chetlanish orqali ekspressivlikni kuchaytirish, og‘zaki nutq elementlarini kiritish orqali tabiiylik va individuallik effektini yaratish, til strukturasi bilan semantika o‘rtasida kutilmaganlik hosil qilish, muallifning idiolektini shakllantirish va mustahkamlash kabi lingvopoetik funksiyalarni bajaradi. Shu tariqa poetik soletsizm lingvistik jihatdan “xato” bo‘lsa-da, poetik diskursda u estetik qiymatga

⁸¹ Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami. 20-tomlik. 1-tom. Badoye’ ul-bidoya. – Toshkent: O‘zbekiston SSR “Fan” nashriyoti. -1987. – B 270.

ega bo'lgan funksional birlik sifatida namoyon bo'ladi. Bu hodisa til normasining qat'iy emasligini, balki badiiy kontekstda qayta kodlanishini ko'rsatadi⁸².

Anjambmang she'riy nutqda sintaktik birlikning misra chegarasida tugallanmay, keyingi misrada davom etishi bilan tavsiflanadigan poetik hodisadir. Bu jarayon metrik struktura bilan sintaktik struktura o'rtasida nomuvofiqlik yuzaga keltiradi. Anjambmang poetik diskursda ritm va sintaksis o'rtasida kuchlanish yaratish, semantik axborotni misralar bo'ylab bo'lib berish orqali suspens, ya'ni effekti hosil qilish, misra oxiridagi leksik birlikka qo'shimcha stilistik urg'u berish, poetik oqimni tezlashtirish yoki sekinlashtirish orqali diskursiv dinamikani ta'minlash funksiyalarni bajaradi. Anjambmang, shu jihatdan, nafaqat metrik hodisa, balki poetik diskursning sintaktik va semantik tomoniga ta'sir etuvchi muhim mexanizm sifatida qaraladi⁸³. Soletsizm va anjambmang poetik diskursda bir qator umumiy xususiyatlar orqali o'zaro yaqinlashadi: har ikkisi normadan chetlanish asosida shakllanadi, poetik matnda kutilmaganlik va estetik keskinlik hosil qiladi, o'quvchi idrokini faollashtirib, interpretativ faoliyatni kuchaytiradi, muallif uslubining individuallashuviga xizmat qiladi, poetik diskursning ekspressiv-resurs bazasini kengaytiradi⁸⁴. Bu farqlar shuni ko'rsatdiki, soletsizm asosan til me'yorlari darajasida, anjambmang esa poetik struktura darajasida faoliyat yuritadi. Mazkur umumiylik ushbu ikki hodisani poetik deviatsiyaning muhim ko'rinishlari sifatida baholash imkonini beradi. Poetik diskurs doirasida soletsizm va anjambmang hodisalari nazariy jihatdan tahlil qilindi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, soletsizm poetik nutqda grammatik norma buzilishi orqali stilistik va semantik ekspressivlikni ta'minlasa, anjambmang she'riy strukturaning parchalanganligi orqali ritmik va diskursiv kuchlanishni yuzaga keltiradi. Shu tariqa soletsizm va anjambmang poetik diskursda norma va ijodiy erkinlik o'rtasidagi murakkab munosabatni yorituvchi muhim lingvopoetik mexanizmlar sifatida namoyon bo'ladi hamda zamonaviy poetik tahlil uchun nazariy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Bob bo'yicha xulosalar

1. Til va ritm tushunchalarining lingvopoetik talqini shuni ko'rsatadiki, ritm badiiy matnda faqat fonetik hodisa sifatida emas, balki fonetik, sintaktik va semantik darajalarining o'zaro integratsiyasi natijasida shakllanadigan kompleks poetik tizim sifatida namoyon bo'ladi. Bu holat ritmni badiiy matnning ichki tashkil etuvchi mexanizmi sifatida baholash imkonini beradi.

2. Ritmning lingvopoetik tizimdagi estetik funksiyasi badiiy matnning ta'sirchanligini oshirish, poetik idrokni faollashtirish va emotsional-ekspressiv qatlamni kuchaytirish orqali namoyon bo'ladi. Bu esa ritmni lingvopoetik funksiya

⁸² Leech, G. *Language in Literature*.— London: Longman, 2008.

⁸³ Attridge, D. *Poetic Rhythm: An Introduction*. Cambridge: CUP, 1995

⁸⁴ Crystal, D. *The Cambridge Encyclopedia of the English Language*. Cambridge: CUP, 2003.

doirasida estetik qiymat hosil qiluvchi asosiy vositalardan biri sifatida e'tirof etishga asos bo'ladi.

3. Milliy poetik tafakkur kontekstida ritm lingvomadaniy hodisa sifatida shakllanadi. Xalq og'zaki ijodi va milliy she'riyatda takror, formulali ifodalar, alliteratsiya va assonans orqali yuzaga keladigan ritmik tuzilmalar milliy badiiy ongning o'ziga xosligini aks ettiradi. Bu esa ritmning lingvomadaniy va semiotik tizimning tarkibiy qismi sifatida talqin qilish zaruratini ko'rsatadi.

4. Til va ritmning lingvopoetik talqini ritmni badiiy matnning strukturaviy, semantik va estetik yaxlitligini ta'minlovchi asosiy poetik kategoriyalardan biri sifatida baholash imkonini beradi. Bu yondashuv ritmning badiiy matn tahlilidagi nazariy va metodologik ahamiyatini yanada kengaytiradi.

5. She'riy nutqda strukturaviy buzilishlar (inversiya, ellipsis, anjambmang, asindeton, polisindeton, parallelizmning buzilishi) grammatik me'yorni izdan chiqarish orqali estetik, emotsional va semantik chuqurlikni ta'minlaydi. Bu hodisalar poetik matnda "me'yoriy-og'ish-estetik ta'sir" zanjiri asosida ishlaydi va strukturaviy buzilish badiiy qiymat kasb etadi.

6. She'riy nutqda strukturaviy buzilishlar (fragmentatsiya, metr-sintaksis nomuvofiqligi, morfologik og'ish, simmetriyaning buzilishi, elliptiklik) faqat me'yorni buzish emas, balki estetik va kognitiv ta'sirni kuchaytiruvchi mexanizm sifatida ishlaydi. Bu hodisalar orqali she'riy matn o'quvchi idrokini faollashtiradi, hissiy va obrazli chuqurlikni oshiradi.

7. Soletsizm va anjambmang poetik diskursda normadan ongli chetlanish asosida shakllanadigan muhim lingvopoetik hodisalar hisoblanadi. Har ikkala vosita poetik nutqda estetik ta'sirchanlikni kuchaytirish, o'quvchi idrokini faollashtirish hamda muallifning individual uslubini namoyon etishga xizmat qiladi. Ular poetik diskursda kutilmaganlik, semantik keskinlik va ekspressivlikni yuzaga keltirib, badiiy matnning interpretativ imkoniyatlarini kengaytiradi.

8. Mazkur hodisalar til tizimidagi faoliyat darajasi jihatidan prinsipial farqlanadi. Soletsizm asosan grammatik va sintaktik me'yorlarning buzilishi orqali lingvistik darajada stilistik effekt hosil qilsa, anjambmang she'riy misra va sintaktik struktura o'rtasidagi nomuvofiqlik asosida metrik-sintaktik darajada poetik dinamika yaratadi. Demak, soletsizm til normasiga nisbatan og'ish sifatida talqin qilinsa, anjambmang poetik strukturaning qayta tashkil etilishi sifatida namoyon bo'ladi.

9. Soletsizm va anjambmang poetik diskursda norma va ijodiy erkinlik o'rtasidagi dialektik munosabatni aks ettiruvchi, biri lingvistik, ikkinchisi esa strukturaviy-poetik darajada faoliyat yurituvchi o'zaro bog'liq, biroq funksional jihatdan farqli mexanizmlar sifatida baholanadi.

SOLETSIZM FENOMENINING TARKIBIY VA MAZMUNY-FUNKSIONAL TAHLILI

Soletsizmning lingvistik mohiyati va tasnifi

Soletsizm tilning me'yoriy grammatik qoidalarini buzish, ayniqsa, sintaktik tuzilma darajasida yuzaga keladigan xatolikdir. Lingvistika tarixida soletsizm preskriptiv, ya'ni me'yoriy grammatika doirasida ishlab chiqilgan⁸⁵ tushuncha bo'lib, gap tuzilishi, kelishik mosligi, fe'l-ega muvofiqligi, so'z tartibi kabi jihatlardagi og'ishlarni ifodalaydi. Antik davrda soletsizm qadimgi yunon tilidagi Soloí (Soli) shahri aholisi nutqidagi "noto'g'ri" grammatik shakllar bilan bog'langan. Keyinchalik termin umumlashtirilib, har qanday til uchun grammatik qurilishdagi xatolik ma'nosida qo'llanila boshlandi. Soletsizm nutqning grammatik noto'g'riligi. Tilning adabiy me'yorlariga mos kelmaydigan so'zlar va iboralarning qo'llanilishi. Gapning ma'nosini buzmaydigan sintaktik noto'g'ri burilish. "Soletsizm" so'zi yunoncha "soloikos"- noto'g'ri ma'ruzachi ma'nosini bildiradi. Soletsizmning dastlab qo'llanilishi 1555-yilga to'g'ri keladi. "Soletsizm" atamasi qadimgi ritoriklar tomonidan Kichik Osiyodagi Kilikiyadagi yunon koloniyasi Sola shahri nomidan olingan. Shahar Arsos va Lindos kolonistlari tomonidan asos

⁸⁵ Merriam-Webster's Collegiate Dictionary. 11 th ed.– Springfield, MA:Merriam-Webster, Inc., 2003.

solingan, ammo ko'chmanchilarning avlodlari mahalliy aholi bilan aralashib, qadimgi yunon tilining sofligini yo'qotgan. Ushbu koloniya aholisi bir necha o'n yillik majburiy izolyatsiyadan so'ng yunon tilining o'ziga xos lahjasida gaplasha boshladilar. Sol shahriga kelgan metropoliya aholisi mahalliy aholining gapirganidan hayratda qolishdi, bu tushunarli tuyuldi, lekin ularning nutqida so'zlarning oxiri aralashgan, shakllari ham g'alati, jumlar joyida emas edi. Tarixchilarning fikriga ko'ra, Soli mustamlakachilari o'zlarining yunon tilining buzilishiga yo'l qo'ygan va so'zlarni noto'g'ri ishlata boshlagan. Hamma narsa aniq, ammo leksik jihatdan noto'g'ri va bema'ni bo'lgan bunday nutq soletsizm deb atala boshladi. Hozirgi kunda soletsizmlar bayonotning ma'nosini buzmaydigan noto'g'ri nutq shakllarini o'z ichiga oladi. Ritorikada soletsizm odatda noto'g'ri lingvistik ifodaga murojaat qilish uchun ishlatilgan. Adabiy muharrirlar yo'l qo'yadigan xatolarning aksariyati so'zlar o'rinlarida aralashib ketgan, yo ergash gapning qo'shimchasi o'rinsiz qo'llangan yoki fe'l shakllari noto'g'ri qo'llangan. Soletsizmlar har doim ham tasodifiy xatolar emas, ba'zida ular ataylab qo'llaniladi. Qizig'i shundaki, rus tilida grammatik va morfologik me'yorlar, xususan, so'z sonlari va hol shakllarining kelishlari asta-sekin shakllangan va XIX asrda ular hali ham juda noaniq edi, ayniqsa, o'sha asrning birinchi yarmida. Soletsizmlar ko'pincha o'sha davr rus yozuvchilarining matnlarida uchraydi. Turli tillarda grammatika va sintaksisning turli qoidalari bo'lganligi sababli soletsizmlar ham har xil. Masalan, ingliz tilida ko'plab xatolar noto'g'ri jumlar tuzilishi bilan bog'liq, chunki u yerda so'z tartibi rus tiliga qaraganda qat'iydir. Bunday xatolar hatto soletsizmning alohida turi sifatida ajratilgan. Soletsizm nutqda grammatik qoidabuzarlik yoki tilning grammatik normalariga zid bo'lgan ifodadir. Soletsizm xatolik bo'lsa-da, ba'zan u badiiy uslubda yoki jonli so'zlashuvda ataylab ishlatiladi. Soletsizmning asosiy xususiyatlari: 1) grammatik jihatdan noto'g'ri bo'ladi; 2) nutqning har qanday turida (og'zaki va yozma) uchrashi mumkin; 3) ataylab yoki bilmasdan ishlatiladi; 4) shevalarda va kuchli emotsional nutqlarda ko'proq uchraydi.

Zamonaviy tilshunoslikda esa soletsizm ko'proq preskriptiv yondashuv bilan bog'liq bo'lib, deskriptiv lingvistikada u ko'pincha "variant", "og'ish" yoki "nutqiy xato" sifatida talqin qilinadi⁸⁶ (Garner; Wikipedia; Merriam-Webster). Muhim jihat shundaki, soletsizm faqat "xato" sifatida emas, balki badiiy matnda ongli stilistik vosita sifatida ham ishlatilishi mumkin. Masalan, qahramon nutqini individuallashtirish, ijtimoiy qatlamni ko'rsatish yoki poetik effekt yaratish uchun muallif ataylab me'yorni buzadi. Bu holatda soletsizm estetik-funksional vazifa bajaradi.

⁸⁶ Garner, B.A. Garner's, Dictionary of Modern Legal Usage .- New York:Oxford University Press,1995.

An'anaviy tilshunoslikda soletsizm va barbarizmni farqlash mavjud: soletsizm – asosan sintaktik xató, gap qurilishidagi buzilish. Barbarizm - asosan leksik yoki morfologik xato, ya'ni so'zning noto'g'ri shakli yoki begona, noadekvat birlikdan foydalanish. Masalan, ingliz tilshunosligida soletsizm kelishik yoki ega – kesim mosligining buzilishi bo'lsa, barbarizm so'zning noto'g'ri shakli yoki begona varianti (Wikipedia, Barbarism). Barbarizm adabiy til me'yoriga kirmagan, begona (chet) tildan o'zlashgan, lekin hali to'liq moslashmagan so'z yoki shakllarning nutqda qo'llanishidir. Ular ko'pincha og'zaki nutqda, publitsistikada yoki badiiy asarda stilistik maqsad bilan ishlatiladi. Rus tilidan kirib kelgan barbarizmlar: O'sha *vopros* hali ochiq qolibdi (masala/savol).

Soletsizmning ilmiy adabiyotlarda lingvistik tasnif bo'yicha odatda quyidagi asosiy turlarga ajratiladi:

1. Sintaktik soletsizm gap tuzilishida, ya'ni sintaksis darajasida grammatik me'yorlarning buzilishi natijasida yuzaga keladigan hodisadir. Klassik ta'rifga ko'ra, soletsizm “so'zlarning grammatik jihatdan notog'ri kombinatsiyasi” bo'lib, u eng avvalo, gap qurilishi bilan bog'liq (Merriam-Webster, Garner, Wikipediya). Antik va preskriptiv grammatika an'alarida sintaktik soletsizm barbarizmdan farqlanadi: barbarizm asosan, so'z shakli va leksik birliklar bilan bog'liq bo'lsa, soletsizm gap ichidagi sintaktik munosabatlarning buzilishini bildiradi. Shu bois sintaktik soletsizm til tizimidagi sintaktik me'yor tushunchasi bilan bevosita aloqadordir. Sintaktik soletsizm gap bo'laklari o'rtasidagi munosabatning buzilishi, ya'ni ega -kesim mosligining buzilishi. So'z tartibining me'yordan chetga chiqishi, noto'g'ri bog'lovchilar yoki boshqaruv munosabati bilan bog'liq hodisa. Bu eng asosiy va klassik soletsizm turi hisoblanadi. Bu preskriptiv grammatika nuqtayi nazaridan eng keng tarqalgan sintaktik soletsizm shaklidir.

Qadimgi dunyo adabiyotining muhim qismini antik adabiyot tashkil qiladi. Antik (lotincha “qadimiy” so'zidan) adabiyot deganda taxminan miloddan avvalgi I ming yillikdan milodning V asrigacha, ya'ni Qadimgi Rim imperiyasining qulashigacha bo'lgan davrda Yunoniston va Rimda yaratilgan adabiyot tushuniladi. Antik madaniyatning keyingi davrlar ilm-fani, madaniyati va adabiyotiga ta'siri beqiyosdir. Misol uchun, har to'rt yilda o'tkaziladigan Olimpiada o'yinlari, ayrim Yevropa va turkiy tillar alifbolari uchun asos bo'lgan lotin yozuvi, sayyoralar va yulduzlarning nomlari, ilm-fanning turli sohalariga oid ilmiy atamalar, adabiy turlarga (epos, lirika, drama) oid ilk nazariy qarashlar antik madaniyat mahsulidir. Mifologiyaning kuchli ta'sirini antik eposning eng yirik namunalari bo'lmish “Iliada” va “Odissey” dostonlarida ham kuzatish mumkin. “Iliada” dostonida yunonlarning Troyaga qarshi urushi tasvirlansa, “Odissey” da troya urushi qatnashchilaridan biri Odisseyning uyga qaytish yo'lidagi mashaqqatlari bayon etilgan. “Iliada” dostoni Troya urushning o'ninchi yili voqealari haqida hikoya qiladi. Priamning o'g'li, Parisning akasi Hektor urushda yengilmas qahramon Axillesning do'sti Patrokini o'ldiradi va Patroki janggi kiyib tushgan Axilesning sovutini yechib oladi. Bundan g'azablangan Axiles Hektor bilan yakkama-yakka jangga chiqadi. Asarda Hektor nutqidagi parchada soletsizm uchraydi: Birrov uyga

kirgum hozir rafiqa-u laziz o'g'ilcham / Uy *ichlarim*, joriyalar bilan diydor ko'rishmoq uchun⁸⁷. Bu misrada hozirgi zamon davom fe'li "gu", I shaxs birlikdagi shaxs-son qo'shimchasi "m" shaklida qo'llanadi. Asarda: Lashkaringni *qo'ygil* anjir daraxtiga yaqin: shu yerda Nahra borki, dushman uchun hamla qilmoq qulaydir undan. Bu o'rinda buyruq istak maylining II shaxs birlikdagi qo'shimchasi "gil" tarzida qo'llangan. Bu esa o'sha davr normalari bilan bog'liq hodisa hisoblanadi. Sintaktik soletsizmning preskriptiv va funksional talqini mavjud. Zamonaviy tilshunoslikda sintaktik soletsizm ikki xil yondashuvda talqin qilinadi:

Preskriptiv (qat'iy me'yoriy) yondashuv – sintaktik soletsizm grammatik xato, ya'ni til me'yoridan chetga chiqish sifatida baholanadi. (Merriam-Webster, Garner). Funksional-stilistik, ya'ni lingvopoetik yondashuv-badiiy va poetik diskursda sintaktik soletsizm ongli stilistik vosita sifatida qo'llanishi mumkin. Bu holat qahramon nutqini individuallashtirish, ijtimoiy qatlam yoki dialektni ifodalash, poetik ritm va struktura buzilishi orqali estetik effekt yaratish kabi vazifalarni bajaradi. Bu yondashuvda sintaktik soletsizm "xato" emas, balki diskursiv va estetik kategoriya sifatida talqin qilinadi.

1. Morfologik soletsizm – so'z shakllanishi va grammatik ko'rsatkichlarning noto'g'ri qo'llanishi. Noto'g'ri fe'l zamoni yoki shaxs-son qo'shimchalari, noto'g'ri kelishik yoki egalik shakllari bilan bog'liq hodisa. Ba'zi manbalarda bu tur barbarizmga yaqinlashtiriladi, biroq preskriptiv grammatikada u ham soletsizm doirasida ko'rib chiqiladi.

"Avesto" o'sha davrlar tarixi, fani, madaniyati haqida ma'lumot beruvchi qomusiy asardir. U pahlaviy tilga tarjima qilingan va unga sharhlar yozilgan. Bu buyuk asar hozir dunyodagi ko'plab xalqlarning tillariga o'girilgan. Mustaqillik sharofati bilan u o'zbek tiliga Asqar Mahkam va Mirsodiq Is'hoqov tomonidan tarjima qilingan."Avesto" adabiy manba va badiiy asar hamdir. Asarning katta qismi she'riy yo'lda, sakkiz bo'g'inli hijo vaznida, biroq qofiyalar satr so'nggida emas, ko'pincha misra o'rtasida, hatto boshida ham keladi. "Avesto"da: Nomingni ataguvchi / Namoz-la sajda qilgum / Qudratli Mitra senga, Xayr-u ehsonlar qilgum⁸⁸. Yuqoridagi misrada hozirgi kelasi zamon fe'li "gu", I shaxs birlikdagi shaxs-son qo'shimchasi "m" shaklida qo'llangan. Bu grammatik shakllar qadimiy yoki poetik uslubga yaqin. Badiiy uslub va tarixiy til qatlamiga xos shakllar hisoblanadi.

3. Semantik-soletsistik og'ishlar. Sintaktik jihatdan to'g'ri bo'lsa-da, ma'nomunosabat nuqtayi nazaridan me'yoriy bo'lmagan konstruksiyalar: mantiqan mos kelmaydigan bog'lanishlar, noto'g'ri valensiya, ya'ni fe'lning to'ldiruvchilar bilan mos kelmaslik hodisalari.

Mahmud Koshg'ariy turkiy adabiyot olamida "Devonu lug'otit-turk" nomli turkiy tillar haqidagi qomusiy asari bilan tanildi. Asar arab tilida yozilgan bo'lib, unda XI asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyo va G'arbiy Xitoy hududida yashagan turkiy xalqlarning tili, tarixi, geografiyasi, ijtimoiy ahvoliga oid qimmatli

⁸⁷ Adabiyot. 10-sinf darslik.Z.I. Mirzayeva, K.Q.Djalilov. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.– B 35.

⁸⁸ Adabiyot. 10-sinf darslik.Z.I. Mirzayeva, K.Q.Djalilov. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.–B 35.

ma'lumotlar, maqol va matallar, hikmatli so'zlar, she'riy parchalar keltirilgan. "Devon"da turkiy xalqlar turmush manzaralari bilan bog'liq bo'lgan she'riy parchalar katta o'rin tutadi. Ularda xalqning urf-odati, yashash tarzi, mashg'uloti, ishonch-e'tiqodlarining ifodasi juda ochiq ko'rinadi. Ularda turkiy xalqlarning hayot manzaralari o'z aksini topgan. Yigitlarni ishga safarbar qilish, meva terish, ovchilikka yo'naltirish qadimgi turmush tarzining ayrim lavhalari ta'sirli ifodalanadi: Yigitlarig *ishlatu* / Yig'ach yemish *irg'atu* / Qulan, keyik *avlatu*, Bazram *qilip avnalim* (Yigitlarni ishlatib, Daraxt mevalarni qoqtiraylik. Qulon, kiyiklarni ovlatib, bayram qilib ovunaylik).⁸⁹ She'riy misrada tushum kelishigi eski turkiy tilda -g, ig; -ib ravishdosh qo'shimchasi -u shaklida; "avnalim" so'zidagi -aylik buyruq istak maylining I shaxs ko'plik qo'shimchasi -alim tarzida ishlatilgan. Bundan tashqari "*keyik*" (kiyik), "*avlat*" (ovlat), "*bazram*" (bayram), "*qilip*" (qilib) so'zlari ham qadimgi turkiy til me'yoriga mos arxaik, poetik shakl hisoblanadi.

4. Stilistik (ongli) soletsizm – badiiy va poetik diskursda atayin qo'llaniladigan soletsizm, qahramon nutqini individuallashtirish, ijtimoiy yoki dialektal rang berish. Poetik strukturaning buzilishi orqali estetik effekt yaratish⁹⁰. "O'rxun-Enasoy yodgorliklari" ga Sibirdagi Yenisey va Lena daryolari havzalaridan tortib Markaziy Osiyo va Mo'g'ilistongacha bo'lgan katta hududdan topilgan toshbitiklari tushuniladi. Bu bitiklar runiy yozuvda bo'lib, ularning eng yiriklari VIII asrda Turk xoqonligini boshqargan Bilga xoqon, Kultegin va To'nyuquq haqida hikoya qiladi. Yodgorliklarning til xususiyatlari ham VIII asrdagi adabiy til namunasidir. Asar tilidagi ko'plab so'zlar hozirgi o'zbek tilida aynan qo'llaniladi. Bir qism so'zlarda ozgina tovush o'zgarishlari yuzaga kelgan, yana bir toifa so'zlar esa bugungi iste'moldan chiqib ketgan. Asardagi asosiy tasvir vositasi alliteratsiyadir. Alliteratsiya – tovushlar ohangdorligi, asosan, bir xil tovushlarning takrorlanishi natijasida yuzaga keladigan ohangdorlikdir. Misradagi so'zlar bir xil unlilar bilan boshlansa, vokal alliteratsiyani hosil qiladi:

O'ngra qitaynyig' o'lurtachi terman,

Bani o'g'uzug' o'lurtachi – o'q terman.

Agar misradagi so'zlar bir xil undoshlar bilan boshlansa, konsonant alliteratsiyani hosil qiladi:

Kacha kalimiz, kalmish alp tadi, tuymadi...

So'z takrori ham yodgorlikda ko'p uchraydi:

Tabg'ach qag'an yag'imiz erti

*O'n o'q qag'ani yag'imiz erti*⁹¹.

⁸⁹ Koshg'ariy M. Devonu lug'otit turk. 3-tomlik.1-tom.– Toshkent:1960.O'zbekiston SSR fanlar akademiyasi nashriyot, –B 92

⁹⁰ Википедия.Study.com, Solecism Definition & Examples study.com

⁹¹ To'xlijev B.O'zbek adabiyoti.–Toshkent: O'qituvchi: 2000. –B 34.

Undagi o'ziga xos tasvir usullaridan yana biri voqea-hodisalarga muayyan yondashish bilan izohlanadi. Ko'pincha bir necha voqea-hodisalar yoki ular bilan bog'liq detallar ketma-ket sanaladi. Yuqoridagi she'riy misralarda “deyman” fe'li “*terman*”, “erdi” fe'li “*erti*” shaklida qo'llangan. Bu tur lingvopoetika va diskurs tahlilida, ayniqsa, muhim hisoblanadi.

Soletsizm til tizimining, ayniqsa sintaktik me'yorlarining buzilishi bilan bog'liq hodisa bo'lib, u preskriptiv grammatikada “xato” sifatida baholansa-da, lingvopoetik va badiiy diskursda funksional-stilistik vosita sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Tasnif jihatidan soletsizm sintaktik, morfologik, semantik va stilistik turlarga ajratilishi mumkin. Bu holat soletsizmni nafaqat “normadan og'ish”, balki diskursiv va estetik kategoriya sifatida ham talqin qilish imkonini beradi. Soletsizm – til tizimidagi sintaktik me'yorlarning buzilishi, ya'ni so'z va so'z birikmalarining grammatik jihatdan noto'g'ri bog'lanishi natijasida yuzaga keladigan xato shakldir. Klassik lingvistik talqinda soletsizm asosan gap qurilishi va sintaktik moslashuvdagi buzilishlar bilan bog'lanadi. Ilmiy adabiyotlarda soletsizm quyidagicha izohlanadi:

Merriam-Webster lug'atiga ko'ra, soletsizm – “*an ungrammatical combination of words in a sentence*”⁹², ya'ni gapda so'zlarning grammatik jihatdan noto'g'ri birikishi. Vikipediya manbasida esa soletsizm grammatik qoidalarni buzuvchi ifoda sifatida ta'riflanadi va u ko'pincha preskriptiv (me'yoriy) grammatika doirasida baholanadi⁹³. Tarixiy jihatdan atama qadimgi Yunonistondagi Soloi shahri aholisi nutqidagi “noto'g'ri” shakllarga nisbatan qo'llangan. Keyinchalik bu termin umumiy grammatik xatolarni ifodalovchi ilmiy tushunchaga aylangan. Lingvistik mohiyat nuqtayi nazaridan soletsizm tilning sintaktik darajasi bilan bog'liq, me'yor va norma tushunchalariga tayanadi, nutq va yozuvdagi grammatik og'ishlarni aniqlashda qo'llanadi, ba'zan stilistik yoki poetik maqsadlarda ataylab qo'llanishi ham mumkin (masalan, modern she'riyatda). Klassik lingvistika an'anasida soletsizm ko'pincha barbarizm bilan qarama-qarshi qo'yiladi. Barbarizm – asosan leksik va morfologik darajadagi xato, noto'g'ri so'z shakli, begona yoki noto'g'ri so'z qo'llash. Soletsizm sintaktik darajadagi xato, ya'ni so'zlar orasidagi grammatik munosabatning buzilishi. Bu farq Encyclopedia.com⁹⁴ va Oxford an'anaviy talqinlarida ham qayd etilgan. Shuningdek, Vikipediya barbarizm va soletsizm orasidagi chegaralar aniq ko'rsatiladi. Ilmiy adabiyotlarda soletsizm bir necha mezon asosida tasniflanadi. Sintaktik strukturaga ko'ra kelishik moslashuvining buzilishi, masalan, ega va kesim o'rtasidagi grammatik moslikning buzilishi. So'z tartibining buzilishi gapda komponentlarning me'yoriy joylashuviga zid keluvchi holatlar. Bog'lovchilik va boshqaruv xatolari fe'lning noto'g'ri kelishik yoki predlog postpozitsiya talab qilishi. Grammatik darajaga ko'ra morfosintaktik soletsizm morfologik shakl va sintaktik funksiya o'rtasidagi nomuvofiqlik.

⁹² merriam-webster.com

⁹³ Википедия

⁹⁴ Encyclopedia.com

Morfosintaktik soletsizm – bu morfologik shakl bilan sintaktik vazifa o‘rtasidagi nomuvofiqlik natijasida yuzaga keladigan grammatik buzilishdir. Ya’ni bunda so‘zning shakli, ya’ni kelishik, zamon, shaxs-son, nisbat, turkumga xos affikslar va uning gapdagi sintaktik funksiyasiga mos kelmaydi. Lingvistikada morfosintaktik hodisalar morfologiya va sintaksis kesishgan nuqtada izohlanadi. Shu sababli morfosintaktik soletsizm tilning ikki sathidagi (morfologik + sintaktik) me’yorlarning bir vaqtda buzilishi sifatida talqin qilinadi. Morfosintaktik soletsizmga xos jihatlar kelishik va boshqaruv nomuvofiqligi fe’l talab qilgan kelishik bilan ot shaklining mos kelmasligidir. Ega – kesim shaxs-son moslashuvining buzilishi, ya’ni kesimning morfologik ko‘rsatkichi ega bilan mos tushmaslik hodisasi. Zamon, nisbat yoki mayl shaklining sintaktik kontekstga mos kelmasligi, predikativlik va atributivlik shakllarining chalkashishi bilan bog‘liq.

Yassaviyning bir qator hikmatlarida umrning qisqaligi, uni mazmundor o‘tkazishga chaqirish aks etgan. Shoir mol-dunyoga hirs qo‘yganlarni, aysh-ishratga berilganlarni tanqid ostiga oladi. Ayniqsa, u hukmdorlarga, davlatmandlarga shafqatsiz:

Dunyo meni mulkum degan sultonlarg‘a

Olam molin sonsiz yig‘ib olganlarg‘a

Aysh-u ishrat birla mashg‘ul bo‘lg‘onlarg‘a

O‘lim kelsa, biri vafo qilmas ermish⁹⁵.

Dunyoning adolati bor. Adolatli tosh-u tarozisi bor. Halollik bilan kelmagan mol-davlat vafo qilmaydi. Harom, yolg‘on jazosiz qolmaydi.

Yuqoridagi baytlarda “mulkim” o‘rniga “*mulkum*” so‘zida I shaxs egalik qo‘shimchasi “um”; “sultonlarg‘a”, “olganlarg‘a”, “bo‘lg‘onlarg‘a” so‘zlaridagi “ga” jo‘nalish kelishigi “g‘a” shaklida qo‘llangan. Bu shakllar Yassaviy davri tilining tabiiy, tarixiy (arxaik) ko‘rinishi hisoblanadi.

Navoiyning “Kelmadi” radifli g‘azali ishqiy mavzuda, o‘zbek tilidagi she‘riyatda eng ko‘p ishlatilgan ramali musammani mahzuf (yoki maqsur), ya’ni “foilotun-foilotun-foilotun-foilon (yoki foilon) vaznida yozilgan. Taqte’si: -V--/-V- -/-V--/-V- (yoki -V~). G‘azal an’anaviy yetti baytdan iborat. Radifda o‘zbekcha so‘z (“kelmadi”) ishlatilgan va qofiyadagi sakkiz (gulro‘-uyqu-badxo‘-qorong‘u-kulgu-su-o‘tru-qayg‘u) so‘zidan oltitasi-o‘zbekcha, ikkita ”gulro‘” va “badxo‘” -tojikcha. G‘azalda badiiy jihatdan shunday qat’iy bir qoidaga amal qilinganki, har bir baytda kamida bir tazod (zidlantirish) san’ati uchraydi. Bu badiiy san’at g‘azalda asosiy ifoda va tasvir vositasiga aylangan.

“Kecha kelgumdur”- debon ul sarvi gulro‘ kelmadi,

⁹⁵ Yassaviy A. Devoni hikmat. – Toshkent: Fan, 1966. – B 172.

*Ko 'zlarimga kecha tong otguncha uyqu kelmadi*⁹⁶.

[“Badoye’ ul-vasat”ning 608-g‘azali].

Matla’da lirik qahramon kecha (buni “kechasi” deb ham,”kecha”, ya’ni bir kun oldin deb ham tushunish mumkin) “sarvi gul”(gul yuzli sarv, ya’ni tik qomatli yor) kelaman deb, kelmadi, shuning uchun tong otgunga qadar ko‘zlarimga uyqu kelmadi, deydi. Shuning o‘zidayoq lirik qahramon holati, u chekayotgan iztirob ma’lum qilinadi. G‘azalning birinchi baytida “kelaman“ fe’li “*kelgumdur*” shaklida ifodalangan. Bunda hozirgi-kelasi zamon qo‘shimchasi “a” va I shaxs birlikdagi shaxs-son shakli “man”- “*gumdur*”; “deb” ravishdosh shakli “*debon*” tarzida qo‘llangan.

Navoiyning sevgi tuyg‘ulari o‘zgacha yo‘sinda aks etgan g‘azallaridan yana biri “Lolazor ermaski, ohimdin jahonga tushdi o‘t” satri bilan boshlanadigan g‘azalidir. Tadrij asosida yaratilgan bu yakpora g‘azalda olamdagi barcha narsalarda faqat ma’shuqasini ko‘radigan, u haqdagina o‘ylay oladigan oshiqning ruhiy iztiroblari ifodalangan. Lirik qahramon yoki shoir ko‘klamda poyonsiz lolazor ichida turib, uning tengsiz go‘zalligidan hayajonga tushar ekan, undan lazzat olmaydi. Aksincha, bu holat unga yorga bo‘lgan miqyossiz muhabbatini eslatadi:

Lolazor ermaski, ohimdin jahonga tushti o‘t,

*Yo ‘q shafaqkim, bir qiroqdin osmonga tushti o‘t*⁹⁷.

Lolazordagi ufqlarga tutashib ketgan poyonsiz qizillikni shoir inkor etib, uni dunyoga tushgan o‘t deydi. Jahonga o‘t ketishi bejiz emasdi, u oshiqning yengilgina ohidan paydo bo‘ldi. Lolazor cheksiz bo‘lganidan qizillik osmon bilan qo‘shilishib ketganday tuyuladi. Nihoyat, ko‘kda ham bir qizillik paydo bo‘ldi. Ehtimol, bu shafaqdir. Yo‘q! U oshiqning ohi tufayli yer yuzini yondirib yuborgan olovning huv ufqda, osmon bilan tutashgan joyda, ko‘kka ilashib ketgani tufayli paydo bo‘lgan rang! Ushbu baytda “ohimdin” so‘zidagi “*din*” chiqish kelishigi qo‘shimchasi; “tushti” so‘zidagi “*ti*” o‘tgan zamon qo‘shimchasi; “qirg‘oqdan” shakli “*qiroqdin*” shaklida ishlatilgan. G‘azalning maqta’sida oshiqning hammadan ko‘proq qiynalayotganligi an’anaviy yo‘sinda tasvirlanadi. Ma’shuqa boshqalarni kuydirmoqchi bo‘lib, yuz ochgandi. Elga solingan o‘t yana kelib notavon oshiqni yondirdi. Shu bois qahramonning:

Ey Navoiy, bilki ohe chekmisham beixtiyor,

Desalarkim, beshayi Mozandarong ‘a tushti o‘t

⁹⁷Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami. 20-tomlik..3-tom. G‘aroyib us-sig‘ar.–Toshkent: O‘zbekiston SSR “Fan” nashriyoti. -1987.–B 89.

deya nola qilishida mubolag'a yo'q. Oshiq shunchalar ko'p kuydiki, endi olamning qayerida bo'lsa ham yongan o'tga u oh chekaveradigan holatga kelgan. Shoir o'zganing dardini o'ziniki qadar sezadigan, bировlar uchun qayg'ura oladigan ezgu ma'naviyatli kishi holatini shu tarzda esda qoladigan qilib aks ettirgan. Baytda "oh" undovi "ohe"; "chekyapman" fe'li "chekmisham"; jo'nalish kelishigi "g'a"; "di" o'tgan zamon qo'shimchasi "ti" tarzida qo'llanilgan.

Ahmad Yassaviy o'z zamonida fors tiliga e'tibor qaratib, tillarini tan olmayotgan eroniylashgan turk olimlariga, eroniylarga, arabiy larga qarata shunday misralar keltiradi:

*Xushlamaydir olimlar sizning oyg'on turkini,
Oriflardin eshitsang, ochar ko'ngil mulkini
Oyat, hadis ma'nosi turki bo'lsa muvofiq,
Ma'nosiga yetkanlar yerga qo'yar bo'rkini*⁹⁸.

Yassaviyning tili jumalarning tuzilishi tarafdin tatar tiliga g'oyat yaqin turishi, shu sababli Yassaviy va Boqirg'oniy asarlarini, she'rlarini tatar ommasi, ulamosi o'zlariga umumiy adabiyot etib foydalanib kelganligini keltirib o'tadi⁹⁹.

Ahmad Yassaviy ko'pchilik hikmatlarida poetik obrazga xos miqyosiylik, teranlik imkoniyatlaridan samarali foydalangan:

*Beshak biling, bu dunyo borchaxalqdin o'taro
Ishonmag'il molingg'a, bir kun qo'ldan ketaro.
Oto-ono, qarindosh qayon ketdi-fikr qil,
To'rt oyog'lig'cho'bin ot bir kun sang'a yetaro*¹⁰⁰...

Ushbu satrlardagi mohiyat dunyoning o'tkinchiligi haqida. Bu olam shunday bir maydonki, unda hamma ham oxir-oqibatda "to'rt oyog'li cho'bin ot" ustida jonsiz yastanib ketmoqqa mahkumdin. O'limni anglash – hayotni ma'rifat bilan qadrlash, odam farzandini g'animat bilish, manmanlik va jaholat "tulporlar"ga minib hovliqmaslik degan mantiqlarni ham o'z ichiga oladi¹⁰¹. Yuqoridagi baytda "aytgan" sifatdoshi "oyg'on"; "barcha" belgilash olmoshi "borcha;"ishonmagin" II shaxs buyruq mayli "ishonmag'il; "oto", "ono", "oyog'lig'", "cho'bin", "sang'a"

⁹⁸ Yassaviy kim edi. Toshkent. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.1994.To'plab nashrga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi Boybo'ta Do'stqorayev. Maqolalar va "Hikmatlar"dan parchalar.– B 15.

⁹⁹ Boybo'ta Do'stqorayev. Yassaviy kim edi. – Toshkent. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.1994.– B 17.

¹⁰⁰ Ibrohim Haqqulov. Ahmad Yassaviy hikmatlar. Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.1991. – B 32.

¹⁰¹ Haqqulov Ibrohim. Ahmad Yassaviy hikmatlar.Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.1991.(jami 256-bet) – B 33.

soʻzlari qoʻllangan. Ahmad Yasaviy hikmatlaridagi bu soʻzlar qadimgi turkiy, yaʼni chigʻatoy tiliga yaqin til va tasavvufiy-poetik uslubga xos birlik hisoblanadi.

Ahmad Yassaviyning “Rabbim yodi ulugʻ yoddur aytur boʻlsam” deb boshlanadigan hikmati unchalik murakkab emas. Birinchi misradayoq sheʼr mavzu yoʻnalishini anglab olish mumkin. Zotan, Yaratuvchini yodlash odamni xotirjam qiladi, achchiq shirin tilga aylanadi:

*Rabbim yodi ulugʻ yoddur aytur boʻlsam,
Asal yangligʻ suchuk boʻlur tilim mening.
Oʻzim faqir, qildim muqir, boʻldim haqir,
Qanot qoqar uchar qushdek koʻnglim mening¹⁰².*

Shoir oʻzini juda kamtar tutadi va shu kamtarligi ortidan koʻngli yuksaklikka parvoz qiladi.”Muqir” arabcha soʻz boʻlib “iqror boʻlmoq” maʼnolarini anglatadi. Shoir faqatgina faqir-u haqirligini emas, balki Yaratguvchiga banda ekaniga iqror boʻladi. Adib hikmatning har bandida ichki qofiyalarni qoʻllab, oʻz ichki kayfiyati, holini oʻynoqi bir uslubda bayon qilar ekan, shu mamnuniyat sabablarini ham “nafsim qochdi” deb oʻz nafsini yengganiga olib borib bogʻlaydi, oʻzini tuproqqa tenglashtiradi. Yassaviy har vaqt nafs haqida gapirganida unga insonning kamolotiga xalaqit beradigan yovuz va yaramas kuch sifatida baho beradi. Nafsga “shum” sifati beriladi. Shuningdek, shoir “nafsi bad”, “nafs yoʻli”, “nafs ilgi” singari istioralarni ham qoʻllaydi. Adib toʻgʻridan toʻgʻri nafsga qarshi kurashni, uning yoʻrigʻiga yurmaslikni targʻib qiladi. Nafsning domiga ilinish insonni qanchalik yer bilan yakson qilishini juda yorqin ifodalarda koʻrsatib beradi. Sheʼrda “ar” kelasi zamon feʼli “ur”; “chuchuk “ sifati “suchuk” tarzida qoʻllanib, matndagi poetik-diniy kontekst uni yanada ulugʻlaydi. Tasavvufiy diskursga xos ifodalar hisoblanadi.

Poetik diskursda morfosintaktik soletsizm koʻpincha nutqni tabiiylikdan chiqarish, qahramon nutqini individuallashtirish, ekspressivlik va stilistik zoʻriqtirish uchun ataylab qoʻllanadi. Bu jihat Apolloniy Diskol (Apollonius Dyscolus)¹⁰³ning klassik sintaksis taʼlimotida ham tilga olinadi, u soletsizmni feʼl argumentlari va shakl-vazifa nomuvofiqligi bilan bogʻlaydi. Sof sintaktik soletsizm – bunda morfologik shakllar toʻgʻri, ammo gapning tuzilishi, komponentlararo munosabat yoki konstruksiya modeli meʼyorlarga zid boʻladi. Yaʼni xato faqat sintaktik strukturada, gapning modeli va soʻzlararo munosabatlarda yuzaga chiqadi. Sof sintaktik soletsizmga xos xususiyatlar soʻz tartibining meʼyoriy modeldan chetga chiqishi, gap boʻlaklarining notoʻgʻri bogʻlanishi, bosh va ergash gaplar oʻrtasidagi notoʻgʻri munosabat, sintaktik valensiya buzilishi feʼlga ortiqcha yoki notoʻgʻri sintaktik boʻlak biriktirilishi.

¹⁰² Yassaviy A. Devoni hikmat.– Toshkent: Fan,1966.–B 172.

¹⁰³ Apollonius Dyscolus. On Solecism; Verbs and Their Arguments. – Cambridge:Cambridge University Press, 2000

Struktural soletsizm – gap modelining buzilishi. Bog‘lovchilik soletsizmi bog‘lovchi va ergashtiruvchi vositalarning noto‘g‘ri ishlatilishi. Valensiya soletsizmi fe‘lning talab qilgan argumentlarining noto‘g‘ri tashkil etilishi. Poetik va badiiy matnda sof sintaktik soletsizm nutqning parchalanganligi, ong oqimi, dislokatsiya va parselatsiya kabi usullar bilan yaqinlashadi va matnga dinamiklik hamda subyektivlik baxsh etadi. Bu holatlar zamonaviy stilistika va lingvopoetikada sintaktik og‘ishlar sifatida izohlanadi.

Qiyosiy jadval:

Mezoni	Morfosintaktik soletsizm	Sof sintaktik soletsizm
Buzilish darajasi	Morfologiya+sintaksis	Faqat sintaksis
Asosiy sabab	Shakl-vazifa nomuvofiqligi	Gap strukturasi buzilishi
Misol turi	Kelishik, shaxs-son, zamon	So‘z tartibi, konstruksiya
Lingvopoetik vazifa	Ekspressiv shakl buzilish	Strukturaviy effekt
Me‘yoriy talqin	Ikki darajali xato	Sof strukturaviy xato

Morfosintaktik soletsizm va sof sintaktik soletsizm til tizimidagi og‘ishlarning ikki muhim tipini tashkil etadi. Birinchisi morfologik shakl va sintaktik vazifa o‘rtasidagi nomuvofiqlikka asoslangan bo‘lsa, ikkinchisi gapning sof strukturaviy tashkilida yuzaga keladigan buzilishlar bilan belgilanadi. Lingvopoetik nuqtayi nazardan, har ikkala tur ham poetik diskursda estetik va ekspressiv effekt yaratish imkoniyatiga ega bo‘lib, normadan ongli ravishda chekinishning muhim mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. Poetik, ya‘ni stilistik soletsizm ataylab yaratilgan grammatik buzilishlar ekspressivlik, estetik effekt uchun qo‘llanadi.

Didaktik adabiyotning Yusuf Xos Hojibdan keyingi vakili Ahmad Yugnakiydir. Adibning bizgacha yetib kelgan “Hibat ul-haqoyiq” kitobiga bitilgan ilovada “Tug‘a ko‘rmas edi adibning ko‘zi” degan qayd bor. Bu Navoiy fikrlarini tasdiqlaydi. Alisher Navoiy uning ko‘zi ojiz bo‘lishiga qaramasdan, nihoyatda ziyrak va zehnli bo‘lganligi haqidagi ma‘lumotlarni ma‘lum qiladi. Yugnakiyning bizgacha yetib kelgan “Hibatul haqoyiq” bo‘lib, ma‘nosi “Haqiqatlar armug‘oni” dir. Asar 256 baytdan iborat bo‘lib, o‘zaro zid ma‘noli so‘zlardan ko‘p foydalaniladi. Behuda so‘zdan, achchiq tildan saqlanmoq kerak. Behuda so‘z obro‘ni to‘kadi, achchiq til boshga yetadi. Kam so‘zlamok bilan birgalikda to‘g‘ri so‘zlamok kerak. To‘g‘ri so‘z tilning bezagidir. Shoirning to‘g‘ri va yolg‘on so‘zlar uchun qo‘llagan o‘xshatishlari ham e‘tiborni tortadi. To‘g‘ri so‘z yoqimli bo‘lganidan uni shirinliklarning eng yaxshisi – asalga, yolg‘on so‘zning achchiq ta‘sirini esa yovvoyi sarimsoq piyozga qiyoslaydi. Yugnakiy bu bilan kifoyalanmasdan to‘g‘ri va yolg‘on so‘zni tinglovchi ko‘zi oldida yanada aniqroq gavdalanitirishga urinadi. Bu maqsadda kasallik va uning davosi bilan bog‘liq o‘xshatishlarni keltiradi. Bunda yolg‘on so‘z dard, kasallikka, to‘g‘ri so‘z esa uning

davosiga qiyoslanadi: *Ko'ni so'z asalteg, bu yalg'an – basal, / Basal yeb achitma ag'iz, ye asal. // Bu yalg'an so'z igteg, ko'ni so'z – shifa, / Bu bir so'z o'zag'i urulmish masal*¹⁰⁴.

Adibning fikricha, muhim insoniy sifatlardan biri muloyimlik, keng fe'llikdir. Dunyoda manmanlikdan, takabburlikdan yomon narsa yo'q. Kibr manmanlik belgisidir. Takabburlikni boshdan oshirib tashla, tavezega qattiq amal qil, unga o'zingni yaqinlashtir. Mo'minlikning nishoni tavezidir. Eng go'zal insoniy fazilatlardan biri boshqalarga marhamat ko'rsatish, lutf-u karamdir: *Yana bir kerakli so'zum bor senga, / Ayayin men ani, quloq tut menga. // So'z uldur takabburni bashtin salip, / Tavozeni berk tut, yopush, ket anga*¹⁰⁵. Dunyo kulib boqadi, yana qosh va manglayi bilan xo'mrayadi, bir qo'li bilan bol tutsa, ikkinchi qo'li bilan zahar qo'shadi. Bu dunyo avraydigan ilon kabidir, yuvosh, yumshoq deb yo'ysang, ichi achchiq ichimlik kabi og'udir. Ilon yumshoq, yuvosh bo'lib ko'rinsa ham, yomon fe'llidir, yuvosh deb ishonmasdan, undan uzoq turish kerak deya muallif ta'kidlaydi: *Yilontek bu achun yilon og'lag'u, / Yo qamaqqa yumshaq ichi pur ag'u. / Yilan yumshaq erkan yavuz fe'l tutar, / Yiraq turg'u, yumshaq teb inanmag'u*¹⁰⁶. Yuqoridagi misrada og'lag'u - mayin, yoqimli, achun - dunyo, pur ag'u-zaharga to'la, yo qamaq- siltamoq, paypaslab ko'rmoq ma'nolarida ishlatilgan.

She'riy misrada “asalteg”, “yalg'an”, “ag'iz”, “o'zag'i”, “urulmish”, “ayayin”, “ani”, “bashtin salip”, “yopush”, “anga”, “yilontek”, “yumshaq”, “yavuz”, “yiraq turg'u”, “teb”, “inanmag'u” kabi grammatik shakllar keltirilgan. Ahmad Yugnakiy tili o'tish davri xususiyatiga ega, ya'ni eski turkiy unsurlar bilan keyingi chig'atoy tiliga xos jihatlar qo'shilgan holda ifodalangan. Asarda arxaik shakllar ko'p, ya'ni bugungi kunda ishlatilmaydigan yoki o'zgargan so'zlar, bunday so'zlar badiiy-didaktik matn tarkibi uchun xizmat qilgan.

Soletsizm oddiy “xató” emas, balki badiiy matnda maqsadli qo'llangan uslubiy og'ishdir. Uni tarjimada to'g'ri aks ettirish asarning estetik va stilistik qiymatini saqlab qolish bilan bevosita bog'liq. Soletsizm grammatik yoki sintaktik me'yor buzilishi ko'rinishida namoyon bo'ladi. Asliyatda bu personaj nutqini individuallashtiradi, ijtimoiy qatlamini ko'rsatadi, emotsional-ekspressiv ta'sir yaratadi, og'zaki nutq effektini beradi. Agar tarjimon bunday og'ishni “to'g'rilab” yuborsa, matnning stilistik qatlamlari yo'qoladi. Shu sababli tarjimada soletsizmni saqlash, qisman moslashtirish, funksional ekvivalent bilan berish kabi usullar qo'llanadi. Roman Jakobson ta'kidlagandek, poetik nutqda shaklning o'zi ma'no tashuvchi omilga aylanadi. Demak, soletsizmni yo'qotish shakily ma'noni yo'qotishdir. Tarjimada soletsizmni saqlash og'ishning stilistik yukni aniqlash, uning funksiyasini boshqa tilda qayta yaratish masalasini o'rta qo'yadi. Eugene Nida dinamik ekvivalentlik nazariyasida asliyatdagi ta'sirni tarjimada qayta yaratish

¹⁰⁴ Yugnakiy A. Hibatul haqoyiq.- Toshkent: Akademnashr, 2019. –B 82.

¹⁰⁵ Yugnakiy A. Hibatul haqoyiq.- Toshkent: Akademnashr, 2019. – B 86.

¹⁰⁶ Yugnakiy A. Hibatul haqoyiq.- Toshkent: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2001

muhimligini ta'kidlaydi. Agar soletsizm o'quvchida kulgi, soddalik yoki qo'pol ohang uyg'otsa, tarjimada ham shu effekt saqlanishi lozim. Peter Nevmark tarjimada semantik va kommunikativ usulni farqlaydi. Soletsizm ko'pincha kommunikativ usulni farqlaydi. Soletsizm ko'pincha kommunikativ yondashuvni talab qiladi, chunki u shakldan ko'ra funksiyani saqlashga yo'naltiradi. Soletsizmni tarjimada berish grammatik og'ishni maqsadli ravishda boshqa tilda ham yaratish, asliyatdagi og'ishni shu til me'yoriga xos boshqa og'ish bilan berish, ko'pincha badiiy zarar keltiradi, ilmiy yoki akademik matnlarda qo'llanadi. Tarjimada soletsizmni o'rganish quyidagi masalalarni yoritadi: badiiy matnda me'yor og'ish munosabati, til va uslubning milliy xususiyatlari, personaj nutqining ijtimoiy-lisoniy belgilari, pragmatik va ekspressiv ma'no qatlamlari kabilardan iborat. Bu esa tarjimashunoslik, stilistika va sotsiolingvistika kesishgan nuqtada tahlil qilishni talab qiladi. Soletsizm va poetik erkinlik aynan bir narsa emas, ular o'zaro bog'liq bo'lishi mumkin, lekin mohiyatan farqli tushunchalardir. Soletsizm so'z tartibini buzish, shaxs-son mosligini buzish, grammatik qisqartirish yoki ellipsis hodisalaridan iborat. Poetik erkinlik - shoirning badiiy maqsad yo'lida til me'yorlaridan ongli ravishda chekinish huquqi. Bu tushuncha vazn va qofiyadan chekinish, grammatik strukturaning o'zgarishi, so'z yasash yoki yangi birlik yaratish, sintaktik qisqarishlarni o'z ichiga oladi. Soletsizm grammatik me'yor buzilishi, ba'zan xatô hisoblanadi, lokal hodisa, stilistik vosita bo'lishi mumkin.

Soletsizm tushunchasi ilk bor antik davrda yunon tilshunoslari tomonidan aniqlangan. Ular grammatik xatoliklarni tasniflar va ularni mantiqiy, sintaktik, semantik xatolarga ajratishgan. Biroq tilshunoslik va stilistikada bu xatolarning barchasi o'rganilgan, tavsiflangan va zararli turlari bo'yicha saralangan. Chunki tilshunoslik sohasidagi nazariy tadqiqotlar antik davrdan boshlangan. Zamonaviy ilm-fanda esa, millatidan qat'iy nazar, barcha olimlar uchun tushunarli bo'lgan o'sha paytda ixtiro qilingan atamalar hali ham qo'llaniladi. Shunday tushunchalardan biri soletsizmdir. O'zbek adabiyotida ham soletsizmning ko'rinishlari talaygina uchraydi. Bunday holatlar, ayniqsa, modern va postmodern poeziyada uchraydi. Pragmatik jihatiga ko'ra kommunikativ xalaqit beruvchi soletsizm mazmun tushunilishini qiyinlashtiradi. Ekspressiv soletsizmda ma'no buzilmaydi, lekin stilistik kuchaytirish vazifasini bajaradi.

Zamonaviy deskriptiv lingvistikada soletsizm atamasi kamroq qo'llanadi, chunki hozirgi tilshunoslik ko'proq tilning real qo'llanilishi, variantlilik, nutqiy me'yorlarning nisbiyligi kabi tamoyillarga tayanadi. Shunga qaramay, soletsizm normativ grammatika, stilistika, lingvopoetika, matn tahlili sohalarida muhim nazariy tushuncha bo'lib qolmoqda. Soletsizm til tizimining sintaktik qatlamida yuzaga keladigan me'yoriy og'ish bo'lib, u grammatikaning preskriptiv modeli doirasida xato sifatida talqin qilinadi. Biroq lingvopoetik va stilistik yondashuvlarda soletsizm nutqning ekspressiv imkoniyatlarini kengaytiruvchi vosita sifatida ham baholanishi mumkin. Shu jihatdan soletsizm nafaqat normativ buzilish, balki poetik diskursda estetik va semantik effekt yaratuvchi lingvistik mexanizm sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Soletsizmning ritm va intonatsiyaga ta'siri

Zamonaviy fonetika va stilistikada ritm va intonatsiya tilning ustsegmental qatlamiga mansub bo'lib, ular prosodiya tushunchasi doirasida o'rganiladi. Prosodiya gapning ritmik tuzilishi, urg'u va pauzalar tizimi, ohang konturlari, ya'ni intonatsiya kabi jihatlarini belgilaydi. David Crystal va boshqa fonetiklar prosodiyani sintaktik tuzilmani idrok etishda muhim signal sifatida baholaydilar¹⁰⁷. Soletsizm esa grammatik me'yorning buzilishi bo'lgani sababli, u bevosita sintaksis – prosodiya interfeysiga ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni sintaktik strukturadagi og'ishlar ritm va intonatsiyaning odatiy modelini ham izdan chiqaradi. She'riy va badiiy matnda ritm ko'pincha sintaktik parallelizm, gap bo'laklarining muvozanati, pauza joylari orqali shakllanadi. Sof sintaktik yoki morfosintaktik soletsizm bu muvozanatni buzib, ritmik nosimmetriya hosil qiladi. Natijada metrik oqim uziladi, sintaktik chegaralar bilan ritmik chegaralar mos kelmaydi, o'quvchi tomonidan ritmik "to'xtalish" seziladi. Stilistika va metr nazariyasida bunday hodisa ritmning ongli ravishda "sinishi" sifatida talqin qilinadi. Bu esa matnga dinamiklik va tensiya olib kiradi. Ritm o'quvchida kutilma hosil qiladi. Soletsizm bu kutilmani buzib poetik nutqda defamiliyarizatsiya (begonalashtirish) effektini, matnning emotsional kuchayishini, urg'uli semantik markazning siljishini ta'minlaydi. Bu jihat lingvopoetikada sintaktik og'ishlarning ritmik funktsiya bajarishi sifatida izohlanadi. Intonatsion konturlarning o'zgarishi. Intonatsiya odatda gap turini, xabar, so'roq, undov, kommunikativ markazni va tema - rema munosabatini belgilaydi. Prosodiya bo'yicha tadqiqotlarda intonatsiya sintaktik struktura bilan chambarchas bog'liq ekani qayd etiladi. Soletsizm natijasida odatiy ohang konturi mos kelmaydi, sintaktik noaniqlik intonatsiyada ham beqarorlik keltirib chiqaradi, gapning tugallangan yoki tugallanmaganligi ohang orqali aniq ifodalanmay qoladi. Bu holat tinglovchi yoki o'quvchi tomonidan intonatsion dissonans sifatida qabul qilinadi. Soletsizm kutilmagan pauzalar, urg'uning noodatiy joylashuvi, sintaktik va prosodik chegaralarning mos kelmasligi kabi holatlarni yuzaga keltiradi. Prosodik stilistika

¹⁰⁷ Crystal, D.A. Dictionary of Linguistics and Phonetics. 6th ed.– Malden, MA& Oxford: Blackwell Publishing/John Wiley & Sons, 2008/2011.

bo'yicha manbalarda bunday holatlar ekspressiv intonatsion vositalar sifatida talqin qilinadi. Ular nutqda hissiy kuchaytirish va subyektivlik yaratadi¹⁰⁸.

Lingvopoetik nuqtayi nazardan, soletsizmning ritm va intonatsiyaga ta'siri quyidagi funksiyalarni bajaradi: 1. Nutqning tabiiy oqimini buzish orqali emotsional zo'riqish yaratadi. 2. Ong oqimi, ichki monolog kabi shakllarga yaqinlashadi. 3. Sintaktik norma buzilishi orqali prosodik intensivlikni oshiradi. 4. Ritmik va intonatsion disbalans yordamida semantik markazni qayta taqsimlaydi. Bu jarayonlarda soletsizm grammatik xato sifatida emas, balki prosodik-stilistik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Adabiy stilistika manbalarida ritm va intonatsiya aynan sintaktik qurilish bilan uzviy bog'langan hodisa sifatida talqin qilinadi.

Soletsizm poetik va badiiy diskursda nafaqat sintaktik me'yor buzilishi, balki ritm va intonatsiya tizimiga faol ta'sir etuvchi prosodik omil sifatida ham namoyon bo'ladi. Sintaktik strukturaning buzilishi ritmik kutilmalarni izdan chiqaradi, intonatsion konturlarni beqarorlashtiradi va pauza hamda urg'u joylarini siljitadi. Natijada matnda emotsional zo'riqish, semantik kuchayish va estetik begonalashtirish effekti yuzaga keladi. Shu bois soletsizm lingvopoetik tahlilda ritm va intonatsiya bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab stilistik-prosodik mexanizm sifatida baholanishi lozim. Sintaksis – prosodiya interfeysi nuqtayi nazaridan soletsizm sintaktik strukturaning me'yoriy modeldan og'ishi bo'lgani sababli, u bevosita prosodik tashkil (ritm, pauza, urg'u va ohang konturi)ga ta'sir ko'rsatadi. Sintaktik qurilish va prosodiya o'rtasidagi muvofiqlik buzilganda, gapning tabiiy ohang modeli izdan chiqadi. Natijada ritmik birliklar va intonatsion bo'linmalar o'rtasida nomutanosiblik yuzaga keladi. Prosodiya nutqning ustsegmental xususiyatlarini, ya'ni alohida tovushlardan yuqori darajada joylashgan fonetik hodisalarni o'rganuvchi soha va tushunchadir. Prosodiya nutqning ohangiy-ritmik tashkilini belgilaydi va gapning ma'nosi, emotsiyasi hamda kommunikativ vazifasini aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Prosodiya nutqda intonatsiya, urg'u, ritm, pauza, temp (nutq tezligi), kuch (intensivlik), balandlik kabi fonetik-parametrlarning majmuasidir. Bu elementlar nutqni mexanik tovushlar ketma-ketligidan mazmunli, emotsional va kommunikativ jihatdan tashkil topgan birlikka aylantiradi. Prosodiyaning asosiy komponentlaridan intonatsiya gapning ohang konturi bo'lib, u gap turini xabar, so'roq, buyruq, nutqning tugallanganlik darajasini, emotsional holatni ifodalaydi. Urg'u so'z yoki gapdagi muhim bo'lakni ajratib ko'rsatadi. Prosodiyada leksik urg'u, frazal urg'u, mantiqiy intonatsion urg'u farqlanadi. Ritm nutq birliklarining vaqt bo'yicha muntazam yoki nomuntazam takrorlanishi asosida yuzaga keladigan tuzilishdir. Pauza nutq oqimidagi to'xtalish bo'lib, u sintaktik chegaralarni, semantik bo'linishni, emotsional ta'sirni ko'rsatadi. Prosodiya sintaktik tuzilma bilan uzviy bog'liq. Gapning strukturasi, tema - rema bo'linishi, bosh va ergash qismlar intonatsiya va pauzalar orqali signal qilinadi. Shu sababli

¹⁰⁸ megaobuchalka.ru Megaobuchalka – Prosodic stylistic means

lingvistikada sintaksis – prosodiya interfeysi tushunchasi mavjud bo‘lib, u grammatik tuzilma va ohangiy tashkilning o‘zaro ta’sirini o‘rganadi. Badiiy va poetik nutqda prosodiya emotsional-ekspressivlikni kuchaytiradi, ritmik va ohangiy effekt yaratadi, semantik markazni ajratib ko‘rsatadi, estetik ta’sirni shakllantiradi. Shu jihatdan prosodiya faqat fonetik hodisa emas, balki stilistik va lingvopoetik mexanizm sifatida ham qaraladi. Prosodiya nutqning intonatsiya, urg‘u, ritm, pauza va temp kabi ustsegmental xususiyatlari majmuyi bo‘lib, u gapning kommunikativ, emotsional va semantik tashkilini belgilovchi muhim fonetik-stilistik tizimdir. Soletsizm ritmga quyidagi yo‘llar bilan ta’sir qiladi: ritmik segmentatsiyaning buzilishi, sintaktik chegaralar bilan ritmik chegaralarning mos kelmasligi sababli metrik yoki sintaktik-ritmik birliklar notekis taqsimlanadi. Ritmik nosimmetriya gap bo‘laklarining kutilmagan joylashuvi ritmik muvozanatni izdan chiqarib, nutqda “sinish” effektini hosil qiladi. Ritmik kutilmaning buzilishi – o‘quvchi yoki tinglovchi uchun shakllangan ritmik model buziladi, bu esa matnning dinamikligini va ekspressivligini oshiradi. Natijada soletsizm ritmni faqat buzuvchi omil emas, balki ritmik zo‘riqtirish va semantik urg‘ulash vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Soletsizm intonatsiyaga quyidagi jihatlar orqali ta’sir etadi: ohang konturining beqarorlashuvi, sintaktik noaniqlik sababli gapning tugallanganlik yoki davomiylik ohangi aniq ifodalanmay qoladi. Tema - rema munosabatining siljishi. So‘z tartibi va konstruksiya buzilishi kommunikativ markazning o‘rnini o‘zgartiradi, bu esa intonatsion urg‘uning noodatiy joylashuviga olib keladi. Tema - rema – bu gapning axborot tuzilishi kommunikativ bo‘linishini ifodalovchi lingvistik tushuncha bo‘lib, u gapda ma’lum va yangi axborotning qanday taqsimlanganini ko‘rsatadi. Tema - gapda tinglovchi yoki o‘quvchiga oldindan ma’lum, kontekstdan ayon bo‘lgan yoki suhbatda allaqachon tilga olingan axborotni ifodalovchi qismdir. Tema gapning tayanch nuqtasi bo‘lib, undan kelib chiqib yangi axborot beriladi. Tema odatda quyidagi xususiyatlarga ega: kontekstga bog‘langan bo‘ladi, gap boshida joylashishga moyil, intonatsiyada nisbatan neytral yoki past urg‘u bilan aytiladi, kommunikativ jihatdan “boshlang‘ich nuqta” vazifasini bajaradi. Misol: Talabalar bugun kutubxonaga borishdi. Talabalar – tema ma’lum axborot. Rema – gapda yangi, asosiy, muhim axborotni ifodalovchi qismdir. Rema gapning kommunikativ markazi bo‘lib, tinglovchi uchun eng muhim xabar aynan shu qismda jamlanadi. Rema xususiyatlari: yangi axborotni bildiradi, intonatsion urg‘u asosan remaga tushadi, ko‘pincha gap oxirida joylashadi, gapning maqsadini, ya’ni xabar, yangilikni belgilaydi. Misol: Talabalar bugun kutubxonaga borishdi. Kutubxonaga borishdi - rema yangi axborot. Tema - rema munosabati lingvistikada gapning aktual bo‘linishi deb ham yuritiladi. Bu nazariya Praga lingvistik maktabi (V. Mathesius, J. Firbas) tomonidan ishlab chiqilgan. Aktual bo‘linishda tema kommunikativ tayanch, rema – kommunikativ cho‘qqi. Bu bo‘linish so‘z tartibi, intonatsiya, kontekst, urg‘u kabi vositalar orqali ifodalanadi. O‘zbek tilida va boshqa tillarda tema - rema munosabati ko‘pincha so‘z tartibi orqali, intonatsion urg‘u orqali ifodalanadi. Masalan: Kitobni men o‘qidim. Kitobni – rema urg‘u boshida, kontrastiv axborot. Men kitobni o‘qidim. Kitobni o‘qidim – rema oddiy xabar. Bu

misollar tema - rema munosabati nutqning kommunikativ niyatiga qarab o'zgarishini ko'rsatadi.

Lingvopoetik va stilistik ahamiyati badiiy va poetik nutqda tema - rema semantik markazni siljitish, emotsional urg'u yaratish, ritm va intonatsiyani o'zgartirish, poetik effekt hosil qilish uchun faol qo'llanadi. Ayniqsa, sintaktik og'ishlar jumladan, soletsizm, inversiya, parselatsiya tema -rema tuzilishini buzib yoki qayta tashkil etib, ekspressivlikni kuchaytiradi. Tema-remaga gapning axborot tuzilishini belgilovchi asosiy kommunikativ mexanizm bo'lib, u ma'lum va yangi axborotning taqsimlanishini ko'rsatadi. Ushbu bo'linish intonatsiya, so'z tartibi va kontekst orqali yuzaga chiqadi hamda nutqning semantik va pragmatik tashkilida muhim rol o'ynaydi. Me'yoriy gap turlariga xos ohang modellari bilan real sintaktik tuzilma o'rtasida nomuvofiqlik yuzaga keladi. Bu holatlar natijasida intonatsiya nutqda hissiylik va subyektivlikni kuchaytiruvchi vositaga aylanadi. Pauza va urg'u tizimidagi o'zgarishlar. Soletsizm kutilmagan pauzalar, urg'uning sintaktik markazdan chetga siljishi, prosodik chegaralarning qayta taqsimlanishi kabi hodisalarni yuzaga keltiradi. Bu jarayonlar nutqning ichki ritmini o'zgartirib, matnda ichki keskinlik va ekspressiv ta'sirni kuchaytiradi. Lingvopoetik nuqtayi nazardan, soletsizm ritm va intonatsiyani buzish orqali nutqning avtomatlashtirilgan idrokini susaytiradi, matnni emotsional jihatdan "keskinlashtiradi", semantik markazlarni qayta joylashtiradi, poetik va badiiy diskursda begonalashtirish effektini yuzaga keltiradi. Shu sababli soletsizm prosodik tizimda faqat normadan chekinish emas, balki estetik va ekspressiv imkoniyatlarni kengaytiruvchi mexanizm sifatida ham talqin qilinadi. Soletsizm sintaktik strukturaning buzilishi orqali ritm va intonatsiyaning me'yoriy tashkilini izdan chiqaradi, ritmik kutilmalarni buzadi va intonatsion konturlarni beqarorlashtiradi. Natijada nutqda emotsional zo'riqish, semantik urg'ulash va estetik effekt kuchayadi. Shu jihatdan soletsizm lingvopoetik tahlilda prosodik tizim bilan uzviy bog'liq bo'lgan muhim stilistik omil sifatida baholanishi lozim.

V. M. Jirmunskiyning mashhur asari "Metrikaga kirish" ("Vvedeniye v metriku") da metr va ritm tushunchalari tizimli va kengroq bayon qilinadi. V. M. Jirmunskiy fikriga ko'ra, metr, yani she'riy vazn nutqda urg'uli va urg'usiz bo'g'inlarning oldindan belgilangan, barqaror va takrorlanuvchi sxema asosida joylashishidir. Metr, ya'ni vazn she'rning strukturaviy-ritmik karkasi bo'lib, u she'riy nutqning tashkiliy modeli sifatida xizmat qiladi. Jirmunskiy metrni quyidagicha tavsiflaydi: metr – bu abstrakt tizim, ya'ni real matndan mustaqil holda mavjud bo'lgan ideal model. U urg'ularning qat'iy joylashuvi orqali she'rning normativ ritmik shaklini belgilaydi, she'rni oddiy nutqdan ajratib turuvchi asosiy formal belgilardan biridir. Masalan, yamb, xoriy, daktil, amfibraxiy, anapest kabi vaznlar. Jirmunskiy nazariyasida metr, yani she'riy vaznning an'anaviy turlari haqida ma'lumot beriladi. Har bir metr turida urg'u va urg'usiz bo'g'inlarning joylashuvi qat'iy me'yor bilan belgilanadi. Jirmunskiy vaznni "she'rning ritmik sxemasi" sifatida talqin qiladi va uni she'riy shaklning normativ modeli deb

hisoblaydi¹⁰⁹. Jirmunskiy nazariyasida ritm – bu vaznning real matnda konkret amalga oshishi, ya'ni she'r satrida sxemasining tirik, individual va dinamik ko'rinishidir. Ritm real nutq hodisasi, vazn esa abstrakt model. Ritmda vazndan og'ishlar, siljishlar, qo'shimcha urg'ular, pauzalar, intonatsion o'zgarishlar yuz beradi. Ritm she'rning ekspressivligi, ohangdorligi va semantik ta'sirini kuchaytiradi. Metr, ya'ni she'riy vazn ritm uchun asos bo'lsa-da, real she'riy nutqda metr va ritm hech qachon to'liq mos tushmaydi¹¹⁰. Aynan shu nomuvofiqlik she'riy ifodaning badiiy kuchini ta'minlaydi. Jirmunskiy metr va ritmni qarama-qarshi emas, balki dialektik birlik sifatida ko'radi¹¹¹. Metr abstrakt, normativ, barqaror sxema, ritm esa konkret, individual, dinamik amalga oshish. Aloqa ritm metr asosida shakllanadi, lekin undan og'ishlar orqali badiiylik hosil qiladi¹¹². Bu qarashga ko'ra, vazn strukturaviy intizomni ta'minlaydi, ritm semantik va emotsional harakatchanlikni yuzaga chiqaradi.

She'riy estetik ta'sir aynan vazn va ritm o'rtasidagi taranglik natijasida yuzaga keladi. Lingvopoetik nuqtayi nazardan, Jirmunskiy qarashlari quyidagilarni asoslaydi: metr she'riy nutqning formal modeli sifatida til tizimiga yaqin turadi. Ritm nutq jarayonida yuzaga keladigan prosodik-realizatsiyadir. Metr, yan'i vazn ritm munosabati she'rda intonatsiya, pauza, urg'u siljishi kabi hodisalar bilan chambarchas bog'liq. Bu yondashuv hozirgi zamon lingvopoetika va poetik diskurs tahlilida ritmik variativlik va norma – og'ish munosabatlarini izohlashda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Jirmunskiy rus she'riyatshunosligida vazn va ritmni qat'iy farqlash zarurligini asoslab bergan olimlardan biridir. Unga ko'ra ya'ni, metr – normativ model, real talaffuzdan mustaqil ravishda mavjud bo'ladigan tuzilma. Ritm esa real, jonli nutqda yuzaga chiqadigan hodisa sifatida talqin qilinadi. Jirmunskiy an'analarida prosodiya she'rning tovush-intonatsion tashkiloti bilan bog'liq tushuncha sifatida talqin qilinadi¹¹³. Jirmunskiy va unga yaqin ilmiy maktabda prosodiya real nutqdagi fonetik amalga oshish darajasini, she'rning eshitiladigan shaklini tavsiflaydi. Keyingi tadqiqotchilar, masalan, M. Yu. Lotman Jirmunskiy an'anasiga tayangan holda shunday ta'kidlaydi: metriya va prosodiya omillarini farqlash zarur, chunki prosodiya she'rning real fonetik-intonatsion tashkilini ifodalaydi. Jirmunskiy qarashlarini tizimli tarzda quyidagicha umumlashtirish mumkin: metr ideal, me'yoriy sxema, abstrakt; ritm metr nutq fonetikasi natijasi, real; prosodiya urg'u, pauza, intonatsiya va boshqalar. Shu bois Jirmunskiy nazariyasida metr -strukturaviy qonun, ritm – shu qonunning real nutqda namoyon bo'lishi, prosodiya – ritmning fonetik-intonatsion mexanizmi sifatida talqin qilinadi¹¹⁴.

¹⁰⁹ Жирмунский В. Введение в теорию стиха. – Ленинград: Академия 1924.– В 13-15.

¹¹⁰ Gasparov M. L. Sovremennyy russkiy stix: metrika I ritmika.–Moskva:Nauka, 1974.

¹¹¹ Жирмунский В. Введение в теорию стиха. – Ленинград: Академия 1925.–В 13-15.

¹¹² Xolshevnikov V.E. Osnovi stixovedeniya:russkoye stixoslojenije.-Sank-peterburg;Izdatellsvosank-perterburgskogo universiteta,1996.-180s.–ISBN 528801 650X

¹¹³ Жирмунский В. Введение в теорию стиха. – Ленинград: Академия, 1925, – В 126-127.

¹¹⁴ Жирмунский В. Введение в теорию стиха. – Ленинград: Академия 1925,– В 126-127.

Jirmunskiyning ushbu qarashlari rus va, umuman, slavyan she'riyati nazariyasida formal sxema bilan jonli nutq ritm va prosodiya o'rtasidagi dialektik bog'liqlikni ilmiy asoslab berdi, keyingi tadqiqotchilar (Tomashevskiy, Lotman va boshqalar) uchun nazariy poydevor bo'lib xizmat qildi.

L.B.Shcherbaning "Fransuz tili fonetikasi" ("Fonetika fransuzskogo yazika") (1937) asari XX asr eksperimental va funksional fonetikasining muhim namunasidir. Ushbu asar nafaqat fransuz tili fonetik tizimini tavsiflashga, balki fonetik hodisalarni til tizimi, nutq faoliyati va kommunikativ vazifa bilan uzviy bog'liq holda talqin qilishga qaratilgan. Shcherba fonetikani faqat tovushlarning artikulyatsion-akustik xususiyatlari sifatida emas, balki lingvistik-funksional birlik sifatida tushunadi. U fonetika va fonologiya chegaralarini yaqinlashtirib, tovushlarni ma'no farqlovchi va nutqni tashkil etuvchi birliklar sifatida ko'radi. Shcherba fonetik birliklarni quyidagi to'rt jihat birligida o'rganadi: 1. Artikulyatsion jihat – nutq a'zolari harakati orqali tovush hosil bo'lishi. 2. Akustik jihat – tovushning fizik xususiyatlari (chastota, intensivlik, tembr). 3. Perseptiv jihat – tinglovchi tomonidan tovushning idrok qilinishi. 4. Lingvistik-funksional jihat – tovushning til tizimidagi farqlovchi vazifasi¹¹⁵. Bu yondashuv fonetikani faqat fiziologik hodisa emas, balki kommunikativ tizimning funksional komponenti sifatida talqin qilishga imkon beradi. Shcherba fonetik birliklarni segment birliklar, ya'ni fonemalar, tovushlar va supersegment, ya'ni ustsegment birliklar (urg'u, intonatsiya, ritm, pauza) sifatida farqlaydi. Bu jihat, ayniqsa, prosodiya (intonatsiya, ritm, urg'u)ni til tizimining mustaqil va muhim qatlami sifatida baholashga xizmat qiladi. Prosodiya va intonatsiya asarda fransuz tilidagi intonatsion konturlar, fraza urg'usi, ritmik guruhlar, pauza va melodika nutqning semantik va pragmatik talqiniga bevosita ta'sir qiluvchi vositalar sifatida izohlanadi. Shcherba fikriga ko'ra, intonatsiya gapning kommunikativ turini (xabar, savol, buyruq), nutqning emotsional-ekspressiv rangini, aktual bo'linishni, tema-rema munosabatini belgilovchi muhim fonetik mexanizmdir. Shcherbaning ilmiy qarashlariga ko'ra fonetika til tizimining markaziy bo'limlaridan biri, fonetik birliklar formal emas, funksional birliklar, tovush, urg'u va intonatsiya ma'no shakllanishida faol ishtirok etadi. U fonetikani grammatika va leksika bilan teng darajada tizim hosil qiluvchi omil sifatida baholaydi¹¹⁶. "Fransuz tili fonetikasi" ("Fonetika fransuzskogo yazika") asari eksperimental fonetika rivojiga, funksional fonologiya shakllanishiga, prosodik birliklarni lingvistik talqin qilishga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Bu asar keyinchalik R. Jakobson, N. Trubetskoy, V. Vinogradov kabi olimlar qarashlariga ham nazariy asos bo'lib xizmat qilgan.

L. B. Shcherbaning "Fransuz tili fonetikasi" ("Fonetika fransuzskogo yazika") asari fonetik birliklarni artikulyatsion, akustik, perseptiv va funksional jihatlarning integratsiyasi sifatida talqin qilib, prosodiya, ya'ni intonatsiya, ritm,

¹¹⁵ Shcherba, L. V. Fonetika fransuzskogo yazika. – Leningrad, 1937.

¹¹⁶ Shcherba, L. V. Fonetika frantsuzskogo yazyka. – Leningrad, 1937.

urg‘uni nutqning semantik va kommunikativ strukturasini shakllantiruvchi markaziy omil sifatida asoslaydi.

Alisher Navoiyning yaratganga muhabbat, uning sinovlariga tayyorlik, u tayin etgan qismatga sabr, bergan rizqqa qanoat singari holatlar “Gar jafo qil, gar vafokim, dilsitonim sen mening” satrlari bilan boshlanadigan g‘azalida ham ayni shu kayfiyat tasvirlanganligini ko‘rish mumkin. G‘azalda oshiq barcha ixtiyor ma’shuqada ekaniga ko‘nikkan. Yor ketishda ham, oshiq qoshiga kelishida ham tamomila erkin. Hijron azoblariga, adadsiz sinovlarga ko‘nikkan yigit faqat ma’shuqa uning oh-u afg‘onlari ko‘pligini aybsitishidan cho‘chidi:

Jilva aylab har zamon, afg‘on-u ohim qilma ayb,

*Ham sen-o‘q chun boisi oh-u fig‘onim sen mening*¹¹⁷.

Oshiq afg‘onlari va ohlarining sababchisi ma’shuqaning o‘zi ekanini aytishga jur‘at qiladi. Lekin u sababkorni topmoqchi, o‘zini oqlamoqchi emas, balki yorga iltijo qilmoqda, xolos. Ishq otashi tufayli qahramonning joni arang turibdi. Shu bois ma’shuqa unga bir-ikki so‘z aytib, marhamat qilsa bo‘lardi. Negaki, yigit bir necha damlik mehmon. Ayni so‘zlarni, sen menga bir-ikki damlik mehmon, deb ham tushunish mumkin. Shuncha jafolarga qaramay, g‘azal oshiqning kutilmagan e’tirofi bilan tugaydi:

O‘ldi mehringdin Navoiy, bevafo debsen ani,

*Ertaki nozik mijozi badgumonim sen mening*¹¹⁸.

Ma’shuqa yetkazgan sitamlarning chegarasi yo‘q. Ishq yo‘lida shuncha jabr ko‘rib, sabr qilgan oshiq evaziga “bevafo” degan nom oladi. Lekin u: ”O‘ldi mehringdin Navoiy”, - deyishga o‘zida kuch topa oladi. Haqiqiy muhabbat odamni manmanlikdan, kibr-u havodan, nafsdan tozalashi g‘azalda shu yo‘sinda aks ettiriladi. G‘azalda grammatik vositalar “uchun” sof ko‘makchisi “*chun*” shaklida; ”debsan” II shaxs birlikdagi shaxs-son qo‘shimchasini olgan so‘z “*debsen*”; “ertagi nozik mijozi” sifatlashi ”*ertaki nozik mijozi*” shaklida qo‘llangan, lekin eski turkiy va eski o‘zbek (chig‘atoy) adabiy til me’yoriga tegishli.

Navoiyning “Xil’atin to aylamish jonon qizil, sorig‘, yashil” misrasi bilan boshlangan g‘azali inson ruhiy holatlari nozikligi, sirliligi tashqi dunyo va odam surati bilan uyg‘unlikda g‘oyat nozik tasvirlangan:

Xil’atin to aylamish jonon qizil, sorig‘, yashil,

*Shu ‘layi ohim chiqar har on qizil, sorig‘, yashil*¹¹⁹.

¹¹⁷ Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami. 20-tomlik.1-tom. Badoye‘ ul-bidoya. – Toshkent: O‘zbekiston SSR ”Fan” nashriyoti. -1987. –B 285.

¹¹⁸ Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami. 20-tomlik.1-tom. Badoye‘ ul-bidoya. –Toshkent: O‘zbekiston SSR”Fan” nashriyoti. -1987. –B 285..

¹¹⁹ Navoiy A.Mukammal asarlar to‘plami. 20-tomlik.2-tom.Navodir un-nihoya.–Toshkent: O‘zbekiston SSR”Fan” nashriyoti. -1987. –B 331.

Birinchi misrada sabab va oqibat mutanosiblik bilan beriladi. Ya'ni "jonon qizil, sorig', yashil" kiyim kiyib, oshiqning o'rtangan ko'ngliga bezovtalik solgani bois uning ohlari ham shunga monand "qizil, sorig', yashil" shu'lalar chiqaradi. Bu tasvirda teran mantiqqa asoslangan holda quyuq mubolag'adan foydalanilgan. Ma'shuqaning husn-jamoligina emas, balki uning yodi ham oshiq ko'nglida xuddi tuynukdan tushib turgan nurlar kamalagi singari "qizil, sorig', yashil" ohlar hosil etadi. Shoir tuyg'ularni sezdiribgina qolmaydi, balki ularga rang beradi, moddiylashtiradi, she'rxon ko'z oldiga keltirish mumkin bo'lgan qiyos topadi. Yorning yuzi, xoli, labi ustidagi xati xayolida dunyo oshiq ko'zi oldida goh qizil, goh sariq, goh yashil rangda tovlanadi. Chunki ma'shuqa jamoli ta'sirida qahramon hushidan ayrila yozgan:

Oraz-u xoling bila xatting xayolidin erur,

Ko'zlarimning ollida davron qizil, sorig', yashil.

Shoir, chamasi, do'stga murojaat etib, undan ko'klamda oltin jomda qirmizi may tutishni so'raydi. Uningcha, "yashil" o'tloqzorda "qizil" may ichishgina "sorig'" yuzli oshiqqa hijron azobini kamaytiradi. Ushbu baytda "bila" "din" grammatik shakllar; "ollida", "sorig'" leksik birliklar ifodalangan bo'lib, poetik va tarixiy variantlar, ma'no va vazn talabiga mos tanlangan shakllar hisoblanadi.

Alisher Navoiy "Xil'atin to aylamish jonon qizil, sariq, yashil" matla'si bilan boshlanuvchi g'azalida soletsizm badiiy-estetik maqsadga xizmat qiluvchi muhim poetik hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Bu g'azalda til me'yorlaridan ongli chekinish ranglar tasviri, ishqiy holat va ichki kechinmalarni yanada kuchliroq ifodalash uchun qo'llanadi. "Qizil, sariq, yashil" ranglarining yonma-yon qo'llanishi oddiy sanash emas, balki ramziy tizimni hosil qiladi. Odatda ranglar bunday tartibda yoki bu tarzda bir xil sintaktik vazifada ketma-ket kelishi kamroq uchraydi. Navoiy esa ularni bir obraz – jonon xil'atining ranglari sifatida jamlab, semantik kengayish hosil qiladi. Bu yerda ranglar: qizil – ishq va ehtiros, sariq – hijron va za'f, yashil – umid va hayot ma'nolarini ifodalab, me'yoriy lug'aviy qo'llanishdan chiqib ketadi. Mazkur g'azalda badiiy tasvir ranglar semantikasining kengayishi (leksik), inversiya va qisqartirishlar (sintaktik), shakliy erkinliklar (morfologik) orqali yuzaga chiqadi va jonon obrazi hamda oshiq kechinmalarini yanada ta'sirchan ifodalashga xizmat qiladi.

Xurshid Davron o'zbek tili boyliklaridan juda keng foydalanadi. Shuning uchun ham uning leksikasi boy va rang-barangdir. Shoir doim original, yangi tashbehlar topib, ularni lirikaning badiiy-estetik quvvatini oshirishga xizmat qildiradi: *Men ko'ksingga boshimni qo'ydim, Sen chekkan g'am, hasratda kuydim. Suydim sening Oqdaryongni ham. Hamda Qoradaryongni suydim, Ey, qalbimning onasi, Vatan!*¹²⁰

¹²⁰ To'xliyev B., Karimov B., Usmonova K. Adabiyot. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. – Toshkent: 2018. – B. 200. – B 96.

Xurshid Davron tarixni falsafiy idrok etadi, uning zaruriy, o'quvchi qalbiga ta'sir etadigan nuqtalarini poetiklashtiradi. She'rda "*suydim*" shevasi soletsizmni tashkil qilib, voqelikni badiiy tafsillar vositasida ifodalashga erishiladi.

Iste'dodli shoira Jumagul Suvonova she'rlari o'quvchi qalbiga hayotiy voqeliklar orqali fikrlar, ranglar va ohanglar oqib kiradi. Bu hodisa adabiyotga, she'riyatda an'anaga aylanib qolgan yaxshilik va ezgulik tushunchalarini, mehr-muhabbat, iymon-e'tiqod tuyg'ularini ilgari surish qonuniyatlaridan iboratdir. Shoiraning "Ko'ksimdagi kuyugim" she'rida: *Sen mening do'st, inimsan, / Olovli zaminimsan. // Ham yotsan, ham manimsan, / Men sen bilan faxr etgum, / Ko'ksimdagi kuyugim*¹²¹. She'rdagi "*manimsan*" kishilik olmoshi sheva shaklida qo'llanib, qarashlilik shakli qo'shimchasi "niki" I shaxs egalik qo'shimchasi "*im*" bilan shakldoshlik hosil qilmoqda. "*Faxr etgum*" so'zidagi "*gum*" shakli fe'lning birlikdagi shaxs-son qo'shimchasi "man" o'rnida qo'llanib ta'sirchanlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Istambul shahri Marmar dengizi yaqinida joylashgan bo'lib, savdo kemalari uchun muhim tranzit yo'l. Shoiraning "Marmar dengizi" she'rida: *Oqshom uch yo / To'rtlar atrofi, / Xasta dunyo / yo'l tortar horib // Goh yo'lovchi xarxashasi-yu / Goh avtobus rulini olib*. Misralarda o'zlashma so'z bo'lgan "rol" so'zi "rul" tarzida soletsizmni hosil qilgan. Egey dengizi Gretsiya va Turkiya oralig'ida joylashgan. U tarixiy, madaniy va savdo yo'llari jihatidan juda muhim dengizlardan biri hisoblanadi. Suvi sho'r, nisbatan iliq. J.Suvonova "Egey dengizi" she'rida dengizning go'zalligini tasvirlashda tashbeh va tashhis sana'tidan unumli foydalangan: "*Kokullaring – oltin, Ko'ylaging oltin*", "*Mangu yashamoqchun yugurib sohil / Shaddod suv labidan / bo'salar olar*"¹²². Ushbu misralarda "*kokullaring*" leksik soletsizm, "*yashamoqchun*" grammatik soletsizmni tashkil qilgan. "*Marhaming bitib, Himmating bitib, / Dengizing poyini O'pib turibman*" misralarida "*marhaming bitib*", "*himmating bitib*", "*dengizing poyin*" kabilarda qaratqich va tushum kelishiklari belgisiz qo'llanib grammatik soletsizmni hosil qilgan. Shoiraning "Yolg'iz ayol" she'rida sabr, bardosh, oilani saqlab qolish, ayol qadri, haq-huquqi haqida fikr yuritiladi. Yolg'iz ayolning ham ota, ham ona bo'lib farzandlar tarbiyasi bilan shug'ullanishi, ro'zg'or tashvishlari, ustiga yog'dirilgan ma'lomat toshlarini kichkinagina jussasida ko'tarish go'yasi ustunlik qiladi: *Yeganin osh demang yolg'iz ayolning, / Shayton tovog'iga qo'lin soladi. // Dasturxon boshida otasin eslab, / Yo og'li yo qizi yi'lab qoladi. // Ushbu she'rda "yeganin", "qo'lin", "otasin" so'zlarida tushum kelishigi "n" shaklida qo'llanib soletsizmni hosil qilgan.*

She'riyat inson ruhiyatining ko'hna va mangu ehtiyoji, go'zal ohang, go'zal so'z esa odamzod azal-abad intiluvchi ne'matdir. Farrux Hamroyev ana shu ne'matga oshufta shoir. Uning "Dunyoning ismi" to'plamiga ona Vatan, sevgi-muhabbat, mehr-oqibat va odamiylik haqidagi she'rlari kiritilgan. Ushbu to'plamdagi "Dil to'la g'am..." she'rida xalqona ohang usuli yetakchilik qiladi: Dil

¹²¹ Suvonova J. Oq va qora.– Samarqand: Mahorat.2024. –B 32.

¹²² Suvonova J. Oq va qora.– Samarqand: Mahorat.2024. –B 83.

to‘la g‘am, /Ko‘zlara nam, / Bechora chora *izlaram*¹²³. Farrux Hamroyevning “Dil to‘la g‘am, ko‘zlarga nam, bechora chora *izlaram*” misralarida soletsizm, normadan og‘ish poetik maqsadda qo‘llangan bo‘lib, bu tilning odatiy grammatik va uslubiy qoidalaridan ongli ravishda chetga chiqishni anglatadi. 1. Grammatik va shakliy og‘ish: “*izlaram*” shakli adabiy tilda odatda “izlayman” tarzida qo‘llanadi. Bu yerda fe‘lning qisqartirilgan, shevaga yaqin yoki poetik shakli ishlatilgan. Bu morfologik soletsizm hisoblanadi. 2. Sintaktik siqilish (ellipsis): “Dil to‘la g‘am”, “ko‘zlara nam” – bu gaplar to‘liq predikativ tuzilishga ega emas, ya‘ni kesim yo‘q. Aslida bu fikrlar “Dil g‘amga to‘la”, “ko‘zlarim nam” shaklida bo‘lishi mumkin edi. Bu sintaktik soletsizm ya‘ni gap qisqarishi, ellipsis orqali ifoda ixcham va ta’sirchan qilingan. 3. Uslubiy (poetik) vazifa: Bu og‘ishlar estetik vazifalarni bajaradi: emotsional kuchaytirish, qisqa va keskin shakl ichki iztirobni kuchliroq beradi, ritm va ohangni saqlash, “*izlaram*” shakli vazn va qofiyaga mos tushadi, jonlilik va samimiylik, shevaga yaqin shakl lirizmni oshiradi. Mazkur misralarda soletsizm morfologik (*izlaram*), sintaktik (kesimsiz qisqa tuzilmalar) ko‘rinishida namoyon bo‘lib, shoirning ruhiy holatini yanada chuqur, ta’sirchan va poetik ifodalashga xizmat qilgan.

She’riyatda soletsizmning mazmuniy-estetik funksiyalari

Lingvostilistika va rus formalizmi an‘analarida soletsizm me‘yoriy grammatik tuzilmaning ongli ravishda buzilishi sifatida talqin qilinadi va u poetik “og‘ish”, ya‘ni deviation hodisasining muhim ko‘rinishlaridan biridir. J. Mukarovskiy va Praga lingvistik maktabi vakillari ta’kidlaganidek, bunday og‘ishlar poetik nutqda foregrounding – oldinga chiqarish, ajratib ko‘rsatish vazifasini bajaradi, ya‘ni o‘quvchi e’tiborini shaklga, ifoda usuliga va poetik signifikatsiyaga qaratadi. Soletsizm oddiy xato emas, balki estetik maqsadga yo‘naltirilgan strukturaviy og‘ish bo‘lib, matnning semantik va pragmatik qatlamlarida yangi ma’nolar hosil qiladi. Bu yondashuv stilistikada “poetik tilning me‘yoriy tildan ongli ravishda chekinishi” sifatida izohlanadi¹²⁴. Soletsizm she’riy nutqda mazmuniy-estetik funksiyalar hosil qiladi.

Bir-biriga qarama-qarshi hodisa yoki tushunchalar tasviri asosiga qurilgan munozara ham aynan “Devonu lug‘otit-turk”da keltirilgan. Bu asar munozara janrining eng qadimgi namunasi sifatida alohida ahamiyatga ega. Mahmud Koshg‘ariy “Qish va Bahor” munozarasiga oid ko‘plab to‘rtliklarni keltirgan. Ammo ular asarning bir joyida emas, balki uning turli qismlarida har xil so‘zlarning izohiga dalil tarzida keltirilgan. Tabiatdagi bu jarayon inson hayotidagi jonli manzaralarga o‘xshatilib, unga qiyosiy holda aks etgan. O‘zaro to‘qnashish, bir-biriga qing‘ir ko‘z bilan qarash, kurashish uchun o‘zaro yaqinlashish va g‘oliblik istagi kabi insonga xos tuyg‘ular tabiatga nisbat berilmoqda. Adabiyotshunoslikda bu hodisaning nomi jonlantirish deyiladi. Mahmud Koshg‘ariy keltirgan “Qish va

¹²³ Hamroyev Farrux. Dunyoning ismi. – Toshkent: G‘. G‘ulom nashriyoti.–B 19.

¹²⁴ Mukarovskiy J.O jazyce basninnickem.-slovo a slovesnost. Praga. 1940 r.6.

Bahor” munozarasida jonlantirish tasvir vositasi asosiy o‘rin tutadi. Har ikki fasl to‘la “tilga kiradi”. Ular bir-biriga tegishli bo‘lgan xususiyatlarni go‘yo “fosh etadi”: *Qish yay bila to‘qushdi, / Qing‘ir ko‘zun baqishti, / Tutashqali yaqishti / Utg‘alimat o‘g‘rashur*¹²⁵ (Qish bahor bilan to‘qnashdi. Bir-birlariga yomon ko‘z bilan qarashdi. Bir-birlarini tutish uchun yaqinlashtilar. Ularning har biri yengishni istar edi. Ushbu baytda to‘qnashdi-to‘qushdi, boqishdi-baqishti, yaqinlashdi-yaqishti tarzida ishlatilgan. Aynan yaqin o‘tgan zamon fe‘li -di qo‘shimchasi, -ti shaklida qo‘llangan. Qadimgi turkiy til (Qoraxoniylar davri) da bu shakllar normal, jonli til unsuri bo‘lgan. Bu birliklar eski turkiy tilga xos grammatik shakllar hisoblangan.

Soletsizm natijasida gapning odatiy sintaktik modeli buziladi va bu ma’no markazining siljishiga olib keladi. Masalan, noto‘g‘ri kelishik boshqaruvi, fe‘l zamonining me’yoridan chetlanishi yoki kelishuvning buzilishi natijasida semantik noaniqlik yuzaga keladi. Ushbu noaniqlik poetik kontekstda ko‘pqatlamli talqin imkonini beradi.

Nosiriddin Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy”dagi qissa va hikoyalar orasida o‘nlab she’rlar ham mavjud. Bahor vasfiga bag‘ishlangan birinchi turkiy g‘azal ham Rabg‘uziy qalamiga mansub. O‘zbek adabiyotidagi ilk g‘azalda Rabg‘uziy janrning barcha shakliy-badiiy talablari mukammal darajada rioya etgan. Osmon va yerdagi o‘zgarishlarni aks ettirish orqali bulut va daraxtlarning o‘ziga xos manzarasi ko‘rsatiladi. Lola, bulbul, turna, qo‘zi so‘zlari bahorning turli belgilarini ifodalash vositasi bo‘lgan: *O‘rlasa bulutlari gulchirar bog‘-u bo‘ston, / Tol yig‘ochlar yeng solishur o‘ynayurtek qo‘y-qo‘zi. // Lola sag‘roqin icharda sayrar usrub sanduvach, / Turna un tortib o‘tarda sakrashur baqlan, qo‘zi*¹²⁶. Qadimgi turkiy tilda “yig‘och”, “og‘och” so‘zlari, asosan, “daraxt” tushunchasini ifodalagan. O‘rlamoq -yurmoq, gulchiramoq-gul ochmoq, yig‘och-daraxt, sag‘roq- idish, jom, usrumak-mast bo‘lmoq, sanduvach-bulbul, baqlan-yosh qo‘zi ma’nolarida qo‘llanib, qadimgi turkiy til lug‘atlari hisoblanadi. Yuqoridagi baytlarda “solishur”, “o‘ynayurtek”, “sakrashur” so‘zlari buning yorqin dalili bo‘lib xizmat qiladi va o‘sha davr tili bilan bog‘liq hodisa hisoblanadi.

Soletsizm ko‘pincha lirik qahramonning ichki holatini ruhiy beqarorlik, hissiy portlash, tafakkur uzluksizligi kabi jarayonlarni aks ettirish uchun xizmat qiladi. Grammatik me’yorning buzilishi psixologik holatning lingvistik ekvivalenti sifatida ishlaydi. Soletsizm poetik matnda o‘quvchi e’tiborini mazmundan shaklga ko‘chirishga xizmat qiladi. Bu orqali poetik nutq oddiy kommunikativ tildan farqlanadi va estetik idrok kuchayadi. Mukarovskiy ta’kidlaganidek, poetik tilning asosiy belgisi uning estetik funksiyasi bo‘lib, u ko‘pincha sintaktik va grammatik ongli buzish orqali yuzaga chiqadi.

O‘zbek adabiyotining XV asr ikkinchi yarmigacha bo‘lgan davrlardagi eng mashhur lirik shoirlaridan biri Lutfiydir. Bizgacha Lutfiy turkiy devonining XVI-

¹²⁵ Koshg‘ariy M. Devonu lug‘otit turk. 3-tomlik.1-tom.–Toshkent:1960.O‘zbekiston SSR fanlar akademiyasi nashriyot,–B 182.

¹²⁶ Rabg‘uziy N.Qissasi Rabg‘uziy.– Toshkent: Sharq nashriyoti,1990.

XX asrlar mobaynida ko‘chirilgan jami 33 nusxasi yetib kelgan. Shoirning, xususan, g‘azal va tuyuqlari XV asr o‘zbek lirikasining go‘zal namunalari hisoblanadi. Lutfiy lirikasi faqat o‘zbek she‘riyati vakillarigina emas, boshqa turkiy xalqlar, jumladan, turkman, ozarbayjon, usmonli turk shoirlari ijodiga ham sezilarli ta‘sir qilgan. Shoirning “Xoh inon, xoh inonma” radifli g‘azali turkona ruhda bitilgan. Radifning to‘rt so‘zdan tashkil topgani, amalda sakkiz misrada ularning qaytarilishi ohang ustuvorligini kuchaytirgan. ”Inonma” – hozirgi tilimizda mavjud “ishonma” so‘zining XV asrdagi shakli. Mamlakatimizning ayrim hududlarida, shuningdek, Buxoro viloyati va Afg‘onistondagi o‘zbek shevalarining ba‘zilarida hozir ham “ishonma” o‘rniga “*inonma*” shakli ishlatiladi. G‘azal ham mumtoz yo‘lda, ham zamonaviy estrada usulida ashula qilingan. Uchinchi bayt alohida izoh talab qiladi: *Haqqoki, qilich kelsa boshimg‘a, eshikingdin / Yo‘qtur guzarim, xoh inon, xoh inonma*¹²⁷. Buning uchun “guzar” so‘zining ayni matndagi xos ma‘nosini tushunib olish kerak. Agar bu so‘zni “o‘tish” deb anglasak: ”Xoh ishon, xoh ishonma, Xudo haqqi, boshimga qilich kelsa ham, eshiging oldidan o‘tmayman”, – degan g‘azaldagi umumiy mantiqqa zid ma‘no-mazmun kelib chiqadi. Shuning uchun bu so‘zni “ketish” ma‘nosida tushunish lozim. Shunda: “Xoh ishon, xoh ishonma, Xudo haqqi, boshimga qilich kelsa ham, eshiging oldidan nari ketmayman”, – degan to‘g‘ri ma‘no anglashiladi. G‘azalda “*boshimg‘a*” so‘zidagi jo‘nalish kelishigi; “*eshikingdin*” so‘zida “k” tovushi bilan tugagan so‘zga -ing II shaxs egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda -k tovushi “g” tovushiga almashmagani; “dan” chiqish kelishigi “*din*” tarzida; “*yo‘qtur*” so‘zidagi “dir” kesimlik shakli “*tur*” shaklida ishlatilishi ham eski turkiy tilning normalari bilan bog‘liq.

Soletsizm sintaktik me‘yorni buzish orqali ritmik strukturani o‘zgartiradi, urg‘u va pauza joylarini siljitadi. Bu she‘r ichki musiqasini kuchaytiradi, intonatsion kontrast hosil qiladi, semantik urg‘uni kutilmagan komponentlarga ko‘chiradi. Natijada estetik ta‘sir nafaqat semantik, balki prosodik darajada ham kuchayadi. Alisher Navoiyrning dunyo, hayot, inson, uning umri va tiriklik mazmuni haqidagi teran o‘ylari, anduhli mulohazalari shoirning “Junun vodiysig‘a moyil ko‘rarmen joni zorimni” satri bilan boshlanadigan g‘azalida adoqsiz bir dard va tengsiz mahorat bilan berilgan:

Junun vodiysig‘a moyil ko‘rarmen joni zorimni

*Tilarmen bir yo‘li buzmoq buzulg‘on ro‘zgorimni*¹²⁸.

Tiriklikning tuganmas tashvishlari, charxning o‘lchovsiz qilvirliklari va odamlarning riyokorliklaridan bezgan donishmand kishi holati matla‘da o‘ta ta‘sirchan aks etgan. Qahramon o‘zini telbalikka, ya‘ni “junun vodiysiga moyil ko‘ra” di. Chunki u dunyoni tuzatmoqchi, odamlarni komil qilmoqchi, yurtni obod

¹²⁷ Olimov S., Ahmedov S., Qo‘chqorov R. Adabiyot. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. –352. – B 46.

¹²⁸ Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami. 20-tomlik. 3-tom. G‘aroyib us-sig‘ar. – Toshkent: O‘zbekiston SSR”Fan” nashriyoti. -1987. – B 486.

etmoqchi edi. Hayotning tartibi shunday bo‘ldiki, nafaqat ezgulikni olamga yoya oldi, balki o‘z “ro‘zgori” ni ham omon saqlab qola bilmadi. Mazkur g‘azal “G‘aroyib us-sig‘ar” devoniga kiritilgan bo‘lsa-da, undan katta hayot tajribasiga ega, turmush to‘g‘risida asosli xulosalar chiqarib olgan kishining ruhi sezilib turadi. Baytda “ga” jo‘nalish kelishigi “g‘a”; ”ko‘rarmen”, “tilarmen” so‘zlaridagi “man” I shaxs birlik qo‘shimchasi “men”; “buzulg‘on” so‘zida “il” majhul nisbat qo‘shimchasi “ul”; “gan” o‘tgan zamon sifatdoshi “g‘on”; ”ro‘zg‘or” so‘zi “ro‘zgor” tarzida qo‘llangan.

Navoiyning musalsal usulida yozilgan “Jong‘a chun dermen: “Ne erdi o‘lmakim kayfiyati?” g‘azali savol-javob usulidan unumli foydalanilgan. Bunda birov savol beradi, ikkinchi taraf shu savolga javob qaytaradi. Shuning uchun “Farhod va Shirin” dostonida Xisrav bilan Farhodning aytishuvi ham aynan ana shu tarzda ifodalangan:

Jong‘a chun dermen: “Ne erdi o‘lmakim kayfiyati?”

Derki: “Bois bo‘ldi jism ichra marazning shiddati”.

Jismdin so‘rsamki: ”Bu za‘fing‘ga ne erdi sabab?”

Der: “Anga bo‘ldi sabab o‘tluq bag‘irning hirqati”¹²⁹.

To‘liq bir g‘azalni savol-javob tarzida bitish Navoiydan oldin yashab, ijod qilgan qalam sohiblari ijodida ham uchraydi. Ammo g‘azal ayni san‘atni oliy darajada qo‘llashi va mantiqiy asoslanganligi bilan alohida ajralib turadi. G‘azalning lirik qahramoni-oshiq. U ishq otashining zo‘ridan o‘lim yoqasiga kelgan. Shuning uchun u matla‘dayoq to‘g‘ridan to‘g‘ri jonidan: ”O‘lishimning sababi nima?” – deb so‘raydi. Jon esa unga: “Bunga jismdagi kasallikning shiddati sabab bo‘ldi”, - deya javob qaytaradi. Ikkinchi baytda lirik qahramon jismga murojaat qilib, undan: “Bu vaziyatga tushib qolishingga nima sabab bo‘ldi?”- deb so‘raydi. Jismning javobi esa quyidagicha: “Bunga o‘tlik bag‘irning hirqati sabab bo‘ldi”. Baytdagi ”hirqat” so‘zi kuyish, yonish degan ma‘noni anglatadi.

Soletsizm nutqda grammatik yoki sintaktik me‘yorning ongli ravishda buzilishi bo‘lib, she‘riyatda emotsional-ekspressivlikni oshirish, lirik qahramon ruhiy iztirobini kuchaytirish vazifasini bajaradi. G‘azalning birinchi baytida “ga” jo‘nalish kelishigini “g‘a” shakli; “deyman” I shaxsdagi so‘zning “dermen” varianti, ya‘ni “man” qo‘shimchasi; ikkinchi baytdagi “so‘rasam” fe‘li “so‘rsam”; uchinchi baytda “so‘rdim” tarzida qo‘llangan, lekin soletsizm hisoblanmaydi.

¹²⁹ Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami. 20-tomlik. Xazoyin ul-maoniy. Favoyid ul-kibar.6-tom.–Toshkent: O‘zSSR davlat badiiy-adabiyot nashriyoti.1990. –B 403.

Soletsizm ko‘pincha shoirning individual poetik uslubini belgilovchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. U poetik tilni avtomatlashuvdan xalos etadi, yangicha sintaktik modellar yaratadi, muallif idiolektini shakllantiradi. Stilistik nazariyalarda bu holat “normani buzish orqali yangilik yaratish” tamoyili bilan izohlanadi.

XI-XII asrlarda pand-nasihat-didaktik yo‘nalishda yozilgan “Qutadg‘u bilig”da davlatni boshqarish qoidalari, odob, axloq, adolat, insonparvarlik, sabr kabi bugungi kun uchun ham o‘ta muhim bo‘lgan masalalar muayyan voqelikka asoslangan sujetlar va ramziy obrazlar ifodalanadi. Asar Qoraxoniylar davlatining falsafiy-axloqiy yo‘riqnomasi sifatida paydo bo‘lgan. Adib asarda turkiy xalqning badiiy-estetik tafakkurining kuchi va qudratini ko‘rsatib bera olgan. Asar voqeasi to‘rtta asosiy qahramonning suhbatlari asosida qurilgan. Kuntug‘di – elig (hukmdor) – Adolat timsoli. Oyto‘ldi – vazir, ayni paytda Davlat ramzi. O‘gdulmish – asardagi eng faol qahramon. U Oyto‘ldining o‘g‘li. O‘gdulmish so‘zining ma‘nosi o‘g‘ bilan bog‘liq¹³⁰. U aql, aql-idrok ma‘nosiga ega. O‘gdulmish “ aql bilan ziynatlangan” demakdir. O‘zg‘urmish so‘zining ma‘nosi “hushyor qiluvchi”, “sergaklantiruvchi” degani. U mushohadali, qat‘iy fikrli inson, ofiyat, qanoat, sog‘lomlik ramzi.”Qutadg‘u bilig” da bu timsollar turli mavqedagi shaxslar qiyofasida namoyon bo‘ladi. Jumladan, Kuntug‘di – podsho, Oyto‘ldi– vazir, O‘gdulmish–vazirning o‘g‘li, O‘zg‘urmish – vazirning qarindoshi o‘rnidadir. Yusuf Xos Hojib ilmning jamiyatdagi o‘rniga yuksak baho beradi. Uni insonlar yo‘lini yorituvchi mash’alga qiyoslaydi. Olimlarni haqiqat ustunlari deb biladi. Shoir farzand tarbiyasiga alohida diqqat qaratadi. Oyto‘ldi o‘limi oldidan o‘g‘li O‘gdulmishga vasiyat qilar ekan, bolaga ilm-hunar o‘rgatish va xushaxloq qilib tarbiyalash otaning burchi ekanligini, o‘g‘il -qizning xulq-atvori yaramas bo‘lsa, buning uchun ota javobgar ekanligini ta’kidlaydi. Kuntug‘di va Oyto‘ldi orasidagi suhbatda soletsizm qo‘llangan. Elig aydi: *Uqtum munung, erdaming, / Bu Ayto‘ldi ating ne ul bu sening. // Bu Ayto‘ldi aydi: Mening atimi, / Bo‘gu mengzatur ayqa bu qilqimi* (Elig aytdi: Nuqson va fazilatlarimgni tushundim / Oyto‘ldi deb atalishingning boisi nimada? Oyto‘ldi aytdi: Mening otimni / Dono qiliqlarimni oyga nisbat berib atagan)¹³¹.

She’riy baytda “aytdi” fe’li “aydi”; “uqdim” fe’li “uqtum”; “Oyto‘ldi” “Ayto‘ldi”; “oting” “ating” shaklida qo‘llangan. Bular ham soletsizm hisoblanmaydi.

Soletsizm bu grammatik xatolik, lekin ijodda va folklorda maqsadli ishlatiladi. Adabiy asarlarda ba’zida atayin soletsizm ishlatiladi. Bu qahramonning tili madaniyati past ekanligini ko‘rsatish uchun, hazil, istehzo yoki dramatik effekt yaratish uchun, folklor, sheva, dialektlar ifodasi sifatida ishlatiladi.

Soletsizm Cho‘lpon ijodida ham uchraydi: *Tirixsan, o‘limgansan. // Sen-da odam, sen-da insonsan, / Kishan kiyma, Bo‘yin egma, / Ki, sen ham hur*

¹³⁰ Yu.Xos Hojib.Qutadg‘u bilig. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbab ijodiy uyi, 2007.ISBN:978-9943-05-15

¹³¹ Yu.Xos Hojib.Qutadg‘u bilig.–Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007. ISBN:978-9943-05-15

*tug‘ilg‘onsan!*¹³² Cho‘lpon yangilikka intiladi, mumtoz aruz ohangini saqlagan holda she‘r misralarini barmoq vazni suratida shakllantiradi. Misralarni sindirish orqali poetik mazmunga alohida urg‘u beradi. ”Tiriksan, o‘lmagansan” so‘zlarining alohida satrda berilishi ”Sen-da odam, sen-da insonsan” jumllalarining maxsus qatorga joylashishi, ”Kishan kiyma”, ”Bo‘yin egma” birikmalarining siniq satrlar holida keltirilishi anjambmangni hosil qilsa, ”Ki, sen ham hur tug‘ilg‘onsan!” xitobiga urg‘u qaratilishi – barchasi shoir ijodiy niyatidan kelib chiqib, aniq badiiy-estetik maqsad asosida amalga oshirilgan. Natijada she‘rning grafik shakllantirilishi 4+4 turoqli barmoq vazniga muvofiqlashtirilgan. Misralar sindirilishi natijasida mazmunning ta‘sir kuchi bir necha baravariga oshirilishiga erishilgan. She‘rda ”*tug‘ilg‘onsan*” so‘zi soletsizmni tashkil qiladi¹³³.

G‘afur G‘ulom ijodiga oshno har bir kitobxon ko‘z o‘ngida xalqimiz hayoti va turmush tarzi, taraqqiyot yo‘li namoyon bo‘ladi. Shoir qaysi mavzuni qalamga olmasin, o‘zining uslubi, jarangdor ovozi bilan ajralib turadi. Bu xususiyat odamlar orasiga kirganda ham yaqqol namoyon bo‘lgan, chunki uning hissiyot bilan o‘qigan she‘rlarini kitobxon butun vujudi bilan tinglagan. Bu esa shoirni yangi-yangi she‘rlarini paydo bo‘lishiga zamin hozirlar edi.

O‘z davlat tug‘roli, hur O‘zbekiston

Mazlum Sharq xalqiga bo‘lolur ko‘zgu

Yashna, ey, xalqimning dorulfununi

*Ilmu fan manbayi barhayot O‘zGU*¹³⁴.

Iste‘dodli shoirning bu misralarida mujassamlashgan falsafiy umumlashmalarning zamirida asl haqiqat mujassam edi. ”O‘z davlat tug‘roli, hur O‘zbekiston” misrasida mujassamlashgan lirik kechinmalarning mazmundorligi, uning asosidagi tarix haqiqatlari, ularning barchasi shoir qalbini titroqqa soladi, asl haqiqatni kuylashga, metaforik talqinlarga singdirishga intiladi, bu misralarda ”*bo‘lolur*” so‘zi soletsizm hosil qilgan, bu esa shoirning poetik mahoratidan dalolat¹³⁵. Misralar mantiqiy izchillikda davom etar ekan, o‘z davrining buyuk mutafakkiri Mirzo Ulug‘bek siymosiga, uning ziddiyatli davriga, ammo ilm-ma‘rifat taraqqiy etganligini alohida qayd etadi: *Ulug‘bek yulduzlar sirin fosh etib, So‘ng sham oldida taqdim etdi bosh*.

Shoirning lirik qahramoni davrning barcha murakkabliklarini yengishga intilgan shaxs siymosini, uning kechinmalarini juda teran anglaydiki, bu esa ”yulduzlar sirin”, ”so‘niq sham”, ”taqdim etdi bosh” birliklarida o‘z ma‘nosini yanada kuchaytiradi. Ushbu she‘rda:

Muncha ham soddasiz, muncha o‘zbeksiz,

¹³² G‘.G‘ulomning poetik mahorati. Ilmiy-amaliy kohferensiya materiallari.– Samarqand.13-may. 2023, – B 53.

¹³³ G‘.G‘ulomning poetik mahorati. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.–Samarqand.13-may. 2023, – B 150.

¹³⁴ G‘.G‘ulomning poetik mahorati. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.13-may. 2023, – B 53.

¹³⁵ G‘.G‘ulomning poetik mahorati. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.13-may. 2023, – B 53.

She'rdagi "buncha" olmoshi sheva shaklida "muncha" tarzida qo'llanib soletsizm hosil qilgan.

Lirik qahramonning Samarqandga mehri o'zgacha, uning kechinmalari, tuyg'ularida ko'hna, qadimiy shahar Sharqning mash'ali ekanligini qayd etishida ham metaforik talqinlar, qolaversa, tarix haqiqati mujassamlashgan edi.

E.Vohidov "O'zbekim" she'ri yaratilgan paytlarda xalqimiz tarixini to'la va atroflicha o'rganish, ayniqsa, o'tmishda o'tgan sarkardalar, amirlar va xonlar faoliyatiga baho berish nihoyatda xatarli, mushkul ish edi. Ma'lumki, o'z o'tmishini, ota-bobolari merosini bilish millatga g'urur-iftixor bag'ishlaydi, uni o'zligini tanish, haq-huquqini anglash darajasiga olib chiqadi. Bundan esa sho'ro rahbariyati nihoyatda cho'chir, xalqlar tarixi, jumladan, o'zbek millati o'tmishi faqat qora bo'yoqlarda aks ettiriladi, shonli tarixga nazar tashlanadi: *So'ylasin Afrosiyob-u/ So'ylasin O'rxun xati,/ Ko'hna tarix shodasida / Bitta marjon o'zbekim*¹³⁷.

Ushbu misralarda shoir "so'ylasin" buyruq istak maylidagi fe'lni sheva shaklida qo'llab soletsizmni hosil qilgan. Shoir "Ruhlar isyoni" dostonida otashin bengal shoiri Nazrul Islomning achchiq qismatini aks ettirgan. Chunki o'sha davrda O'zbekiston ham sobiq Ittifoqning mustamlakalaridan biri bo'lib, o'zbek xalqining erki va mustaqilligi o'z qo'lida emas edi. Mustamlakachilar tomonidan o'zbek millatining ming yillik an'ana va urf-odatlarini, milliy qadriyatlarini, ilm-u urfonining toptalishi, yo'q qilinishi, ma'rifatparvarlarni xalq dushmani sifatida qamalishi va qatl etilishi, so'z erkinligining yo'qligi shoirni ushbu mavzuga qo'l urishga undagan. Dostondagi "Isyon qo'shig'i"da Nazrul Islom hind xalqini asriy qullikka qarshi kurashga, o'z ozodligi uchun bosh ko'tarishga da'vat etadi: *So'yla inson, / So'yla, qadding ko'tarib baland.// Yuksaklikda sening qadring /Himolay monand / Uyg'onmoqning vaqti keldi, / Bosh ko'tar, uyg'on!..*¹³⁸ She'rdagi "so'yla" buyruq maylining II shaxs birligi qat'iy qistashni anglatgani va ta'sirni kuchaytirish maqsadida shevadan foydalanib soletsizmni hosil qilgan. Shoirning "Yaxshidir achchiq haqiqat" she'rida ham soletsizmni qo'llashda shoir shevalardan unumli foydalangan: *Aldanib o'tgay va lek / So'nggi qiynolg'on yomondir...// So'z demay o'tli alamni /Joningga solg'on yomon*¹³⁹. She'rning estetik quvvatini ko'tarishda dialektdan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. "O'tgay", "lek", "qiynolg'on", "solg'on" kabilar leksik va grammatik soletsizmni hosil qilgan.

A.Oripov chinakam xalqning ehtiromi va e'tirofiga sazovor bo'lgan shoirdir. Uning xalq ardog'iga, el-yurt hurmatiga sazovor bo'lishining o'ziyoq ijodkorning she'r va dostonlari xalq ruhi va qalbining ifodasiga aylanganidan darak beradi. Shoir butun hayoti davomida o'z xalqi bilan hamdard-u hamnafas bo'lib yashab, ijod qilgan shoirdir. O'z she'rlarida badiiy mazmunga mos shakl tanlaydi. Badiiy

¹³⁶G'.G'ulomning poetik mahorati. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Samarqand.13-may. 2023, –B 7.

¹³⁷ Vohidov E. O'zbekim. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019, –B 8.

¹³⁸ Vohidov E. O'zbekim. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019, –B 264.

¹³⁹ O'sha manba. –B 88.

ijoddagi xalqona ruh insoniyatning bir necha ming yillik hamrohi bo'lgan xalq og'zaki ijodi motivlari, xalq badiiy tafakkuridagi yetakchi tamoyillar bilan uyg'unlikda idrok etadi. Ayni shuning o'ziyoq A.Oripov she'riyatini xalqona badiiy tafakkur nuqtayi nazaridan alohida o'rganish ehtiyojini maydonga keltiradi. Bu esa, shubhasiz, shoir ijodidagi mazkur muammoning nazariy asoslarini, xalq donishmandligi, hikmatlar xazinasini va uning ildizlarini hamda folklor motivlarini bir butunlikda tadqiq etish masalasini keltirib chiqaradi. Shoir Abdulla Oripov "O'zbekiston" she'rida: "Dengiz ortin yoritdi ilk bor Beruniyning aql mash'ali" degandi. Chunki ispaniyalik sayyoh Xristofor Kolumb tug'ilishidan bir necha asr ilgari bizning donishmand bobomiz Abu Rayhon Beruniy Yer sharining narigi tomonida katta bir qit'a mavjudligini ilmiy asoslab bergandi. Qasida davomida o'tmishimizning yana boshqa ko'plab ibratli sahifalari varaqlanar ekan, shoir ona xalq tarixini mukammal talqin etadi: *Jaloliddin samani bo'lib Sakrab o'tding Amudaryodan. Sensan o'shal samanim manim, O'zbekiston -Vatanim manim!*¹⁴⁰ Ushbu misralarda "o'shal", "manim" kabi ko'rsatish va kishilik olmoshlari berilgan, "man" kishilik olmoshi juda ko'p hududlarning shevasi hisoblangan, she'rda "im" I shaxs birlikdagi egalik qo'shimchasi qaratqich kelishigi bilan omonim bo'lib, soletsizm hosil qilgan. She'riy nutqda soletsizm semantik ko'pqatlamlilikni yuzaga keltiradi, hissiy-psixologik holatlarni grammatik shakl orqali ifodalaydi, ritm va intonatsiyani qayta tashkil etadi, estetik ta'sirni kuchaytiradi. Foregrounding mexanizmi orqali poetik tilning estetik funksiyasini faollashtiradi, muallifning individual poetik uslubini shakllantirishga xizmat qiladi.

Soletsizm poetik diskursda grammatik, sintaktik yoki normativ til qoidalarining ongli ravishda buzilishi orqali hosil qilinadigan uslubiy hodisadir. An'anaviy tilshunoslikda u "xato" sifatida talqin qilinsa-da, poetik nutqda soletsizm estetik yuklama va mazmuniy chuqurlik hosil qiluvchi badiiy strategiya sifatida namoyon bo'ladi¹⁴¹. Normadan chekinish orqali semantik urg'u yaratadi. Soletsizm she'riy matnda til normasining buzilishi orqali so'z yoki sintaktik konstruksiyaga alohida diqqatni jamlaydi. Bu hodisa foregrounding mexanizmi bilan bog'liq bo'lib, o'quvchining idrokini avtomatik qabuldan chiqaradi va birlikning semantik salmog'ini oshiradi. Natijada grammatik "xato" mazmuniy markazga aylanadi. Poetik subyektivlikni kuchaytiradi. Soletsizm ko'pincha lirik subyektning ichki nutqi, hissiy notekislik, tafakkur uzilishlari yoki affektiv holatlarini ifodalashda qo'llanadi¹⁴². Grammatik izchillikning buzilishi ruhiy parokandalik, ichki monolog yoki intuitiv tafakkur oqimini modellashtiradi. Bu esa poetik matnda subyektivlikni kuchaytiradi. Individual poetik idiolektini shakllantiradi. Muayyan shoir tomonidan muntazam qo'llangan soletsizmlar uning individual uslubiy sistemasini belgilaydi. Normadan chekinish shoir tilining taniluvchan belgisi bo'lib, poetik "imzo" vazifasini bajaradi. Shu tariqa soletsizm stilistik identifikator sifatida xizmat qiladi. Estetik begonalashtirish effekti mavjud bo'ladi.

¹⁴⁰ Ahmedov S., Qosimov B., Qo'chqorov R., Rizayev Sh..Adabiyot. - Toshkent: 2015.–B 152.

¹⁴¹ Solecism – Literary Device (Poem Analysis):<https://poemanalysis.com/literary-device/solecism>

¹⁴² Poem AnalysisSolecism (Wikipedia, lingvistik ta'rif): <https://en.wikipedia.org/wiki/Solecism>

Rus formalistlari, xususan, Shklovskiy an'anasida talqin etilgan begonalashtirish tamoyiliga muvofiq, soletsizm o'quvchi uchun tanish til strukturalarini g'ayritabiiy shaklda namoyon etib, idrok jarayonini sekinlashtiradi. Bu esa obrazni "yangidan ko'rish" imkonini beradi va estetik ta'sirni kuchaytiradi¹⁴³. Soletsizm faqat formal buzilish emas, balki ko'p hollarda pragmatik signallarni ham tashiydi: ironiya, kinoya, dialogik nutq, ijtimoiy yoki dialektal rang-baranglikni ifodalashda qo'llanadi. Ironiya – bu adabiyotda, nutqda yoki kundalik muloqotda ishlatiladigan ma'no o'zgarishi bilan bog'liq adabiy vositadir. Ironiya orqali muallif yoki gapiruvchi odatda tanqid, hazil, mulohaza yoki norozilikni yumshoq yoki bilvosita ifodalaydi. Shu tariqa u poetik matnda mazmuniy va ijtimoiy-stilistik qatlamlarni birlashtiruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Poetik funksiya bilan uzviy bog'liqlik mavjud bo'ladi. Roman Yakobson ta'kidlagan poetik funksiya doirasida soletsizm "xabar shakli"ning o'ziga qaratilganligini kuchaytiradi¹⁴⁴. Ya'ni o'quvchi nafaqat nima aytilganiga, balki qanday aytilganiga ham e'tibor qaratadi. Bu esa soletsizمنى sof estetik mexanizmga aylantiradi. She'riyatda soletsizm lingvistik xato sifatida emas, balki maqsadli poetik strategiya sifatida amal qiladi. U normani buzish orqali semantik urg'u yaratadi, subyektivlik va affektiv holatlarni modellashtiradi, shoirning individual uslubini shakllantiradi, begonalashtirish orqali estetik idrokni faollashtiradi, poetik funksiyaning kuchayishiga xizmat qiladi. Shu bois soletsizm poetik diskursda mazmuniy-estetik transformator vazifasini bajaradi. She'riy nutqda soletsizm til normasining tasodifiy buzilishi emas, balki ongli va maqsadli poetik strategiya sifatida namoyon bo'ladi. U an'anaviy grammatik tizimdan chekinish orqali poetik matnning semantik, pragmatik va estetik qatlamlarini faollashtiradi. Shu jihatdan soletsizm she'riy diskursda tilning avtomatlashtirilgan idrokini buzib, o'quvchini matn shakliga ham, mazmuniga ham faol e'tibor qaratishga majbur etadi.

Soletsizm mazmuniy intensivlashtirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Normativ tuzilmaning buzilishi orqali muayyan so'z, obraz yoki sintaktik birlik semantik jihatdan oldinga chiqariladi. Bu esa poetik matnda axborotning ierarxiyasini o'zgartirib, ayrim mazmuniy komponentlarning alohida urg'u bilan idrok etilishiga olib keladi. Natijada grammatik chekinish semantik markazlashuv mexanizmiga aylanadi. Soletsizm lirik subyektning psixologik va emotsional holatini modellashtiradi. Grammatik notekislik, sintaktik uzilishlar yoki normadan chekinishlar ichki nutq, affektiv portlash, ruhiy beqarorlik, intuitiv tafakkur oqimini ifodalashda muhim badiiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu holatda soletsizm poetik psixologizmning lingvistik ko'rinishiga aylanadi.

Soletsizm individual poetik idiolektni shakllantiruvchi asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Muayyan shoir tomonidan tizimli tarzda qo'llangan soletsistik konstruksiyalar uning individual uslubini belgilaydi va poetik

¹⁴³ ВикипедияВ. Vinogradov an'anasida poetik til va estetik funksiya (Ziyonet manbasi):

<https://api.ziyonet.uz/uploads/books/10001253/cU3FW7tsAVKV66f.pdf>

Википедия Jan Mukařovský – foregrounding va estetik funksiya (strukturaviy poetika konteksti): https://en.wikipedia.org/wiki/Jan_Mukařovský

¹⁴⁴ Yakobson R.Lingvistika i poetika.– V kn.:Strukturalizm:”za” i ”protiv”.-Moskva:Progress,1975.

tilning normadan ongli ravishda ajratilgan variantini yaratadi. Bu esa shoir nutqining taniluvchanligini ta'minlab, poetik uslubning stilistik identifikatori sifatida xizmat qiladi. Soletsizm begonalashtirish effektini kuchaytiradi. O'quvchi uchun tanish bo'lgan grammatik modellarning buzilishi idrok jarayonini sekinlashtiradi va obrazni "yangicha ko'rish"ga majbur etadi. Shu tariqa soletsizm estetik idrokni faollashtiruvchi mexanizmga aylanib, poetik ta'sirchanlikni oshiradi. Soletsizm pragmatik-estetik ko'pqatlamlilikni yuzaga chiqaradi. U ironiya, kinoya, dialogiklik, ijtimoiy nutq qatlamlari yoki individual nutq uslublarini modellashtirishda qo'llanib, poetik matnda faqat estetik emas, balki ijtimoiy va kommunikativ ma'nolarni ham faollashtiradi. Bu esa soletsizmni faqat formal buzilish emas, balki mazmuniy-pragmatik signal sifatida talqin qilish imkonini beradi. Soletsizm poetik funksiya bilan uzviy bog'liq holda til shaklining o'ziga yo'naltirilganligini kuchaytiradi. Ya'ni o'quvchi xabarning mazmuni bilan bir qatorda, uning lingvistik ifoda usuliga ham e'tibor qaratadi. Bu holat soletsizmni poetik diskursda sof estetik mexanizm darajasiga ko'taradi.

She'riy nutqda soletsizm mazmuniy urg'u va semantik markazlashuvni ta'minlaydi, lirik subyektning ruhiy-psixologik holatini lingvistik darajada modellashtiradi. Individual poetik uslubni shakllantiradi, begonalashtirish orqali estetik idrokni faollashtiradi. Pragmatik va ijtimoiy ma'nolarni poetik shakl bilan uyg'unlashtiradi, poetik funksiyaning kuchayishiga xizmat qiladi. Shu asosda soletsizm she'riy diskursda mazmuniy-estetik transformator sifatida namoyon bo'lib, til normasining buzilishi orqali poetik ma'no va estetik ta'sirning yangi sifat darajasini yuzaga chiqaradi.

Bob bo'yicha xulosalar

1. Soletsizm – bu til tizimining, ayniqsa sintaktik me'yorlarining buzilishi bilan bog'liq hodisa bo'lib, u preskriptiv grammatikada "xato" sifatida baholansa-da, lingvopoetik va badiiy diskursda funksional-stilistik vosita sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Tasnif jihatidan soletsizm sintaktik, morfologik, semantik va stilistik turlarga ajratilishi mumkin. Bu holat soletsizmni nafaqat "normadan og'ish", balki diskursiv va estetik kategoriya sifatida ham talqin qilish imkonini beradi.

2. Morfosintaktik soletsizm va sof sintaktik soletsizm til tizimidagi og'ishlarning ikki muhim tipini tashkil etadi. Birinchisi morfologik shakl va sintaktik vazifa o'rtasidagi nomuvofiqlikka asoslangan bo'lsa, ikkinchisi gapning sof strukturaviy tashkilida yuzaga keladigan buzilishlar bilan belgilanadi. Lingvopoetik nuqtayi nazardan, har ikkala tur ham poetik diskursda estetik va ekspressiv effekt yaratish imkoniyatiga ega bo'lib, normadan ongli ravishda chekinishning muhim mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

3. Soletsizm til tizimining sintaktik qatlamida yuzaga keladigan me'yoriy og'ish bo'lib, u grammatikaning preskriptiv modeli doirasida xato sifatida talqin qilinadi. Biroq lingvopoetik va stilistik yondashuvlarda soletsizm nutqning ekspressiv imkoniyatlarini kengaytiruvchi vosita sifatida ham baholanishi mumkin. Shu jihatdan, soletsizm nafaqat normativ buzilish, balki poetik diskursda estetik va

semantik effekt yaratuvchi lingvistik mexanizm sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

4. Soletsizm sintaktik strukturaning buzilishi orqali ritm va intonatsiyaning me'yoriy tashkilini izdan chiqaradi, ritmik kutilmalarni buzadi va intonatsion konturlarni beqarorlashtiradi. Natijada nutqda emotsional zo'riqish, semantik urg'ulash va estetik effekt kuchayadi. Shu jihatdan, soletsizm lingvopoetik tahlilda prosodik tizim bilan uzviy bog'liq bo'lgan muhim stilistik omil sifatida baholanishi lozim.

5. L. B. Shcherbaning "Fransuz tili fonetikasi" ("Fonetika fransuzskogo yazika") asari fonetik birliklarni artikulyatsion, akustik, perseptiv va funksional jihatlarning integratsiyasi sifatida talqin qilib, prosodiya, ya'ni intonatsiya, ritm, urg'uni nutqning semantik va kommunikativ strukturasini shakllantiruvchi markaziy omil sifatida asoslaydi.

6. She'riy nutqda soletsizm semantik ko'pqatlamlilikni yuzaga keltiradi, hissiy-psixologik holatlarni grammatik shakl orqali ifodalaydi, ritm va intonatsiyani qayta tashkil etadi, estetik ta'sirni kuchaytiradi. Foregrounding mexanizmi orqali poetik tilning estetik funksiyasini faollashtiradi, muallifning individual poetik uslubini shakllantirishga xizmat qiladi.

7. She'riyatda soletsizm lingvistik xato sifatida emas, balki maqsadli poetik strategiya sifatida amal qiladi. U normani buzish orqali semantik urg'u yaratadi, subyektivlik va affektiv holatlarni modellashtiradi, shoirning individual uslubini shakllantiradi, begonalashtirish orqali estetik idrokni faollashtiradi, poetik funksiyaning kuchayishiga xizmat qiladi. Shu bois soletsizm poetik diskursda mazmuniy-estetik transformator vazifasini bajaradi.

8. Soletsizm individual poetik idiolektini shakllantiruvchi asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Muayyan shoir tomonidan tizimli tarzda qo'llangan soletsistik konstruksiyalar uning individual uslubini belgilaydi va poetik tilning normadan ongli ravishda ajratilgan variantini yaratadi. Bu esa shoir nutqining taniluvchanligini ta'minlab, poetik uslubning stilistik identifikatori sifatida xizmat qiladi.

ANJAMBMANG FENOMENINING STRUKTURAVIY VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

Anjambmang va uning turlari

Shoirning fikri va ichki kechinmalari ifodasi bo'lib, ma'lum bir tartibga solingan ritmik nutq she'r deb ataladi. Ijodkorning qalbiga ma'lum bir voqea-hodisaga nisbatan paydo bo'lgan munosabat ichki kechinma deyiladi va uning o'lchamli nutq holida bayon etilishi natijasida she'r paydo bo'ladi. Adabiyotshunoslik ilmida nutqning bu tarzda qolipga, o'lchamga solinishi vazn yoki she'riy tizim deyiladi. She'r tizimlari mana shu qolipga solingan nutqqa nimaning asos sifatida olinayotganiga qarab bir-biridan farq qiladi. O'zbek she'riyatida eng ko'p o'rin egallaydigan barmoq deb atalgan she'r tizimida misralardagi bo'g'inlar miqdori asosiy o'lchov hisoblanadi. Barmoq she'r tizimida misralarda bo'g'inlar soni bir xil miqdorda takrorlanadi va bir xil guruhlanadi, biroq bo'g'inlarning sifati, ya'ni ochiq-yopiqligi, uzun-qisqaligi muhim emas. O'zbek she'riyatiga arab va fors she'riyatidan kirib kelgan aruz deb nomlangan tizimda esa misralardagi hijolarning qat'iy miqdori, qat'iy guruhlanishidan tashqari qat'iy sifati, ya'ni qisqa, cho'ziq va o'ta cho'ziqligi ham muhim ahamiyatga ega. Hozirgi o'zbek she'riyatiga xos vaznlardan yana biri erkin she'r tizimidir. Erkin vaznda bir o'lchamdan boshqasiga erkin o'tib ketilaveradi. Unda na bo'g'inlar va na turoqlar sonining bir xilligiga rioya qilinadi. Erkin she'rda shoirning badiiy niyati, qanday fikr-tuyg'uni ifodalash istagi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Erkin she'r sochma she'r, mansuralar, nasriy she'r deb ham ataladi. Nasriy she'r – lirik kechinmalarning sochma badiiy nutq shaklidagi ifodasi. Nasriy she'rda xarakterning taraqqiyoti ko'rsatilmay, uning oniy holati tasvirlanadi. Muallif nutqining his-tuyg'uga boyligi, individual emotsional bo'yoqning ustunligi, nutqning ma'lum ritmik qonuniyatiga mosligi o'ziga xos intonatsiyaga egaligi, pauzaning ko'pligi nasriy she'rning muhim

xususiyatidir. Unda ba'zan alohida so'z bir yoki bir necha gapga teng keladi. Ko'p hollarda gap yoki so'zlar so'roq, undov ohangiga ega bo'ladi. Turli xil she'rlarda, jumladan, sonetlarda anjambmang qo'llaniladi.

Anjambmang fransuzcha so'z bo'lib, ta'rifi "qadam bosish"dir. She'riyatda bu fikrning satr oxiri va keyingi satrning boshiga tinish belgilarsiz "qadamlab o'tishi" ni anglatadi, shuning uchun o'quvchi fikrning yakuniga yetishi uchun satr oralig'ini tezda o'qib chiqishi kerak. Anjambmang-fikrning satrlar bo'ylab to'lib-toshib ketishiga yo'l qo'yib, ravonlikni hosil qiladi va she'riyatga nasrga o'xshash sifat olib kiradi. U she'riyatda tuzilgan adabiy shakl bo'lib, she'rlar oqimini belgilaydigan naqsh va ritmlarga ega. She'riyatdagi satrlar qanday bo'linishi va ular band yoki fikrga nisbatan qayerda tugashi. Bir ibora yoki to'liq fikr oxirida satr uzilishi she'riyatda muntazam va kutilmagan namunadir. Shoirilar bu umidni anjambmang deb ataladigan usul yordamida yo'q qiladi. Anjambmang satr qayerda tugashi haqidagi taxminlarimizni buzadi va she'rga o'zgacha tuyg'u yaratadi. Oddiy qilib aytganda, iboraning oxiri satr oxiridan o'tib ketganda anjambmang tushuniladi. U gapning keyingi misra, bayt yoki banddagi davomini pauzasiz tasvirlaydigan poetik uslub. Satr oxiridagi tabiiy pauza o'rniga, fikr keyingi satrda muammosiz davom etadi. She'riyatdagi odatiy namuna – gap yoki fikr oxirida qator uzilishi. Bu to'xtalgan chiziq deb ataladi. She'riyatda odatda majburiy pauza bo'lgan joyda anjambmang satr uzilishlari orqali muammosiz harakatlanadi. Miya tezroq sur'at va tezlikni yaratib, jumlaning xulosasini o'qish uchun tezda harakat qilishni xohlaydi. Bu she'rga oqim va energiya beradi. Anjambmang pauzani ko'rsatish uchun hech qanday tinish belgilaridan (masalan, vergul yoki nuqta) foydalanmasdan bir qatordan ikkinchisiga o'tish orqali bu kutishni bekor qiladi. Bu she'r oqimini o'zgartirib, o'quvchini fikr yakuniga yetishi uchun davom ettirishga majbur qiladi.

Anjambmang – she'riy nutqda sintaktik birlik, ya'ni jumla, ibora, gap bo'lagining misra yoki band oxirida tugallanmay, keyingi misra yoki bandga o'tib ketishi hodisasidir. Bu holatda ritmik-chegaraviy bo'linish bilan sintaktik-chegaraviy bo'linish o'rtasida nomuvofiqlik yuzaga keladi. Anjambmang – sintaktik birlikning satr chegarasidan tashqariga davom etishi bo'lib, bu she'r ritmi, intonatsiyasi va semantik urg'ularni qayta taqsimlaydi. V.Moskvin anjambmangni she'riy segmentatsiya bilan bog'lab, uni misra va sintaksis chegaralarining to'qnashuvi sifatida talqin qiladi¹⁴⁵. Anjambmangning lingvopoetik va funksional mohiyati. Ilmiy manbalarda anjambmang quyidagi asosiy funksiyalarni bajarishi ko'rsatiladi:

1. Ritmik-intonatsion funksiya. Misra oxiridagi pauzaning zaiflashuvi yoki yo'qolishi, nutqning oqimlilik kuchayishi, ritmning tabiiylik kasb etishi.

2. Semantik (mazmuniy) funksiya. Ma'no keyingi misrada ochilishi sababli kutilmaganlik effekti paydo bo'ladi. Muhim so'z yoki obraz keyingi satr boshiga ko'chib, semantik urg'u kuchayadi.

¹⁴⁵ Moskvin V.P. Enjambment and Verse Segmentation (on the Aspects of Terminology). The Bulletin of the Russian Academy of Sciences: Studies in literature and language, vol. 78, no 1, 2019, pp. 34-52.

3. Ekspressiv-stilistik funksiya. Emotsional keskinlikni oshiradi, lirik kechinma yoki epik holatni kuchaytiradi. Ironiya, paradoks, ichki ziddiyatlarni ifodalashga xizmat qiladi. Balashov-Eskin (2021) anjambmangni individual epik uslubni belgilovchi muhim sintaktik vosita sifatida baholaydi¹⁴⁶.

Anjambmangning asosiy turlari. Zamonaviy poetika va stilistika manbalarida anjambmang bir necha turlarga ajratiladi.

Tuzilishiga ko'ra: a) oddiy (yumshoq) anjambmang b) keskin (qattiq) anjambmang. a) *oddiy (standart) anjambmang*- she'riy nutqda sintaktik birlikning misra oxirida tugallanmay, keyingi misrada tabiiy va kutilmagan tarzda davom etishidir¹⁴⁷. Bu turdagi anjambmangda misra chegarasi sintaktik tuzilishga keskin zid kelmaydi, ya'ni sintaksis va ritm o'rtasidagi nomuvofiqlik kuchsiz bo'ladi. Ilmiy poetikada anjambmang kuchsiz turiga yaqin bo'lib, u ko'proq nutqning oqimlilik, tabiiyligi va mantiqiy izchilliligini ta'minlashga xizmat qiladi¹⁴⁸. Asosiy xususiyatlari: sintaktik davom kutilgan va tabiiy bo'ladi; keskin semantik "uzilish" kuzatilmaydi; o'qishda silliqlik va musiqiylik saqlanadi; lirik va epik she'rlarda keng uchraydi; nutqning prozaga yaqinlashuvi kuzatilishi mumkin. Oddiy anjambmangning ritmik funksiyasida misralar orasidagi pauza yumshaydi, ritmik oqim uzilmaydi. Sintaktik funksiyasida gapning tabiiy grammatik tuzilishi saqlanadi¹⁴⁹. Stilistik funksiyasida sokin, mulohazali yoki tasviriy ohangni yaratadi. Klassik tipdagi oddiy anjambmang:

Ko'nglimda bir orzu bor, aytolmay

Shamollar pichirladi sekin.

"shamollar" birikmasi misralar orasida bo'linib, keyingi misrada tabiiy davom etadi. Bu ham kuchsiz oddiy anjambmangga xos. Gap bo'lagi bo'linishidagi oddiy anjambmang: *Men seni kutdim uzoq, juda/ sabr bilan, umid bilan.*

Oddiy anjambmangda sintaktik birlik keyingi misrada mantiqan va grammatik jihatdan izchil davom etmoqda-keskinlik yo'q:

Butun dunyo ular uchun ochiq edi, qayerda

tanlash –

Dam olajak maskanlarini va taqdirularning

yo'lboshchisi:

Ular qo'l ushlatib, sayr etib, sekin qadamlar

bilan,

¹⁴⁶ Balashov-Eskin, k.m. Poetic Enjambments as the Phenomenon of the V.A.Sosnora's poetic Syntax.–Russian Speech=Russkaya Rech', 2021, No.2, pp.100-115.DOI: 10.31857/SO13161170014713-3.

¹⁴⁷ Жирмунский В. Введение в теорию стиха. – Ленинград: Академия, 1925.-В. 13-14.

¹⁴⁸ Жирмунский В. Введение в теорию стиха. – Ленинград: Академия, 1925.-В. 13-14.

¹⁴⁹ Fussell, R. Poetic Meter and Poetic Form.-New York: McGraw-Hill,1979.

*Adan orqali yolg'iz yo'llarini bosib o'tdilar*¹⁵⁰.

Oddiy anjambmang she'riy nutqda sintaktik birlikning misra chegarasidan tabiiy tarzda o'tishi bilan tavsiflanadi va bunda ritmik bo'linish sintaktik bo'linishga keskin qarama-qarshi qo'yilmaydi. Natijada nutq oqimliliqi saqlanadi, semantik uzilish yuzaga kelmaydi va anjambmangning ekspressiv darajasi nisbatan past bo'ladi. Oddiy anjambmangda sintaktik birlik tabiiy ravishda keyingi misraga o'tadi. Xususiyati: o'qishda silliqlik, hikoya va tasvirning uzluksizligi, epik va lirik matnlarda keng tarqalgan¹⁵¹. Ingliz adibi Shekspir "Sonnet 116" she'rining birinchi to'rt qatori anjamblangan. Ular tinish belgilari bilan tugamaydi va mustaqil ravishda tushunib bo'lmaydi:

Haqiqiy aqllilarning turmushiga

to'sqinlik qilmayin

Sevgi sevgi emaski,

*U o'zgartirilganda o'zgaradi*¹⁵²

yoki olib tashlash vositasi bilan egiladi.

Anjambmang- she'rning oqimi va ma'nosiga ta'sir qiladi. Bu she'rni baland ovozda o'qiganimizda uning qanday jaranglashiga ham ta'sir qiladi. U yozuvchilarga o'quvchi she'r bo'ylab harakatlanish tezligini boshqarishga yordam beradi. Anjambmangdan foydalanishni o'zgartirish o'quvchilarning tezroq yoki sekin o'qishiga olib kelishi mumkin.

Yumshoq anjambmang – misra bo'linishi deyarli sezilmaydi, sintaksis ritm ustidan ustun keladi. Xususiyati: musiqiylik kuchayadi, meditatsion, sokin ohang yaratiladi. Yumshoq anjambmang sintaktik birlikning misra chegarasidan deyarli sezilmas tarzda keyingi misraga o'tishi kuzatiladi. Bu turda misra oxiridagi pauza juda kuchsiz yoki deyarli yo'q, sintaktik oqim esa ritmik bo'linishdan ustun keladi¹⁵³. Ilmiy adabiyotlarda yumshoq anjambmang ko'pincha kuchsiz anjambmang sifatida ham talqin qilinadi. U nutqning tabiiyligi, silliqligi va musiqiylikni kuchaytiruvchi poetik vosita hisoblanadi. Yumshoq anjambmangni asosiy belgilari: misra chegarasi sintaktik jihatdan deyarli sezilmaydi, o'qishda tabiiy nutqqa yaqinlik kuchayadi, pauza minimal yoki butunlay yo'q, semantik uzilish yuz bermaydi. Lirik, meditatsion, sokin ohangli she'rlarda keng qo'llanadi. Ritmik -musiqiy funksiyasi she'r ohangining silliqligi va uzluksizligini ta'minlaydi. Semantik funksiyasi mazmunning izchil va ravon rivojlanishiga xizmat qiladi. Ekspressiv-stilistik funksiyasi ichki kechinma, mulohaza va lirizmni kuchaytiradi, keskinlik yaratmaydi. Oddiy anjambmangda misra chegarasi seziladi, ammo keskin emas. Yumshoq anjambmangda esa misra chegarasi deyarli "yo'qoladi", ya'ni o'quvchi jumlaning uzluksiz o'qiydi. Masalan: *Ko'nglumda yongan orzularim/sokin*

¹⁵⁰ John Milton, *Paradise Lost*, – Book XII. – London: Samuel Simmons, 1674.

¹⁵¹ Жирмунский В. Введение в теорию стиха. – Ленинград: Академия, 1925. – В. 13-14..

¹⁵² Shekspir V. *Shekspir sonnets*. – London: Thomas Thorpe, 1609.

¹⁵³ Lotman, Yu.M. *Struktura xudojestvennogo teksta*. – Moskva, 1970.

shamol kabi asta kechar. Bu yerda pauza deyarli sezilmaydi, “orzularim sokin shamol kabi” yumshoq anjambmangga xos. Yumshoq anjambmang she’riy nutqda sintaktik va ritmik bo‘linishlar o‘rtasidagi ziddiyatni minimallashtiruvchi vosita bo‘lib, bunda misra chegarasi semantik va intonatsion jihatdan deyarli neytrallanadi. Fikrlarning bir satrdan ikkinchisiga erkin oqishiga imkon beradi, she’rga nasr xarakterini beradi. Ko‘pgina she’rlar qofiya bilan qofiyani birlashtiradi. Masalan, Robert Frostning “Qorli oqshomda Vuds yonida to‘xtash” asarida anjambmang orqali yaratilgan fikrning silliq va to‘xtovsiz oqimi qofiyaning musiqiyligi bilan uyg‘unlashgan:

*Bu kimning o‘rmonlari, men bilaman deb
o‘ylayman.
Uning uyi qishloqda; U o‘rmonlarini qor bilan
to‘ldirishni tomosha qilish uchun
bu yerda to‘xtaganimni ko‘rmaydi.*

*Mening kichkina otim g‘alati deb o‘ylashi
kerak. O‘rmon va muzlagan ko‘l o‘rtasida
fermasiz to‘xtash yilning eng qorong‘u
oqshomi.¹⁵⁴*

Anjambmang – bu tomoshabinga prognoz qilingan satrlarni yetkazishga ko‘rsatma berish uchun ishlatiladigan adabiy qurilma. Natijada she’r nutqi silliq, uzluksiz va musiqiy xarakter kasb etadi, anjambmangning ekspressiv ta’siri esa nisbatan past bo‘ladi.

Keskin (qattiq) anjambmang – ekspressiv jihatdan eng kuchli turlaridan biri bo‘lib, bunda sintaktik birlikning misra oxirida keskin tarzda uzilishi va keyingi misrada kutilmagan, semantik jihatdan zarbali davom bilan ochilishi kuzatiladi. Sintaktik uzilish kuchli, misra oxirida ma’no kutilmaganda uziladi. Kuchli emotsional ta’sir, drammatizm va diqqatni jamlash uchun ishlatiladi. Bu holatda ritmik bo‘linish sintaktik bo‘linishga keskin qarama-qarshi qo‘yiladi, natijada o‘quvchi ongida to‘xtalish, taranglik va kutilmaganlik effekti yuzaga keladi. Zamonaviy poetikada bu tur ko‘pincha “disruptiv enjambment” yoki kuchli anjambmang sifatida tavsiflanadi¹⁵⁵. Asosiy belgilari: misra oxirida kuchli pauza va intonatsion uzilish, sintaktik birlikning noodatiy joyda bo‘linishi, keyingi misrada kutilmagan semantik ochilish, o‘quvchi e’tiborini kuchli tarzda jalb qiluvchi effekt, drammatizm, ichki ziddiyat, ironik yoki paradoksal ohang yaratish. Ekspressiv funksiya

¹⁵⁴ Robert Frost. Qorli oqshomda Vuds yonida to‘xtab.—In New Hampshire:A Poem With Notes and Grace Notes.—New: York; Henry Holt and Company,1923.

¹⁵⁵ Attridge, D. Poetic Rhythm; An Introduction.— Cambridge:Cambridge University Press,1995.

emotsional taranglikni kuchaytiradi, dramatik ta'sir hosil qiladi. Semantik funksiya ma'noning kechikib ochilishi orqali kutilmaganlik yaratadi. Stilistik funksiya individual poetik uslubni belgilaydi, modern va tarbiyaviy she'riyatda muhim rol o'ynaydi.

Minglab yillik an'analarga ega qadimiy o'zbek she'riyatida Cho'lpon o'z yo'lini izladi va hech kimnikiga o'xshamagan anjambang usulida yozilgan, samimiyligi, jozibadorligi, ta'sirchanligi, tuyg'ularning ranginligi bilan o'zgalarnikidan ajralib turadigan she'riy olam yarata bildi:

Binafsha senmisan, binafsha senmi

Ko'chada aqchaga sotilgan.

Binafsha menmanmi, binafsha menmi,

*Sevingga, qayg'ungga tutilgan?*¹⁵⁶

Cho'lpon haqiqat va hurlikni e'tiqodiga aylantirgan ijodkor edi. Shu sababli ham milliy zulmni milliy tenglik deb da'vo qilgan hukmdorlarga uning ijodi yoqmas edi. Cho'lpon o'zbek she'riyatining yorqin yulduzi sifatida o'tkinchi bulutlar pardasini yirtib tashlab, milliy she'riyat osmonida qayta porladi, "Buzilgan o'lkaga" she'rida o'lka tabiatining go'zalligi va qismatining og'irligi yorqin ifodalangan. She'rning boshdan oyoq bir xil o'lchovda yozilmaganligi, she'riy ohangdagi tovlanishlar anjambangning yorqin tasvirini ifodalaydi:

Ko'm-ko'k go'zal o'tloqlaring bosilg'on,

Ustlarida na poda bor, na yilqi

Podachilar qaysi dorga osilg'on.

Ot kishnashi, qo'y ma'rashi o'rniga

– Oh, yig'i

*Bu nega?*¹⁵⁷

Cho'lponning "Buzilgan o'lkaga", "Binafsha" she'rlarida istiora san'ati qo'llangan. Istiorada biror narsa-hodisaga xos xususiyatlarni boshqa bir narsa-hodisaga ko'chirish orqali badiiy ma'no ifodalanadi. Lekin bu ko'chirishda tashqi o'xshashlik asosiy o'rin tutmaydi. Balki o'xshatilayotgan va o'xshayotgan narsa-hodisalar orasidagi ichki mantiqiy bog'lanishga, yaqinlikka, vazifalardagi umumiylikka tayaniladi. Istiorani qisqargan ko'rinishdagi o'xshatish deyish mumkin. Shoirning "Buzilgan o'lkaga" she'rida "Tog' egasi: sor, burgutlar qayerda?" – misrasida sor, burgut so'zlari o'z ma'nosida emas, sor-qarchig'aylar turiga mansub yirtqich qush, burgut-mag'rurlik timsoli ma'nosida keltirilgan. "Binafsha" she'rida "Binafsha, sen uchun ko'kragim erk yeri, Bu yerdan ko'klarga

¹⁵⁶ Cho'lpon. Asarlar.4 jild. I jild – Toshkent:Akademnashr, 2016 .–B 108.

¹⁵⁷ Cho'lpon. Asarlar.4 jild. I jild – Toshkent:Akademnashr, 2016 .–B 88.

uchgil” tarzida ifodalangan misrada ham istiora qo‘llangan. Unda “vatan” tushunchasi “ko‘kragim” so‘zi bilan, ”ozod yurt” tushunchasi “erk yeri” so‘zlari bilan ifoda etilgan.

Oddiy va yumshoq anjambmangda davom tabiiy va kutilgan bo‘ladi. Keskin anjambmangda esa davom mantiqan mumkin bo‘lsa-da, intonatsion va semantik jihatdan kutilmagan tarzda yuz beradi.

1-misol (keskin semantik uzilish):

*Men seni unutdim, deb o‘yladim, lekin
yuragim hali ham-sen bilan.*

Misra oxirida “lekin” bilan keskin uzilish bor, keyingi misrada esa kutilmagan hissiy ochilish yuz beradi. Bu keskin anjambmangga xos.

2-misol (muhim so‘zning keyingi misraga ko‘chirilishi):

*Bu tun juda sokin, shunchalar
og‘ir – sukunat.*

Asosiy semantik markaz (“og‘ir”) keyingi misrada ochilib, kuchli dramatik effekt beradi.

3-misol –ironik/pardoksal effekt:

*Men baxtliman, deymen, ammo
ko‘zlarim bunga ishonmaydi.*

Tashqi bayon va ichki mazmun o‘rtasidagi ziddiyat keskin anjambmang orqali kuchaygan. Keskin anjambmang she’riy nutqda ritmik va sintaktik segmentatsiya o‘rtasidagi ziddiyatni maksimal darajada kuchaytiruvchi poetik hodisa bo‘lib, u misra chegarasida yuzaga keladigan keskin uzilish va keyingi misrada kutilmagan semantik ochilish orqali emotsional taranglik, dramatism va stilistik urg‘uni ta’minlaydi.

Sintaktik birlik turiga ko‘ra: a) fraza anjambmangi – butun gap yoki fraza keyingi misrada davom etadi:

*Chin qalblar nikohiga men hech qanday
To‘siqni tan olmayman. Muhabbat –
muhabbat emas,
Agar u o‘zgarish topganda o‘zi ham o‘zgarsa¹⁵⁸.*

Ushbu she’rda “hech qanday to‘siqni” o‘rtasida kuchsiz, ammo aniq anjambmang mavjud. b) so‘z birikmasi anjambmangi – aniqlovchi+aniqlanuvchi,

¹⁵⁸ Shekspir V. Shekspir sonnets. – London:Thomas Thorpe, 1609.

fe'l+to'ldiruvchi kabi birikmalar ajratiladi; c) so'z darajasidagi anjambmang (leksik anjambmang) - hatto bitta so'zning sintaktik bog'liqligi misralararo bo'linadi. Bu kam uchraydi va kuchli poetik effekt beradi.

Grafik-kompozitsion ko'rinishiga ko'ra a) *misralararo* (interlinear) anjambmang – eng keng tarqalgan shakl: uzilish ikki misra orasida bo'ladi. b) *bandlararo* (interstrofik) anjambmang – sintaktik birlik band oxirida uzilib, keyingi bandda davom etadi. Bu juda kuchli semantik va kompozitsion urg'u hosil qiladi.

Bandlararo (interstrofik) anjambmang – mazmun bir banddan keyingi bandga o'tib ketadi. She'riy nutqda sintaktik birlikning bir bandda boshlanib, keyingi bandda davom etishi natijasida yuzaga keladigan poetik hodisadir. Bu holda grammatik va semantik butunlik band chegarasi bilan mos kelmaydi, ya'ni bandlar o'rtasida sintaktik uzilish yuz beradi. Oddiy anjambmang farqli ravishda bandlararo anjambmang yirik kompozitsion birlik – band darajasida yuzaga kelishi bilan ajralib turadi. Ingliz yozuvchisi Uilyam Shekspirning "Xamlet" asarida Xamlet otasining qasosini olishga tayyorlanayotgan so'zlashuvda hayotning mazmunini qayta ishlash va mulohaza yuritish jarayonida uning o'ychan fikrlash pog'onasini o'ychanlik ritmi aks ettiradi:

Chunki o'lim uyqusida qanday orzular

bo'lishi mumkin,

Biz bu o'lik g'altakni aralashtirib

yuborganimizda,

bizga to'xtash kerak.

Uzoq umrni musibat qiladigan hurmatdir.

Anjambmang – gapning keyingi misra, bayt yoki banddagi davomini pauzasiz tasvirlaydigan poetik uslub. Satr oxiridagi tabiiy pauza o'rniga fikr satrda muammosiz davom etadi:

Bu yog'i o'zingizga ayon. Lekin o'rtoqlik hurmati,

avvalgi yakdilligimiz, mehr-u oqibatimizning buzilmas

ahd-u paymonlari hurmati, o'rtadagi tamom ezgulik hur-

mati, sizdan o'tinaman, gapni chalg'itmay, ayta qoling:

*sizni chaqirib olishdimi yoki yo'qmi?*¹⁵⁹

She'riyatdagi odatiy namuna – gap yoki fikr oxirida qator uzilishi. Bu to'xtatilgan chiziq deb ataladi. Anjambmang pauzani ko'rsatish uchun hech qanday tinish belgilaridan (vergul, yoki nuqtadan) foydalanmasdan bir qatordan ikkinchisiga o'tish orqali bu kutishni bekor qiladi. Bu she'r oqimini o'zgartirib,

¹⁵⁹ Shekspir V. Tanlangan asarlar.5 -jildlik. 3-jild. -Toshkent: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti,1983. –B 7.

o'quvchini fikr yakuniga yetish uchun davom ettirishga majbur qiladi. Bandlararo anjambmang quyidagi lingvistik-strukturaviy belgilarga ega: sintaktik birlikning band chegarasidan oshib ketishi (gap, qo'shma gap, sintaktik konstruksiya); bandning formal yakuniyligi bilan semantik yakuniylilik o'rtasidagi nomuvofiqlik; band chegarasining intonatsion pauza nuqtasi sifatida kuchsizlanishi; parselatsiya va diskursiv uzilish effektiga yaqinlashish. Bu hodisa she'rning metrik-strofik tizimida kompozitsion taranglik hosil qiladi. Bandlararo anjambmang estetik va funksional vazifalarni ham bajaradi. Kompozitsion dinamikani kuchaytirish band chegarasining "buzilish" she'r harakatini sekinlashtirmaydi, aksincha, diskursning uzluksizligini ta'minlaydi, o'quvchini keyingi bandga majburan olib o'tadi. Semantik kutilma yaratish keyingi bandda tugallanadigan fikr kutilma effekt hosil qiladi, bu esa semantik urg'uni kuchaytiradi. Emotsional-intonatsion kuchayish bandlararo uzilish psixologik pauza bilan grammatik davomiylikning to'qnashuvini yuzaga keltiradi, natijada emotsional taranglik ortadi. Diskursiv buzilish va modernistik poetika – modern va prostmodern poetikada banlararo anjambmang klassik strogik qat'iylikni yemiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Lingvopoetik nuqtayi nazardan bandlararo anjambmang forma va mazmun o'rtasidagi ziddiyatni estetik vositaga aylantiradi, sintaktik va strofik sathlarning nomuvofiqligini poetik ma'no generatoriga aylantiradi, she'riy diskursda ritmik va semantik relyefni murakkablashtiradi. Bandlararo anjambmang quyidagi turlarga bo'linadi: 1. Yumshoq bandlararo anjambmang sintaktik – uzilish minimal, semantik davomiylik kuchli. 2. Keskin bandlararo anjambmang – band chegarasida kuchli semantik-intonatsion to'xtalish bo'lib, keyingi bandda gap majburiy davom etadi. 3. Kumulyativ bandlararo anjambmang bir necha bandlar davomida sintaktik birlik cho'ziladi. 4. Diskursiv bandlararo anjambmang – mantiqiy-sintaktik bog'lanish zaiflashgan, semantik fragmentatsiya ustun.

Funksiyasiga (estetik vazifasiga) ko'ra

a) ritmik anjambmang – ritmni jonlantirish, monotonlikni buzish uchun xizmat qiladi.

b) semantik anjambmang – ma'noni kuchaytirish, kutilmaganlik yaratish uchun xizmat qiladi.

c) ekspressiv (emotsional) anjambmang – lirik kechinma, ichki hayajonni kuchliroq ifodalash uchun xizmat qiladi:

Endi sen yaramaysan,

Qora etik,

Unda men oyoq misol yashadim,

O'ttiz yil davomida – kambag'al va oppoq¹⁶⁰.

Nafas tezligi va hissiy zo'riqishni kuchaytiruvchi anjambmang.

¹⁶⁰ Sylvia Plath. Daddy. Lirik she'riyat. -In: Ariel. – London: Faber and Faber, 1965 1962.

Klassik terminologiyada uchraydigan maxsus turlar. Ba'zi poetika manbalarida quyidagi terminlar ham uchraydi: rejet-misra oxirida gap tugagandek ko'rinib, keyingi misrada qisqa, lekin mazmunij jihatdan muhim davom keladi:

Va shundan so'ng, men she'r ichra cho'mildim

—

*Dengizning yulduzlarga to'la, sutday oqar
nurida¹⁶¹.*

“Dengiz yulduzlarga to'la” iborasi keyingi misra boshiga “rejet” sifatida chiqarilgan.

Kontre-rejet aksincha, asosiy ma'no keyingi misra boshiga chiqib, oldingi misra yordamchi bo'lib qoladi:

*Inqilob ularga hayqirar edi: – Ko'ngillilar,
Barcha xalqlar – birodarlaringizni ozod etish
uchun o'ling¹⁶²!*

Asosiy urg'u keyingi misra boshiga ko'chgan.

Klassik she'riyatda anjambmang ko'pincha yumshoq, ritmik va sintaktik silliqlikni saqlovchi vosita bo'lsa, zamonaviy she'riyatda u keskinlik, fragmentlik va semantik kutilmaganlik yaratishga xizmat qiladi. Rejet va kontre-rejet kabi maxsus shakllar esa anjambmangning kompozitsion va semantik imkoniyatlarini maksimal darajada kuchaytiradi. Anjambmang she'riy nutqda misra va sintaktik tuzilma o'rtasidagi nomuvofiqlik asosida yuzaga keladigan muhim lingvopoetik hodisa bo'lib, u poetik matnning ritmik, semantik va ekspressiv qatlamlarini faollashtiradi. Anjambmangning turlari turli mezonlar asosida tasniflanadi: sintaktik uzilish darajasiga ko'ra (yumshoq va keskin), sintaktik birlik turiga ko'ra (faza, so'z birikmasi va so'z darajasidagi), kompozitsion joylashuviga ko'ra (misralararo va bandlararo) hamda maxsus klassik shakllar sifatida rejet va kontre-rejet kabi ko'rinishlar ajratiladi. Mazkur tasnif anjambmangning faqat formal-texnik hodisa emas, balki matnning ichki ritmik harakati, ma'no qurilishi va emotsional-intellektual ta'sirini shakllantiruvchi faol poetik mexanizm ekanini ko'rsatadi. Klassik she'riyatda anjambmang asosan sintaktik silliqlik va ohangdorlikni ta'minlashga xizmat qilgan bo'lsa, zamonaviy she'riyatda u fragmentarlik, semantik kutilmaganlik va ekspressiv keskinlikni kuchaytiruvchi yetakchi uslubiy vositaga aylangan. Shunday qilib, anjambmang turlarining ko'pligi va funksional rang-barangligi uning she'riy diskursda universal va ko'p qatlamli lingvopoetik hodisa ekanini tasdiqlaydi.

¹⁶¹ Arthur Rimbaud. Le Bateau ivre.— in: Les Illuminations.Paris:Alphonse Lemerre, 1871.

¹⁶² Gyugo Viktor, Les Chatiments. – Paris: Poulet-Malassis et de Broise,1853.

Anjambmang va she'riy ritmning o'zaro aloqasi

Anjambmang metr va sintaksis o'rtasidagi nomuvofiqlik orqali ritmik harakatni faollashtiradi. Anjambmang misra chegarasi bilan sintaktik birlik chegarasining mos kelmasligi natijasida yuzaga kelib, metrik tuzilma bilan sintaktik oqim o'rtasida dinamik kuchlanish hosil qiladi; bu esa ritmni statik emas, harakatdagi jarayon sifatida idrok etishga olib keladi¹⁶³. Anjambmang ritmik tezlikni o'zgartiradi. Anjambmang mavjud bo'lgan joylarda o'quvchi misra oxirida to'liq pauza qilmaydi, natijada o'qish tezligi ortadi va ritmik oqim uzluksiz tus oladi; bu holat she'rning ichki tempi va ohangini faol boshqaruvchi omil sifatida talqin qilinadi¹⁶⁴. Shcherba she'riy ritmni fonetik va intonatsion hodisa sifatida talqin qiladi. Shcherba uchun ritm – bu faqat metrik sxema emas, balki real nutqdagi urg'u, pauza va intonatsiya orqali yuzaga chiqaradigan prosodik hodisadir. Bu yondashuv anjambmangni metrik emas, prosodik-sintaktik hodisa sifatida talqin qilishga nazariy asos yaratadi. Shcherba A.Belya an'anasiga tayangan holda, metrik sxema bilan real ijrodagi ritm o'rtasidagi farqni muhim deb biladi. Bu g'oya keyingi she'rshunoslikda anjambmangning aynan metr-ritm nomuvoiqligi sifatida izohlanishga nazariy zamin yaratgan. Shcherba misra ichidagi va oxiridagi pauza, shuningdek, urg'usiz bo'g'inlar to'planishining ekspressiv kuchini tahlil qiladi¹⁶⁵. Bu masala anjambmangning asosiy mexanizmi – misra oxiridagi pauzaning susayishi yoki yo'qolishi bilan bevosita bog'liqdir.

Anjambmangdan foydalanib G'afur G'ulom ham ko'pincha kutilmagan zarbalarga urg'u beradigan erkin oqimli she'rlar yaratadi. Shoirning "Turksib yo'llarida" she'ri XX asr o'zbek poeziyasida muhim adabiy hodisa bo'ldi. She'rda o'z davri mafkurasi bo'y ko'rsatib tursa-da, asar katta estetik va ijtimoiy qudratga ega. Lirik qahramon kechinmalarida nafaqat o'zbek xalqi, ba'zi Sharq xalqlarining ham achchiq taqdiri, dardlari o'z ifodasini topgan:

Gardanda cho'yandan quyilgan zanjir,

Yerlarda hashorat kabi

Ochlikdan, zorlikdan gezarib labi

Ojiz,

Mahkum, xor va betadbir

-Non,-deya,

- Non,-deya

*Surunib kechmishdir*¹⁶⁶.

¹⁶³ University of Canberra Research Portal

¹⁶⁴ ScienceDirect

¹⁶⁵ Shcherba. Fonetika fransuzskogo yazika. – Moskva: Izd-vo literature na inostrannix yazikax. 1957. 311-312

¹⁶⁶ G'. G'ulom. Viqor. Lirika. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980. – B 16.

Atoqli olim, ustoz Aziz Qayum “Akademik G‘afur G‘ulom” nomli kitobida to‘g‘ri ta’kidlaganidek, bu she’rdagi harbiy yurishlar ularning yovuz oqibatlari to‘g‘risidagi olovli misralar o‘zining chuqur mazmunli tasviriyligi va ta’sir kuchi jihatidan rassom kartinalari bilan bir qatorda turadi. Darhaqiqat, she’rda bashariyat taqdiriga daxldor voqealar, o‘lkalar va xalqlar kechmishi, yangi turmush haqidagi orzu-istaklar hali-hanuz kitobxonlarni to‘lqinlantirib kelmoqda¹⁶⁷. Shoir she’riyatidagi yo‘l motivi semantik jihatdan bir necha qo‘shimcha motivlarga yo‘l ochib beradi. Matnda anglashilgan nechalab sultonlar o‘tdi, nechalab xonlar o‘tdi. Ularning hech qaysi abadiy qolmadi. Faqat ular bosib o‘tgan yo‘l abadiydir degan ma’no kelib chiqsa, ikkinchi talqinda bu yo‘llardan har kim yurishi mumkin, fitnalar, qonxo‘rlar, qullar, olimlar o‘tdi. Bu yerda obrazlar bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilmoqda.

Bu yo‘llar

Ko‘p qadim yo‘llardir...

Jahonning fотиhi Iskandar,

Rum qaysari,

Qotil Chingiz,

Botu, Jo‘ji,

Temur ham

Qoldirib kimsasiz iz,

Chindan mo‘g‘ul o‘chi

Borliqni

Jonliga qilib tang:

- Qon!-deya,

-Qon !- deya

*Bosaroq kechmishdir*¹⁶⁸.

Antiteza orqali she’r mazmuni asta-sekinlik bilan ochib beriladi. Qisqartirish g‘oyasi bilvosita majburiy to‘xtash, harakatni yo‘qotish ma’nosini o‘z ichiga oladi va bunda shohlar bosib o‘tgan yo‘l faqirlar bosib o‘tgan yo‘l g‘oyasiga qarama-qarshi qo‘yilib, anjambmangdan foydalanib shoirning asl niyati ifoda etiladi¹⁶⁹. She’rlar kompozitsiyasidagi tazod-qarshilantirish usuli, tasvirdagi ijtimoiy hodisaning mohiyatini atayin bo‘rttirishga yo‘naltirilgan mubolag‘a, siyosiy

¹⁶⁷ Qayumov Aziz. Akademik G‘afur G‘ulom. – Toshkent, 2008

¹⁶⁸ G‘.G‘ulom. Viqor.Lirika. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1980.– B 16.

¹⁶⁹ G‘.G‘ulom. Viqor.Lirika. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1980.– B 47.

lirikaning mayinlik va hajv qobig'ida berilishi shoir ijodiga xos individual xususiyatlardir.

Antiteza, ya'ni mumtoz adabiyotdagi tazod san'atining eng yaxshi namunasini uning "Sen yetim emassan" she'rida ko'ramiz: g'urbat, ofat, g'am, harorat, muhabbat, shafqat:

Cho'chima, jigarim,

O'z uyingdasi,

Bu yerda

Na g'urbat,

Na ofat,

Na g'am.

Bunda bor:

harorat,

muhabbat,

shafqat

*Va mehnat nonini ko'ramiz baham*¹⁷⁰.

"...so'fiylar nazarida muhabbat va muruvvat biri ikkinchisini taqozo etuvchi o'zaro bog'liq tushunchalar bo'lib, nafaqat muhabbat, balki shafqat va muruvvat ham ilohiydir, - deb yozadi N.Komilov. - Negaki Allohga muhabbat qo'ygan odam zolim va shafqatsiz bo'lishi mumkin emas"¹⁷¹.

Keyingi rus va yevropa she'rshunosligida (Jirmunskiy, Tomashevskiy, Gasparov va boshqalar) anjambang ritmik-sintaktik nomuvofiqlik sifatida talqin qilinishi aynan Shcherba asos solgan prosodik yondashuv bilan uzviy bog'liq.

L.V.Shcherbaning ritmni fonetik-prosodik va intonatsion hodisa sifatida talqin qilishi, metr va real ritmni farqlashi hamda pauza va urg'uning ekspressiv rolini ta'kidlashi anjambangning nazariy talqiniga muhim metodologik asos yaratgan¹⁷². Shu bois Shcherba qarashlari anjambang va she'riy ritm o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntirishda bilvosita, ammo fundamental ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy manba sifatida baholanadi. Anjambang metrik urg'ularning qayta taqsimlanishiga olib keladi. Ba'zi metrik tizimlarda (masalan, iambik pentametrda) anjambang yangi urg'u nuqtalarining paydo bo'lishiga sabab bo'lib, metrik "model"ning real ritmik ijrosini o'zgartiradi va stress konturlarini qayta shakllantiradi.

¹⁷⁰ G'.G'ulom.Tanlangan asarlar. -Toshkent: O'zbek.davlat nashriyoti,1953, – B 95.

¹⁷¹ Komilov N.Tasavvuf. Ikkinchi kitob. -Toshkent: O'zbekiston,1999, – B 34.

¹⁷² Shcherba. Fonetika fransuzskogo yazika.– Moskva: Izd-vo literature na inostrannix yazikax. 1957. 311-312

V. M. Jirmunskiy rus she'rshunosligida metr va ritm munosabatini nazariy jihatdan asoslab bergan yetakchi olimlardan biridir. U o'zining "Metrikaga kirish" ("Vvedeniye v metriku".1925) asarida metr va ritmni qarama-qarshi, ammo o'zaro bog'liq kategoriyalar sifatida izohlaydi¹⁷³.

Jirmunskiy metrni she'rning ideal, normativ modeli, ya'ni she'riy tuzilmaning oldindan belgilangan abstrakt sxemasi sifatida talqin qiladi. Metr she'rni prozadan farqlovchi asosiy struktur belgi bo'lib, u urg'ular va bo'g'inlarning nazariy joylashuvini belgilaydi. Shu sababli metr nazariy-me'yoriy kategoriya hisoblanadi. Ritm esa, Jirmunskiy talqinida, metrning konkret she'riy matnda amaliy ro'yobga chiqishi, ya'ni real talaffuz, pauza, urg'u siljishlari va intonatsiya orqali yuzaga keladigan empirik hodisadir. Ritm individual ijod jarayonida shakllanadi va har bir she'rda metr sxemasidan turli darajada og'ishlar bilan namoyon bo'ladi¹⁷⁴. Jirmunskiy nazariyasida metr va ritm o'rtasidagi munosabat dialektik xarakterga ega. Metr umumiy tizimni belgilasa, ritm shu tizim doirasida yuzaga keladigan konkret variatsiyalarni ifodalaydi. Shunday qilib ritm metrning oddiy nusxasi emas, balki uning ijodiy, individual talqinidir. Bu yondashuv she'riy shaklni statik emas, balki dinamik sistema sifatida tushunishga olib keladi. Jirmunskiy dastlabki qarashlarida aynan metrni she'rni prozadan ajratuvchi muhim belgi deb hisoblaydi. Biroq keyingi izlanishlarida u ritmning rolini kengaytirib, ba'zi holatlarda metrsiz ham she'riy ritm yuzaga kelishi mumkinligini tan oladi. Bu holat XX asr erkin she'riy shakllarini ilmiy izohlash uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilgan. Jirmunskiy konsepsiyasiga ko'ra, metr – she'rning abstrakt, normativ modeli bo'lsa, ritm – ushbu modelning real matnda individual va fonetik jihatdan boyitilgan amalga oshirishidir¹⁷⁵. Bu yondashuv she'riy strukturaning qat'iy emas, balki ijodiy variativ tizim ekanini asoslab beradi va zamonaviy she'rshunoslikda metr – ritm oppozitsiyasining fundamental nazariy modeli sifatida qoraladi.

Anjambmang pauza va intonatsiyaning ritmik funksiyasini murakkablashtiradi. Anjambmang misra oxiridagi kutilgan pazani zaiflashtiradi yoki butunlay yo'q qiladi, natijada intonatsion tuzilma metrik chegaralardan mustaqillashadi va ritm ko'proq prosodik xususiyat kasb etadi¹⁷⁶.

Hamid Olimjonning otashin she'riyati xalqning nozik va inja ruhi, toza va beg'ubor til boyligi bilan muhtasham nazm koshonasini bugun ham bezab turibdi. Bu go'zal she'rlar haqida o'ylaganimizda ko'z oldimizdan betakror tashbehlar inja tuyg'ularga yo'g'rilgan quyma satrlar o'ta boshlaydi. Hamid Olimjon, avvalombor, lirik shoir. Uning "Bolalik" she'rida anjambmangning ko'rinishlari uchraydi:

Bola edik

¹⁷³ Жирмунский В. Введение в теорию стиха. – Ленинград: Академия, 1925. – В 13-14.

¹⁷⁴ Жирмунский В. Введение в теорию стиха. – Ленинград: Академия, 1925. – В 15.

¹⁷⁵ Жирмунский В. Введение в теорию стиха. – Ленинград: Академия, 1925. – В 15.

¹⁷⁶ University of Tartu Library. "OJS(Open journal Systems): Scientific journal publishing environment" – ojs.utlib.ee.2025

Tanlar olov,
Qalb qaynoq
Ko'zlar o'tkir.
Dillar sof
Erkin-erkin o'ynardik,
Hayot bilan
Qaynar edi
Kuy qishloq¹⁷⁷.

Anjambmang fikrni bir satr bilan cheklash o'rniga, she'r ichida yanada murakkab hikoyani quradi. Birinchi satrning oxiri fikrning oxiri emas, aksincha, o'quvchini keyin nima bo'lishini bilish uchun oldinga siljishga majbur qiladigan jarlikdir. Shoirning "Baxtlar vodiysi" she'ri nozik va inja ruh, toza va beg'ubor til boyligi, go'zal tabiat tasviri va quyma satrlari bilan nazm koshonasini anjambmang usulida boyitib turibdi: *Ey, baxtli vodiyning mehnatkashlari.//Ey, o'lkani Elektrik daryolariga Yosh boladek cho'miltmoqchi Bo'lgan fidokor.//Ey, bolaga toza ko'ylaklar Kiygizuchi o'rtoq paxtakor*¹⁷⁸. Yangi o'zbek she'riyatining kamol topishi, lirik janrlarning rivojlanishi, lirik qahramon tuyg'ularining badiiy mujassamlanishida Hamid Olimjonning ham munosib o'rni bor. U tabiatan lirik shoir, nozik hissiyot va kechinmalar musavviridir. Shoir sevgi mavzusiga murojaat qilganida ham, tabiat tasvirini chizganida ham lirik qahramon tuyg'ulari baxt-saodat yog'dulari bilan nurafshon bo'ladi. Shoirning "O'zbekiston xotirasi" she'rida tuyg'ular po'rtanasi favvoradek otilib chiqib, anjambmangni hosil qilgan: *Ikki o'rtadagi uzun masofa / Mening ko'zlarimning nuri-la to'lgan Ey, O'rta Osiyo/ Sening xaritang mening devorimga yopishtirilgan*¹⁷⁹.

Hamid Olimjon "O'zbekiston" she'rida o'xshatish, sifatlash, obrazli, ramziy tasvirlar, ifodalar, istioralar orqali yosh ma'suma kelinchakning ikki o'rim sochi – kokilini tarab turgan holati miqyosida Amu bilan Sirdaryoning to'lib oqib, butun dalalarga jon bag'ishlab turgan manzarasini tasavvur etadi: *O'xshashi yo'q bu go'zal bo'ston, / Dostonlarda bitgan guliston, / O'zbekiston deya atalur, / Uni sevib el tilga olur*¹⁸⁰. "O'zbekiston" she'ri Hamid Olimjon poeziyasining badiiyat, mahorat bobidagi eng ko'rkam namunalariidandir. Unda o'xshatish, qiyoslash, jonlantirish, mubolag'a, qarshilantirish, tovushlar uyg'unligini anglatuvchi alliteratsiya, poetik takror, ta'kid kabi bir qancha badiiy tasvir vositalaridan mahorat bilan foydalandi. Hamid Olimjon o'tkir iste'dodi bilan ozodlik tuyg'usini kuylashga intildi. Shu maqsadda shoir "Muqanna" tarixiy asarini yaratdi. Shoir bu asarida anjambmangdan

¹⁷⁷ Olimjon H. Bolalik. Tanlangan asarlar. – Toshkent: O'zSSR davlat nashriyoti. 1951. – B 28.

¹⁷⁸ Olimjon H. Xayolimda bo'lding uzun kun. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019, – B 56.

¹⁷⁹ Olimjon H. Xayolimda bo'lding uzun kun. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019, – B 60.

¹⁸⁰ Olimjon H. O'zbekiston. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1965

foydalanib, fikrlarning bir satrdan ikkinchisiga erkin o‘qishga imkon berib, she’rga nasr xarakterini beradi:

*Qancha baland uchsa hamki chumchuq qush,
uyasida o‘rganganni o‘qirmish.
yosh chog‘imdan o‘tga tomon sen tortding,
sen otashga topinmoqni o‘rgatding*¹⁸¹.

Anjambmang ritm va ma’no o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuchaytiradi.

Zamonaviy poetik tahlillarda anjambmang ritmik tuzilma orqali semantik kutilmaganlik yaratish vositasi sifatida talqin qilinadi, ya’ni ritmik uzilishlar bevosita ma’no hosil bo‘lish jarayoniga ta’sir ko‘rsatadi¹⁸².

Klassik va zamonaviy she’riyatda anjambmang-ritm munosabati funksional jihatdan farqlanadi. Qiyosiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, klassik she’riyatda anjambmang ritmik silliqlikni saqlagan holda ohangdorlikni kuchaytirsa, zamonaviy she’riyatda u ritmik fragmentarlik va keskinlikni kuchaytiruvchi yetakchi vositaga aylanadi¹⁸³. Prosodiya nuqtayi nazaridan anjambmang ritmning nutqiy tabiatini kuchaytiradi. Prosodik tadqiqotlarda anjambmang she’riy ritmni tabiiy nutq ritmiga yaqinlashtiruvchi omil sifatida baholanadi, chunki u qat’iy metrik pauzalarni susaytirib, sintaktik-prosodik oqimni ustuvor qiladi¹⁸⁴.

Mirtemirning ”Onaginam” she’rida ona oldida farzandlik burchini o‘tay olmagan kishining afsuslari ifodasi tasvirlangan. She’r anjambmang shaklida yozilgan bo‘lib, boshdan oyoq bir xil ohangda, bir xil zarbda o‘qilmaydi:

*Odam bo‘ldimmi menam?
Yigit yoshimgacha bir chelak suv keltirib
bermagan bo‘lsam,
Yo tashnaligingcha bir kosa sharbat to‘ldirib
bermagan bo‘lsam,
Yo non yopishing uchun
Hatto bir yo‘la bir kun*

¹⁸¹ To‘xliyev B., Shermurodov T., Isayeva Sh. Adabiyot. III qism.—Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2010.— 688.— B 260.

¹⁸² Russkaya Rech’. (Russian speech). Scientific journal published by the Russian Academy of Sciences; ISSN 0131-6117.1967

¹⁸³ Karimova O.”A Comparative Analysis of Poetic Devices: Alliteration, Assonance, and Enjambment in English and Uzbek Poetry”.— Qo‘qon Universiteti Xabarnomasi, Vol.14,2025,pp.192-194.

¹⁸⁴ Encyclopedia Britannica Online.-Chikago:Encyclopadia,Inc,1768.URL:https://www.britannica.com

Ushbu she'rda shoirning diliga qiynoq beruvchi, qalbini azoblovchi tuyg'u g'oyat samimiy aks ettirilgan. Shoir boshiga qora kunlar tushgan mahal oilasidan uzoqda tuhmat jabrini tortar ekan, to'satdan onasining vafoti haqidagi sovuq xabar uning dilini teshib o'tadi. Onasini hatto so'nggi yo'lga ham o'zi kuzata olmagan farzandning qonli bag'ridan to'kilgan satrlar anjambangning go'zal namunasi hisoblanadi.

Mirtemir ijodining dastlabki davridanoq izlovchi shoir sifatida taniladi. U davrimizning mazmuni keng ekanini, bu mazmunni ifodalash uchun yangi-yangi formalar zarurligini yaxshi tushunadi. Shuning uchun u sochma she'rlar-anjambangga murojaat qiladi, ularda qalbini to'ldirgan hislarni ifodalashga urinadi. Ammo bu anjambanglarning ko'pchiligiga chuqur fikr, salmoqli umumlashmalar yetishmaydi. Shoir tabiat manzaralarini juda toshib, nozik did tasvirlagani holda, ularni hayot haqidagi o'ylar, falsafiy qarashlar bilan boyitmaydi. Katta ijtimoiy masalalarga bag'ishlangan sochmalarida ham ko'pincha ma'lum haqiqatlarni takrorlaydi. "She'rda qandaydir ichki ritmika bor, ko'tarinkilik bor. Shoir mehnatning qudratini ilhom bilan zavqlanib tasvirlaydi. Mehnatni "tangrilardan qudratliroq qudratdir..." deb ataydi. Ammo she'rda hali aniq obraz bo'lmaganidan u chiroyli aytilgan haqiqatlar yig'indisiga aylanib qolgan:

Mehnat she'r, nafosat va yaratguchi

Baxt, saodat chashmalari

Oqadi mehnat tufayli

Haqiqat o'z chiroqlarini

Yoqadi mehnat tufayli.

Mehnat!

Men seni quchay,

Yuksaklarga uchay –

*She'r sochay!*¹⁸⁶

Shubha yo'qki, Mirtemir tarjimon sifatida N.A.Nekrasovning "Rossiyada kim yaxshi yashaydi", Sh.Rustavelining "Yo'lbars terisini yopingan pahlavon" kabi asarlarini Gomerning "Odisseya" eposi va qirg'iz xalq dostoni "Manas" ni tarjima qildi. Xuddi shu yillarda shoirning butun Ittifoq miqyosida tanilgan she'rlari vujudga keldi. "Qog'ozda qolsin, mayli" she'ri A.N.Nekrasovning "Rossiyada kim yaxshi yashaydi" asari ta'sirida yaratilgan:

¹⁸⁵ Mirtemir.Asarlar. To'rt jildlik. – Toshkent:G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.1980–384 b. –B .366.

¹⁸⁶ Mirtemir "Yodgorlik", Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978, 144 sahifa, –B 4.

Yetti sayoq singari,
Manzillar o'tgan sari
Haqiqat urug'ini donalab ekanlarim-
Qog'ozda qolsin, mayli...
O'zbek she'rin charxladim rus she'rining
charxiga,
Rus she'ri jarangladi ulkan dunyo
Sharqiga,
Yo'q, xafa bo'lgani yo'q
Qutlug' Rusiya dahosi.
*O'zbek sozida yangrar rus she'rining navosi*¹⁸⁷.

Buyuk jasorat egasi bo'lmish Mirtemir hayotdan ham, safdoshlaridan ham, rus poeziyasidan ham ko'p narsa o'rgandi. Anjambmang usulida yozilgan rus va o'zbek xalqi o'rtasidagi adabiy aloqalar, qardoshlik, dos'tlik, hamkorlik masalalari aks ettirilgan "Qog'ozda qolsin, mayli" she'rida rus shoiri Mayakovskiy asarlarini ko'p o'qiganligi, ularning ichki sirlarini o'zlashtirishga uringanligi natijasida Mirtemir ijodida yangi xususiyatlar paydo bo'lganligini guvohi bo'lamiz¹⁸⁸.

Anjambmang va she'riy ritm o'rtasidagi munosabat shundan iboratki, anjambmang metrik tuzilmaning mexanik takrorini buzib, ritmni dinamik, prosodik va semantik jihatdan faol tizimga aylantiradi. Natijada ritm faqat bo'g'in va urg'ular ketma-ketligi emas, balki sintaktik oqim, intonatsiya va ma'no harakati bilan birgalikda shakllanuvchi murakkab lingvopoetik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi¹⁸⁹.

Anjambmang she'riy nutqda sintaktik va metrik chegaralarning mos kelmasligi natijasida yuzaga keladigan poetik hodisa bo'lib, u she'r ritmining shakllanishida faol ishtirok etadi. Anjambmang orqali misra oxiridagi metrik to'xtalish zaiflashtiriladi yoki bekor qilinadi, natijada o'quvchi diqqatida sintaktik oqim ustuvorlik kasb etadi. Bu holat ritmning faqat metrik takroriylikka emas, balki nutqiy dinamika va sintaktik intonatsiyaga ham tayangan holda tashkil topishini ko'rsatadi.

Anjambmang she'riy ritmni tezlashtiruvchi va uzluksizlashtiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi: sintaktik birlik misra chegarasidan oshib ketgani sababli

¹⁸⁷ Mirtemir "She'rlar" O'zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, Toshkent, 1961, – B 247.

¹⁸⁸ Mirtemir "She'rlar" O'zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, Toshkent, 1961, – B 6.

¹⁸⁹ University of Canberra Research Portal.–Canberra:University of Canberra, 2025.URL:<https://researchprofiles.canberra.edu.au>

pauza kuchsizlanadi, urg‘u va intonatsion markazlar qayta taqsimlanadi. Shu yo‘sinda anjambmang ritmni statik metrik sxemadan chiqarib, uni harakatdagi, jarayonli hodisa sifatida idrok etishga olib keladi. Shuningdek, anjambmang ritmning ekspressiv variativligini kuchaytiradi. Metr saqlanib qolgan holda, anjambmang orqali ritmik kutilmalar buziladi va o‘quvchida vaqtinchalik nomuvofiqlik hissi yuzaga keladi. Bu esa ritmni estetik jihatdan boyitib, sh‘riy nutqda semantik urg‘ularni ko‘chirish va mazmuniy kuchaytirish vositasiga aylanadi. Umuman olganda, anjambmang va she‘riy ritm o‘rtasidagi munosabat antagonistik emas, balki funksional-dialektik xarakterga ega. Anjambmang ritmni buzmaydi, balki uni moslashuvchan, nutqiy va ekspressiv tizim sifatida qayta tashkil etadi. Shu sababli anjambmang she‘riy ritmning tirikligi va individual ijodiy tabiatini namoyon etuvchi muhim poetik mexanizm sifatida talqin qilinadi.

Anjambmangning mazmuniy va pragmatik vazifalari

Anjambmang sintaktik birlikni misra oxirida tugatmasdan, keyingi misraga ko‘chirish orqali ma‘noning vaqtincha kechiktirilishini yuzaga keltiradi. Bu hodisa o‘quvchida kutilma va kuchlanish hosil qiladi, ma‘no esa keyingi misrada ochiladi. Natijada semantik struktura chiziqli emas, balki bosqichma-bosqich ochiladigan tizim sifatida shakllanadi. Anjambmang orqali semantik markaz (asosiy ma‘no yukini ko‘taruvchi so‘z yoki ibora) yangi misra boshiga chiqariladi. Bu esa mazmuniy urg‘uning qayta taqsimlanishiga olib keladi va muhim leksik birliklarni pozitsion jihatdan kuchaytiradi. Bu usul semantik strukturaning ierarxiyasini o‘zgartirib, ayrim komponentlarni konseptual markazga aylantiradi. Anjambmang semantik noaniqlikni vaqtincha saqlab turishi sababli, so‘z va iboralarning kontekstual ma‘nolari kengayadi. Bu holat polisemiyaning faollashuviga va poetik semantikaning ko‘p qatlamli talqiniga xizmat qiladi. Natijada bitta sintaktik birlik bir nechta mumkin bo‘lgan semantik yo‘nalishlarga ochiq qoladi¹⁹⁰.

Usmon Nosir talqinidagi lirik qahramon tabiat bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqotga kirishadi, uni erkalaydi, unga erkanadi, undan arazlaydi, undan kechirim so‘raydi. Har kecha ko‘radigan oy va uning nurlari, bahor chog‘i gullagan bodomning oydin kechadagi suratini shoir oddiy so‘zlar bilan anjambmentda chizadi:

Oydin kecha –

Sutdek oppoq har yer,

Har bir joy,

Doirayi kamondan

¹⁹⁰ Oxford University Press.OUP Academic. -Oxford:Oxford University press, 2025. URL: <https://academic.oup.com>

Boqar kumush oy.
Oy nurini
Deraza taqib suv oqar,
Jimirlab
Oy aksi yotar.

. Shoirning “Yur tog‘larga chiqaylik...” she’rida tog‘larning ulug‘vorligi, ular bag‘rini qoplagan olmos yanglig‘ oppoq qor nuri she’rxon diliga yorug‘lik olib kiradi. Butun olam oqlikka burkanganini ko‘rgan yoshlar yuragida hozirga qadar bo‘lmagan g‘alati toshiqish, hayajon bosh ko‘taradi. Oppoq nur yoshlikning ko‘zini qamashtiradi, hayotni jozibador, faqat go‘zallikdan iboratdek qilib ko‘rsatadi:

Yur, tog‘larga chiqaylik.
Mayli, yur.
Eh...qandayin chiroylik oppoq nur.
Olmos kabi oppoq qor Yaltirar.
*Nega muncha dil oqar, Qaltirar*¹⁹¹.

Usmon Nosirning “Yurak” she’ri shoirning insoniy xarakterini va ijodiy taqdirini o‘zida mujassam etgan she’rlar sirasiga kiradi. Shoir Yurak obrazini o‘zining ilhomi, ijodiy intilishlari, his-tuyg‘ulari, orzu-o‘ylarining mujassam timsoli deb biladi.

Anjambangdan foydalanib, shoir nuqtaga yetmasdan oldin bir necha misralar davom etadigan yoki hatto butun she’rni bosib o‘tadigan jumla tuzishi mumkin.

Usmon Nosir ham ko‘ziga oyni berkitib, u bilan ishqibozlik qilishiga-da yo‘l qo‘yib bergani Yurakdan, avvalo, Vatan rozi bo‘lishini talab qiladi. Anjambangda yozilgan ushbu she’r qalbiga xitobdek yangraydi:

Itoat et!
Agar sendan
Vatan rozi emas bo‘lsa,
Yoril! Chaqmoqqa aylan sen,
*Yoril! Mayli, tamom o‘lsam!*¹⁹² –

¹⁹¹ U.Nosir.Unutmas meni bog im..She’rlar.Dostonlar.-Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1988, – B 27.

¹⁹² U.Nosir. Unutmas meni bog im. She’rlar.Dostonlar.-Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1988, –

deya yurtga nafi tegmaydigan ijoddan o‘limni afzal biladi.

Anjambmang pragmatik jihatdan o‘quvchining idrok jarayonini faol boshqaradi. Misra oxiridagi to‘xtalish bilan sintaktik tugallanishning mos kelmasligi o‘quvchini keyingi misrani majburiy davom ettirishga undaydi. Bu esa matnni qabul qilish jarayonida kommunikativ strategiya sifatida ishlaydi¹⁹³. Funktsional-pragmatik yondashuvlarga ko‘ra, anjambmang intonatsion birliklar va diskurs aktlari chegaralarini qayta belgilaydi. Misra oxiri metrik chegara bo‘lishiga qaramay, pragmatik jihatdan diskurs aktining tugallanishi keyingi misraga suriladi. Bu esa she‘riy diskursda pragmatik segmentatsiyaning moslashuvchanligini ta‘minlaydi.

Erkin Vohidovning “Ruhlar isyoni” dostonida xalqlar, millatlar, dinlar o‘rtasidagi nizolar bashariyatga naqadar katta falokatlar olib kelishi teran tasvirlangan. Doston otashin bengal shoiri Nazrul Islomning qahramona va fojiali taqdiriga bag‘ishlanadi. Ona yurtida zulm-zo‘ravonlik, irqchilik, erksizlikning avjiga chiqishi, mustamlakachilar tomonidan hind xalqi qonining zulukdek so‘rilishi, ayovsiz ezilishi, och-nochorligi shoir qalbini junbushga keltiradi va anjambmangdan foydalanadi:

Qutlug‘ jang
deb turdi hindu,
G‘azot
dedi
musulmon.
Barahmandlar
dovul qoqdi,
Fatvo berdi
Imomlar.
Ko‘cha to‘lib
qonlar oqdi
*To‘qnashganda imonlar*¹⁹⁴.

Anjambmang adabiy shakl bo‘lib, she‘rlar oqimini belgilaydigan naqsh va ritmlarga ega. She‘riyatdagi satrlar qanday bo‘linishi va ular band yoki fikrga nisbatan qayerda tugashi anjambmangning ko‘rinishi. Bir ibora yoki to‘liq fikr oxirida satr uzilishi she‘riyatda muntazam va kutilgan namunadir. Shoirilar bu

¹⁹³ De Gruyter, Brill.Academic publishing platform.-Berlin/Leiden: De Gruyter7Brill,2025.URL:<https://www.degruyterbrill.com>

¹⁹⁴ Vohidov E. O‘zbekim. – Toshkent: Yangi asr avlodi.2019.– 264.

umidni anjambo'mang deb ataladigan usul yordamida yo'q qiladi. Anjambmang satr qayerda tugashi haqidagi taxminlarimizni buzadi va she'rga o'zgacha tuyg'u yaratadi.

Erkin Vohidov aruz jozibasini barmoqda uyqashtirgan tuyg'ular to'foniga nazokat baxsh etish yo'lida yonib izlanayotgan shoir:

Men esam

O'tmish-u kelajak aro

O'rta yo'lda qolgan bechoradurman.

Ular yuragimda

Qilsa mojaro,

*Kelishtirmoq bilan ovoradurman*¹⁹⁵ —

deya anjambmangdan foydalanib, bu bechoralik, bu ovoralik juda tez o'zgarayotgan zamonda G'arb va Sharqni imkon qadar kelishtirish, ovro'pacha ko'ylakni sharqona yeng va yoqalar bilan ibodatlashtirishga intilish, har qanday sharoitda ham millatning o'zligidan biror-bir nishona asrab qolishga da'vat etadi. Shoir o'quvchini she'r orqali o'ziga tortadigan ritmga yo'naltirish uchun oqim tuyg'usini yaratish uchun anjambmangdan foydalanadi. Anjambmang o'quvchiga bir satr keyingisida tugaydigan doimiy fikr ekanligini ta'kidlaydi. She'r har bir jumla yoki satr oxiridagi "odatiy" qator uzilishlari naqshiga amal qilganda tugatilgan satr bo'ladi. Oxirgi to'xtatilgan chiziqlar keyingisiga o'tishdan oldin pauza qilishni talab qiladigan tugallangan fikrni bildiradi. Ko'pgina satrlarning oxiridagi pauzalar, o'ralgan chiziqlarga qaraganda ko'proq o'lchovli va qasddan ritm yaratadi. Erkin Vohidovning "Nido" dostonida insoniyatga og'ir judoliklar, bitmas jarohatlar keltiradigan urush qattiq qoralanadi, eslab ketadi:

Ovozingiz tinglab to'yolmaganman,

Bir marta yo'qotib topolmaganman

Xayolimda tiklab olayin.

Otajon!

Men axir qutlug' bu so'zni

Yigirma yil olmadim tilga,

Yigirma yil saqladim dilda,

Apmonli o'g'lingiz tinglaydi sizni,

¹⁹⁵ To quyosh sochgayki nur. Erkin Vohidov hayoti va ijodi zamondoshlari nigohida.—Toshkent: O'zbekiston, PMIU, 2016, 2018,—B 15.

*So 'ylang, eshitaman*¹⁹⁶.

Sharq mumtoz she'riyatida qasidalar asosan, podshohlar, amir-u xonlar sha'niga, ular tomonidan qilingan xayrli ishlarni olqishlash maqsadida bitilardi. Erkin Vohidovning "O'zbekim" qasidasi ona xalqi – o'zbekimga bag'ishlanadi. She'riyatda anjambmangdan foydalanish o'quvchining she'rning umumiy tajribasiga ta'sir qilish uchun ko'p maqsadlarga xizmat qiladi. G'oyalarni bir satrdan ikkinchisiga o'tkazish orqali anjambmang o'quvchiga satrdan qatorga silliq o'tish imkonini beruvchi tezlikni yaratadi:

So 'ylasin Afrosiyob-u

So 'ylasin O'rxun xati,

Ko 'hna tarix shodasida

*Bitta marjon o'zbekim*¹⁹⁷.

Anjambmang orqali sintaktik uzilish emotsional kuchlanishni oshiradi. Bu o'quvchida hayrat, shoshilish, ichki monolog yoki dramatik pauza effektini yuzaga keltiradi. Natijada anjambmang faqat strukturaviy emas, balki pragmatik-ekspressiv vosita sifatida ham xizmat qiladi. Pragmatik nuqtayi nazardan, anjambmang muallifning nutqiy strategiyasini aks ettiradi, u matnni qanday tezlikda, qanday intonatsion oqimda va qanday semantik bo'linmalar bilan o'qilishini bilvosita boshqaradi. Shu tariqa anjambmang muallif va o'quvchi o'rtasidagi kommunikativ munosabatni tartibga soluvchi vosita vazifasini bajaradi¹⁹⁸.

Abdulla Oripov lirikasi orqali o'zbek she'riyatiga ko'ngil dardlarining suvratlari, ruhiy iztiroblar manzarasi, armonga aylangan orzular inson sezimlarida qoldirgan izlar tasviri kirib keldi. Abdulla Oripov tuyg'ulari o'zbek she'riyatiga o'ychil g'am va g'amga qorishgan o'y olib kirdi. Abdulla Oripov anjambmangdan foydalanib, satr qayerda tugashi haqidagi taxminlarni buzadi hamda she'rga o'zgacha tuyg'u yaratadi:

Kezib olamni harchand

Sen kabi yorni topolmasman,

Dilimni anglaguvchi o'zga

*Dildorni topolmasman*¹⁹⁹.

Abdulla Oripov she'riyatini millat ruhining timsoliga aylantirgan sifatlardan yana biri undagi obrazlaarning teran xalqchil tomirlarga egaligida. Eng murakkab holatlarni ham g'oyat ulkan nazokat va yuksak madaniyat bilan ta'sirli qilib

¹⁹⁶ Vohidov E. O'zbekim. – Toshkent:Yangi asr avlodi.2019. – B 400.–B 246.

¹⁹⁷ Vohidov E.O'zbekim. – Toshkent:Yangi asr avlodi.2019. –B 400 –B 8.

¹⁹⁸ RCSI Journals Platform.-Moscow:RCSI Scientific Publishing Platform, 2025.URL:<https://journals.rcsi.science>.

¹⁹⁹ Oripov A. Birinchi muhabbatim. She'rlar.To'plovchi va nashrga tayyorlovchilar L.Tangriyev va boshqalar.– Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018, – B 17.

o'zbekcha ifodalay bilish shoir she'rlarining qimmatini oshiradi. Shoir hamisha she'riy ifodaning aniq va sezimlarga ta'sir ko'rsata oladigan bo'lishiga anjambmang orqali erishadi: *Esimdadir, titrar edim – G'amgin, bolish pastida // Kitobimni ko'rdim nogoh Boshginangning ostida // Toshday qotdim o'shal oni Bor toqatdan ayrilib //– Shoir o'g'lim, – deding menga Sekingina qayrilib*²⁰⁰.

A.Oripov ko'z oldiga keltirish mushkul, ifodalash undan-da og'ir bo'lgan sezimlarni, mavhum tuyg'ularni anjambmangda tuyumli qilib she'rxonga yetkazishda tengsiz mahoratga egadir:

*Ohkim, tushganda ko'z
Tutding salomingni darig',
Tutmagil, yumganda ko'z
Bir juft kalomingni darig' ²⁰¹.*

Shoir "O'zbek tilim" she'rida anjambmangdan mohirona foydalanib, so'zga inja va muqaddas go'zallik sifatida munosabatda bo'lib istifoda etish, uning ilohiy qudratini ruhan his qilishni tasvirlaydi:

*Davronimni surganman ham oq otga
minib,
Hay-hay, uning qo'ltig'ida bor edi qanot.
Vaqti kelib, shon-shuhratdan xayolim
tinib,
Bilsam, o'sha oq otimni derkanlar – bo'z ot...
Sen tuganmas chashmadirsan, oh, ona tilim*²⁰²...

A.Oripovning "Sohibqiron" dramasida Amir Temur janglar ichida emas, balki ko'proq o'ylar girdobida aks ettiriladi. A.Oripov Temurni hamisha o'z yo'lining to'g'ri-noto'g'riligini aniqlashga urinadigan, bosgan har bir qadami xususida fikr yuritadigan kishi sifatida ko'rsatadi. Shuning uchun ham shoir Temurning nutqida anjambmangni qo'llab, jahongir fikrlash tarzini aniq ko'rsatadi:

*...Unutmag'il, muzaffarman haqligim uchun.
Ulug' bir zot yashab o'tgan bizning zaminda.
Turkistonlik avliyo u
Ahmad Yassaviy.*

²⁰⁰ Oripov A. Onajon. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2001

²⁰¹ Oripov A. Umr manzillari. She'rlar, she'riy trakt, g'azallar. – Toshkent: Tafakkur qanoti, 2019. – B 98.

²⁰² Oripov A. Yangi she'rlar. Ikkinchi nashr. – Toshkent: O'zbekiston, 2018, –B 30.

*Tingla uning bir hikmatin,
 G'oyat ibratli.
 "Nafsim meni yo'ldan urib xor ayladi.
 Termiltirib xaloyiqqa zor ayladi".
 Aynan senga mo'ljallangan bir juft o'qdir bu²⁰³.*

Anjambmang she'riy nutqda faqat formal metrik hodisa emas, balki semantik va pragmatik darajalarda faol ishlovchi ko'p funksiyali mexanizmdir. Semantik jihatdan u ma'no kechiktirilishi, fokusning ko'chishi va kontekstual kengayishni ta'minlash, pragmatik jihatdan o'quvchi idrokini boshqarish, diskurs aktlarini qayta segmentatsiyalash va ekspressiv ta'sirni kuchaytirish vazifalarini bajaradi. Shu sababli anjambmang she'riy diskursda mazmun va kommunikativ strategiyaning tutash nuqtasi sifatida talqin qilinadi.

Anjambmang gap yoki gapning qatori uzilishi bo'ylab davomi. U o'quvchini bir satrdan ikkinchisiga o'qishni davom ettirishga undaydi, chunki ko'pincha o'quvchi keyingi satr yoki satrlardagi band yoki jumlaning tugatmaguncha to'liq ma'noga ega bo'lmaydi. She'rda butun bir millatning hayot va borliqqa munosabat yo'sinini tubdan o'zgartirish kerakligi shoirni muvozanatdan chiqaradi. Shavkat Rahmon she'rlari kishining tuyg'ulariga kuchli ta'sir ko'rsatish xususiyati bilan ajralib turadi. Shoirning "Turkiylar" she'rida esa shonli bobolarga munosib bo'lolmagan turkiy xalqlarga xos illatlar ayovsiz fosh etiladi. Shoir lirik ifodaning ta'sir kuchini oshirish uchun imlo qoidalariga o'zgarish kiritadi:

*Bormi er yigitlar, bormi er qizlar,
 bormi gul bag'ringda jo'mard nolalar,
 bormi bul tuproqda o'zligin izlab
 osmon-u falakka yetgan bolalar²⁰⁴.*

Shavkat Rahmon she'riyatida lirik tuyg'u va kechinmalar chuqurlashib borgan. Shu bois uning she'riyatida voqeabandlikdan ko'ra lirik tasvir kuchlilik qiladi: *Izlab-izlab Toparman bir kun O'yimga mos kattakon yo'lni / Do'stim, katta bo'lar, shubhasiz / Daryolarcha, tog'larcha ko'nglim²⁰⁵.*

Anjambmangning mazmuniy va pragmatik vazifalari haqida kengroq ilmiy sharh beriladi va har bir asosiy fikr o'zbekchaga tarjima qilingan ilmiy sitatlar bilan mustahkamlanadi. Sitatlar yetakchi poetika va pragmatika manbalariga tayangan holda berildi. Anjambmang sintaktik birlikning misra oxirida tugallanmasdan keyingi misraga o'tishi orqali ma'noning vaqtincha kechiktirilishini yuzaga keltiradi. Bu o'quvchida kutilma va semantik kuchlanish hosil qiladi. Anjambmang

²⁰³ Oripov A. Jannatga yo'l. Sohbiqiron. – Toshkent: Nurafshon biznes nashriyoti.2020. –B 107.

²⁰⁴ Rahmon Sh.Turkiylar.Saylanma.– Toshkent: Sharq.nashriyoti,1997, – B 338.

²⁰⁵ Rahmon Sh.Gullayotgan tosh.– Toshkent:Yosh gvardiya, 1985.– B. 60.

sintaktik tugallanishni misra chegarasidan tashqariga surish orqali kutilma va taranglikni kuchaytiradi hamda o'quvchi kutishini intensivlashtiradi²⁰⁶. Bu holatda she'riy ma'no bir zumda emas, balki bosqichma-bosqich ochiladigan semantik jarayon sifatida shakllanadi²⁰⁷. Anjambmang she'rga hayotiylik berish, his-tuyg'uni kuchaytirish, o'quvchini fikr oqimiga tortish, ritmik o'zgarishlar kiritish maqsadida qo'llanadi. Oddiy anjambmangda fikr darhol keyingi satrda davom etadi. Sintaktik Anjambmangda sintaktik birikma (ot+ sifat, fe'l + aniqllovchi, ega+kesim, fe'l+ to'ldiruvchi) ko'rinishlarga ajraladi. Murakkab anjambmang fikr bir nechta satrga cho'ziladi.

U.Azimning erk haqidagi she'rida ikkinchi bir shaxsning lirik qahramonga munosabatini, uning taqdiriga ko'rsatayotgan ta'sirini badiiy mujassamlantirish orqali lirik "men"ning ruhiy holatini nurlantiradi. U ikkinchi shaxsning kim va qanday ekanligini yashirmaydi. U - dushman, yomonlik timsoli. U – lirik qahramonni ta'qib qiladi. Bir paytlar uni yerparchin qilgan, lekin lirik qahramon ildiz yanglig' yana qayta novda chiqargan. Anjambmangda yozilgan ushbu she'rda dushman shundan keyin endi uni bamisoli tosh qilib osmonga otgan, lekin lirik qahramon yulduzga aylangan:

O'lg'in, deding - yerga ko'mding –

Ildiz bo'ldim.

Ko'kka otding – yo'q bo'l, deding –

Yulduz bo'ldim.

Tilim kesding – dilim aytdi

Rost kalima...

Qiyin bo'ldi senga, sho'rlik

*Dushmanim-a?*²⁰⁸

Usmon Azimning mayakovscha izlanishlari ham, uning rus shoiriga bo'lgan munosabati ham o'z aksini topgan. Shoir Mayakovskiy uslubiga faqat shaklan ergashishni maqsad qilib olgan emas, balki ko'ngil dardini to'kib solish uchun o'sha paytda o'ziga eng maqbul tuyulgan uslubni tanlagan. Tanlagan uslub haqiqatdan ham shoirning maqsadiga muvofiq tushgan. Maqsad esa, davr nafasini, ijtimoiy-siyosiy hayot nafasini ifodalash edi."Tazarru" she'ri misolida ham yuqoridagi fikrni yana bir karra tasdiqlash mumkin:

²⁰⁶ Preminger A., Brogan, T.V.F. & Greene D. The Princeton Encyclopedia of Poetry and Poetics (4th ed) - Princeton; Princeton university Press, 2012

²⁰⁷ De Gruyter, Brill. Academic publishing platform. - Berlin/Leiden: De Gruyter 7 Brill, 2025. URL: <https://www.degruyterbrill.com>

²⁰⁸ Suvonova J. Usmon Azim she'riyatida badiiy tafakkur. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2012. -B 70.

*Har kimsaga
kimligingni
ochiq aytib
ketmasang,
bu – onangga xiyonatdir,
Vataningga xiyonat²⁰⁹ .*

Anjambmang orqali muhim soʻz yoki iboraning keyingi misra boshiga chiqishi mazmuniy urgʻuni kuchaytiradi va semantik markazni qayta tashkil etadi. Anjambmang muhim birlikni yangi misra boshiga olib chiqish orqali uning semantik ahamiyatini oshiradi va maʼno ierarxiyasini qayta quradi²¹⁰. Natijada semantik markaz metrik chegaraga emas, balki pozitsion va pragmatik ahamiyatga bogʻliq holda belgilanadi.

Anjambmang sintaktik uzilish orqali vaqtinchalik noaniqlik hosil qiladi va bu soʻz hamda iboralarning bir nechta mumkin boʻlgan talqinlarini faollashtiradi. Anjambmang orqali yuzaga kelgan toʻxtalish vaqtinchalik noaniqlik yaratadi va bir nechta interpretativ yoʻnalishlar uchun makon ochadi²¹¹. Bu holat poetik matnda polisemantik effektini kuchaytiruvchi mexanizm sifatida ishlaydi.

*Bilmaysan,
Men uning qonida oqdim,
Yillarning eng nurli xayoli boʻlib
Izn ber,
qolayin shu lahza haqqi
Uning faqat uning haloli boʻlib.
Dunyoning eng baxtli ayoli boʻlib²¹²!*

Ushbu sheʼrda ayol zotiga boʻlgan chuqur ehtirom anjambmang usulida sheʼrning asosiy gʻoyasi boʻlib xizmat qilgan. Pragmatik jihatdan anjambmang oʻquvchini keyingi misrani davom ettirishga majbur qiladi va shu orqali idrok jarayonini boshqaradi. Anjambmang pragmatik jihatdan oʻquvchining talqin jarayonini yoʻnaltiradi va oʻqish surʼatini boshqaradi²¹³. Bu esa anjambmangni kommunikativ strategiya sifatida talqin qilish imkonini beradi. Zamonaviy funksional-kognitiv

²⁰⁹ Usmon Azim. Surat parchalari. – Toshkent: Yosh gvardiya.1986. – B. 23.

²¹⁰ Attridge D. Poetic Rhythm: An Introduction.– Cambridge: Cambridge University Press,1995 .

²¹¹ Jonathan Culler. Theory of the Lyric.-London:Routledge, 2017.

²¹² Mirzo Zebo. Nurli kunlar. –Toshkent: Yangi asr avlodi. 2004, – B 3.

²¹³ Peter Barry. Beginning Theory: An Introduction to Literary and Cultural Theory.–Manchester:Manchester University Press, 2017(4th edition)

yondashuvlarga ko'ra, anjambmang diskurs aktlari va intonatsion birliklar chegaralarini qayta belgilaydi.

Mustaqillik she'riyatida qisqalikka intilish yaqqol ko'zga tashlanib bormoqda. Shoir Faxriyor ikkigina so'zdan iborat she'r yozdi. Quvonarlisi shundaki, bu ikki so'z yordamida o'ziga xos musiqaga ega, muayyan kayfiyatni ifodalay oladigan, odamga o'zgacha tuyg'u baxshida qiladigan tugal she'r yaratilgan:

oy

*bolta*²¹⁴

She'r bosh harf bilan yozilmaydi, unda hech qanday tinish belgisi ishlatilmaydi. Faxriyorning she'ridagi ikki so'z fikrlaydigan o'quvchining e'tiborini tabiiy ravishda tortadi, uni bu so'zlar ustida o'ylab ko'rishga undaydi. Birov oyni boltaga, boshqa birov boltani oyga mengzaydi. Sehrli bu so'zlar sabab birov nimadandir siqilgan odam ko'nglini oyning boltasi qiymalaganini his etsa, boshqasi oysimon boltaning ruhiyat sokinligiga qo'riqchi bo'lganini tuyadi. Anjambmang metrik chegara bilan bir vaqtda funksional-kognitiv chegara ham bo'lib, diskurs aktlarining qayta tashkil etilishiga xizmat qiladi²¹⁵. Bu holatda anjambmang she'riy diskursda pragmatik segmentatsiya mexanizmi sifatida ishlaydi.

Bu parchada tarixning yana bir yangi sahifasini idrok etamiz. Anjambmangda yozilgan bu she'rda xalqimiz boshiga arablar solgan kulfatlar va ularga anjambmang kutilgan pauzani buzib, emotsional taranglik va dramatik effektini kuchaytiradi:

Qirlarni kezaman

Daraga tushib, o'tloqqa yastanib o'yga tolaman va birdan

Yomg'ir yog'ib o'tgan tuproqli yo'lda

*Muqanna izini ko'rib qolaman*²¹⁶.

qarshi kurashgan Muqanna singari xalq qahramonlarining matonatini his etamiz.

Anjambmang kutilgan to'xtalishni buzish orqali ekspressiv taranglikni kuchaytiradi va hissiy ta'sirni oshiradi²¹⁷. Natijada anjambmang emotiv-pragmatik signal sifatida ham faol ishlaydi, muallifning matn qanday tezlikda va qanday intonatsiyada qabul qilinishini bilvosita belgilaydi. Misralanish va anjambmang muallifning talqinni yo'naltirishdagi eng kuchli pragmatik vositalaridan biridir²¹⁸. Bu jihatdan anjambmang muallif – o'quvchi o'rtasidagi kommunikativ munosabatni boshqaruvchi mexanizm sifatida qaraladi:

²¹⁴ Faxriyor. Ayolg'u. –Toshkent; Sharq.2000.–B 166.

²¹⁵ R. J. Allan, Homeric Enjambment. – Oxford: Oxford University Press, 2000.

²¹⁶ Xurshid Davron. Qaqnus. – Toshkent. 1987. –B. 13.

²¹⁷ Abrams M.H. A Glossary of Literary Terms (11th edition).– Bo'ston: Wadsworth Cengage Learning, 2015.

²¹⁸ John Hollander. Vision and Resonance: Two Senses of Poetic Form.-New haven: Yale University Press, 1975

*Ayol janggi kirsar – sherdir, bo‘ridir,
ag‘yor sho‘ridir,
uyi quriydir,
Sparetra guvoh bunga
To‘maris guvohdir, –
Yovuz Kirning murodun o‘tga yoqqan
or bo‘ldi²¹⁹.*

Anjambmang she‘riy nutqda faqat formal-metrik hodisa emas, balki chuqur semantik va pragmatik funksiyalarga ega bo‘lgan ko‘p qatlamli poetik mexanizmdir. U semantik darajada ma‘no kechiktirilishi, fokusni ko‘chirish va polisemantik ochilishni ta‘minlasa, pragmatik darajada o‘quvchi idrokini boshqarish, diskurs segmentatsiyasini qayta tashkil etish va emotiv-ekspressiv ta‘sirni kuchaytirish vazifalarini bajaradi. Shu bois zamonaviy poetika va lingvopoetikada anjambmang mazmun va kommunikativ strategiya tutashgan nuqta sifatida baholanadi. Anjambmang she‘riy satr va sintaktik butunlik o‘rtasidagi nomuvofiqlik orqali mazmunni qatlamlashtiradi. Fikrning keyingi misraga ko‘chishi semantik kutilmaganlikni yuzaga keltirib, obraz va g‘oyaning chuqurroq idrok etilishiga xizmat qiladi. Anjambmang sintaktik markaz va semantik yadro o‘rtasidagi muvozanatni buzib, muhim leksik birliklarni misra boshi yoki oxirida alohida urg‘u bilan ajratib ko‘rsatadi. Natijada ma‘no markazi satr chegarasida emas, balki sintaktik davomda shakllanadi. Anjambmang o‘quvchida pauza, to‘xtalish va davomiylik orqali emotsional zo‘riqish hosil qiladi. Bu holat poetik nutqda hayajon, dramatism, ichki kechinma va psixologik taranglikni kuchaytiradi. Satr uzilishi sababli yuzaga kelgan sintaktik noaniqlik o‘quvchini faol interpretatsiyaga undaydi. O‘quvchi ma‘noni tiklash jarayonida muallif bilan “hamkorlik” qiladi, bu esa pragmatik ta‘sirchanlikni oshiradi. Anjambmang poetik nutqni sun‘iy qat‘iylidan xalos etib, og‘zaki nutqqa xos bo‘lgan uzilish, pauza va intonatsion siljishlarni modellashtiradi. Bu esa she‘rning kommunikativ tabiati kuchayishiga olib keladi. Anjambmangning qo‘llanish chastotasi va turlari muallif poetikasining muhim belgisi hisoblanadi. U shoirning estetik qarashi, ritmik tajribasi va pragmatik strategiyasini ochib beradi. Anjambmang metr-ritmik tizim bilan semantik oqim o‘rtasida ziddiyat hosil qilib, she‘riy nutqda dinamik harakatni ta‘minlaydi. Ushbu ziddiyat poetik matnning estetik samaradorligini oshiradi.

Bob bo‘yicha xulosalar

1. Klassik she‘riyatda anjambmang ko‘pincha yumshoq, ritmik va sintaktik silliqlikni saqlovchi vosita bo‘lsa, zamonaviy she‘riyatda u keskinlik, fragmentlik va semantik kutilmaganlik yaratishga xizmat qiladi. Anjambmang she‘riy nutqda

²¹⁹ Azim Suyun. Ziyo yo‘li. –Toshkent: Yosh gvardiya. 1986. – B. 15.

misra va sintaktik tuzilma o'rtasidagi nomuvofiqlik asosida yuzaga keladigan muhim lingvopoetik hodisa bo'lib, u poetik matnning ritmik, semantik va ekspressiv qatlamlarini faollashtiradi.

2. Anjambmangning turlari turli mezonlar asosida tasniflanadi: sintaktik uzilish darajasiga ko'ra (yumshoq va keskin), sintaktik birlik turiga ko'ra (fraz, so'z birikmasi va so'z darajasidagi), kompozitsion joylashuviga ko'ra (misralararo va bandlararo), hamda maxsus klassik shakllar sifatida rejet va kontre-rejet kabi ko'rinishlar ajratiladi.

3. Mazkur tasnif anjambmangning faqat formal-texnik hodisa emas, balki matnning ichki ritmik harakati, ma'no qurilishi va emotsional-intellektual ta'sirini shakllantiruvchi faol poetik mexanizm ekanini ko'rsatadi. Klassik she'riyatda anjambmang asosan sintaktik silliqlik va ohangdorlikni ta'minlashga xizmat qilgan bo'lsa, zamonaviy she'riyatda u fragmentarlik, semantik kutilmaganlik va ekspressiv keskinlikni kuchaytiruvchi yetakchi uslubiy vositaga aylangan. Shunday qilib, anjambmang turlarining ko'pligi va funksional rang-barangligi uning she'riy diskursda universal va ko'p qatlamli lingvopoetik hodisa ekanini tasdiqlaydi.

4. Anjambmang she'riy nutqda sintaktik va metrik chegaralarning mos kelmasligi natijasida yuzaga keladigan poetik hodisa bo'lib, u she'r ritmining shakllanishida faol ishtirok etadi. Anjambmang orqali misra oxiridagi metrik to'xtalish zaiflashtiriladi yoki bekor qilinadi, natijada o'quvchi diqqatida sintaktik oqim ustuvorlik kasb etadi. Bu holat ritmning faqat metrik takroriylikka emas, balki nutqiy dinamika va sintaktik intonatsiyaga ham tayangan holda tashkil topishini ko'rsatadi.

5. Anjambmang she'riy ritmni tezlashtiruvchi va uzluksizlashtiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi: sintaktik birlik misra chegarasidan oshib ketgani sababli pauza kuchsizlanadi, urg'u va intonatsion markazlar qayta taqsimlanadi. Shu yo'sinda anjambmang ritmni statik metrik sxemadan chiqarib, uni harakatdagi, jarayonli hodisa sifatida idrok etishga olib keladi.

6. Shuningdek, anjambmang ritmning ekspressiv variativligini kuchaytiradi. Metr saqlanib qolgan holda, anjambmang orqali ritmik kutilmalar buziladi va o'quvchida vaqtinchalik nomuvofiqlik hissi yuzaga keladi. Bu esa ritmni estetik jihatdan boyitib, she'riy nutqda semantik urg'ularni ko'chirish va mazmuniy kuchaytirish vositasiga aylanadi.

7. Umuman olganda, anjambmang va she'riy ritm o'rtasidagi munosabat antagonistik emas, balki funksional-dialektik xarakterga ega: anjambmang ritmni buzmaydi, balki uni moslashuvchan, nutqiy va ekspressiv tizim sifatida qayta tashkil etadi. Shu sababli anjambmang she'riy ritmning tirikligi va individual ijodiy tabiatini namoyon etuvchi muhim poetik mexanizm sifatida talqin qilinadi.

8. Anjambmang she'riy nutqda faqat formal-metrik hodisa emas, balki chuqur semantik va pragmatik funksiyalarga ega bo'lgan ko'p qatlamli poetik mexanizmdir. U semantik darajada ma'no kechiktirilishi, fokusni ko'chirish va polisemantik

ochilishni ta'minlasa, pragmatik darajada o'quvchi idrokini boshqarish, diskurs segmentatsiyasini qayta tashkil etish va emotiv-ekspressiv ta'sirni kuchaytirish vazifalarini bajaradi. Shu bois zamonaviy poetika va lingvopoetikada anjambmang mazmun va kommunikativ strategiya tutashgan nuqta sifatida baholanadi.

9. Anjambmang she'riy satr va sintaktik butunlik o'rtasidagi nomuvofiqlik orqali mazmunni qatlamlashtiradi. Fikrning keyingi misraga ko'chishi semantik kutilmaganlikni yuzaga keltirib, obraz va g'oyaning chuqurroq idrok etilishiga xizmat qiladi.

10. Anjambmang sintaktik markaz va semantik yadro o'rtasidagi muvozanatni buzib, muhim leksik birliklarni misra boshi yoki oxirida alohida urg'u bilan ajratib ko'rsatadi. Natijada ma'no markazi satr chegarasida emas, balki sintaktik davomda shakllanadi.

SOLETSIZM VA ANJAMBMANGNING QIYOSIY VA INTEGRATIV TAHLILI

Ikkala fenomenning umumiy poetik mexanizmlari

Soletsizm – sintaksis qoidasini buzish hisoblanadi. Soletsizm – bu odatda til qoidalarining sintaktik yoki grammatik buzilishini ifodalovchi termindir: jumla tuzilishi, so'z tartibi yoki an'anaviy sintaksis me'yoriga zid iboralar paydo bo'ladi. Aslida lingvistik ma'noda soletsizm tilning struktur qoidalariga zid bo'lgan konstruksiya sifatida qaraladi²²⁰. She'riyatda esa bu atama ko'pincha poetik ijozat bilan bog'lanadi, ya'ni shoir til qoidalarini aniq ma'noda tashlab, estetik yoki semantik ta'sir uchun ataylab sintaksis "xatolik" hosil qiladi²²¹. Soletsizm turlari: 1. Sintaktik soletsizm – gap tuzilishida xatolik. 2. Morfologik soletsizm – so'zlarning shakli yoki qo'shimchalari noto'g'ri qo'llanadi. 3. Semantik soletsizm- so'zlarning ma'nosi yoki mantiqi buziladi. Ba'zan adabiy asarlarda qahramonning tilini jonli qilish yoki ijtimoiy qatlamini ko'rsatish uchun ataylab soletsizm ishlatiladi. Soletsizm – bu grammatik xato bo'lishi mumkin, lekin ba'zan uslubiy vosita sifatida ham ishlatiladi. U nutqda e'tiborli bo'lishni talab qiladi.

A.Yassaviy hikmatlaridan birida shunday deyiladi:

*Tariqatga shariatsiz kirgonlarni
Shayton kelib imonini olur ermish.
Ushbu yo'lni pirsiz da'vo qilg'onlarni
Sarson qilib aro yo'lda qo'yar ermish²²².*

²²⁰ Wikipedia contributors.Solecism.-I: Wikipedia:The Free Encyclopedia.–San Francisco; 2025.URL: <https://en.wikipedia.org/wiki/Solecism>

²²¹ Brill Reference Works.Reference Works.brill.com.–Leiden/Bo 'ston:Brill,2025.URL:https://referenceworks. Brill.com

²²² Yassaviy A. Devoni hikmat.– Toshkent: Fan,1966.172 b.

She'riy misralarda -gan o'tgan zamon sifatdoshi -gon, -g'on; emish to'liqsiz fe'li *ermish*; olar fe'li *olur* tarzida qo'llangan. Hazrat Yassaviy kishini fikrlashga, insofga chorlaydi. Insofga kelmoq, vijdonga muvofiq yashamoq uchun o'ylab ko'rish, haq yo'lni nohaqdan ajratib olish lozimligini uqtiradi. Buning uchun odam juda bo'lmasa, o'z yaqinlari taqdiriga nazar tashlashi, ulardan xulosa chiqarishi lozimligini ta'kidlaydi:

Oto-ono, qarindosh, qayon ketti, fikr qil,

*To'rt ayog'lig' cho'bin ot bir kun sanga yetaro*²²³.

Valiy shoir o'z qarashlarini bayon etibgina qolmay, balki fikrlarining esdan chiqmaydigan, xotiraga mixlanib qoladigan, kutilmaganda yodga tushadigan shaklda ifodalanishiga ham e'tibor qiladi. Buning uchun g'oyat musiqiy tarzda tugallanuvchi qofiya, to'rt oyoqlik yog'och ot singari she'riy unsurlardan ustalik bilan foydalanadi. "*Oto-ono*", "*ketti*", "*ayog'lig'*", "*sanga*", "*yetaro*" so'zlari ham eski turkiy tilning norma qoidalariga mos keladi. Yassaviy hikmatlarida qattiq tanqid qilinadigan narsalardan biri nafsdir. Inson tan va ruhdan tashkil topadi. Nafs tanning o'z huzur va ehtiyojini aql nazoratisiz qondirish istagidir. Shuning uchun xalqda: "Mening nafsim balodur, yongan o'tga solodur", degan gap bor. Nafs kishini insonlikdan chiqarib, hayvonlikka boshlaydigan illatdir. So'fiylikning eng muhim odoblaridan biri nafsni jilovlashdir. Shu sababli, hikmatlarda bu mavzuga katta o'rin beriladi: *Nafsim mani yo'ldan urib xor ayladi, / Temulturib xaloyiqqa zor ayladi. / Zikr ayturmey, shayton birla yor ayladi, / Hozirsan deb nafs boshini yanchdim ma'no*²²⁴.

Nafs – insonning eng katta dushmani. Uni yengmaguncha insonlikni ta'min etib bo'lmaydi. Nafs – zolim. Shoir uni shunday talqin qiladi. Bu da'voda asos bor. Tanning o'z huzur-halovati yo'lidagi intilishi egasining ruhiyatiga jabrdir. Shunday paytda: "Alloh degil!"– deydi muallif. Agar sen nafsingga itoat etmasdan, Allohga bo'ysunsang, u, albatta, madadkor bo'ladi, chunki u hamma narsaga qodir. Yuqoridagi misralarda "meni" kishilik olmoshi "*mani*"; "termiltirib" holat ravishdoshi "*termulturib*"; "ayttirmey" holat ravishdoshining bo'lishsizlik shakli "*aytturmey*"; "bilan" sof ko'makchisi "*birla*" shaklida qo'llangan. Bu turdagi buzilishlar she'riy ifoda vositalaridan biri sifatida ishlatilganda, u ma'noni kuchaytirish, ritmik o'ziga xoslik yaratish yoki o'quvchi e'tiborini ma'lum so'z yoki frazaga qaratish funksiyasini bajaradi²²⁵. Poetik kontekstda soletsizmning funksiyalari mavjud. Semantik kutilmaganlik yaratish: grammatik qoidalar buzilganda o'quvchi e'tibori so'z o'yinlariga, metaforik ma'nolarga yo'naltiriladi. Ritm va ohang shakllantirish sintaktik qoidalardan chetga chiqish she'riy ritmni qayta belgilaydi va ovoz estetikasini o'zgartiradi.

²²³ Yassaviy A. Devoni hikmat.– Toshkent: Fan,1966.172 b.

²²⁴ Yassaviy A. Devoni hikmat.– Toshkent: Fan,1966.172 b.

²²⁵ Brill Reference Works.Reference Works.brill.com.–Leiden/Bo'ston:Brill,2025.URL:<https://referenceworks.brill.com>

Lutfiyning gʻazallarida baytlar yengil kayfiyat, ayrica bir ishqiy zavq bilan oʻqiladi: *Ishq oʻtida Lutfiy yuzi oltunni yoshurdi Ey siymbarim, xoh inon, xoh inonma*²²⁶. Oyning oqligi bilan siym, yaʼni kumushning oqligi oʻrtasida vobastalik bor. Bu ikki qoʻshmisra aro yana bir mutanosiblikni sezmaslik mumkin emas. Lirik qahramon gʻazaldagi maqsad-muddaosidan kelib chiqib, oʻz yuzi haqida ham unga eslatib qoʻyishni unutmaydi: Lutfiyning yuzi azbaroyi hijron azobini chekaverganidan sargʻayib ketib, oltinni yashiradigan darajaga yetdi, yaʼni shunchalik sargʻaydiki, buning oldida tilloning sariqligi hech narsa boʻlmay qoldi. Baytda “*oltun*”, “*yoshurdi*”, “*inon*”, “*inonma*” kabilar ham soletsizm hisoblanmaydi.

Lutfiyning har bir baytida bittadan maqol keltirilgan gʻazali “*Ayoqinggʻa tushar har lahza gisu*” gʻazali hazaji musaddasi mahzuf vaznida yozilgan. Matlaʼ nihoyatda goʻzal, Lutfiyga xos lutf bilan qogʻozga tushgan: har lahza soching oyogʻing ostiga tushadi, shuning uchun, maqolda aytilganidek, “*Chirogʻ tubi – qorongʻu*”. Bu yerda yorning yuzi aytilmagan holda oppoq nur taratib, yonib turgan chiroqqa qiyoslanyapti:

Ayoqinggʻa tushar har lahza gisu

Masaldurkim: “Charogʻ tubi – qorongʻu”²²⁷.

Gʻazaldagi “*ayoqinggʻa*” soʻzida “*ayoq*” soʻzi va “*gʻa*” joʻnalish kelishigi leksik va grammatik soletsizmni aks ettirgan. Ikkinchi va uchinchi baytlarda yorning yuzi tasvirlanadi. Toʻrtinchi baytda tasvir yuzdan koʻzga oʻtib oladi. Lirik qahramonning yor koʻzi oshiq qonidan iymanmayotgani, yaʼni qoʻrqmayotganiga ajablanayotgani bejiz emas, axir: “*Hindi qayda qon koʻrsa, qoʻrqadi*” degan maqol bor edi-ku! Bu yerda “*koʻzing – hindi*” deyilayotgani yoʻq, lekin koʻz tasviri bilan maqolda “*hindi*” soʻzi kelishi zimdan shuni yuzaga chiqazgan:

Koʻzing qonimdin iymanmas, ajabtur,

Ki: “Qoʻrqar, qaydakim qon koʻrsa, hindu”.

Bu baytda chiqish kelishigi “*din*” shaklida qoʻllanib soletsizm namoyon boʻlgan.

Soletsizmda poetik ijozat vositasi til “qoidalarini buzish” orqali shoir oʻz ifoda darajasini oshiradi va uslubiy shaxsiylikni kuchaytiradi. Soletsizm atamasi sintaksis qonunlarini buzuvchi iboralar uchun keng qoʻllanadi, lekin adabiyot tahlilida u koʻpincha poetik effektni koʻrsatish uchun ijozat sifatida qabul qilinadi²²⁸:

Qoshi yosinmu deyin, koʻzi qarosinmu deyin,

Koʻnglima har birining dard-u balosinmu deyin?!

²²⁶ Lutfiy. Hohi inonma. Gʻazal. Tanlangan sheʼrlar.–Toshkent: Gʻ. Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1985

²²⁷ Lutfiy. Tanlangan sheʼrlar.–Toshkent: Gʻ. Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1985.

²²⁸ Brill Reference Works. Reference Works. brill.com.–Leiden/Boʻston: Brill, 2025. URL: <https://referenceworks.brill.com>

Ko'zi qahrinmu deyin, kirpiki zahrinmu deyin,

*Bu kudurat ora ruxsori safosinmu deyin*²²⁹?!]

[“Navodir ush-shabob”ning 483-gʻazali].

Bir qarashda, gʻazal boshqa ishqiy mavzudagi lirik sheʼrlardan keskin farq qilmagandek, oshiq maʼshuqaning, odatdagidek, chiroyini turli uzvlari, yaʼni qoshi, koʻzi, sochi, yuzi, labidan chiqqan soʻzlar va kiyimi, yaʼni moviy koʻylagi, gulrang toʻni taʼrifi orqali tasvirlab, ishqiy iztiroblarini bayon etayotgandek tuyuladi. Biroq aslida, buyuk shoir qalamining qudrati bilan ana shu soʻz va qiyoslar zahirida ajib bir badiiy goʻzallik yashiringan. Bu oʻquvchida ayricha zavq-shavq uygʻotadi. Gʻazalda “mi” soʻroq yuklamasi “mu”; “koʻnglima” soʻzida “ga” joʻnalish kelishigi “a”, “kiprigi” soʻzi “kirpigi” tarzida qoʻllangan.

Anjambmangda fikr sheʼr satrining chegarasidan oshib, keyingi qatorlarga oʻtib ketadi. Sheʼrga tabiiy oqim beradi, gaplar sunʼiy yoki zoʻrlab tugatilmaydi. Tuygʻu va dramatik ohangni kuchaytiradi. Oʻquvchining eʼtiborini keyingi satrga tortadi, uni fikrini maromiga yetkazadi. Ana shunday sheʼrlarida tabiiy oqim, dramatik ohang oʻz ifodasini topgan isteʼdodli shoir Choʻlpondir. Uning dastlabki asarlaridayoq bosqinchilar zulmi ostida ezilayotgan Turkiston xalqiga boʻlgan cheksiz muhabbat yorqin koʻrinib turadi. Shoir xalqini ozod va baxtli koʻrishni istaydi. Buning uchun odamlarni jaholat uyqusidan uygʻotish, maʼrifatdan, ilm-u fandan bahramand qilish kerak deb hisoblaydi. Erksiz maʼrifatning, maʼrifatsiz erkning boʻlmasligi shoirga ayon edi. Milliy zulm ostida ezilayotgan xalqning zabun holini aks ettirish va xalqni bunday holatdan qutqarish istagi Choʻlpon ijodining bosh yoʻnalishi boʻlib qoldi: *Xalq qoʻzgʻalsa, kuch yoʻqdirkim, toʻxtatsin, / Quvvat yoʻqkim, xalq istagin yoʻq etsin. // Xalq isyoni saltanatni yoʻq qildi, / Xalq istadi, toj va taxtlar yiqildi*²³⁰...

Anjambmang – satr chegarasini yengib oʻtishdir. Anjambmang – sheʼriyatda satr oxiridagi sintaktik yakunlanmaslik holati. Yaʼni bir satrda fikr toʻxtamaydi, u keyingi satrga uzluksiz oʻtadi. Anjambmang “qadam tashlash”, “oʻtib ketish” maʼnosini bildirib, mantiqiy birlik – gap, fraza satr chegarasida toʻxtamaydi, balki keyingi satrga choʻziladi. Bu holat sheʼrdagi pauza va davomiylik oʻrtasidagi qarama-qarshilikni kuchaytiradi, chunki oʻquvchi satr soʻzlarini toʻliq mazmunsiz qoldirib keyingi satrga qarashi kerak boʻladi. Gʻ. Gʻulom sheʼrlarida elga xizmat qilishning muayyan sohalari xususida falsafiy mushohadalar yuritib, konkret ilmiy xulosalar chiqarishda koʻrinadi. “Kulol va zargar” sheʼrida elga xizmat qilishning kamtarona koʻrinishi boʻlgan kulol mehnatining mohiyati teran falsafiy mushohadalar vositasida quyidagicha yoritib berilgan:

²²⁹ Navoiy A.Xazoyin ul-maoniy . Navodir ush-shabob. –Toshkent: Gʻ.Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti,1963-196

*Otang yasar edi sopol piyola,
Xalq uchun xizmat bas,
Na shuhrat,
Na nom.*

*U yasab bermagan qon yoshga to'la
Iskandar, Dorolar uchun oltin jom.
Otang o'z charxida do'ndirgan tovoq
Ming-ming kishilarni suvga qondirgan²³¹.*

G'. G'ulomning tasvirni obrazli bo'yoqlarda berishga ishtiyoqi ham 1920-yillardagi o'z uslubini izlash yo'lidagi harakatlar sanaladi. "Rasm egasi" she'rida mulohaza shunday: agar rasmdan qarab turgan qizning qoshi yoki ko'zi qimirlab ketsa, unga qarab turgan yigit qanday ahvolga tushishi aytilgan, xolos. Ammo bu holat poetik matnda qanday tasvir etilgan? Bunda endi shoirning bir qadar ijodiy ulg'ayganiga, badiiy mahoratning tobora yuksala borayotganiga tan bermaslikning iloji bo'lmaydi:

*Shu qoshlar o'ynoqlab ketsalar,
Yana ko'p termulish gunohi qoplaydi yigitni,
Shu ko'zlar javdirab qo'zg'ala ketsalar,
Telbalik chulg'aydi sukutni.*

Anjambang usulida yozilgan ushbu she'rda manzarani, holatni shoir chizganday qilib tasavvur etadigan bo'lsak, rasmdan qarab turgan qizning qoshlari shunchaki qimirlamasdan, o'ynab, o'ynoqlab ketsa, unga qarash emas, termulishdan o'zini tiya olmagan yigit gunohga botishi mumkin. Agar qizning ko'zlari ham harakatga kelib qolsa, qo'zg'alsa, qo'zg'alganda ham javdirab qo'zg'alsa, jimlik, sukunat buziladi, shoir ta'biri bilan esa telba bo'ladi. To'rt misraning o'zida ham G'. G'ulomga xos bo'lgan yengil yumor, ham tasvirni g'ayriodatiy tarzda berish, ham mubolag'a bor. Bularning barchasi jamuljam bo'lib, ajoyib badiiy manzarani yuzaga keltirmoqda. Elning tilaklarini amalga oshirish yo'lida fidoiylilik qilib, dunyoda ezgu nom qoldirishga intilish G'.G'ulom poeziyasida ham o'zining ko'pdan ko'p qirralari bilan keng yoritiladi. Ammo uning she'rlaridagi mavzu va mazmun Alisher Navoiy she'rlariga birmuncha yaqin bo'lsa-da, ular jiddiy farqlar, novatorlik xususiyatlaridan ham xoli emas. Bu narsa, birinchi navbatda, yangi bir iqtisodiy-ijtimoiy jamiyatda yashagan.

²³¹ G'.G'ulom. Asarlar.V tomlik. 2-tom. – Toshkent, 1964, –B 352-353.

Mirtemir millat turmush tarzi, dunyoqarashi va orzu-intilishlarining betakror qirralarini o'zga ijodlardan farqli xalqona bir yo'sinda o'zbek badiiyatiga olib kirgan hassos, donishmand shoir. She'riyatda so'zning inja ma'no nozikliklari, qadim va turkiyona mavqelari qad rostlab, shoirning fusunkor, zakiy hikmatlariga xizmat qiladi. Mirtemirning "Men seni injitmayman" she'ri shoirning turmush o'rtog'i Yorqinoyga, turkistonliklar tili bilan aytganda, To'rash kelin oyiga bag'ishlangan. Gap shundaki, 1960-yilda qardosh yozuvchilar o'rtasida adabiy aloqalarning yaxshi yo'lga qo'yilgani bois Mirtemir qirg'iz yurtiga borib, qardosh yozuvchilarning mehmoni bo'lgan va shu yerda o'zining "Qirg'iz she'rlari" turkumini yoza boshlagan. O'zbekona tanti tabiatli shoir biror joyga garchand menmon bo'lib borgan bo'lsa-da, ko'proq mehmonlarga dasturxon yozish va ular ko'nglini olishni sevgan. Bunday paytlarda shoirning sayohatga birga borgan rafiqasiga aslo tinim bo'lmagan:

Men seni injitmayman

Va lekin tinchitmayman...

Charx urib, bo'z to'r'ayday bo'zlashim bor boshingda

Ey, sochlaring to'lqini tun singari sim-siyoh,

Xol kabi paydo bo'lgum yonog'ing yo qoshingda

*Ey, izlaring g'ubori ko'zlarimga to'tiyo*²³²...[Mirtemir]

Shoir rafiqasi uchun saratonda sel bo'lib lolazor yaratishi, qahratonda yel bo'lib, gulning atrini taratishi, yo'l yurib cho'llab qolsa, buloqday shildirashi, dasht tomon yo'l olsa, o'tloq bo'lib yastanishini chuqur hissiyot bilan tasvirlaydi.

Anjambmangning poetik va kognitiv funksiyalari mavjud. O'quvchi e'tiborini boshqarish: satr chekasida ma'no yaralmasdan davom etish, o'quvchini keyingi satrga "itara"di - bu qiziqishni oshiradi. Mirtemirning ijodiy qiyofasini belgilaydigan, uni o'zbek kitobxoni uchun ardoqli qilgan narsa – uning she'riyati. Mirtemir samimiy tuyg'ularni, nozik kechinmalarni sodda va tushunarli ifodalay oladigan san'atkor. Muallif nutqining his-tuyg'uga boyligi, individual emotsional bo'yoqning ustunligi, nutqning ma'lum ritmik qonuniyatga mosligi, o'ziga xos intonatsiyaga egaligi, pauzaning ko'pligi nasriy she'rning muhim xususiyatidir. Unda ba'zan alohida so'z bir yoki bir necha gapga teng keladi. Ko'p hollarda gap yoki so'zlar so'roq, undov ohangiga ega bo'ladi. Oybek, Usmon Nosir, Mirtemir va boshqa shoirlar ijodida bunday she'rning namunalari ko'rish mumkin. Anjambmangda musiqiy ritm yaratish gapning uzluksizligi she'r ritmini yumshoq va oqimli qiladi, ohangni keskin to'xtatmaydi²³³. Semantik qulaylik yaratish satr

²³² To'xliyev B., Shermurodov T., Isayeva Sh. Adabiyot.III qism.—Toshkent:Cho'lp on nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.2010. —B .289.

²³³ Study Darter UK. Online Learning and academic resources Platform.—UK:Study Darter. 2025.URL:<https://www.studydarter.co.uk>

bo‘ylab to‘lqinlanish ma’noni qatlamlashtiradi va kontekstual noaniqliklar hosil qilishi mumkin, bu esa interpretatsiya jarayonini boyitadi. Mirtemir ijodining dastlabki davridanoq izlovchi shoir sifatida taniladi. U davrimizning mazmuni keng ekanini, bu mazmunni ifodalash uchun yangi-yangi shakllar zarurligini yaxshi tushunadi. Shuning uchun u sochma she’rlarga ham murojaat qiladi, ularda qalbini to‘ldirgan hislarni ifodalashga urinadi. Ammo bu sochmalarning ko‘pchiligiga chuqur fikr, salmoqli umumlashmalar mavjud. Shoir tabiat manzaralarini juda nozik did bilan tasvirlagani holda, ularni hayot haqidagi o‘ylar, falsafiy qarashlar bilan boyitadi. Katta ijtimoiy masalalarga bag‘ishlangan sochmalarida ham ko‘pincha ma’lum haqiqatlarni takrorlaydi. Uning atrofida navqiron hayot jo‘sh urib toshmoqda, har kuni bir yangilik, bir mo‘jiza yaratib, qaynamoqda. Mirtemirning yonida hali hech kim yurmagan yangi poeziya yo‘nalishini o‘zbek she’riyatida boshlab berdi. 1930-yillarning boshida u maktablarda dars beradi, so‘ng Respublika gazetalari va jurnallarida ishlaydi. Bu shoirga har qanday poeziyaning birdan - bir manbayi bo‘lmish real hayotni chuqurroq o‘rganish, uning mohiyatini chuqurroq tushunish imkonini beradi. Mirtemir rus poeziyasidan, ayniqsa, o‘sha yillari taniqli rus shoirlari M.Svetlov, A. Bezimenskiy ijodidan ko‘p narsa o‘rganadi. Shoir Mayakovskiy asarlarini qiziqib o‘qiydi, ularning ichki sirini o‘zlashtirishga urinadi. Natijada Mirtemir she’rlarida yangi xususiyatlar paydo bo‘ladi. Ularning tematikasi yanada kengayadi, avvalgi mavhum obrazlar o‘rnini aniqlik, yangi poetik detallar egallay boshlaydi. Ayniqsa, shoirlar va ma’lum haqiqatlar o‘rniga hayotning falsafiy ma’nosini qidirish, uning murakkabligini tushunish va targ‘ib etish namoyon bo‘ladi. Mirtemir she’rlari o‘zbek she’riyatini har jihatdan boyitgan mazmunan teran va badiiy yuksak namunalardir. Ularda tabiat va inson hayotining xilma-xil ko‘rinishlari, taassurot va kechinmalari g‘oyat topqirlik va nozirlik bilan aks ettiriladi. Shu ma’noda muxlislar Mirtemirni lirik shoir deb biladilar va qadrlaydilar. Uning tabiat hodisalarini kuzatish orqali teran falsafiy xulosalar, go‘zal qiyoslar, betakror obrazlar yaratish mahorati XX asrning 50-60-yillarida yozgan “Bulut” va “Shudring” nomli she’rlarida yaqqol seziladi.

Mirtemirning “Shudring” she’rida sarlavhadan boshqa she’rning biror misrasida shudring so‘zini uchratmaymiz. Shoir faqat tasvir, o‘xshatish, qiyoslash, jonlangan tasavvurlar orqali tabiatning shudring deb nomlangan yana bir bag‘oyat nozik va go‘zal hodisasini aks ettiradi. Bu she’r ham bolalik xotiralari bilan hayotiy kuzatishlarning uyg‘unligi asosida qurilgan:

Yaltirar suyri tepa,

Yaltirar qir uzunchoq,

Kelinlar taqinchog‘i,

Uzuk ko‘zlarimi yo.

Chor atrof sabzalarda

Jimir-jimir ko‘zmunchoq,

Bo'y-bo'y dilrabolarning

Suzuk ko'zlarimi yo?

Chor atrofda bahoriy iliqlik kezgan nahor pallasi-erta tongda qishlog'idagi jar ustiga qurilgan osma ko'priklardan o'tib, o't-o'lanlari toptalmagan qirlarga oshiqadi. Undagi ko'katlar bargida, nihollar kurtagida, g'oya yaproqlarida dur-marvarid misol yaltirab, jilvalanib turgan shudringni kuzatadi. Uning jilvalaridan lol bo'lib, yana boshqa o'xshatishlar topadi. Xususan, kelinlar taqinchog'iga, uzuk ko'zlariga, ko'zmunchoqqa, qizlarning suzilib turgan ko'zlariga qiyoslaydi. Va nihoyat, juda o'ziga xos ramzlarga ishora qilib, shunday beqiyos obraz yaratadi:

Yo'q, bu giryon ko'zlarning yarqiroq zamzamasi,

Kechasi onam tag'in yig'labdi-da chamasi...

Shoir fikrni rivojlantirib, shudringni ko'z yoshlarga o'xshatadi. Ko'z yoshlari dona-dona bo'lib to'kilganda, yaltirab ketadi. Odatda, kimnidir intiqlik bilan kutayotgan odamning ko'zlari to'rt bo'ladi. Kuta-kuta toqati toq bo'lgach, yo sog'inch, yo o'kinishidan ma'yus tortib, dona-dona yosh to'kadi. Shudring ana shu ko'z yosh to'kuvchi kimsa bu – ona. Onaning munis-mushfiq mehribonligini nazarda tutib tabiatni ham ona deymiz. Shudring ana shu ma'noda ona, ya'ni tabiatning ko'z yoshi degan nihoyatda nozik bir o'xshatish topadi shoir. Bu juda o'ziga xos, o'ta nafis kuzatish. Mirtemir anjambmangdan foydalanib, xayolot dunyosi keng, butun olamga o'z nigohi bilan qaraydi va haqiqiy musavvirga aylanadi. Shoir ana shunday san'atkor shoir, so'z ustasi edi. Uning ijodiy merosida anjambmangning yaqqol ko'rinishlari mavjud.

Anjambmang she'riyatning ritmik, semantik va fonetik qatlamlarini bog'laydigan asosiy poetik vositalardan biri hisoblanadi. Anjambmangda yozilgan "Qarsak" she'ri fikrimiz dalilidir:

Qarsak nima o'zi?

Arzimagan gap

Kerak bo'lganida topilar qoplab²³⁴.

Soletsizm va anjambmangning umumiy poetik mexanizmlari mavjud.

Ikkala fenomen tilni an'anaviydan chetlashtirish orqali she'riy ifodani kuchaytiradi, biroq har biri turlicha mexanizm va effekt beradi.

Mexanizm	Soletsizm	Anjambmang
Tilga nisbati	Grammatik qoidalarni buzish/sintaksis yanglishligi	Satr chegarasida fikrning uzluksiz davom etishi

²³⁴ Rahmon Sh. Gullayotgan tosh. –Toshkent:Yosh gvardiya, 1985.– B.19

Poetik funksiya	Emotsional yoki stilistik ogʻirlik, digressiya	Ritm, oqim va kutilgan puza manipulyatsiyasi
Ma'noga ta'siri	Kutilmagan semantik yorilishlar, yangi ifoda	Ma'no oqimining uzluksizligi, interpretativ ziddiyat
O'quvchi idrokida	Oddiy sintaksisdan qochish o'quvchi e'tiborini jalb qiladi	Satrlarda pauza yoki uzilish hissini boshqaradi

Poetik litsenziya – bu adabiyotda she'riy shakl va mazmunni erkin ifodalash uchun til qoidalaridan chetga chiqish huquqi²³⁵. Shoirlar muayyan ohang, ritm yoki semantik effekt uchun sintaksis, leksika yoki grammatik shakllarni normadan tashqariga chiqarishi mumkin – bu she'riyatning uslubiy boyligini ko'rsatadi. Anjambmangning she'riy tarjimasida qanday murakkabliklar keltirishi haqida tahlil – bu uslubning ovoz estetikasiga ta'siri haqida chuqur ilmiy yondashuvni ko'rsatadi²³⁶.

Soletsizm – sintaksis va grammatik normalardan qasddan yoki natijaviy tarzda chetga chiqish bo'lib, bu she'riy ifodaning stilistik kuchini oshiradi va poetik ijoratning bir qismidir²³⁷. Anjambmang – satr chegarasini “yengib o'tib”, ma'noni keyingi satrda davom ettiruvchi qurilish bo'lib, o'quvchida ritmik, semantik va estetik dinamika hosil qiladi.

Har ikkala fenomen - poetik tilning qoidalarini o'ziga xos tarzda manipulyatsiya qilish orqali o'quvchi idrokini faol va murakkabroq qiladi, she'riyat estetik tajribasini chuqurlashtiradi.

Anjambmang va soletsizmning umumiy poetik mexanizmlari.

1. Normadan ongli og'ish mexanizmi. Anjambmang ham, soletsizm ham poetik nutqda til va she'riy norma buzilishiga asoslanadi, biroq bu buzilish xatolik emas, estetik maqsadga yo'naltirilgan ongli strategiyadir²³⁸. Anjambmangda sintaktik birlik (jumla yoki so'z birikmasi) she'riy misra chegarasiga sig'maydi, soletsizm esa grammatik, morfologik yoki sintaktik norma ataylab buziladi. Har ikkisi norma va og'ish qarama-qarshiligi orqali poetik ta'sirni kuchaytiradi²³⁹.

2. Sintaktik va ritmik ziddiyatni yuzaga keltirish mexanizmi. Anjambmang ritmik segmentatsiya bilan sintaktik butunlik o'rtasida ziddiyat hosil qiladi. Soletsizm esa sintaktik kutilmalarning buzilishi orqali shu ziddiyatni kuchaytiradi²⁴⁰. Natijada o'quvchi nutqning odatiy oqimini emas, parchalanib,

²³⁵ Encyclopedia Britannica Online.-Chikago:Encyclopædia, Inc,1768.URL:https://www.britannica.com

²³⁶ DergiPark.Turkish Academic Journals Platform.–Ankara,Turkey:DergiPark, 2025.URL: https://dergipark.org.tr

²³⁷ Brill. Reference Works.Reference Works.brill.com.–Leiden/Bo 'ston:Brill,2025.URL:https://referenceworks. Brill.com

²³⁸ Jakobson R. Linguistics and Poetics. – Cambridge: MIT Press, 1960.

²³⁹ Mukarovskiy J. Estetická funkce, norma a hodnota. – Praha, 1936.

²⁴⁰ Лотман Ю. Анализ поэтического текста. – Ленинград, 1972. – 200 с..

qarshilik bilan kechadigan idrok jarayonini boshdan kechiradi. Bu mexanizm poetik diskursni dinamik va dramatik qiladi²⁴¹.

3. Semantik ko'pqatlamlilikni faollashtirish mexanizmi. Anjambmang ma'noni misra oxirida vaqtincha to'xtatib, keyingi misrada davom ettiradi²⁴²; soletsizm esa grammatik noaniqlik orqali ma'noni bir nechta talqinga ochiq holga keltiradi. Shu tariqa har ikkisi semantik kechiktirish (retardatsiya) va ko'pqatlamli ma'no hosil qilish mexanizmini ishga soladi²⁴³.

4. Pragmatik ta'sirni kuchaytirish mexanizmi. Anjambmang va soletsizm o'quvchini faol interpretatorga aylantiradi. Chunki buzilgan struktura avtomatik idrokni buzib, matnni qayta o'qishga majbur qiladi²⁴⁴. Bu holat poetik nutqda pragmatik intensivlikni oshiradi: o'quvchi nafaqat mazmunni, balki buzilish sababini ham anglashga urinadi²⁴⁵.

5. Ekspressivlik va emotsional urg'uni kuchaytirish mexanizmi. Anjambmang pauzaning noodatiy joylashuvi orqali emotsional urg'u yaratadi²⁴⁶; soletsizm esa "noto'g'ri" shakl orqali nutqni tirik, keskin va individual qiladi²⁴⁷. Har ikkisi poetik matnda emotsional intensivlikni maksimal darajaga olib chiqish mexanizmi sifatida xizmat qiladi.

6. Poetik diskursni yangilash mexanizmi. Anjambmang va soletsizm poetik nutqni avtomatlashuvdan chiqarib, diskursni yangilovchi vosita vazifasini bajaradi²⁴⁸. Ular orqali shoir mavjud poetik an'anani buzadi, lekin shu buzilish orqali yangi estetik me'yorni taklif qiladi²⁴⁹. Anjambmang va soletsizmning umumiy poetik mexanizmlari normadan ongli og'ish, sintaktik-ritmik ziddiyat, semantik ko'pqatlamlilik, pragmatik faollik, ekspressivlik va diskursni yangilash tamoyillariga tayanadi. Shu bois ular poetik nutqda strukturaviy buzilish emas, balki estetik ishlab chiqarish mexanizmi sifatida talqin qilinadi.

Anjambmang va soletsizmning umumiy poetik mexanizmlari quyidagi turlardan iborat:

1. Diskretlik va uzluksizlik o'rtasidagi taranglik mexanizmi. Anjambmang misra chegaralarini diskret birlik sifatida yemiradi²⁵⁰, soletsizm esa grammatik uzluksizlikni buzadi. Har ikkisi poetik nutqda diskret (bo'laklangan) va uzluksiz

²⁴¹ Жирмунский В. Введение в теорию стиха. – Ленинград: Академия, 1925.-В. 13-14.

²⁴² Empson W. Seven Types of Ambiguity. – London, 1953.

²⁴³ Щерба Л.В. Опыты лингвистического анализа. – Ленинград, 1957.– 320 с.

²⁴⁴ Austin J. How to Do Things with Words. – Oxford, 1962.

²⁴⁵ Leech G. Principles of Pragmatics. – London, 1983.

²⁴⁶ Bally Ch. Traité de stylistique française. – Paris, 1909.

²⁴⁷ Виноградов В.В. О языке художественной литературы. – Москва: Гослитиздат. 1959.– 400 с..

²⁴⁸ Шкловский В. Б. О поэзии и заумном языке. - Сб. по теории поэтического языка. Пг. 1919.– с.хх-хх..

²⁴⁹ Todorov T. Poétique. – Paris, 1973.

²⁵⁰ Лотман Ю.М. Структура художественного текста. – Москва, 1970.–176 с..

(kontinuum) strukturalar o'rtasida taranglik hosil qiladi²⁵¹. Bu mexanizm she'riy matnni oddiy chiziqli oqimdan chiqarib, strukturaviy notekislikni estetik qiymatga aylantiradi.

2. Kognitiv dissonans hosil qilish mexanizmi. Anjambmang o'quvchining sintaktik prognozini vaqtincha noto'g'ri yo'naltiradi²⁵², soletsizm esa grammatik kutishlarni buzadi. Natijada poetik idrokda kognitiv dissonans yuzaga keladi²⁵³. Bu dissonans o'quvchini ma'noni qayta modellashtirishga majbur qilib, estetik qoniqishni kuchaytiradi.

3. Avtoreferensiallikni kuchaytirish mexanizmi. Anjambmang va soletsizm poetik nutqni o'z-o'ziga ishora qiluvchi holga keltiradi²⁵⁴: O'quvchi "nima deyilgan?"dan tashqari "qanday deyilgan?" savoliga majbur bo'ladi. Shu tariqa matn mazmun bilan bir qatorda o'z strukturasi haqida ham signal beradi, ya'ni avtoreferensial mexanizm ishga tushadi²⁵⁵.

4. Poetik vaqtni deformatsiya qilish mexanizmi. Anjambmang pauza va davomiylilikni noodatiy joylashtirib, poetik vaqtni cho'zadi yoki uzadi²⁵⁶; soletsizm esa grammatik kechikish orqali vaqtning sintaktik sezilishini buzadi²⁵⁷. Natijada she'riy matnda ichki vaqt real nutq vaqtidan ajralib chiqadi.

5. Poetik subyektivlikni konstruksiya qilish mexanizmi. Soletsizm orqali "me'yordan chetga chiqqan" nutq subyektiv ovoznı individıuallashtiradi²⁵⁸; anjambmang esa nutqning to'xtab – davom etuvchi harakati orqali ichki kechinma dinamikasini ifodalaydi²⁵⁹. Shu tariqa har ikkisi lirik subyektning psixologik holatini struktura orqali modellashtiradi.

6. Ikki darajali kodlash mexanizmi. Anjambmang va soletsizm bir vaqtning o'zida ikki kodda ishlaydi: til/grammatika kodi, poetik/estetik kodi²⁶⁰. Til darajasida buzilish bo'lgan joy poetik kod darajasida ma'no ishlab chiqaradi²⁶¹. Bu mexanizm poetik nutqning ko'p kanalliligini ta'minlaydi.

7. Poetika va retsepsiya o'rtasidagi interaktiv mexanizm. Anjambmang va soletsizm faqat matn ichki hodisasi emas, balki o'quvchi bilan o'zaro aloqada to'liq

²⁵¹ Eco U. The Open Work. – Harvard University Press, 1989. – 320 p.

²⁵² Festinger L. A Theory of Cognitive Dissonance. – Stanford, 1957. – 292 p.

²⁵³ Stockwell P. Cognitive Poetics. – London, 2002. – 240 p.

²⁵⁴ Jakobson R. Closing Statement: Linguistics and Poetics. – In: Style in Language. Cambridge. 1960. – 377 p.

²⁵⁵ Barthes R. Le degré zéro de l'écriture. – Paris. 1953. – 220 p.

²⁵⁶ Genette G. Narrative Discourse. – Itaca, 1980. – 276 p.

²⁵⁷ Ricoeur P. Time and Narrative. – Chicago, 1984. – 284 p.

²⁵⁸ Benveniste É. Problèmes de linguistique générale. – Paris, 1966. – 360 p.

²⁵⁹ Culler J. Theory of the Lyric. – Harvard University Press, 2015. – 352 p.

²⁶⁰ Hjelmslev L. Prolegomena to a Theory of Language. – Madison, 1961

²⁶¹ Riffaterre M. Semiotics of Poetry. – Bloomington, 1978. – 208 p.

ishga tushadi²⁶². Buzilgan struktura retseptiv strategiyani o'zgartiradi: o'quvchi matnni chiziqli emas, qaytuvchi va tahliliy tarzda o'qiydi²⁶³. Anjambmang va soletsizmning umumiy poetik mexanizmlari kognitiv, semiotik, pragmatik va retseptiv darajalarda ishlaydi. Ular poetik nutqda buzilish emas, balki ma'no, vaqt, subyektivlik va idrokni qayta tashkil etuvchi universal mexanizmlar sifatida namoyon bo'ladi.

Anjambmang va soletsizm poetik nutqda yuzaki strukturaviy buzilish sifatida emas, balki estetik ma'no ishlab chiqaruvchi universal mexanizmlar sifatida namoyon bo'ladi. Har ikkala hodisa til va she'riy normaning ongli ravishda buzilishi orqali poetik diskursni avtomatlashuvdan chiqaradi hamda matnning ichki dinamikasini kuchaytiradi. Ularning umumiy mexanizmi, avvalo, ritmik va sintaktik strukturalar o'rtasida taranglik hosil qilishga asoslanadi. Anjambmang misra va sintaktik butunlik o'rtasidagi moslikni buzsa, soletsizm grammatik kutilmalarni izdan chiqaradi; natijada o'quvchi poetik matnni chiziqli emas, balki tahliliy va qayta quruvchi tarzda idrok etadi. Shuningdek, har ikkisi semantik noaniqlik va ko'p qatlamlilikni faollashtiradi. Ma'no darhol ochilmaydi, balki kechiktiriladi va o'quvchi tomonidan qayta modellashtiriladi. Bu jarayon poetik nutqning pragmatik intensivligini oshirib, o'quvchini passiv qabul qiluvchi emas, balki faol interpretatorga aylantiradi. Anjambmang va soletsizmning yana bir umumiy jihati – poetik subyektivlikni strukturaviy vositalar orqali ifodalashidir. Buzilgan ritm yoki grammatik shakl lirik subyektning ichki kechinmalari, emotsional beqarorligi yoki psixologik keskinligini ifodalovchi belgiga aylanadi. Xulosa qilib aytganda, anjambmang va soletsizm poetik diskursda norma va og'ish dialektikasiga asoslangan, kognitiv, semiotik va pragmatik darajalarda faol ishlaydigan, poetik nutqni yangilovchi va estetiklashtiruvchi umumiy mexanizmlar tizimini tashkil etadi. Shu bois ular she'riy nutqdagi strukturaviy buzilish emas, balki poetik tafakkurning ijodiy harakat shakli sifatida talqin qilinishi lozim.

Soletsizm va anjambmangning diskursiv funksiyalari

Soletsizm – til tizimidagi me'yoriy sintaktik, morfologik yoki semantik qoidalarning ongli ravishda buzilishi bo'lib, poetik diskursda u nutqni normativ til modelidan chiqarish orqali estetik va semantik kuchaytirish vazifasini bajaradi. Diskursiv nuqtayi nazardan soletsizm matnning ichki kommunikativ strategiyasiga xizmat qiladi. Poetik diskursda me'yor buzilishi xato emas, balki maqsadli kommunikativ akt sifatida namoyon bo'ladi²⁶⁴.

1. Soletsizmning diskursiv funksiyalari. Soletsizm o'quvchining e'tiborini tilning o'ziga qaratadi. Diskursda kutilmagan grammatik qurilma emotsional zo'riqish, ichki ziddiyat yoki lirik subyektning ruhiy holatini ifodalaydi.

²⁶² Iser W. The Act of Reading. – Baltimore, 1978. –239 p.

²⁶³ Jauss H.R. Toward an Aesthetic of Reception. – Minneapolis, 1982. – 336 p

²⁶⁴ Jakobson R. Closing Statement: Linguistics and Poetics. – In: Style in Language. Cambridge. 1960.

2. Ideologik va pozitsion funktsiya. Poetik diskursda soletsizm hukmron til me'yorlariga qarshi turish, muallifning estetik yoki madaniy pozitsiyasini namoyish etish vositasiga aylanadi. Bu ayniqsa modernizm va postmodernizm poetikasida yaqqol ko'zga tashlanadi²⁶⁵.

3. Semantik uzilish funktsiyasi. Soletsizm diskursiv oqimni buzadi va o'quvchini matnni faol qayta talqin qilishga majbur etadi. Natijada ma'no tayyor holda emas, balki interpretatsiya jarayonida yuzaga keladi. Soletsizm – nutqda grammatik, sintaktik yoki mantiqiy me'yorlarning ongli yoki ongsiz buzilishi bo'lib, badiiy va poetik diskursda u ma'no yaratish, kommunikativ ta'sirni kuchaytirish va estetik effekt hosil qilish vazifalarini bajaradi. Zamonaviy lingvopoetika va diskurs tahlilida soletsizm normadan og'ish orqali mazmunni faollashtiruvchi vosita sifatida talqin qilinadi.

Normani buzish orqali semantik kuchaytirish funktsiyasi. Diskursda soletsizm grammatik kutilmalarning buzilishi orqali o'quvchini matnga faol jalb qiladi. Bunday holatda ma'no bevosita emas, balki interpretatsiya orqali yuzaga chiqadi. Normaning buzilishi semantik urg'uni kuchaytiradi va matnni ko'p qatlamli qiladi²⁶⁶.

Diskursiv subyektivlikni ifodalash funktsiyasi. Soletsizm nutq egasining individual dunyoqarashi, ichki kechinmalari va psixologik holatini ifodalashga xizmat qiladi. Diskurs darajasida bu holat avtor nutqining beqarorligi, ichki ziddiyati yoki hissiy keskinligini ko'rsatadi²⁶⁷.

Pragmatik-provokativ funktsiya. Soletsizm diskursda kommunikativ norma buzilishi orqali provokatsiya hosil qiladi: o'quvchini hayratga soladi, bezovta qiladi yoki kutilmagan estetik ta'sir uyg'otadi. Ayniqsa, modern va postmodern poetik diskursda bu usul keng qo'llaniladi²⁶⁸.

Diskursiv fragmentatsiya va parchalanganlik funktsiyasi. Soletsizm ko'pincha diskursning uzluksizligini buzadi, nutqni fragmentlarga ajratadi. Bu usul orqali zamonaviy adabiyotda parchalangan ong, xaotik tafakkur, ekzistensial iztirob ifodalanadi²⁶⁹.

Poetika va diskurs o'rtasida chegara buzish funktsiyasi. Soletsizm poetik diskursda sintaktik va grammatik strukturalarni buzish orqali she'riy va nasriy nutq chegarasini xiralashtiradi. Natijada matn ritmik jihatdan beqaror, mazmunan esa kuchli ekspressiv bo'ladi²⁷⁰.

Metadiskursiv (refleksiv) funktsiya. Ba'zi hollarda soletsizm diskursning o'ziga ishora qiladi, ya'ni tilning imkoniyatlari va chegaralarini namoyon etadi. Bunda

²⁶⁵ Щерба Л.В. Избранные работы по языкознанию. 1957. – 400 с

²⁶⁶ Шапир М.И. Отклонение от нормы как поэтический прием // Статьи по теории поэзии. - Москва. 2002.

²⁶⁷ Тынянов Юрий. Проблема стихотворного языка. – Москва: Сов. писатель. Academia: 1965. –301 p.

²⁶⁸ Jolkovskiy A.K. Poetika narusheniya/Izbranniye trudi. – Moskva. 2010.

²⁶⁹ Gasparov M.L. Sovremenniy stix i ego struktura. - Moskva: Nauka 1989.

²⁷⁰ Ю. М. Лотман – «Анализ поэтического текста» (Ленинград: Просвещение, 1972. – 272 с

matn o'z tilini "ko'rsatadi", til ustida mulohaza yuritadi²⁷¹. Soletsizm diskursda normani buzish orqali ma'noni faollashtiradi, subyektivlik va hissiylikni kuchaytiradi, pragmatik-provokativ ta'sir ko'rsatadi. Matnni fragmentatsiyalaydi, poetik va nasriy nutq chegaralarini yo'qotadi, tilning o'zini tahlil obyektiga aylantiradi. Shu bois soletsizm oddiy xato emas, balki diskursiv-estetik strategiya sifatida baholanadi. Anjambmang – sintaktik birlikning (so'z, ibora yoki gap) she'riy satr chegarasidan chiqib ketishi bo'lib, diskursda ritmik va semantik nomuvofiqlik hosil qiladi. U she'riy nutqni oddiy metrik tuzilishdan chiqarib, nutq jarayoniga yaqinlashtiradi²⁷². Anjambmang – bu metr va sintaksis o'rtasidagi dinamik ziddiyatdir.

Anjambmangning diskursiv funksiyalari. 1. Diskursiv dinamika yaratish funksiyasi. Anjambmang satr chegaralarini "ochib", poetik diskursni uzluksiz oqim sifatida shakllantiradi. Bu o'quvchi idrokini tezlashtiradi yoki aksincha, pauzani kechiktiradi. 2. Pragmatik ta'kid (fokuslash) funksiyasi. Satr oxirida tugallanmagan sintaktik birlik kuchli kutilish effekti hosil qiladi. Keyingi satrda esa ma'no keskin ochiladi. Bu diskursda aksentni boshqarish imkonini beradi²⁷³. 3. Subyektiv nutqni modellashtirish funksiyasi. Anjambmang ichki monolog, ong oqimi, hissiy nutqni ifodalashda muhim diskursiv vosita hisoblanadi. Shu sababli u lirik diskursning psixologik chuqurligini oshiradi.

Usmon Nosir nafaqat adabiyotni, balki dunyo tarixi, falsafasi, san'atini ham chanqoqlik bilan o'zlashtirishga, buyuklarga ergashib ijod qilishga oshiqardi. Bu intilishlar shoirning dastlabki asarlaridayoq o'zini ko'rsatdi. Uning bitiklarida katta g'oyalar, badiiy tafakkurning erkin parvozlari, fikrning o'tkir yo'lqinlari yaqqol aks etardi. Uning Samarqanddan onasiga yozgan she'riy maktubi – "Oq yuvib, oq tarab" she'rida bolaligida ko'rgan sargardonliklarini tabiat manzaralariga uyg'un holda qayta jonlantiradi, anjambmangdan foydalanib, o'quvchini o'z xotiralariga oshno etadi:

Sarg'ayib yerga tushgani

Bir ko'k-ko'k yaproqning.

Qon, yoshlar-la to'lganda

U ko'zlaring seni,

Tuproqqa yuz tutganda

*Umring bahori*²⁷⁴...

Usmon Nosir uchun tabiat manzaralari she'riy asarni qo'shimcha tashbehlar bilan bezash, go'zallashtirish vositasi emas edi. U tabiatni go'yo ona anglab, o'zini

²⁷¹ И. Е. Лоцилов – «Лингвопоэтика отклонений». – Новосибирск, 2015.

²⁷² Томашевский Б.В. Теория литературы. Поэтика. Учебник. – Москва: Аспект Пресс, 2002, – 334 б.

²⁷³ Жирмунский В. Введение в теорию стиха. – Ленинград: Академия 1924.-284 с.

²⁷⁴ U.Nosir.Unutmas meni bog'im.-Toshkent: Adabiyot va san'at nshriyoti,1988.-B 304. –B 66.

esa shu ona bag‘riga doimiy talpinuvchi farzand hisoblardi. Uning she‘rlarida har bir fasl, yer, osmon, quyosh, yulduz va oy, daraxtlar va chechaklar, qushlar va hayvonlar badiiy umumlashma, obraz darajasiga o‘sib chiqadi. Ushbu she‘rda anjambmang ichki monolog, ong oqimi, hissiy nutqni ifodalashda muhim vosita hisoblanadi.

Soletsizm va anjambmangning umumiy diskursiv mexanizmlari.

Me‘yorni buzish orqali ma‘no yaratish. Har ikkala hodisa diskursda norma – og‘ish oppozitsiyasiga asoslanadi. Me‘yor buzilishi poetik axborot miqdorini oshiradi va matnni avtomat idrokdan chiqaradi²⁷⁵. Diskursiv “to‘xtalish” va “siljish”. Soletsizm – grammatik siljish orqali diskursni to‘xtatadi. Anjambmang – ritmik-sintaktik siljish orqali diskursni cho‘zadi. Bu ikki mexanizm birgalikda poetik nutqning ichki drammatizmini kuchaytiradi. Soletsizm va anjambmang poetik diskursda faqat formal usul emas, balki kognitiv, pragmatik va estetik strategiya sifatida namoyon bo‘ladi. Ular diskursiv ritmni boshqaradi, o‘quvchi bilan kommunikativ aloqani murakkablashtiradi, poetik matnning ko‘p qatlamli ma‘no tuzilishini yuzaga chiqaradi. Shu bois, zamonaviy lingvopoetika va diskurs tahlilida bu ikki fenomen she‘riy nutqning markaziy mexanizmlari sifatida qaraladi. R. N. Butov anjambmang she‘riy matn ritmikasi va grafikasi fenomeni sifatida namoyon bo‘lishini keltirib o‘tadi.

She‘riy ko‘chirish (anjambmang) – she‘riyatni nasrdan eng yaqqol ajratib turadigan hodisalardan biridir. Ushbu maqolada mashhur rus shoirlari asarlari tahlili asosida anjambmangning yangi tasnifi taklif etiladi. She‘riy ko‘chirish she‘rni nasrdan farqlovchi eng yorqin hodisa bo‘lib, u o‘zida ikki jihatni – strukturaviy va semantik jihatlarni mujassamlashtiradi. Bir tomondan, satr oxiri yoki boshlanishidagi kuchli pozitsiyani belgilab, anjambmang poetik matnni o‘lchovli segmentlarga bo‘ladi. Zero, “odatda satr chegaralari sintaktik birliklar chegaralari bilan mos keladi”²⁷⁶. Anjambmang esa ana shu odatiy holatning buzilishi bo‘lib, deyarli she‘rni nasrdan ajratib turuvchi yagona belgidir. “Nutq oqimini she‘riy satrlarga ajratish – she‘riy nutqni noshe‘riy nutqdan ajratib turuvchi yagona mutlaq belgi hisoblanadi. Nasrda nutq faqat bitta – sintaktik prinsip asosida bo‘linadi, she‘rda esa ikki prinsip mavjud: sintaktik va sof she‘riy. Bu yerda yetakchi bo‘luvchi omil – satrlarga bo‘linish bo‘lib, u sintaktik bo‘linish bilan mos kelishi ham, kelmasligi ham mumkin”²⁷⁷. Ikkinchi tomondan, sintaktik yaxlitlikning bir qismini (bo‘g‘in, so‘z, sintagma yoki gapni) keyingi satrga ko‘chirish – nasr uchun xos bo‘lmagan hodisa – nafaqat poetik metrning struktur talablariga, balki aynan shu she‘rda ifodalanayotgan noyob ma‘noga ham bo‘ysunadi.

Anjambmang she‘rni yanada tabiiy va jonli tarzda ifodalaydi. Bu deyarli nasrga o‘xshash yanada qat‘iy moslashuvchan tuzilishga imkon beradi. Anjambmang she‘r

²⁷⁵ Лотман Ю.М. Структура художественного текста. – Москва, 1970. –176 с.

²⁷⁶ Степанова А.Г. Семантика стихотворной формы. Фигурная графика, строфика, enjambement: Дисс... канд. филол. наук. – Тверь, 2004. – 113 с..

²⁷⁷ Федотов О. И. Основы русского стихосложения. Метрика и ритмика. – Москва: Флинта, 1997. – С. 36-37.

orqali o'quvchilarda shoshilinchlik yoki shubha hissi paydo qiladi. Bu esa jarayonni oshiradi. Erkin Vohidov she'rlarini saralashga hojat yo'q: qaysi satrini o'qimang, kitobga kiritgingiz, mutolaaga kirishgan o'quvchiga xoh katta yoshli, xoh bugungi davr farzandi bo'lsin, shoir ijodini taqdim etgingiz, she'rlar zamiridagi faqat so'z san'atkorigagina xos bo'lgan haqiqatlardan boxabar etgingiz keladi. Shoirning "Kutish soatlari" she'rida ham anjambmang qo'llangan: *Yo'q,/ bu mumkin emas.// yashamoq toti,/ Lazzati mo'tabar bizga har soat. // Axir, odamzotning Butun hayoti Kutish onlaridan iborat.*²⁷⁸

Ma'lumki, anjambmang gapning tema-rema bo'linishini amalga oshiradi, chunki u "satr oxiridagi doimiy ritmik pauzaning mazmuniy (sintaktik) pauza bilan mos kelmasligi natijasida yuzaga keladi"²⁷⁹. Ushbu umumiy funksiya doirasida anjambmang har bir muallifda individual bo'lgan maxsus funksiyalarni ham bajaradi.

Anjambmang yevropa she'riyatida qadimdan ma'lum bo'lsa-da, bu hodisaning nazariy talqini va tavsifi, bizningcha, hanuz yetarli darajada emas. Mavjud bo'lgan bir nechta ta'rif va tasniflar bir-birini to'ldiradi. A. Kvyatkovskiyning "Poetik lug'at" (1966) asarida anjambmang quyidagicha ta'riflanadi: "Ko'chirish (fr. enjambement, enjambe – qadam tashlamoq, oshib o'tmoq) – she'rda intonatsion-frazaviy bo'linishning metrik bo'linish bilan mos kelmasligi bo'lib, bir satrda boshlangan fraza yoki uning sintaktik jihatdan yaxlit qismi) keyingi satrga ko'chiriladi... Ko'chirishning uch turi mavjud: satr ichidagi, bandlararo va bo'g'inli"²⁸⁰. Satr ichidagi anjambmangda A. Kvyatkovskiy quyidagi eng ko'p uchraydigan to'rt shaklni ajratadi:

- a) fraza deyarli butun birinchi satrni egallab, keyingi satr boshida tugaydi;
- b) qisqa fraza satr oxirida boshlanib, keyingi satr boshida tugaydi;
- c) fraza birinchi satr oxirida boshlanib, to'liq keyingi satrga o'tadi;
- d) birinchi satr bog'lovchi yoki predlog bilan tugab, unga tobe bo'lgan so'z keyingi satrga o'tadi.

Ko'rib chiqilgan boshqa uch nashrda – "Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati" (1974), "Adabiy ensiklopediya" (2001), "Rossiya gumanitar ensiklopedik lug'ati" (2002) – anjambmang ta'riflari asosan yuqoridagilarni takrorlaydi. Ularda satr ichidagi anjambmangning uch turi va ularning fransuzcha nomlari keltiriladi: rejet ("tashlab yuborish") – fraza birinchi satrni to'ldirib, keyingi satr boshida tugaydi; contre-rejet ("ilova") – fraza birinchi satr oxirida boshlanib, ikkinchi satrni to'liq egallaydi; double-rejet ("ikki tomonlama tashlash") – fraza bir satr oxirida boshlanib, keyingi satr boshida tugaydi. Shuningdek, bandlararo va bo'g'inli

²⁷⁸ Vohidov E.O'zbeim.Toshkent:Yangi asr avlodi, 2019,– B 135.

²⁷⁹ Словарь литературоведческих терминов / Ред.-сост. Л. И. Тимофеев и С. Б. Тураев. – Москва : Просвещение, 1974. – 510 с.

²⁸⁰ Квятковский А. П. Поэтический словарь. – Москва : Советская энциклопедия, 1966. – 376 с.

ko‘chirishlar ham qayd etiladi. Ko‘rinib turibdiki, mavjud tasniflar asosan bir-biriga mos keladi. Biroq A. Kvyatkovskiy taklif etgan uch bo‘linma (satr ichidagi, bandlararo va bo‘g‘inli) bizningcha to‘liq va aniq emas. Chunki bo‘g‘inli ko‘chirish har doim satr ichidagi yoki bandlararo ko‘chirishning bir ko‘rinishi hisoblanadi. Bundan tashqari, bog‘lovchi yoki predlog satr oxirida qolib, asosiy so‘z keyingi satrga o‘tganda yuzaga keladigan ko‘chirish alohida nom bilan belgilanmagan. Shuningdek, murakkab so‘zlarning tarkibiy qismlar chegarasida ko‘chirilishi ham lug‘atlarda qayd etilmagan. So‘nggi nashrlarda Brodskiy, Pasternak, Svetayeva kabi shoirlar misol qilib keltirilgan bo‘lsa-da, tasniflar mohiyatan o‘zgarmagan. Holbuki, I. Brodskiy yoki D. Bobshev ijodida anjambmang sezilarli darajada murakkablashadi va rivojlanadi. Avvalo, ayrim ta’riflarni aniqlashtirish zarur. Masalan, rejet turida fraza keyingi satrning faqat boshida emas, balki o‘rtasida yoki oxiriga yaqinroq joyda ham tugashi mumkin – muhim jihat shundaki, u ikkinchi satr oxirigacha yetib bormaydi. Xuddi shuningdek, contre-rejet va double-rejet ta’riflari ham aniqlashtirilishi lozim, chunki fraza har doim satr oxiridan boshlanavermaydi. Muallif anjambmangni ikki asosiy turga ajratadi:

1. Strukturaviy anjambmang. U sintagma yoki gap chegaralarini belgilaydi. Sintaktik birliklar metr doirasida saqlanadi, faqat grafik joylashuv o‘zgaradi.

2. Mazmuniy anjambmang. Bu turda sintagma bo‘linadi, ya’ni semantik butunlik buziladi va ma’no keyingi satr yoki bandda ochiladi. Shuningdek, muallif quyidagi maxsus turlarni ajratadi: fonetik anjambmang bitta fonetik so‘z bo‘linadi, bo‘g‘inli anjambmang, leksik anjambmang murakkab so‘z qismlarga bo‘linadi. Xulosa qilib aytganda, rus she’riyatining rivoji anjambmang kabi poetik usulning boyishi va murakkablashuviga olib kelmoqda. Bu esa mavjud tasniflarni qayta ko‘rib chiqish va aniqlashtirishni talab qiladi.

Kvyatovskiy maqolasida XXI asr shoirlari ijodida faol qo‘llanilayotgan maxsus stilistik usul – anjambmang tahlil qilinadi. Anjambmang misra chegarasi bilan ajratilgan ibora bo‘laklarini intonatsion jihatdan kuchli ta’kidlash vositasi bo‘lib xizmat qiladi hamda she’riy ritmni deyarli bosib yuboradigan darajada kuchli prozalashtirilgan intonatsiyani yuzaga keltiradi. Anjambmang samarali poetik figura sifatida o‘z-o‘zicha maqsad bo‘la olmaydi, ya’ni “usul uchun usul” tarzida qo‘llanilmaydi. Yetuk shoirlar she’rlarida anjambmangning paydo bo‘lishi har doim asosli bo‘lib, muayyan ma’noni yuklaydi. Anjambmang – bu intonatsion-sintaktik bog‘lanishning metrik qator bilan mos kelmasligi natijasida iboraning bir qismi bir satrdan keyingi satrga ko‘chib o‘tishidir. O‘qishda u pauza bilan ajralib turadi, bu pauzasiz she’r ritmik ifodaviyligini yo‘qotadi. Ko‘chirish butun so‘zlar yoki so‘z qismlari darajasida ham sodir bo‘lishi mumkin. She’riyat nazariyasida ko‘chirishning uch turi farqlanadi: reje – ibora oxiri keyingi satr boshiga o‘tadi; contre-reje – ibora boshi oldingi satr oxiriga tushadi; double-reje – ibora oldingi satr oxirida boshlanib, keyingi satr boshida tugaydi. Agar ko‘chirishlar kam bo‘lsa, ular misra bilan ajratilgan ibora bo‘laklarini intonatsion jihatdan kuchli ajratib ko‘rsatadi. Agar ko‘chirishlar ko‘p bo‘lsa, u holda she’riy ritmni deyarli bostirib yuboruvchi kuchli prozalashtirilgan intonatsiya yuzaga keladi (ayniqsa dramatik she’rda).

Sh.Rahmon ijodida hamisha millatning dard-u armonlarini ifodalashga intilardi. U o'z kayfiyatlarini tasvirlash bilan kifoyalanadigan shoirlar sirasiga kirmas, o'z taqdirini millatnikidan ayri tasavvur etmasdi. U har bir millatdoshining ko'ngil mulkiga kirib borishni orzu etib, shu yo'lda tinimsiz dard chekib yashagan shoir edi. "Bir qo'shiq bo'laman daryoday yurakning eng chuqur yerida" deya orzu qilgan shoir hamisha samimiy tuyg'ularni beqiyos badiiy yuksaklikda o'ta kuyunchaklik bilan kuyladi. Shoirning "Tong ochar ko'zlarin", "Turkiylar", "Jangda o'lgan emas biror bahodir", "Baxt so'zi", "Vatan tuyg'usi", "Qarsak nima o'zi", "Xirgoyi" she'rlarida anjambmangning namunalari aks etgan. Anjambmangda ko'pgina shoirlar tinish belgilarini o'ziga xos tarzda qo'llaydilar. Eng muhimi, tinish belgilari ibora yoki jumlaning oxirini faqat mos kelmaydigan tarzda ko'rsatadi:

Zulfiqor ruh kerak,
kerak chin yog'du,
chin ishq yolqinlari bag'rimga to'lsin,
jismimni toblasin faqat chin og'riq,
chechaklar qop-qora bo'lsa-da, bo'lsin.

Bahrom Ro'zimuhammadning bir she'rida shunday misralar bor: *Ko'zdan ichkarida yo'l yo'q / So'zdan ichkarida yo'l yo'q / Ammo xo'roz qichqirig'i ortiga / Shafaqrang qishlog'im bekinib olgan.*

Bu satrlarda odatdagi she'rlardagi kabi musiqiylik yo'q. Anjambmangda yozilgan ushbu she'rda odatdagi she'rlardagi kabi musiqiylik yo'q, ammo unda ijodkorning chigal kayfiyati aks etgan. Ko'zdan ichkarida yo'l yo'qligi chin, lekin har qanday yo'lga so'z eltadi. Bilamizki, xo'rozning qichqirig'i-tongning belgisi. Xo'roz qichqirig'idan so'ng ko'z o'ngida shafaqrang qishloq namoyon bo'ladi. Qishloqning shafaqrangligi ham bejiz emas. Endigina ko'tarilayotgan quyosh nuriga ko'milganligi uchun ham u shunday tusga ega bo'lgan. Xo'roz ham ayni shu vaqtda qichqiradi. Ko'z va so'zdan ichkarida yo'l bo'lmasa-da, o'z qishlog'iga cheksiz muhabbati sabab unga shoir ko'ngli orqali yo'l topadi.

Shoir she'riyatning odatiy tartibini inkor qiladigan uslubga murojaat etgan. Uni oddiy mantiq bilan izohlab bo'lmaydi. Ushbu she'r faqat shu ijodkorgagina taalluqli bo'lgan badiiy mantiq qonuniga muvofiq yaratilgan. Odatda, chinakam badiiy hodisa o'ziga xos olam hisoblanadi va o'zining qoidalarigagina mos keladi. Shu bois asl badiiy hodisa bir bor yaraladi, unda takror yo'q. Qonuniyat esa takrorni taqozo qiladi. Yuqoridagi parchada shoirning alohida ruhi, o'zigagina xos nuqtayi nazari sezilib turadi. Ayni vaqtda she'r o'quvchi diqqatini jalb etadi, e'tiborini tortadi, o'yga toldiradi. Uning tafakkuriga nimadir yangilik yetkazadi, ko'ngliga qandaydir yengillik bag'ishlaydi.

Faxriyorning "Imkoniyat" she'rida tasavvur va xayol o'rtasida bahs boradi. Lirik qahramon kechinmalar qarama – qarshiligiga duch keladi. Oxir oqibat poetik his-tuyg'ular falsafiy mushohadalar bilan boyib boradi. Estetik g'oyaviylik yuzaga

chiqadi. Aytilmoqchi bo‘lgan fikr oydinlashadi. “She’riyatga xos obrazli ifodalar yaratishda, so‘zning chinakkam shoirona qirralarini kashf etishda metaforaning roli beqiyos, bu borada poetik vositalarning hech biri u bilan tenglasha olmaydi. Metafora adabiyotning universal hodisasi bo‘lib, istalgan so‘z turkumi o‘rnida, ammo turli-tuman ko‘chma ma’nolarda kelishi mumkin. Metafora, ayniqsa, modern shoirlarimiz she’rlaridagi majozlarda aynan lirikagagina xos xususiyatlar: olamni o‘zgacha, odatdan tashqari yorqin, nafis rangin yoki qora bo‘yoqlarda sirli, g‘aroyib, g‘ayrushuriy ohanglarni his etish, boshqacha sifat berish, bo‘lakcha suvratlarda tasavvur qilish ko‘zga tashlanadi. Demak, modern she’rda fikrni muxtasar, aforizmlardagidek sanoqli so‘zlar orqali ifodalash, uni iloji boricha matn ostiga yashirib, she’rning umumiy tugal g‘oyasidan keltirib chiqarish ehtiyojining kuchliligi o‘z-o‘zidan metaforik tafakkur tarzini talab qiladi”²⁸¹.

Mazkur fikrlar she’r tahlilida ham ahamiyatli vazifani bajarib kelmoqda. Fikrlar tabiiyligiga ko‘mak bermoqda.

Imkoniyat – dastyorim mening,
Yugurdagim – imkoniyat.
Har kuni ko‘zimni ochishim bilan
O‘sib ketgan umidlarimni
Qirtishlab qo‘yar.
Armonlarni sug‘orar har kun.
Don sepadi hijron qushiga.
Lekin har zamon
aql o‘rgatadi u ablah menga
– Oyni etak bilan yopib bo‘lmaydi,
deydi masalan.
Mening jonim chiqar,
shunda u la’natiga
yodlataman shiorlarni,
toki u o‘rgansin ushbu zamonda
yashashning ma’nosi maqoldan emas,
shiordan iborat ekanligini²⁸².

²⁸¹ Xolova M. O‘zbek she’riyati: tarixi va nazariyasi. – Toshkent: Navro‘z, 2018, –B 78.

²⁸² Faxriyor. Ayolg ‘u: She’rlar va dostonlar. – Toshkent: Sharq, 2000. – 256. – B 52.

She'r erkin vaznda yozilgan. Kitobxonni o'ziga tortadigan ritm, ohanglar yo'q. Mazmun tig'iz. Matn osti fikrlari his-tuyg'ularga ta'sir qiladi. Tasavvur chegaralarini kengaytiradi. Har bir jumla bir zarb kabi qalbni hayajonga soladi. Hayotda imkon qidirib yashagan lirik qahramon imkoniyatsizlikdan charchab ketadi. O'z xayollari bilan, ichki "men"i bilan dialoglar qilichbozligi orqali mantiqsizlikdan mantiq yarata biladi. Lirik qahramon o'z orzularini amalga oshirishga intiladi. Qalbdagi yaratuvchanlik hayotiy reallik oldida qo'rquvga tushadi. Har qanday umid qirtishlanadi, uni hushyorlikka chorlaydi²⁸³.

Haqiqatda, "Poetik asarning yetuk bo'lishini faqat tilning o'zigina hal etmaydi. Ammo til asarning butun ichki olamini ko'rsatuvchi oynadir va poeziyaning barcha komponentlari bilan muomala qiluvchi ko'p qirrali vositadir"²⁸⁴.

Xurshid Davronning "Men moziyga" deb boshlanuvchi she'rda shoir xayolan o'tmishga safar qiladi. She'r uch banddan iborat. U shaklan erkin vaznni eslatsa-da, ammo to'qqiz bo'g'inli barmoq vaznda yozilgan. Shoir hissiyotlarini poetik tizimga solish uchun anjambmang usulini tanlagan: *Men moziyga Tikildim uzoq – Kelajakni anglamoq uchun / Shunda ko'rib Qoldim men nogoh Yog'iy tutgan nayzaning uchin*²⁸⁵.

Misralardagi so'zlar shoir xohish-irodasi bilan inversiya hodisasi talablari ko'rinishiga keltirilgan. She'rdagi antiteza usuli badiiy tilning emotsional xususiyatlarini oshirish bilan birga, shoir poetik fikrini dalillovchi vositaga aylantiradi. "Men o'tmishga kelajagimni qurmoq uchun nazar tashlagan edim, kutilmaganda qilich-qalqon tutgan dushmanni ko'rib qoldim". Lirik qahramon xatti-harakatlari maqsadiga ters kelib qoladi. Shunda shoir fikrini parallelizm poetik usuli orqali anjambmangni qo'llaydi: *Qora baxmal Uzra zumradday – Nayza uchi yonib turardi // Go'yo bir cho'g' Yonib zulmatda Kecha bilan suhbat qurardi*²⁸⁶.

"Qora" sifatlashi lirik qahramon qalbidagi qo'rquv, vahimani maksimal darajaga ko'tarib, unga "harorat" bag'ishlab turibdi. "-day" qo'shimcha ko'rinishidagi, "go'yo" so'z ko'rinishidagi o'xshatishlar voqea negizida hosil bo'lgan kechinmani obrazli ifodalamoqda. "Nayza uchi" yog'iy niyati, o'zi uchun qulay makon bo'lgan "kecha" bilan suhbat qurmoqda. Jonlantirish esa shoir qarashlarini badiiy-g'oyaviy jihatlarini ochib bermoqda.

"Badiiy nutqda muayyan so'z boshqa so'zlar bilan faqat ma'no jihatdangina emas, tasviriylilik jihatdan ham birikadi, o'zaro bog'lanadi. Hatto jumladagi so'zlar o'rnining almashinuvi, urg'u va intonatsiyaning o'zgarishi, nutq sur'atining tezlashishi va sekinlashishi, so'roq va undov shakllarining kiritilishi badiiy nutq ruhini o'zgartirib turadi"²⁸⁷ – deb yozadi adabiyotshunos To'xta Boboyev.

²⁸³ G'.G'ulomning poetik mahorati. Konferensiya materiallari. Samarqand: SamDU nashriyoti, 2023,–B 163.

²⁸⁴ Adabiyot nazariyasi. 1-jild. –Toshkent: Fan,1978,–B 356.

²⁸⁵ G'.G'ulomning poetik mahorati. Konferensiya materiallari. Samarqand: SamDU nashriyoti, 2023,–B 192.

²⁸⁶ G'.G'ulomning poetik mahorati. Konferensiya materiallari. Samarqand: SamDU nashriyoti, 2023,–B 193.

²⁸⁷ Boboyev T. Adabiyotshunoslik sohalari. – Toshkent: O'zbekiston. 2002.–B 427.

Mazkur holatlar badiiy tilning har tomonlama mukammal bo'lishiga xizmat qiladi hamda badiiy asarlarning o'qimishlilikini ta'minlab beradi:

Birdan yog'iy nayzani otdi

Va u bobom ko'ksiga botdi:

Men ingradim

Alam, o'ksikdan

Qonlar oqdi mening ko'ksimdan²⁸⁸.

Banddagi so'zlar grammatik qoidalarga zid tarzda berilmoqda. "Yog'iy nayzani otmaydi, nayzasini otadi", "bobom ko'ksiga emas, bobomning ko'ksiga", "men yig'ladim, alam, o'ksikdan emas", "Men alam, o'ksikdan yig'ladim". Mazkur inversiya hodisasi she'r ohangdorligini oshirish bilan birga poetik talablarga muvofiq so'z tanlashda ham qo'l kelgan. Tabiiyki, she'rdagi ohang poeziyada birlamchi xususiyat sanaladi. Bu esa anjambmangning asosiy nazariy qarashlaridan biridir. Poeziya mantiq bilan tekshirilmaydi. Mantiq bor joyda san'at asari bo'lmaydi. "Qonlar oqdi mening ko'ksimdan" jumlasida metaforik ko'chim bo'lib, lirikada lirik qahramon badiiy niyatini amalga oshiradigan birlamchi hodisadir. A.Oripovning "O'zbekiston" qasidasi ham aynan shunga o'xshash so'zlar qo'llangan. "Qonim oqdi Dansigda manim, Sobir Rahim yiqilgan chog'da". Har ikkala she'rda ham "qon" so'zi vatanparvarlik, vatanga fidoiylilik, shu vatan sha'ni barcha narsadan ulug'ligini yuqori bosqichga olib chiqmoqda.

Nuriddin Shukurov "G'afur G'ulomning lirik poeziyadagi mahorati" kitobida obrazli til xususida quyidagilarni yozadi: "Shoir poeziyasining obrazli tili, birinchidan, shoirning tasvir obyektiga bo'lgan munosabatini aniq va konkret qilib ifodalashga; ikkinchidan, xarakterli ko'rinishlarning suratini chizishga; uchinchidan, voqea-hodisalar, tushunchalarning ichki mohiyatini chuqur his qildirishga; to'rtinchidan, keng fikrlarni nihoyatda qisqa va ixcham qilib ifodalashga; beshinchidan, o'quvchida kuchli his-hayajon uyg'otishga xizmat qiladi"²⁸⁹. Shu jihatdan shoir she'rlari tushunchaning ichki mohiyatini chuqur his qilishda, kuchli his-hayajon uyg'otishda anjambmangdan unumli foydalanadi.

Tarixiy shaxslar siymosini poetiklashtirish Xurshid Davron she'riyatida alohida xususiyat bo'lib ko'zga tashlanadi. "Mahmud Koshg'ariy", "Alisher Navoiy", "Bobur", "Bibixonim", "Ulug'bek qasosi", xalq qahramoni Namozga bag'ishlangan turkum she'rlarni ko'rsatib o'tish mumkin. Xurshid Davron she'riyatidagi tarixiy shaxslar uzoq davrlarning dramatik manzaralarini o'zida mujassamlashtiradigan obrazlardir. Shoirning o'ziga xos mahorati shundaki, tarixiy shaxslar obrazi faqat uning tarjimai holi, tarixdagi o'rnini ifodalash belgisi bo'lmay, balki bu shaxs obrazida o'sha davrning illatlari ham o'zining haqli ifodasini topadi. Shoir "Ulug'bek qasosi" she'rida yozadi: *Yo'l chetida tisarilar /*

²⁸⁸ G'.G'ulomning poetik mahorati. Konferensiya materiallari. Samarqand: SamDU nashriyoti, 2023,–B 193.

²⁸⁹ Shukurov N. G'afur G'ulomning lirik poeziyadagi mahorati.–Toshkent: Fan. 1966.–B 70.

*Daraxtlar chorbog'lar. // Otlar bilan uchib borar Qonga tashna pichoqlar. // Olislarda o'lim sasin Sezib qolgan och bo'ri. // Uvullaydi qon mazasin Tuyay deb shomdan beri*²⁹⁰.

Anjambmangda yozilgan bu parcha Ulug'bekning o'limi tasviriga oid. Xurshid Davron boshqa she'rlaridagi kabi bu she'rda ham voqelikni badiiy tafsillar vositasida ifodalashga erishadi. She'rda o'lim sasin sezib qolgan och bo'riining uvullashi-yu, qon mazasini tuyish ilinjida notinchlanishi bir qaraganda oddiy harakatdir. Lekin tasvir shundayki, undan Ulug'bekning o'limi – shaxsning fojiasigina emas, balki davrning fojiasi, bunday kishilar ko'plab qatl etilganligining belgisidir. Xurshid Davron tarixning qaysi pallasini poetiklashtirmasin, uning zaminida bitta haqiqat yotadi; u ham bo'lsa, qahramonlarga xos yagona ideal – xalqning erki, ozodligi, Vatan taqdiri uchun kurash. Namoz haqida yaratilgan she'rlar turkumida tarixning yaqin chorrahasida yashagan Namozning xalqimizning shakllanish davrlarida ozodlik uchun kurashgan To'maris, Shiroq, Muqannalarning yo'lidan borishi ularni milliy qahramonlar sifatida bir-biriga mushtarak etadi: *Namoz ketar // Yo'llar ustida Muqanna-yu, Shiroq izlari. // Qarshisida titrab osuda To'marisning porlar ko'zlari*²⁹¹.

U XX asrning 70-yillarida yaratgan kichik she'rlaridan birida shunday yozadi:

Qirlarni kezaman,...

Daraga tushib

O'tloqqa yastanib o'yga tolaman

Va birdan...

Yomg'ir yog'ib o'tgan tuproqli yo'lda

*Muqanna izini ko'rib qolaman*²⁹².

Anjambmangda yozilgan bu parchada biz tarixning yana bir yangi sahifasini idrok etamiz. Unda xalqimiz boshiga arablar solgan kulfatlar va ularga qarshi kurashgan Muqanna singari xalq qahramonlarining matonatini his etamiz. Xurshid Davron tarixni falsafiy idrok etadi, uning zaruriy, o'quvchi qalbiga ta'sir etadigan nuqtalarini poetiklashtiradi. Shoir “yomg'ir yog'ib o'tgan tuproqli yo'l” tasviriga ramziylik baxsh etish bilan birga ayni paytda kuchli g'oyaviy mazmunni ifodalashga ham erishadi. Tuproqli yo'l tarixning to's-to'polonli yo'lidir. U asrlarni bir-biriga bog'lovchi vositaga aylangan. Tuproqli yo'lga yomg'irning yog'ib o'tishi esa bu yo'ldan kimlar o'tgan, unda kimlarning izi qolganligini yorqinroq tasavvur etish imkonini beradi. Demak, bu yo'lda Muqanna izining ko'rinishi uning to's-to'polonli hayot so'qmoqlarida kurash izlari qolganligining belgisi sifatida ko'rinadi.

²⁹⁰ Xurshid Davron. Bolalikning ovozi. – Toshkent. 1986. –B. 111.

²⁹¹ Xurshid Davron. Bolalikning ovozi. – Toshkent. 1986. –B. 111

²⁹² Suvonova J. Kechinmalar poetikasi va uslubiy mahorat qirralari. Ilmiy-ommabop pisola. – Samarqand–2020.– B.21.

Oydinniso (Yoʻldosheva) – XXI asr oʻzbek adabiyotining koʻzga koʻringan, isteʼdodli vakilasi – shoira, tarjimon, ertaknavis. Koʻplab buyuk allomalarni voyaga yetkazgan Samarqand zaminida ijodga, sheʼriyatga mehr qoʻygan qalam sohiblari talaygina boʻlsa-da, ularning ichida Oydinnisoning egallagan oʻrni, sheʼrga boʻlgan muhabbati alohida kasb etadi. Uning sheʼrlarida boshqa ijodkorlarnikida boʻlgani kabi muhabbat, tabiat, hijron va sogʻinch tushunchalari madh etilsa-da, bu sheʼrlar Oydinnisoning muhabbatga toʻla qalbning bir parchasidan yaralgani yaqqol bilinib turadi.

Adabiyotshunos olim Muhayyo Yoʻldosheva taʼkidlaganidek, Oydinniso goʻzallikdan bahra olishda barcha qatori odam boʻlsa-da, uni hammadan oʻzgacha idrok etadi ²⁹³. Oydinniso sheʼrlari mazmunini bir oʻqiganda tushunish birozgina mushkul. Uning qalamidan toʻkilgan dil dardlarini his etish va sheʼrni takror-takror oʻqish orqali misralarning mazmuni tobora ravshanlashib boradi. Oydinniso sheʼriyatida modernizm yaqqol koʻzga tashlanib, anjambmang usuli yetakchilik qiladi:

Sizga bir soʻz aytmoqchi edim...

Tong hidi ufurgan

havo yangligʻ entiktiruvchi

yoki

yomgʻir shivalagan yerning

hovuri kabi dilga yaqin²⁹⁴...

Ijodkorning bir soʻz aytmoqchi boʻlgani maʼlum. Ammo keyingi misralarni oʻqir ekansiz, bu misralar ichidan u qanday soʻzni aytmoqchi ekanini topa olmaysiz. Erkin vaznda yozilgan misralar ichra adashib, savollar ogʻushida qolasiz. Ijodkor sizni mohirlik bilan chalgʻitayotgandek tuyuladi, lekin misralar chalgʻitishdan emas, aksincha, qalbi izhorga toʻla qizning aytmoqchi boʻlgan “bir soʻzi”ning tiliga koʻchishiga toʻsqinlik qilayotgan kuchning mavjudligidan darak beradi. Bu kuch– uning ibo-hayosi! Ha, oʻzbek ayollari, umuman, Sharq xotin-qizlarining qon-qoniga singib ketgan hayo tushunchasi ularning muhabbatidan ustun turadi. Oydinniso – oʻzbek shoirasi. Sharq ayoli. U oʻzgalar qalamidan toʻkilish mumkin boʻlmagan betakror sheʼrlarini qatʼiyat bilan yozadigan bir vaqtda, unga milliy ruh, milliy tushunchani ham singdira oladi. Boy va cheksiz muhabbatga toʻla sheʼrlar Oydinniso ijodida koʻplab uchraydi. Ularning birida muhabbat izhorlari baralla kuylansa, boshqasida hijron, sogʻinch, yoʻqotish, topish kabi hislar madh etiladi. Shoira sheʼrlarining aksariyati anjambmangda yozilgan:

Namozshomgul shiviriga

kungaboqar qiqirini ulab

²⁹³ Yoʻldosheva M. Meni yasha, olam.”Yoshlik” jurnali. 2012-yil, 4-son. –B 38.

²⁹⁴ Oydinniso. Hovur. –Toshkent: Gʻ. Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2011.

kun tikdim.
Egnimga ildirib sudradim
o'tmayotgan vaqtni
sen o'tgan taraflarga.
Qara, qanday yarashgan vujudimga
*tovush to'latilgan jimjitlik*²⁹⁵.

Namozshomgul quyosh botishidan otishigacha, ya'ni tunda ochiladi. Kungaboqar esa uning aksi – quyosh otgan tomondan botar tomonga “ko'zlarini tikadi”. Har ikkisini jamlasa bir kun hosil bo'ladi. Birorta ham shoir zoti yo'qki, tabiatni his etmasa, ruhiyati tabiat bilan chambarchas bog'liq bo'lmasa. Bu she'rda shoira anjambmang orqali yor yo'liga termilgan nigoro ko'zlar vaqtning juda ham sekin o'tayotganidan biroz ranjiganligi, o'tmayotgan vaqtni yor o'tgan tomonlarga xayolan egniga ildirib sudraganligini keltirib o'tadi. "Namozshomgul shiviri" va "kungaboqar qiqiri" shoiraning o'zidan o'zgaga eshitilmasligi turgan gap, u mana shu tovushlarni jimjitlik nuqtasida birlashtiradi va oxir-oqibat kutish azoblarini ijodiy qabul qila boshlaydi.

Klassitsizm da anjambmangdan qochilgan bo'lsa, romantizm va XX asrning ayrim poetik maktablarida u faol qo'llanilgan. T.A.Avchiyevaning “XXI asr shoirlarida anjambmang kuchli stilistik usul sifatida” maqolasida rus filologiyasida keng qo'llaniladigan “anjambmang” atamasi ishlatiladi. Ushbu masala rus filologiyasida M. Shapir, G.Shengeli, Yu. Tinyanov, M. Gasparov, A. Jolkoskiy, I. Loshilov va boshqa olimlar asarlarida batafsil yoritilgan. Anjambmanglar bo'g'inli, satrli, bandli, bo'g'in-bandli, sintaktik-satrli, sintaktik-bandli, so'zli-satrli, so'zli-bandli va boshqalar. Bu usuldan A.Pushkin, M. Svetayeva (uning poetikasida anjambmang asosiy usullardan biri bo'lgan), V. Mayakovskiy, M. Kuzmin, B. Okudjava, I. Brodskiy va boshqa ko'plab shoirlar foydalanganlar. Iosif Brodskiy Svetayeva an'alarini rivojlantirgan shoir sifatida alohida ta'kidlanadi²⁹⁶. Mashhur filolog M. Shapir “Mis chavandoz” asaridagi ko'chirishlar ekspressiv va tasviriy funksiyani bajaradi: Neva qirg'oqlaridan toshgan joyda sintaksis ham she'r chegaralaridan chiqib ketadi²⁹⁷ deb ma'lumot beradi. XX asr oxirida anjambmangning rivoji ko'pincha I. Brodskiy nomi bilan bog'lanadi. U she'riy iborani cho'zish, keskin satrlararo va bandlararo anjambmanglarni qo'llash orqali poetik tajribalarni kengaytirdi: u ko'makchini otdan, inkor yuklamasini fe'ldan, hatto ayrim hollarda so'zni satrlar yoki bandlar o'rtasida bo'lib yubordi.

Zamonaviy shoirlar - A. Kushner, K. Kedrov, S. Biryukov, Yu. Martinseva, A. Nechayev, Ye. Xaritonov, D. Davidov va boshqalar ham anjambmangni faol

²⁹⁵ G'.G'ulomning poetik mahorati. Konferensiya materiallari. Samarqand:SamDU nashriyoti, 2023,—B 214.

²⁹⁶ Авчиева Т.А. XXI аср шоирларида анжамбман (enjambement) кучли стилистик усул сифатида. Общественные и гуманитарные науки. Известия ДГПУ, № 1, 2015. — С. 53-55.

²⁹⁷ Авчиева Т.А. XXI аср шоирларида анжамбман (enjambement) кучли стилистик усул сифатида. Общественные и гуманитарные науки. Известия ДГПУ, № 1, 2015. — С. 53-55.

qo‘llamoqdalar. Bugungi kunda eng keng tarqalgan turlar - bo‘g‘inli va bo‘g‘in-bandli anjambmangdir²⁹⁸. Masalan, Konstantin Kedrov she‘rida bo‘g‘inli anjambmang shoirning idiostilini ifodalovchi asosiy vosita bo‘lib, unda falsafiy fikr, so‘z o‘yini va ma‘no ko‘chishi mujassamlangan. Defis bu yerda ma‘noni boshqaruvchi semiotik belgi vazifasini bajaradi²⁹⁹.

Soletsizm va anjambmangning diskursiv funksiyalari

Diskursiv aspekt	Soletsizmning diskursiv funksiyasi	Anjambmangning diskursiv funksiyasi
Til normasi bilan munosabat	Grammatik va sintaktik normani ongli buzish orqali diskursni beqarorlashtiradi, normativ nutqqa qarshilik bildiradi	Metrik va sintaktik chegaralarning mos kelmasligi orqali she‘riy normani ichidan parchalab ko‘rsatadi
Ma‘no hosil qilish mexanizmi	Ma‘no buzilish va nomuvofiqlik orqali, implisit tarzda shakllanadi	Ma‘no misra chegarasida to‘xtalib, keyingi satrda kutilmagan davom orqali yuzaga chiqadi
O‘quvchi bilan munosabat	O‘quvchini semantik bo‘shliqni to‘ldirishga majbur qiladi	O‘quvchini ritmik va sintaktik uzilishlarni faol idrok etishga majbur qiladi
Diskursiv vaqt	Vaqtni chiziqli emas, parchalangan idrok shaklida beradi	Vaqtni pauza va kechiktirish orqali cho‘zadi yoki keskinlashtiradi
Emotsional (affektiv)ta’sir	Hissiy tanglik, ichki iztorob, nutqiy izdan chiqishni ifodalaydi	Keskin pauza, intonatsion urg‘u orqali hissiy kuchayish hosil qiladi
Diskursning strukturasi	Diskursni grammatik jihatdan fragmentatsiyalaydi	Diskursni ritmik va intonatsion jihatdan fragmentatsiyalaydi
Subyektivlik ifodasi	Lirik subyektning ichki nutqi, beqaror tafakkurini ko‘rsatadi	Lirik subyektning fikrlash ritmi va ichki pauzalarni aks ettiradi
Pragmatik yo‘nalish	Provokatsiya, normani rad etish, diskursiv qarshilik	E’tiborni jalb qilish, urg‘u berish, semantik cho‘qqi yaratish

²⁹⁸ Авчиева Т.А. XXI аср шоирларида анжамбман (enjambement) кучли стилистик усул сифатида. Общественные и гуманитарные науки. Известия ДГПУ, № 1, 2015. – С. 53-55.

²⁹⁹ O‘sha manba.

Poetik va nasriy nutq chegarasi	Nasriy xatolik ko‘rinishida poetik ma’no yaratadi	She’riy shakl ichida nasriy intonatsiyasini kuchaytiradi
Metadiskursiv vazifa	Tilning nomukamalligini va shartlilikini ochib beradi	She’r shaklining sun’iy chegaralarini fosh qiladi
Diskursdagi asosiy effekt	Beqarorlik va semantik taranglik	Intonatsion kuchayish va ritmik siljish
Dominant sath	Grammatik-sintaktik sath	Metrik-intonatsion sath

Xulosa qilib aytganda, anjambmang samarali poetik figura bo‘lib, u hech qachon o‘z-o‘zicha maqsad bo‘la olmaydi. Eng yaxshi shoirlar ijodida u doimo mazmunan asoslangan va muayyan estetik hamda semantik vazifani bajaradi. She’riy shakl va mazmun bunday hollarda bir-biri bilan uyg‘unlashadi. Soletsizm va anjambmang diskursda turli sathlarda ishlaydi, ammo umumiy maqsadga xizmat qiladi: normani buzish orqali ma’noni kuchaytiradi. Soletsizm diskursni ichidan yemiruvchi, grammatik qarshilik vositasi. Anjambmang esa diskursni chegaralarda siljituvchi, intonatsion strategiyadir. Ularning birgalikda qo‘llanishi poetik diskursda maksimal semantik va affektiv zichlikni ta’minlaydi. Soletsizm va anjambmang poetik diskursda normadan og‘ish asosida yuzaga keladigan, ammo badiiy nutqning estetik va kommunikativ imkoniyatlarini kengaytiruvchi muhim lingvopoetik hodisalardir. Har ikkala fenomen diskursiv jarayonda nafaqat formal buzilish, balki ma’no hosil qilishning faol mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. Soletsizm poetik diskursda til me’yorlarining ongli ravishda buzilishi orqali subyektivlik, ekspressivlik va semantik keskinlikni kuchaytiradi. U nutqiy kutilmaganlikni yuzaga keltirib, o‘quvchini oddiy sintaktik yoki grammatik idrokdan chiqaradi va matnga konnotativ, ironik yoki dramatik yuk bag‘ishlaydi. Shu tariqa soletsizm diskursda muallif pozitsiyasini faol tarzda namoyon etuvchi, nutqni pragmatik jihatdan faollashtiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Anjambmang esa poetik diskursda sintaktik va metrik tuzilma o‘rtasidagi ziddiyat orqali diskursiv dinamika yaratadi. Misra chegaralarining sintaktik jihatdan buzilishi nutq oqimini uzluksizlashtiradi, ma’no kechiktirilishini yuzaga keltiradi va o‘quvchi idrokini faol holatga keltiradi. Natijada anjambmang diskursiv vaqtni cho‘zish, semantik urg‘uni siljitish va ritmik kutilmaganlik hosil qilish vazifasini bajaradi.

Diskursiv nuqtayi nazardan, soletsizm va anjambmang umumiy holda avtomatlashgan idrokni buzish, matnni ko‘p qatlamli talqinga ochish hamda poetik nutqni kommunikativ jihatdan intensivlashtirishga xizmat qiladi. Farqli jihati shundaki, soletsizm asosan til me’yoriga nisbatan semantik-pragmatik qarshilik hosil qilsa, anjambmang poetik strukturaga nisbatan ritmik-sintaktik qarshilikni yuzaga keltiradi. Soletsizm va anjambmang poetik diskursda muallif ijodiy strategiyasining muhim komponentlari bo‘lib, ular orqali badiiy nutqning ekspressivligi, semantik chuqurligi va pragmatik ta’sirchanligi ta’minlanadi. Har

ikkala hodisa poetik matnning diskursiv tabiati – ya’ni ma’no, shakl va idrok o’rtasidagi murakkab o‘zaro munosabatni yaqqol namoyon etadi.

Zamonaviy she’riyatda soletsizm va anjambangning transformatsiyasi

Zamonaviy adabiyot va shakl-norma transformatsiyasi. Postmodern adabiyot va zamonaviy she’riyat an’anaviy formal strukturalardan voz kechish, til va shakl bilan eksperiment qilishni o‘ziga xos tamoyil sifatida qabul qiladi. Postmodern (yoki postmodernizm) – bu XX asrning ikkinchi yarmida shakllangan falsafiy, madaniy va adabiy-estetik yo‘nalish bo‘lib, u modernizm g‘oyalarini qayta ko‘rib chiqadi va ularga shubha bilan qaraydi. Postmodernizm mutlaq haqiqatlar yo‘qligi, yagona ma’no va markazning inkori, parchalanish, o‘yin, ironiyaviy yondashuv va intertekstuallik tamoyillariga asoslangan dunyoqarash va badiiy tafakkur tizimidir. U “hamma narsaning yagona izohi bor” degan modernistik qarashga qarshi chiqadi. Bu jarayon diskursiv strukturalar parchalangan, ko‘p ovozli va fragmentar bo‘ladi – bu xususiyat soletsizmning kuchayishiga olib keladi, chunki tilning ichki o‘zaro munosabatlari an’anaviy semantik o‘lchovdan chetga chiqadi. Adabiyotda postmodernizm an’anaviy janrlarni buzadi, realizm, romantizm, modernizm elementlarini aralashtiradi, tilni tajriba maydoniga aylantiradi. She’riyatda postmodernizm erkin vers, kuchli anjambang, soletsizm (til normasi buzilishi), vizual va semantik tajribalar orqali ifodalanadi. Postmodernizm qat’iy haqiqatlardan voz kechish, matn va ma’noga ochiqlik, shakl va til bilan o‘yin, ko‘p ovozli, parchalangan diskurs demakdir. She’riyat umumiy mantiqdan ko‘ra til materialining o‘zida ma’no qidirish, sintaksisni “parchalash” orqali yangi semantik qatlamlar ochish tarafdori bo‘ladi – bu holat anjambangning kontekstuallik va kayfiyatni shakllantirish funksiyalarini yanada muhimlashtiradi³⁰⁰. Bu jarayonlar postmodern she’riyatning diskursiv ravishda ochiqligidan, shakl-tasvirlar kesilishi orqali yangi ma’no qatlamlarining yuzaga chiqishidan dalolat beradi.

Soletsizmning zamonaviy tendensiyalari. Soletsizm atamasi adabiyotda ko‘pincha “subyektivlik” yoki shaxs markaziga yo‘naltirilgan diskurs bilan bog‘lanadi. Zamonaviy she’riyatda bu shaxsiy hissiyot, tajriba va ichki monologlar markazida turadigan she’riyatga olib keladi, bu holatda normal diskursiy kontekst va umumiy mantiq sustlashadi yoki dramatik o‘zgarmasdan qoladi. Cho‘lpon haqiqat va hurlikni e’tiqodiga aylantirgan ijodkor edi. Shoir “Go‘zal” she’rida:

*Qorong‘u kechada ko‘kka ko‘z tikib,
Eng yorug‘ yulduzdan seni so‘raymen.
Ul yulduz uyalib, boshini bukib,
Aytadir: men uni tushda ko‘ramen³⁰¹.*

³⁰⁰ UEA Digital Repository-University of East Angliya

³⁰¹ Cho‘lpon, Abdulhamid. Asarlar.4-jildlik. -Toshkent: Akademnashr.2016.–368. –B 31.

Ushbu misralarda I shaxs birlikdagi “man” shaxs-son qo‘shimchasi “men”; “u” ko‘rsatish olmoshi “ul” tarzida qo‘llanib soletsizm ko‘rinishida uchraydi. Cho‘lponning “Buzilgan o‘lkaga” she‘rida nutqni ta’sirchan qilish maqsadida:

Nima uchun yig‘lar kabi ingraylar?

Yov bormi, deb to‘rt tarafni tinglaylar?

Nega seni bir qul kabi qizg‘anmasdan yanchalar?

*Nega sening qalin tovshing “ket” demaydi ularga?*³⁰²

She‘rda o‘lka tabiatining go‘zalligi va qismatining og‘irligi yorqin ifodalangan. “Nega”, “nima uchun” kabi so‘roqni ifodalovchi so‘zlarning qayta-qayta ishlatilishi, she‘rning boshdan oyoq bir xil o‘lchovda yozilmaganligi, she‘riy ohangdagi tovlanishlari joziba kuchini oshiradi. She‘rda “yig‘lar kabi”, “ingraylar”, “tinglaylar”, “yanchalar”, “tovshing” kabi birliklar soletsizmni hosil qilgan.

Bu tendensiya postmodern shiorlar bilan uyg‘unlashadi – ya’ni “til konseptning yagona manbayi emas”, balki o‘quvchi bilan doimiy qayta-idrok aloqasida yangi ma’nolar hosil qiluvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi³⁰³. Anjambmang (sintaksis uzilish) zamonaviy she‘riyatda endi nafaqat ritmik segmentatsiya vositasi emas, balki semantik kechiktirish va fokus siljishi mexanizmi bo‘lib xizmat qiladi. Mazmunning bir qismi qatorda qoldiriladi, qolgan qismi esa keyingi qatorda ochiladi, bu o‘quvchi idrokini faol qiladi – an’anaviy shaklga nisbatan ancha murakkab diskursiv effekt yaratadi³⁰⁴. Strukturaviy eksperimentlarda anjambmangning qatnashishi she‘riyatni vizual funksiyalarga ham bog‘liq bo‘lgan shakllarga yo‘naltiradi – bu xususiyat turli til, madaniyatlarda ham kuzatilmoqda. Soletsizm va anjambmang o‘zaro bog‘liqligi. Zamonaviy she‘riyatda bu ikki fenomen bir-birini to‘ldiradi. Soletsizm tilning ichki subyektiv strukturini ochadi, shaxs, his-tuyg‘ular, individual tajriba markazida turadi. Anjambmangning erkin qo‘llanishi esa mazmunni qatorda cheklamaslik, murakkab sintaktik-ritmik o‘tishlarni yaratish orqali o‘quvchi e’tiborini susaytirmasdan, balki ushlab turadi. Natijada bu ikkala vosita diskursiv ochiqlikka xizmat qiladi: she‘r izolyatsiyalangan “nutq dilimlari”dan ko‘ra murakkab, polifonik ma’no qatlamlariga ega bo‘ladi.

Post-traditsional she‘riyat konteksti. Zamonaviy she‘riyat an’anaviy shakllarni qayta ko‘rib chiqadi, bu esa ba’zan metrik cheklovlarni qayta tiklash harakatida ham aks etadi. Bu harakat traditsion formal o‘lchamni zamonaviy tendensiyalar bilan uyg‘unlashtirishga urinishdir. Anjambmangning moslashuvi bilan bir qatorda zamonaviy she‘riyatda erkin vers va eksperimental formal tuzilmalar kuchaymoqda – bu soletsizm va sintaksis bo‘yicha keskin o‘zgarishlarga zamin yaratadi.

³⁰² Cho‘lpon, Abdulhamid. Asarlar. 4-jildlik. -Toshkent: Akademnashr: 2016. – 368. – B 88.

³⁰³ University of East Anglia .UEA Digital Repository. Retrieved march 15, 2026. from <https://uea.figshare.com>

³⁰⁴ Bright Mind Publishing: <https://brightmindublishing.com>

Zamonaviy she'riyatda soletsizm va anjambangning transformatsiyasi quyidagicha ifodalanadi:

1. Soletsizm she'riyatni subyektivlik va tilni ichki diskurs vositasi sifatida kuchaytiradi.
2. Anjambang esa ritmik, semantik va diskursiv uzluksizlikni yangi shaklda tashkil etishga xizmat qiladi.
3. Ikki fenomen birgalikda she'riyatni an'anaviy qatordagi mantiqdan nisbatan mustaqil, ko'pqirrali va interpretativ ravishda ochiq holga olib chiqadi.

“Soletsizm” atamasi soterik ma'noda til me'yoridan og'ish degan ma'noni ham anglatishi mumkin, ammo ko'pgina ilmiy yozuvlarda soletsizm deb til va mazmunning subyektiv markazda qaralishi tushuniladi. Bu tushuncha she'riyat tahlilida shaxsning ichki ruhiy olami va boshqalar haqidagi bilimning o'zlikdan kelib chiqqan holati sifatida talqin qilinishi mumkin. Bu konsepsiya she'riyat tahlilida shoirning ichki ruhiy olamiga ekstremal e'tibor berish, real voqelikdan ko'ra subyektiv kechinmalar orqali dunyoni tasvirlash tarzida namoyon bo'lishi mumkin.

Shavkat Rahmon she'rlari kishining tuyg'ulariga kuchli ta'sir ko'rsatish xususiyati bilan ajralib turadi. Shoirning “Turkiylar” she'rida shonli bobolarga munosib bo'lolmagan turkiy xalqlarga xos illatlar ayovsiz fosh etiladi. Shavkat Rahmon bu she'rdagi xolis tasvir yo'ldan bormay, asarga bevosita aralashganday bo'ladi. Butun bir millatning hayot va borliqqa munosabat yo'sinini tubdan o'zgartirish kerakligi shoirni muvozanatdan chiqaradi. Shoir lirik ifodaning ta'sir kuchini oshirish uchun imlo qoidalariga o'zgarish kiritadi. Jumladan, “yetkazib” so'zini “yetkarib” shaklida ishlatadi:

*Bor bo'lsa,
alarga yetkarib qo'ying,
bir boshga bir o'lim demagan ermas,
shahidlar o'lmaydi,
bir qarab tuying:
Yovga ters qaragan musulmon emas!*³⁰⁵

Tarixda jangovarligi, yovqurligi bilan nom qozongan turkiylarning asl fazilatlaridan mahrum bo'lganligi ifodalanib, “alarga”, “yetkarib”, “ermas” so'zlari soletsizmni tashkil qilgan.

Ko'plab adabiyotshunoslik tadqiqotlarida solipsizm falsafiy konsepsiyasi va she'riyat o'rtasidagi bog'liqlik ko'rib chiqilgan. Bir ilmiy maqolada Samuel Koleridge'ning “Frost at Midnight” va “Dejection: An Ode” she'rlarida solipsizm

³⁰⁵ Rahmon Sh. Saylanma.—Toshkent:Sharq.1997.—384.—B 338.

falsafasi qanday aks etgani tahlil qilinadi³⁰⁶. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, bu she'rlarda shoirning ong holati va tasavvuri tashqi dunyodan ko'ra shaxsning ichki kechinmasi orqali dunyoni anglaydi, ya'ni mavjudot tashqi voqealar uning ongida bo'lgan hissiyotlar orqali izohlanadi³⁰⁷. Bu yondashuv solipsistic holatni she'riy nutqda metaforizm, tasvir va subyektiv fikr bilan birlashtiradi – ya'ni she'riyat faqat shoirning ichki ongidan kelib chiqadigan haqiqatni yaratadi. Garchi o'zbek ilmiy manbalarida aynan “solipsism” atamasi bilan ko'p tadqiqot bo'lmasa-da, bir nechta maqolalarda zamonaviy she'riyatning falsafiy-estetik xususiyatlari tahlil qilingan. Bu ishlar shoirning ichki falsafiy qarashlari, subyektiv obraz va individual tajriba orqali badiiy tasvirni shakllantirish borasidagi tendensiyalarni yoritadi.

Soletsizm qo'llangan shoira Jumagul Suvonovaning she'rlari o'quvchi hissiyotini junbushga keltirmasdan qo'ymaydi:

Fuzuliyning latif so'zin

Dardida to'lg'onur osmon.

Fuzuliydek qo'noq topgan

Tanti mezbbon – Ozarbayjon.

Ruhim bolish etib borgum

*Boshingga qo'ygali, ishon*³⁰⁸.

Ushbu misralarda “to'lg'onur”, “borgum”, “qo'ygali” kabi so'zlar soletsizmni hosil qilgan. Masalan, zamonaviy o'zbek she'riyatida shoirning dunyoqarashi va shaxsning ichki kechinmalari kattaroq rol o'ynaydi, bu esa solipsistik fikrga yaqin yondashuvlarni tashqi voqelikdan ko'ra ichki subyektiv holatlarni tahlil qilishga olib keladi: *Tasavvur shahrida hammasi yaxshi, Hammasi shohona, hammasi go'zal. Faqat bu hududning bag'ri – taloto'p, Uning fuqorosi quvonchga mahtal*³⁰⁹. She'rda ta'sirchanlikni oshirish maqsadida “fuqoro” so'zi ishlatilgan. Soletsizm konsepsiyasi she'riyat tahlilida quyidagi yo'nalishlarda qo'llanadi: subyektiv tajriba markazchilligi – she'rda shaxsning ichki hissi, ruhiy holati birinchi darajali ma'no manbayi sifatida qaraladi. Ichki kechinmalar va real voqelik ustuvorligi – tashqi voqelik tasviridan ko'ra shoirning ichki dunyosi she'riyatning asosi bo'ladi:

Qayerdasan, qanisan o'zi?

Bormakdaman hanuz yugurib.

Hechsa qo'ling cho'zib tur menga,

³⁰⁶ Samuel Coleridge'ning “Frost at Midnight” va “Dejection: An Ode”

³⁰⁷ pdfs.semanticscholar.org

³⁰⁸ Suvonova J. Dardim mening quvonchim mening. Samarqand:Turon nashr, 2021-yil, –B 27,152.

³⁰⁹ O'sha manba. 80-bet

Shoira elning uygʻoq vijdoni sifatida bu hayotning inʼikosini tushuntirishni, tanitishni oʻz burchi deb biladi. Ushbu misralarda *“bormakdaman”*, *“hechsa”* soʻzlari soletsizm sifatida qoʻllangan. Sheʼriyat va falsafa uygʻunligi – solipsism falsafiy yondashuvi orqali sheʼriyat fenomenini chuqur tushunishga yordam beradi. Zamonaviy sheʼriyatda solipsism yoki subyektiv markazchilik tushunchasi mavjud. Bu – sheʼriyatda individual ongning markaziy rolini koʻrsatadigan konsepsiya boʻlib, tashqi voqelikdan koʻra shaxsning ichki kechinmalari orqali badiiy mazmun yaratiladi³¹¹. Ilmiy tahlillarda solipsism falsafasi sheʼriyatni psixologik va metafizik oʻlchamda oʻrganishga yoʻl ochadi, shoirning tajribalari va dunyoqarashi sheʼriyat strukturasini belgilaydi.

Zamonaviy adabiyotshunoslikda bu yondashuv falsafiy-estetik individualizm hamda shaxsning ichki dunyosi taʼkidlashi bilan bogʻliq tendensiyalarni oʻrganishda samarali vosita boʻlib xizmat qiladi. Mustaqillik davri sheʼriyati mazmunan yangilanib borayotgan sheʼriyat sanaladi. Shu bilan bir qatorda, turli sheʼriy shakllar boʻyicha ham tajribalar qilindi.

Mustaqillik yillarida qator katta va yosh avlod ijodkorlarining oʻnlab sheʼriy kitoblari nashr etildi. Tabiiyki, bu sheʼriy koʻngil izhorlarida har bir shoirning oʻz badiiy olami, mahorati va his-tuygʻulari aks etgan. Sheʼrxon jahonshumul oʻzgarishlar davrini oʻz koʻzlari bilan koʻrgan katta avlod shoirlari ijodida istiqloлга shukronalik, yoshlarda esa faxr-iftixor tuygʻulari bilan sugʻorilgan sheʼrlarga duch keladi. Koʻp asrlik oʻzbek sheʼriyati hozirda ham davr ruhini, zamondoshlarga xos tuygʻularni aks ettirishda yetakchilik qilmoqda. U hamon milliy adabiyotimizning yetakchi turi hisoblanadi. Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Omon Matjon, Halima Xudoyberdiyeva, Shavkat Rahmon, Azim Suyun, Usmon Azim, Abduvali Qutbiddin, Farida Afroʻz, Aziz Said, Muhammad Yusuf, Faxriyor, Bahrom Roʻzimuhammad, Iqbol Mirzo, Farrux Hamroyev singari shoirlarning sheʼrlarida olam hodisalari va odamning koʻngil holatlarini shoirona koʻz bilan koʻrish yangi bosqichga koʻtarildi. Bu davr sheʼriyatida oʻquvchiga hayot haqida aql oʻrgatish, qanday yashash yuzasidan unga yoʻl koʻrsatishdan koʻra inson ruhiyatining murakkab manzaralarini aks ettirishga eʼtibor kuchaydi. Odam sezimlarining nozik qatlamlarini tadqiq qilish, inson tuygʻusining xilma-xil qirralarini tasvirlashga koʻproq eʼtibor qaratildi. Bu davrda sheʼriyatda turli shakily izlanishlar gʻoyat koʻpaydi. Oʻzbek istiqloл sheʼriyatini oʻqish, undan taʼsirlanish uchun oʻquvchining qulogʻi bilan koʻzidan tashqari, tafakkuri bilan tuygʻulari ham ishga tushishi, sheʼrlardan zavq olish, lazzatlanish uchun jiddiy mehnat qilishi lozim boʻlib qoldi. Negaki, mustaqillik sheʼriyatida hayot hodisalarini aks ettirishdan koʻra odamning hissiyot qatlamlarini tadqiq etish, uning ruhiyatidagi murakkab holatlarni tasvirlashga urinish kuchaydi. Ruhiyatni tuyish esa, juda qiyin kechadigan jarayon.

³¹⁰ Suvonova J. Dardim mening quvonchim mening. Samarqand: Turon nashr, 2021-yil, –B 27, 152.

³¹¹ <https://pdfs.semanticscholar.org>

Rauf Parfining “Tong otmoqda” she’rida shoirning umidlari, yorqin tuyg’ulari ifodasini topgan. Bunda quyosh zambarakka, uning zarrin nurlari o’qlarga qiyoslangan. Quyoshdan tinimsiz o’qlar yog’iladi go’yo. Aslida bu o’xshatish bejiz emas. Fizik qonuniyatlarga ko’ra, nurning zarralar ko’rinishida tarqalishi ham mavjud voqelikdir. Yer shari shoir tasavvurida o’sha zarralar oqimi – o’qlardan yaralangandek ko’rinadi. Keyin shoir nigohi tabiat hodisasidan insonlarga ko’chadi. Har kuni saharda uyg’ongan odam musaffo tong bilan qarshilashadi. Tong pokizaligi odamlar yuragiga ko’chadi: *Tong otmoqda, tong o’qlar otar,/ Tong otmoqda, quyosh – zambarak.// Yaralangan Yer shari yotar,/ Boshlarida yashil chambarak*³¹². Anjambmangda yozilgan ushbu she’rda tong otishi qanday sodir bo’lishini batafsil tasvirlab, nima uchun shunday bo’lganligini ilmiy asosda tushuntirib berayotgani yo’q, balki mavjud hayotiy holatning badiiy manzarasini yaratmoqda. Bu manzarada tabiatshunoslik yoxud geografiya ilmidagi axborotlarda bo’lmagan bir narsa bor: u ham bo’lsa, shoirning tuyg’u va kechinmalari. Shoir tong otish jarayonini juda go’zal tasvir etadi. O’quvchini ham tongning chindan-da, chiroyli otishiga ishontiradi. Quyoshning chambarak bo’lib, “o’qlar”(nurlar) otishi, o’sha o’qlardan Yerning yaralanishi va bu yaralanish tufayli o’lim emas, balki boshida “yashil chambarak”, ya’ni hayot paydo bo’lishi juda ham o’ziga xos, ta’sirchan ifodalangan. Ayni damda, she’rda ma’lum darajada ilmiy axborot ham yo’q emas. Shoirning adabiy merosi, go’zal she’rlari, ijodining umumpafosi to’g’risida mulohazalar yuritishga undaydi. Shoir she’rlarida Vatan, ona, inson, tabiat mavzulari yetakchilik qiladi. *Yerga botgan osmonlarni kuzatdim, / Chopilgan oyog’im bilan chopdim men. // Kesilgan qo’limni sizga uzatdim,/ Bu dunyo gullarga to’ldi. / Qotdim men*³¹³ singari misralarini o’qib tushunish uchun kishi muayyan ruhiy-intellektual tayyorgarlikka ega bo’lishi zarur. Shoir she’rning ilk satrida yuksaklik da’vosi bilan “osmon”da yurgan, ammo hayot sinovlariga dosh berolmay “yerlarga botgan” kimsalarni kuzatganini qayd etadi. Lekin o’zining imkonini ham, “yerga botgan”nikidan ortiq emasligini ikkinchi satrda aks ettiradi. Bu satrdagi bir o’zakdan yasalgan “chopilgan” va “chopdim” so’zlari go’zal badiiy manzara hosil qilgan. Odam-ojiz, shoirning hech yerga yetmas qo’lining “kesilgan”i shuning belgisi. Lekin dunyo kutilmagan sirlarga to’la. Buni “dunyoning gullarga to’l’ganidan sezish mumkin.

Usmon Azimning “Samarqand bo’ylab tungi sayr” she’rida kechinma uzoq tarix bilan bugungi kun o’rtasidagi uzilmas bog’liklik asosiga qurilgan. Kechalarni chiroqlar parchalab tashlagan goh yorug’, goh qorong’u ko’chalarda tun bilan nur o’rtasida minoralar kelajak sari ko’krak kerib turadi. Quloqlarga azon sasi urilganday bo’ladi. Zinalardan choponga o’ralib falak peshtoqi sari borayotgan shoir “Mening to’rt ming yillik bog’im”, deya Samarqandning tarixiy ildizlariga nazar tashlaydi:

Ana, osmonning qurboni – shahid rasadxona,

³¹² Yo’ldoshev Q., Qosimov B., Qodirov V., Yo’ldoshbekov J. Adabiyot. – Toshkent: Sharq. 2013. – 368. – B 5.

³¹³ Yo’ldoshev Q., Qodirov V., Yo’ldoshbekov J. Adabiyot. – Toshkent: Yangiyo’l poligraf servis. 2014. – B. 200. – B 188.

Ana, tarixning ko‘milgan beshigi – Afrosiyob...

Necha asr bo‘ldi o‘shanga?

–Tuproq, qani,

yoril!

Samarqand, ildizing qayerda³¹⁴?

Ijodkor ichki kechinmalarini chiroyli tarzda nasr yoki nazm ko‘rinishida ifoda eta oladilar. Badiiy kechinma bu hayotni obrazli idrok etish ibtidosidir. Har bir ijodkorning o‘z uslubi va yo‘nalishi bo‘lib, undagi mahorat darajasini belgilab beradi. Usmon Azim qalbidagi kechinmalarni shunday ipga tizadiki, dard-u quvonchlar bir-birini to‘ldirib turadi. Usmon Azim she‘riyatining jozibasi, ko‘pchilikning e‘tirofiga sazovor bo‘lishi ham shundandir. Usmon azim ijodiyoti turkiy she‘riyat, shuningdek, umumsharq adabiyotining eng ilg‘or an‘analarini o‘zida mujassam etgan yangi va yuqori bosqichdir. Aksariyat she‘rlariga nazar tashlasak, lirik qahramonning ichki his-tuyg‘ulari, kuz tasviri va psixologizmi, g‘ussa, tabiat bilan uyg‘unlik, haqiqiy va majoziy muhabbat g‘oyalarining keng yoritilganini anglaymiz. Usmon Azim ijodining tub mohiyati psixologik va falsafiy, majoziylik, ijtimoiy-estetik qarashlarning yuksak poetik shaklidagi ifodasi bo‘lganligi bilan xarakterlanadi. Usmon Azim xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy ma‘naviyatining mukammallik kasb etishida o‘z davrini tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning g‘ururi, shon-u sharafini tarannum etayotgan o‘lmas so‘z san‘atkoridir. U olam va odam, borliq haqidagi o‘tkir falsafiy qarashlari bilan insonning ichki kechinmalariga ta‘sir etish, tarbiyalash bilan bir qatorda odamni Hazrati Inson darajasiga ko‘tarilishiga o‘z hissasini qo‘sha oluvchi mohir ijodkordir. Usmon Azim shiddatli tuyg‘ulari bilan, keskin holatlar va aniq tasvirlari bilan o‘zbek she‘riyatiga yangicha ruh olib kirdi va anjambmangdan foydalandi. Anjambmangda satr tugashi bilan fikrning yakunlanmasligi, balki keyingi satrda davom etishi, bir satrda boshlangan fikrning keyingi satrga o‘tib ketishi aks etadi. Usmon Azimning aksariyat she‘rlarida shunday hodisani ko‘rish mumkin. Shoir shaxsi – vujud, she‘ri – ruh bo‘lib ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi:

...go‘zal bir she‘r yozsam,

haq bir she‘r yozsam,

mard bir she‘r yozsam...

Axir bu she‘rni yozmasdan

Xudoning oldiga qanday boraman?

Nima deyman parvardigorga?

Nima deyman³¹⁵?..

³¹⁴ Usmon Azim. Saylanma. –Toshkent.1995. –B. 45-46

³¹⁵Usmon Azim. Saylanma. –Toshkent.1995. – B. 45-46.

Ko‘rinib turibdiki, shoirlik ijodkor uchun Olloh tomonidan ato etilgan ne‘mat. Usmon Azim qalbida tug‘yon urgan kechinmalarni hamisha qog‘ozga solgan va ruhi taskin topgan. Shu sabab ham shoirlikni kasb deb emas, yelkasida vazifa sifatida bilgan. Har qanday she‘r ruhi, pafosi o‘z qiyofasi-yu ohangiga ega bo‘ladi. Shoir va dunyo, shoir va inson, shoir va jamiyat, shoir va Alloh o‘rtasida vositachi she‘r bo‘ladi. U she‘r orqali his qildi, she‘r orqali fikrladi, she‘r orqali yashadi. Shoirning “Navoiy” nomli she‘rida ham anjambmangning she‘r satri sintaktik jihatdan tugallanmaganligi, fikr, gap yoki tasvir keyingi satrda davom etishi, bu usul she‘rga tuyg‘u, ohang, ritm va sur‘at baxsh etishi, o‘quvchida kutilmaganlik, ta’sirchanlik hosil qilishi ko‘rsatilgan:

Bir qarasam
tashqarida kuz,
bir qarasam bahor,
goh yozda nozlanib yotar tashqari,
goh qorda qaltirab...
Har lahzada – shu.
Xullas, cheksiz Astrobod³¹⁶.

Usmon Azim she‘riyatining yana bir xususiyati, ularning qanot qoqib baland parvoz qilishida. Agar she‘r shoir ostonasidan nari o‘tmasa, xira va qorong‘uda qolib, o‘z xususiyatini yo‘qotsa, muallifni barvaqt mahv etadi. Shoirning ruhiyat nafasi bilan oshufta she‘rlari, birinchi navbatda, go‘zallik timsoli va sarchashmasidir. Shu bois ularning parvozi haqiqatan lochin parvozigaga o‘xshaydi va o‘zlaridan tabiiy bir nur taratadi. Usmon Azim she‘rlari shunday xususiyatga ega. Shoirning “Qush” she‘ri ham anjambmang usulida yozilgan bo‘lib, bunda esa nafaqat she‘rning mazmuni, balki uning ohangi ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi: *Qachondir, Bir paytlar, qushlik kezimda, / Tuzoqqa tushganim ayon esimda. // Tiriklik ko‘yida holim edi tang, / Arang qo‘nar edim, / Uchardim arang*³¹⁷. Usmon Azim “Sobiq kombatim podpolkovnik Dudnikovga” she‘rida sog‘ligi chatoq podpolkovnik doktorning maslahatiga qaramay, o‘z burchi va vazifasi yo‘lida oxirgi nafasigacha fidoyilik bilan olg‘a yuradi. Anjambmang usulida yozilgan shu birgina she‘rda vatan, xalq ishi uchun jonini ham ayamaydigan shaxs obrazini yaratadi. Bu obraz qarshisida par yostiqa yotib, o‘rnidan turishni xayoliga ham keltirmaydigan, o‘z jismining quli bo‘lgan shaxs obrazini qo‘yadi: *Mayli podpolkovnik...// Podpolkovnik,/ olg‘a!// Oldinga yuguraylik bemor yurakni changallab. // “Oxiri yomon bo‘ladi?”// Bekor gap*³¹⁸!

³¹⁶To‘xliyev B., Shermurodov T., Isayeva Sh. Adabiyot. III qism. –Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – 688.– B 634.

³¹⁷To‘xliyev B., Shermurodov T., Isayeva Sh. Adabiyot. III qism. –Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.–688.–B 634.

³¹⁸ Azim Usmon. Insonni tushunish.–B. 14-15

Shoir bu bilan beparvolik, beg'amlik, xotirjamlik botqog'iga botish alal oqibatda halokatli oqibatlarga olib kelishini alohida ta'kidlamog'chi bo'ladi. Usmon Azim she'riyatida Mayakovskiy uslubining yoki siyosiy publitsistik ruhning ko'rinishi dastlab "usmonona " dardning erkin vaznda ifodalanishi bilan boshlanadi."insonni tushunish" to'plamidagi "She'r yozaman", "Polkovnik Fateyev", "Askar o'ldi", "Komandirman", "Insonni tushunish kerak...", "Bu sochlarning" kabi she'rlari shular jumlasidan. Usmon Azimning she'riyatida garchi mayakovskiyona uslubiy izlanishlar ko'rinsa-da, Mayakovskiyga xos uslub va uning ijodiga bo'lgan e'tiqodning tub sabablari hali noma'lum edi. Shoir faqat erkin vazndagi siyosiy she'rlar yaratish bilan cheklanmadi, balki Mayakovskiyning ijodkor va shaxs sifatidagi mohiyatini tushunishga ham intildi. She'r Mayakovskiyni ustoz sifatida idrok etish mayli bo'rtib turgan quyidagi satrlar bilan boshlanadi: *Quyoshni koyiysiz, / Quyosh- ishyoqmas. // Sizningcha, falakda yonar behuda. // Ustoz, qanday kuylay sizga basma-bas, / Uni so'kishni ham qilmagach udda* ³¹⁹.

Parchada Usmon Azimning izlanishlari ham, uning rus shoiriga bo'lgan munosabati ham o'z aksini topgan. Shoir Mayakovskiy uslubiga faqat shaklan ergashishni maqsad qilib olgan emas, balki ko'ngil dardini to'kib solish uchun o'sha paytda o'ziga eng maqbul tuyulgan uslubni tanlagan. Tanlagan uslub haqiqatdan ham shoirning maqsadiga muvofiq tushgan. Maqsad esa, davr nafasini, ijtimoiy-siyosiy hayot nafasini ifodalash edi."Tazarru" she'ri misolida ham yuqoridagi fikrni yana bir karra tasdiqlash mumkin:

*Har kimsaga
kimligingni
ochiq aytib
ketmasang,
bu – onangga xiyonatdir,
Vataningga xiyonat*³²⁰ .

Hayotda to'g'rilik va poklik uchun kurash ruhi Usmon Azim she'riyatidagi lirik qahramonga xos bo'lgan muhim xususiyatlardan sanaladi. Shoir ijodining avvalidanoq, faqat shakily izlanishlarga ruju qo'ymay, ayni vaqtda she'rning mazmuni, shakli ustida ham bosh qotirdi. Anjambmang – bu she'r satrining sintaktik jihatdan yakunlanmasligi, ya'ni bir satrda boshlangan fikr, gap yoki obraz keyingi satrda davom etishi. Usmon Azim she'rlarining aksariyati anjambmangda yozilgan bo'lib, keyingi satrda izohlanadi yoki to'ldiriladi.

Xalq adabiyotiga xos adabiy sujetlar va ularning qahramonlari obrazini poetiklashtirish, shu asosda davr fojialari, quvonch va tashvishlarini aks ettirish

³¹⁹ Azim Usmon. Surat parchalari. – Toshkent: Yosh gvardiya.1986.–B. 13

³²⁰ Azim Usmon. Surat parchalari. – Toshkent: Yosh gvardiya.1986.–B. 23 .

Usmon Azim she'riyatida yanada chuqurlashib bordi. Uning "Dramatik balladalar" turkumiga kiritilgan asarlarida xalq ijodi sujetlariga murojaat etish mayli kuchaydi. Bu turkumda sakkizta ballada bo'lib, uning bittasi ilohiy mavzudagi fantastikaga asoslangan, qolganlari esa, xalq ertaklarining Kenja botir, To'ng'ich botir, O'rtancha botir, Gulpari, Qora botir kabi qahramonlari timsolida davr hayotini ifodalashga qaratilgan. Xalq og'zaki ijodida ulkan va mitti odamlar to'g'risida ko'plab adabiy sujetlar mavjud. Usmon Azim ana shu adabiy sujetdan foydalanib, ramziy timsollar vositasida davrning o'ziga xos fojialarini ko'rsatadi. "Dramatik balladalar" turkumining beshinchi asarida kichik odam – davrning amalsiz, oddiy fuqarosi, ulkan odam – davrning yuksak martaba va mavqega ega bo'lgan amaldori sifatida ko'rinadi. Ballada kichik odamning ulkan odamga murojaati bilan boshlanadi:

Bilmayman, boshimni kim olib ketdi –

Dunyo bilganicha afsona aytar,

Ortiq chidolmayman –

Dil yonib ketdi,

Ulkan odam,

Menga boshimni qaytar³²¹!

Shoir Usmon Azim kichik odam timsolida qizil imperiya davrida ezilgan, o'z erk-huquqini yo'qotgan, faqat birovning topshirig'i va ko'rsatmasi bilan ish bajaruvchi, lekin fikrlarini amalga oshirish imkoni bo'lmagan kishining obrazini chizadi. Usmon Azim balladasining hali qizil imperiya o'z oyog'ida mustahkam turgan bir pallada yaratilishining o'zi bir jasoratdir. U Moskvada turib, ko'p millionli xalqni o'z irodasiga bo'ysundirgan "ulkan odam"ga o'z noroziligini dadil aytadi. U yaratgan dunyo qo'rqinchli bo'lib, unda yashayotgan kishi o'z aqli bilan emas, birovning aqli bilan ish yuritishga majbur ekaniga urg'u berib, anjambmangning go'zal namunasini yaratdi:

Istiqlool ufqqa sarobday botar...

Qarsaklar shiddati

Borarkan toshib,

Barcha yelkalarda bamaylixotir

Turar mening boshim,

Bir mening boshim.

Ammo men aqlimni yeb qo'yganim yo'q,

³²¹ Azim Usmon. Baxshiyona. Dramatik balladalar. – Toshkent. 1990. –B. 15-16

Asradim hammani boshini alhol.
Ana, omborlarda yotibdi to‘p-to‘p,
O‘zingni boshingni
*Bor-da topib ol*³²²!

Nihoyat kichik odam o‘z boshini topib olgach, ulkan odamga “Men yashayman o‘z boshim bilan” deb murojaat etadiki, bu ham davr fojiasini ochuvchi kalitlardan biridir. Chunki uzoq muddat birovning qaramog‘ida yashagan insonning ozod bo‘lgach, sarosimaga tushishi tabiiy hol. Lekin kichik odamning bu murojaatida kinoya ruhi yashirin. Badiiy ijod insondan yuqori darajadagi yuksak iste’dod va mahoratni talab etuvchi jarayondir. Bu jarayon lazzati va ta’mini totib ko‘rish har kimga ham nasib etmaydi. Inson mana shu baxtni o‘ziga ato etganligini his etsagina go‘zal va betakror ijodiy ishlar qila oladi. Mustaqillikdan so‘ng she’riyatimiz chinakam poetik rang-baranglik kasb etdi, yuksak saviyadagi vatan, muhabbat, sevgiga sadoqat, inson ichki kechinmalari singari mavzular doirasi yanada yuksaldi. Bu an’ana adabiyot maydoniga g‘ayrati jo‘sh urgan vatan sha’ni uchun kurasha oladigan ijodkorlarni yetishishiga sabab bo‘ldi. Zebo Mirzo, Xosiyat Rustamova, Oydinniso kabi ijodkorlarning lirik qahramonlarida olamni anglashga intilishning kuchayishi, o‘zlik, Vatan, Ona siymosining turfa poetik talqinlariga singdirilganligini kuzatish mumkin. Istiqlool davri she’riyati shunday tuyg‘ularni shakllanishi uchun keng imkon berdi.

Adabiyotshunos N.Rahimjonov qayd etganidek: “Lirika – fikr va his-tuyg‘u sintezining teranlashgan shaklidir. Bu hol yakka-yolg‘iz holatlardan teran falsafiy mazmunga ega bo‘lgan umumlashma fikrlarda, bugungi voqeligimizdan kelajakka daxldor belgilarni topa bilish va ko‘rsata olishda namoyon bo‘ladi”³²³.

Zebo Mirzo ayollar dardini kuylaydi. “Sog‘inch xanjari” she’rida sog‘inchning dardli tomonlarini va uning iztiroblarini ifoda etadiki, natijada yengil ruh mayin epkin shamol kishi qalbini zabt etadi.

Qo‘llarimning titrog‘i titrog‘imdadir,
Jonimni tiritgan bir mayin bo‘sa...
Ruhimni pichoqlab yashayotirman,
Ey muhabbat qayg‘u,
*Ey go‘zal g‘ussa*³²⁴...

Bu she’rda ijodkor ma’shuqa timsolida gavdalanib, muhabbat ayollar dilida qanchalik og‘riq berishi va ayol muhabbatining qiyosiy darajasini anjambangda

³²² Azim Usmon. Baxshiyona. Dramatik balladalar. – Toshkent. 1990. –B. 15-16

³²³Rahimjonov N. Mustaqillik davri o‘zbek she’riyati. Tamoyillar, tajribalar, saboqlar. –Toshkent: Fan, 2007, – B 46.

³²⁴ G‘.G‘ulomning poetik mahorati. Konferensiya materiallari. Samarqand: SamDU nashriyoti, 2023, – B 222.

tasvirlaydi. She’rda ayol sevsa yuragiga pichoq sanchilganday, ilk bo’sa esa jonlarga to’lg’oq bag’ishlaganday tasvirlangan. Shoir she’rini mutolaa qilarkansiz, mashuqa bilan birga iztirobga tushasiz, yig’laysiz, dardlashasiz, yonsa yonasiz, kuysa kuyasiz. Bu eng asosiy xarakterlanadigan jihatlardan biridir, chunki lirik qahramonning kechinmalariga “oshno” bo’lasiz, uning dardlariga o’zingizni ham sherik deb his etasiz. Ishq azobi suyak-suyaklarnida zirqiratguvchi ilohiy va go’zal tuyg’u sifatida e’tirof etilishi ham bejiz emas. Shoir bir she’rda yozadi: *Umrinni o’tkinchi saboga berdim,/ Eng son’ggi chaqamni gadoga berdim,/ Bu telba ruhimni Xudoga berdim.// Sabo olib bordi, gadoga berdi, / Gado yig’ib bordi, Xudoga berdi.// Xudo meni senga-xatoga berdi, / Sen meni kimlarga berding, Azizim?*³²⁵ Qisqagina bu she’rda o’y va ko’ngil odamining o’z umri davomida bosib o’tadigan uzun yo’lidagi asosiy bekatlar aks etgan deyish mumkin. She’riy satrlarda butun bir umrni o’tkinchi saboga, so’nggi chaqasini gadoga, ruhini Xudoga berib o’ziga hech narsa olib qolmagan kishi holati va kayfiyati tamomila o’ziga xos yo’sinda aks etgan. Oqibat ham amalga yarasha, lekin shoir – umid kishisi. Shu bois qandaydir mo’jiza yuz berishini kutadi. Lekin mo’jiza doim ham bo’lavermas ekan, shekilli, uni Xudo xatoga berdi. She’rning butun o’ziga xosligi, jozibasi ayni so’nggi satrda aks etadi. O’zi-ku uning chekiga xatò tushgandi, lekin xatoning ham buni kimgadir berib yuborishi mumkinligi lirik qahramonni hayratga soladi: *”Sen meni kimlarga berding, Azizim?”* Ruhiga begona bo’lgan xatonida “azizim” deyishday, xatodanda ayrilishni istamaslikday chigal va tushunarsiz tuyg’ular faqat bugungi kun kishisiga xosdir. Istiqlolgacha bo’lgan adabiyotda masala bunday qo’yilmas edi. She’r va shuur uning bir-biriga o’zaro aloqadorligi, yuksak yechimi va betakror fazilatlari bilan kishini o’ziga tortadi. Zebo Mirzo ijodida ham she’r va shuur birligi yuzaga kelib, unda shoir anjambmangning go’zal olami va tajassumini aks ettiradi.

Iste’dodli shoir J.Suvonovning “Ayt” nomli she’ri anjambmangda yozilgan. She’rda:

Bir so’z ayt

Bag’rida Haq

Xudo bo’lsin

Bu satrlarda grammatik jihatdan fikr bitta gap: Ya’ni, "Bir so’z ayt, bag’rida Haq Xudo bo’lsin." - kabi bir qatorda ifodalanishi lozim edi. Ammo shoir uni uch misraga bo’lib, anjambmang orqali mazmunni bosqichma-bosqich ochadi:

Bir so’z ayt – chaqiriq, Bag’rida Haq – mazmunni ochish uchun harakat,

Xudo bo’lsin – g’oyaning asosi, ya’ni cho’qqisi. Bu usul fikr ta’sirini kuchaytiradi. Ikkinchidan she’rda anjambmang usulida dramatik pauza yaratish holatini paydo qiladi:

Shul so’zdan

³²⁵ Yo’ldoshev Q., Qodirov V., Yo’ldoshibekov J. Adabiyot. – Toshkent: Yangiyo’l poligraf servis. 2014. – B. 200. 188.

Koinot

Bir nido tutsin

Bu o'rinda ham anjambmang mavjud bo'lib, dramatik pauza yaratish holatini go'zal namunasi sifatida ko'zga tashlanib turadi. Aslida mazmunan fikr:

"Shul so'zdan koinot bir nido tutsin." - tarzida bir qatorda ifodalanishi mumkin edi. Ammo: Shul so'zdan – sabab, Koinot - masshtabni kengaytirish, Bir nido tutsin – natija sifatida ifodalanmoqda. Bu koinot miqyosidagi fikr ta'sirni bosqichma-bosqich ko'tarilishini ko'rsatib beradi. Har qanday holatda ham mavjud voqeylikning sababi bo'ladi. Sabablar esa holatni yaratadi. Holatlar albatta bir kun kelib natijani yuzaga keltiradi. Biroq natijaga erishmoq yo'li shoir falsafiy fikrlarining darajasiga bog'liq bo'ladi. Bu o'rinda uning his-tuyg'ulari, istak-xohishi, lirik kechinmalari juda katta ahamiyat kasb etadi.

Quyidagi misrada anjambmang hissiyotni kuchaytiradi:

Yig'lab ayt

Yonib ayt

Dard egiz bo'lsin

Bu satrlarda harakat, hissiyot, natija ketma-ket ifodalanadi. Anjambmang hissiyot orqali ritmni kuchaytirib beradi. Aslida: "Yig'lab ayt, yonib ayt, dard egiz bo'lsin." Bu yerda anjambmang uslubi qo'llanilishi tufayli hissiyot kuchaytiriladi va misralar ajratiladi hamda harakat takrorlanishi natijasida fikrning emotsional qudrati oshadi va qatorlar aro o'rmalab ketadi. Bu hodisa ualubning asosiy sifatlaridan biridir. She'rdan kuchli chaqiriq effekti:

Hayot de

Nomus de

Bevaqt o'lmagin

Bu joyda anjambmang shaxsiy murojaatni kuchaytiradi va umumbashariy chaqiriqqa aylantirib beradi. Zotan hayotda yashamoq uchun inson tish – tirnog'i bilan tirmashishi, oriyat-nomus tushunchalarini har nedan ustun qo'ymog'i lozim ekanini yana bir bora e'tirof ettirmoq istagidir.

Aslida fikr: "Hayot de, nomus de, bevaqt o'lmagin" shaklida bitta qatorda ham ifodalanishi mumkin edi. Lekin alohida misralar orqali har bir so'z shiorga aylanib kuchli hayqiriq bo'lib jaranglaydi. Ushbu hayqiriq esa asarni ma'nan yuksaltirib, mazmunan kuchaytirib asosiy nuqtaga ko'tarib beradi. Ya'ni kuliminatsion nuqtaga, maqsad ochilishiga:

Dunyo kishvarida

KURASH deya ayt

Axir yashash qiyin
O‘rmalama
Tur
Tik turolsang shudir
YASHASH deya ayt.

Bu satrlarda shoir yashash-maqsad, talab va xulosani umumlashtiradi. Zero yashamoq bu kurashmoq. Maqsad esa yashamoq va yashashni talab etmoq. She’rda yashamoq sharti, da’vati, talabi, qonuniyati va falsafasi mavjud.

Tinish belgilersiz yozilgan ushbu she’rda anjambmang bu fikrlarni badiiy falsafiy xulosaga aylantirib beradi. Yashamoq falsafasi!.. Kurashmoq falsafasi!.. Tik turmoq va yengmoq falsafasi. Hayot va yashamoq naqadar mashaqqat, mehnat va qiyinchiliklardan iborat ekanini shoir ushbu misralardagi mazmunga singdirib yuboradi.

Anjambmang she’rda intizorlik tuyg‘usini yaratish, she’rning ritmini nazorat qilish, ma’noli so‘zni ta’kidlash uchun ishlatiladi. She’rda intizorlik tuyg‘usini yaratishda anjambmang satrlarning to‘liq ma’nosi faqat she’rni o‘qish orqali aniq bo‘ladi. Shu tarzda anjambmang harakat yoki chalkashlik hissini ham yaratish mumkin. Iste’dodli shoir Farrux Hamroyevning “Tiriklik” she’rida buning yorqin misolini ko‘rish mumkin:

Besharpa
Yaqin kelar
O‘lim,
Qo‘llarimdan tutadi
Sassiz.
Undan ayro tushar
Yo‘lim,
Intilaveradi o‘lim
*Ayro tushaveradi yo‘lim*³²⁶.

She’rning ritmi bo‘lmagan joyda qator uzilishlari ko‘rinishida pauza qo‘yish orqali nazorat qilish. Ayniqsa, tinish belgilarini qo‘llashda tejamkor shoirlar uchun tinish belgilari o‘rnida qator uzilishi qo‘llanishi ritmda pauza hosil qilish mumkin:

Izlasang –
Osmonlar

³²⁶ Hamroyev Farrux. Dunyoning ismi. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012 (156 b) -B 17.

Poyingga tushsa.

Chorlasang –

Go ‘zallar

Kelsa yoningga.

Quvlasang –

Keksalik

*Ketsa joningdan*³²⁷ .

Anjambmangda ma’noli so’zni ta’kidlash satrni odatda urg’ulanmaydigan so’z bilan tugatish o’quvchini diqqatini she’rda qo’shimcha og’irlik talab qiladigan alohida so’zlarga o’tkazishning yaxshi usuli hisoblanadi:

Yomg’ir

Sekin-asta

Yig’ladi,

Yuzlarim

Yoshimga bo’yaldi.

Ko’zlarimga

To’lib qoldi

Yosh.

Farrux Hamroyevning “Onamning uyi” she’riy to’plamlaridan o’rin olgan she’rlaridagi obraz, tashbehlarda, qofiyalar tizimida fikrning rivoji va xulosasida mashhur shoirlar she’rlariga monand jihatlar ham seziladi. Shoirning "Onamning uyi"da kishini ma’nan poklanishga, insoniy kamolot sari intilishga da’vat etuvchi, ijtimoiy salmoqqa ega she’rlar ko’p. Ular yasama, sun’iy, to’qima emas, hayotning o’zidan olingan:

Onamning uyi bor

Tomi tuproqdan.

Devori tuproqdan,

Eshigi tuproqdan

Beshigi tuproqdan.

U uyda Farhod ham bor.

Qasr uylar qolib

³²⁷ Hamroyev Farrux. Dunyoning ismi. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012 (156 b) –B 14.

*Qabr uyga bordi Onam.
Yerga tashlayman men
Tilimni,
Sog'inib yashayman
Qabr uyimni³²⁸.*

Zamonaviy she'riyatda soletsizm va anjambmang an'anaviy normadan chiqib, yangi poetik strategiyalarga aylangan. Ijodkor barchani birday hayajonga soladigan, ohorli, salmoqli xulosalarga uzoq va mashaqqatli izlanishlar jarayonida, ijodiy balog'atga yetganida erishadi. Buning uchun luqma halol bo'lishi shart. Har bir odam uchun, ayniqsa, qo'lida qalam tutgan kishi uchun bu benihoya zarur. Kishining tanovul qiladigan ovqati ham, aytadigan so'zi ham luqma. Qalamkash uchun luqmaning halolligi shuning uchun ham kerakki, uning qalbida qanday holat bo'lsa, shu qog'ozga ko'chadi. Har bir kishi she'rga, musiqaga, suratga, qo'yingki, barcha san'at asarlariga o'zining dunyoqarashi, saviyasi, ta'bi, didi darajasida yondashadi. Eng muhimi, muallifning hayotdagi hodisalarga befarq emasligi, tevarak atrofdagi har bir voqea uning qalbida aks sado berishini ko'rsatadi. Shoirning to'plamlaridagi she'rlar mavzu doirasi ham shundan dalolat beradi. Shoir hayotda ko'rgan, qalbini larzaga solgan voqelikni o'z nigohi, o'z ovozi orqali anjambmangda ma'lum etishga harakat qiladi:

*Muhabbat
Hajrida xazonman
Vafosiz bir dildan
To'kilgan.
Yaproqmas
Men, asli
Ovozman
Dunyoning
Ko'ksidan
Otilgan³²⁹.*

Professor I.K.Mirzayev anjambmang hali ham she'rshunoslikka oid darslik va qo'llanmalarda an'anaviy sintaktik vositalar qatoriga kiritilmaganligi, hatto poetik sintaksisga bag'ishlangan bo'limlarda ham bu hodisa haqida ko'pincha sukut

³²⁸ Hamroyev Farrux. Onamning uyi. – Toshkent: Akademnashr, 2025, –B 57.

³²⁹ Hamroyev Farrux. Onamning uyi. – Toshkent: Akademnashr, 2025, – B 26.

saqlanganligini keltirib o'tadi³³⁰. Filolog O. Brik ushbu hodisani "ritmik sintaksis" deb atagani eslatib o'tiladi. Bu she'rdagi gap tuzilishi bevosita uning ritmiga bog'liqligini anglatadi. Unda she'r ritmi faqat metrik qolip emas, balki sintaktik bo'linish, gap qurilishi, pauza va intonatsiya bilan bog'liq birlik sifatida talqin qilinadi³³¹. Tadqiqotchi N. S. Pospelovning fikricha, she'riy sintaksis – bu alohida turdagi hodisadir. U nasriy sintaksisdan ancha murakkab bo'lib, takrorlar, anaforalar va paralellizmlar, zich sintaktik aloqalar, so'z tartibidagi katta erkinlik bilan ajralib turadi. N.S.Pospelov she'riy sintaksisning badiiy funktsiya va poetik strukturadagi o'rnini tushuntiradi³³².

Professor I.K.Mirzayev she'riyatda berilgan an'anaviy va yaratilgan individual tushunchalar o'rtasidagi bog'liqlikni ta'kidlaydi. Anjambmang – o'ziga xos badiiy effekt yaratishning asosiy usullaridan biri ekanligiga daxl qiladi. I.K.Mirzayevning "She'riy matnning lingvopoetik talqini muammolari (Zamonaviy o'zbek she'riyati materiali asosida)" nomli dissertatsiyasida birinchi marta ushbu she'riy hodisa o'zbek tili materiali va umuman turkiy tillar asosida har tomonlama tarkibiy-semantik jihatdan tavsiflandi. Anjambmangning yetarli darajada o'rganilmaganligidan, masalan, uning potensial ta'sirchan vosita sifatida tadqiq etiladigan sintaktik vositalar qatoriga hali an'anaviy tarzda kiritilmaganligiga daxl qilinadi. She'r tuzilishi bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalarida, hatto poetik sintaksis masalalari maxsus ko'rib chiqilganda ham, anjambmang haqida sukut saqlanadi³³³.

She'riy ko'chim muammolarini ishlab chiqish zaruriyati poetik sintaksisning yetarli darajada o'rganilmaganligi bilan bog'liq bo'lib, u O. Brik tomonidan "ritmik sintaksis" deb tavsiflangan edi. Bunda, birinchi navbatda, uning she'rning ritmik tuzilishiga bog'liqligi nazarda tutilgan. N. S. Pospelovning fikricha, she'riy sintaksis – bu o'ziga xos sintaksis bo'lib, u nasriy sintaksisga qaraganda ancha murakkabligi bilan ajralib turadi hamda takrorlar, anaforalar, paralellizmlar, sintaktik aloqalarning zichligi, qo'shilma konstruksiyalarning keng qo'llanilishi, so'z tartibidagi katta erkinlik va she'riy ko'chimlarda namoyon bo'ladi (Pospelov 1960, 8-bet). She'riy nutq sintaksisining qayd etilgan ushbu hodisalari muntazam bo'lib, umumiy jihatdan oson takrorlanuvchidir. Biroq badiiy effekt va uning she'riyatda vujudga kelishi shundan iboratki, she'riy asarda tayyor va yaratilgan, takrorlanuvchi va takrorlanmaydigan individual unsurlar muammosi mavjuddir. V.K.Trediakovskiy anjambmangni "bir butun she'riy satrda tugallanmagan, balki uning oxirigacha davom etadigan ma'no" deb tushungan³³⁴. S. D. Katsnelsonning fikricha, she'riy satr va gap mazmuni mos kelganda u tugallangan tuyuladi. Ammo anjambmang yuz

³³⁰ I.K.Mirzayevning "She'riy matnning lingvopoetik talqini muammolari (zamonaviy o'zbek she'riyati materiali asosida)" nomli dissertatsiyasi.-Toshkent:1992.

³³¹ Brik O.M.Ritm i sintaksis.Noviy LEF-1927.

³³² Pospelov N.O.Vvedeniye v literaturovedeniye.– Moskva:Visshaya shkola, 1976.

^{333 333} I.K.Mirzayevning "She'riy matnning lingvopoetik talqini muammolari (zamonaviy o'zbek she'riyati materiali asosida)" nomli dissertatsiyasi.-Toshkent: 1992.

³³⁴ Тредиakovский В. К. Новый и краткий способ к сложению российских стихов. – Санкт-Петербург: Печ. при Имп. Акад. наук, 1735. – 97 с.

berganda, “mazmun tugallanmaganligi” fonida “intonatsion tugallanganlik” kuchliroq seziladi va bu kitobxon idrokini o‘tkirlashtiradi. S. D. Katsnelsonning ohang, ya’ni intonatsiya va mazmun o‘rtasidagi ichki ziddiyat haqidagi fikri keltirilgan. Anjambmang tabiatini tadqiq etar ekan, S.D. Katsnelson (66-bet) shunday qayd etadi: "Agar mulohaza, ya’ni jumla satr bilan birga yakunlansa, u holda intonatsiyaning tugallanmaganligi katta ahamiyat kasb etadi va aksincha, mulohaza tugallanmagan bo‘lsa, intonatsion tugallanganlik satr oxirida yanada o‘tkirroq idrok etiladi". Gap satr bilan birga tugamasa, o‘ziga xos taranglik yuzaga keladi. Biz satrning “ohang jihatidan tugallanganini” his qilamiz, lekin “fikrning tugallanmaganligi” she’rning idrok etilishini o‘tkirlashtiradi.³³⁵ I.K.Mirzayev “anjambmang” atamasini “ritmik-sintaktik uzilish” tushunchasi bilan ma’nodosh deb hisoblaydi. Muallif dissertatsiyada anjambmangga struktur-semantik hodisa deb ta’rif beradi. Uning asosiy vazifasi murakkab sintaktik butunlik ichidagi alohida gaplarni bir-biri bilan bog‘lovchi vosita bo‘lib xizmat qilishdir. Anjambmangning bog‘lovchi imkoniyati mantiqiy obyektivlikka asoslangan bo‘lib, u satr oxirlarining ohangdoshligini ta’minlashga xizmat qiladi. Anjambmangda aynan nima keyingi satrga o‘tadi? Gapmi, semantik-sintaktik guruhmi, sintagmami yoki so‘z birikmasimi? Bu borada Jirmunskiy, Tinjanov, Shcherba, Tomashevskiy kabi yirik olimlarning qarashlari turlicha ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan³³⁶. V. K. Trediakovskiy XVIII asrdayoq anjambmangni bir satrda tugallanmay, keyingisida davom etadigan “tugallanmagan ma’no” deb tushungan. L. G. Badretdinova fikricha, ritmik-sintaktik uzilish tushunchasi mutlaqo ma’nodosh ekanligini ta’kidlaydi.

I. K. Mirzayev anjambmangni struktur-semantik hodisa deb belgilaydi. Uning asosiy “tashkil etuvchi vazifasi” – murakkab sintaktik butunlik tarkibidagi alohida gaplarni bog‘lash, shuningdek, vazn va qofiya ifodalanishiga yordam berishdir. Anjambmangning salohiyati mantiqiy aloqalarda mujassam bo‘lib, u satr oxirlarining ohangdoshligini ta’minlashga xizmat qiladi. Ushbu dissertatsiya shuning uchun muhimki, u eng yirik filologlarning anjambmang haqidagi qarashlarini tizimlashtiradi va muallifning nuqtayi nazarini shakllantiradi. Unga ko‘ra, anjambmang shunchaki texnik usul emas, balki she’riyatda ma’no va ritmni tashkil etuvchi murakkab vositadir.

I.K.Mirzayevning dissertatsiyasida anjambmangga struktur-semantik hodisa deb ta’rif berish qabul qilingan. Bunda uning tartibga soluvchi vazifasi murakkab sintaktik butunlik tarkibiga kiruvchi alohida gaplar orasida bog‘lovchi vosita bo‘lib xizmat qilish qobiliyati (Pospelov, 28-bet), shuningdek, ritm va qofiya ifodasi nazarda tutiladi. Adabiyotshunoslikda anjambmang bo‘yicha nima ko‘chimga uchrashi masalasi bahsli bo‘lib qolmoqda:

– Gap (V.M. Jirmunskiy, G.N. Akimova);

³³⁵ Кацнельсон Р. Д. О стиховой строке // Вопросы языкознания. – 1966.

³³⁶ I.K.Mirzayevning “She’riy matnning lingvopoetik talqini muammolari (zamonaviy o‘zbek she’riyati materiali asosida)” nomli dissertatsiyasi.-Toshkent:1992.

- Sintaktik butunlik (N.S. Pospelov);
- Sintagma (L.V. Shcherba, B.V. Tomashevskiy, V.E. Xolshevnikov, M.L. Gasparov, X.A. Dozorets, G. Gruppa);
- So‘z birikmasi (L.I. Timofeyev, L.G. Badretdinova)³³⁷.

I.K.Mirzayev she’rda aynan nima keyingi satrga ko‘chishi borasida olimlar o‘rtasidagi kelishmovchiliklarni bartaraf etish yo‘lini taklif qiladi. U til va nutq tushunchalarini bir-biridan ajratishni taklif etadi.

- Til darajasida (struktur tahlil) – gaplar va so‘z birikmalari ko‘chadi.
- Nutq darajasida (semantik tahlil) – mulohazalar va sintagmalar ko‘chadi.

Olim muhim bir jihatni qayd etadi: gapning she’riy satr bilan mos kelmasligining o‘zi hali har doim ham ko‘chim effektini beravermaydi. Anjambmang faqatgina real ritmik-sintaktik uzilish vujudga kelgandagina paydo bo‘ladi. Anjambmang tushunchasi rus va Yevropa she’riyatida keng qo‘llaniladi. Poetik nutqda gapning sintaktik tugallanmasligi, ya’ni satr oxirida fikr tugamay, keyingi satrda davom etishidir³³⁸.

Anjambmang she’riy nutqda muhim badiiy vosita hisoblanadi. U she’rning ritmik tuzilishiga, intonatsiyasiga va mazmuniy ta’siriga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Anjambmang yordamida shoir muhim so‘z yoki iborani ajratib ko‘rsatishi mumkin.

Anjambmangni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, u sintaktik jihatdan turli shakllarda namoyon bo‘ladi: gap bo‘laklari orasida, so‘z birikmalari orasida, hatto bitta so‘z darajasida ham. Shuningdek, anjambmang semantik tomondan ham muhimdir, chunki u fikrni bo‘lib berish orqali mazmuniy urg‘uni kuchaytiradi. Satr uzilishi rus va Yevropa she’riyatida turlicha murakkablikka ega. Xususan, A. X. Trediakovskiy rus she’ri nazariyotchisi sifatida shuni ta’kidlaydi: “She’rda fikr har doim ham bitta satr ichida tugashi shart emas, ko‘pincha u keyingi satrga o‘tadi, bu esa tabiiy hol.” I. S. Stolovich esa anjambmangni ongli badiiy uslubiy vosita deb hisoblaydi. Uning fikricha, shoir anjambmangdan foydalanib, fikrni kuchaytiradi, emotsional ta’sirni oshiradi va ritmik tuzilishni boyitadi³³⁹. Demak, anjambmang tasodifiy hodisa emas, balki she’riy nutqning muhim badiiy mexanizmi hisoblanadi.

Zamonaviy she’riyatda soletsizm endi faqat grammatik buzilish emas, balki ong oqimi, individuallik va nutq tabiiyligini ifodalovchi estetik vositaga aylandi. Anjambmang esa ritmik uzilishdan tashqari semantik keskinlik va ko‘p qatlamli ma’no yaratish usuli sifatida qo‘llanmoqda. Ikkala fenomen ham matn ichidagi kommunikativ dinamika va o‘quvchi bilan dialogni kuchaytiradi. Soletsizm – nutq subyektivligini, anjambmang esa o‘qish jarayonidagi intonatsion taranglik va

³³⁷ I.K.Mirzayevning “She’riy matnning lingvopoetik talqini muammolari (zamonaviy o‘zbek she’riyati materiali asosida)” nomli dissertatsiyasi.-Toshkent:1992.

³³⁸ O‘sha manba

³³⁹ Столович Л.Н. Эстетическое в действительности и искусстве. – Москва: Искусство, 1972.– 271 с.

interpretativ bo'shliqlarni kengaytiradi. Hozirgi she'riyatda fragmentarlik, sintaktik parchalanganlik va ko'p ma'nolilik kuchaygani sababli, soletsizm va anjambmang strukturaviy buzilish orqali yangi semantik qatlamlar hosil qiladi. Bu esa an'anaviy she'riy tartibdan ongli ravishda chekinishni ko'rsatadi. Anjambmang endi faqat sintaktik ko'chish emas, balki sahifadagi vizual kompozitsiya, pauza va o'qish tezligini boshqaruvchi mexanizmga aylangan. Soletsizm esa fonetik va morfosintaktik darajada ritmik notekislik hosil qilib, she'ning ovozli strukturasi boyitadi.

Zamonaviy shoirlar normadan og'ish orqali o'ziga xos poetik identitet yaratadi. Soletsizm shaxsiy nutq modeli, anjambmang esa fikrning uzluksiz oqimini ifodalovchi vosita sifatida xizmat qiladi. Zamonaviy she'riyatda soletsizm va anjambmang transformatsiyasi ularni oddiy stilistik hodisadan murakkab diskursiv va semantik mexanizmlarga aylantirdi. Ular nafaqat shakliy buzilish, balki yangi estetik paradigma – fragmentarlik, subyektivlik va o'quvchi ishtirokiga asoslangan poetik tafakkurning asosiy komponentlariga aylandi.

Bob bo'yicha xulosalar

1. Anjambmang va soletsizm poetik nutqda yuzaki strukturaviy buzilish sifatida emas, balki estetik ma'no ishlab chiqaruvchi universal mexanizmlar sifatida namoyon bo'ladi. Har ikkala hodisa til va she'riy normaning ongli ravishda buzilishi orqali poetik diskursni avtomatlashuvdan chiqaradi hamda matnning ichki dinamikasini kuchaytiradi.

2. Har ikkala fenomen semantik noaniqlik va ko'pqatlamlilikni faollashtiradi. Ma'no darhol ochilmaydi, balki kechiktiriladi va o'quvchi tomonidan qayta modellashtiriladi. Bu jarayon poetik nutqning pragmatik intensivligini oshirib, o'quvchini passiv qabul qiluvchi emas, balki faol interpretatorga aylantiradi.

3. Anjambmang va soletsizmnining umumiy jihati – poetik subyektivlikni strukturaviy vositalar orqali ifodalashidir. Buzilgan ritm yoki grammatik shakl lirik subyektning ichki kechinmalari, emotsional beqarorligi yoki psixologik keskinligini ifodalovchi belgiga aylanadi. Anjambmang va soletsizm poetik diskursda norma va og'ish dialektikasiga asoslangan, kognitiv, semiotik va pragmatik darajalarda faol ishlaydigan, poetik nutqni yangilovchi va estetikashtiruvchi umumiy mexanizmlar tizimini tashkil etadi.

4. Soletsizm va anjambmang diskursda turli sathlarda ishlaydi, ammo umumiy maqsadga xizmat qiladi: normani buzish orqali ma'noni kuchaytiradi. Soletsizm diskursni ichidan yemiruvchi, grammatik qarshilik vositasi. Anjambmang esa diskursni chegaralarda siljituvchi, intonatsion strategiyadir. Ularning birgalikda qo'llanishi poetik diskursda maksimal semantik va affektiv zichlikni ta'minlaydi.

5. Soletsizm poetik diskursda til me'yorlarining ongli ravishda buzilishi orqali subyektivlik, ekspressivlik va semantik keskinlikni kuchaytiradi. U nutqiy kutilmaganlikni yuzaga keltirib, o'quvchini oddiy sintaktik yoki grammatik idrokdan chiqaradi va matnga konnotativ, ironik yoki dramatik yuk bag'ishlaydi.

Shu tariqa soletsizm diskursda muallif pozitsiyasini faol tarzda namoyon etuvchi, nutqni pragmatik jihatdan faollashtiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi.

4. Anjambmang esa poetik diskursda sintaktik va metrik tuzilma o'rtasidagi ziddiyat orqali diskursiv dinamika yaratadi. Misra chegaralarining sintaktik jihatdan buzilishi nutq oqimini uzluksizlashtiradi, ma'no kechiktirilishini yuzaga keltiradi va o'quvchi idrokini faol holatga keltiradi. Natijada anjambmang diskursiv vaqtini cho'zish, semantik urg'uni siljitish va ritmik kutilmaganlik hosil qilish vazifasini bajaradi.

5. Soletsizm va anjambmang poetik diskursda muallif ijodiy strategiyasining muhim komponentlari bo'lib, ular orqali badiiy nutqning ekspressivligi, semantik chuqurligi va pragmatik ta'sirchanligi ta'minlanadi. Har ikkala hodisa poetik matnning diskursiv tabiati – ya'ni ma'no, shakl va idrok o'rtasidagi murakkab o'zaro munosabatni yaqqol namoyon etadi.

6. Zamonaviy she'riyatda soletsizm endi faqat grammatik buzilish emas, balki ong oqimi, individuallik va nutq tabiiyligini ifodalovchi estetik vositaga aylandi. Anjambmang esa ritmik uzilishdan tashqari semantik keskinlik va ko'p qatlamli ma'no yaratish usuli sifatida qo'llanmoqda. Ikkala fenomen ham matn ichidagi kommunikativ dinamika va o'quvchi bilan dialogni kuchaytiradi. Soletsizm – nutq subyektivligini, anjambmang esa o'qish jarayonidagi intonatsion taranglik va interpretativ bo'shliqlarni kengaytiradi.

7. Zamonaviy she'riyatda fragmentarlik, sintaktik parchalanganlik va ko'p ma'nolilik kuchaygani sababli, soletsizm va anjambmang strukturaviy buzilish orqali yangi semantik qatlamlar hosil qiladi. Bu esa an'anaviy she'riy tartibdan ongli ravishda chekinishni ko'rsatadi. Anjambmang endi faqat sintaktik ko'chish emas, balki sahifadagi vizual kompozitsiya, pauza va o'qish tezligini boshqaruvchi mexanizmga aylangan. Soletsizm esa fonetik va morfosintaktik darajada ritmik notekislik hosil qilib, she'rning ovoqli strukturasi boyitadi.

8. Zamonaviy shoirlar normadan og'ish orqali o'ziga xos poetik identitet yaratadi. Soletsizm shaxsiy nutq modeli, anjambo'mang esa fikrning uzluksiz oqimini ifodalovchi vosita sifatida xizmat qiladi. Zamonaviy she'riyatda soletsizm va anjambmang transformatsiyasi ularni oddiy stilistik hodisadan murakkab diskursiv va semantik mexanizmlarga aylantirdi. Ular nafaqat shakliy buzilish, balki yangi estetik paradigma – fragmentarlik, subyektivlik va o'quvchi ishtirokiga asoslangan poetik tafakkurning asosiy komponentlariga aylandi.

9. Olim I.K.Mirzayev "She'riy matnning lingvopoetik talqini muammolari (Zamonaviy o'zbek she'riyati materiali asosida)" nomli tadqiqotida anjambmangni oddiy misra uzilishi emas, balki she'riy matnning sintaktik-ritmik strukturasi tashkil etuvchi, mazmuniy chuqurlik va estetik ta'sirni kuchaytiruvchi lingvopoetik hodisa sifatida talqin qiladi. U misra ko'chishini she'rning semantik, uslubiy va ritmik qatlamlarini uyg'unlashtiruvchi asosiy poetik vositalaridan biri deb hisoblaydi.

XULOSA

1. Til va ritm tushunchalarining lingvopoetik talqini shuni ko'rsatadiki, ritm badiiy matnda faqat fonetik hodisa sifatida emas, balki fonetik, sintaktik va semantik darajalarining o'zaro integratsiyasi natijasida shakllanadigan kompleks poetik tizim sifatida namoyon bo'ladi. Bu holat ritmni badiiy matnning ichki tashkil etuvchi mexanizmi sifatida baholash imkonini beradi. Ritmning lingvopoetik tizimdagi estetik funksiyasi badiiy matnning ta'sirchanligini oshirish, poetik idrokni faollashtirish va emotsional-ekspressiv qatlamni kuchaytirish orqali namoyon bo'ladi. Bu esa ritmni lingvopoetik funksiya doirasida estetik qiymat hosil qiluvchi asosiy vositalardan biri sifatida e'tirof etishga asos bo'ladi.

2. She'riy nutqda strukturaviy buzilishlar (inversiya, ellipsis, anjambmang, asindeton, polisindeton, parallelizmning buzilishi) grammatik me'yorni izdan

chiqarish orqali estetik, emotsional va semantik chuqurlikni ta'minlaydi. Bu hodisalar poetik matnda "me'yoriy-og'ish-estetik ta'sir" zanjiri asosida ishlaydi va she'riy matnda o'quvchi idrokini faollashtiradi, hissiy va obrazli chuqurlikni oshiradi.

3. She'riy nutqda strukturaviy buzilishlar (fragmentatsiya, metr-sintaksis nomuvofiqligi, morfologik og'ish, simmetriyaning buzilishi, elliptiklik) faqat me'yorni buzish emas, balki estetik va kognitiv ta'sirni kuchaytiruvchi mexanizm sifatida ishlaydi. Bu hodisalar orqali she'riy matn o'quvchi idrokini faollashtiradi, hissiy va obrazli chuqurlikni oshiradi.

4. Soletsizm va anjambmang poetik diskursda normadan ongli chetlanish asosida shakllanadigan muhim lingvopoetik hodisalar hisoblanadi. Har ikkala vosita poetik nutqda estetik ta'sirchanlikni kuchaytirish, o'quvchi idrokini faollashtirish hamda muallifning individual uslubini namoyon etishga xizmat qiladi. Ular poetik diskursda kutilmaganlik, semantik keskinlik va ekspressivlikni yuzaga keltirib, badiiy matnning interpretativ imkoniyatlarini kengaytiradi.

5. Soletsizm – bu til tizimining, ayniqsa sintaktik me'yorlarining buzilishi bilan bog'liq hodisa bo'lib, u preskriptiv grammatikada "xato" sifatida baholansada, lingvopoetik va badiiy diskursda funktsional-stilistik vosita sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Tasnif jihatidan soletsizm sintaktik, morfologik, semantik va stilistik turlarga ajratilishi mumkin. Bu holat soletsizmni nafaqat "normadan og'ish", balki diskursiv va estetik kategoriya sifatida ham talqin qilish imkonini beradi.

6. Morfosintaktik soletsizm va sof sintaktik soletsizm til tizimidagi og'ishlarning ikki muhim tipini tashkil etadi. Birinchisi morfologik shakl va sintaktik vazifa o'rtasidagi nomuvofiqlikka asoslangan bo'lsa, ikkinchisi gapning sof strukturaviy tashkilida yuzaga keladigan buzilishlar bilan belgilanadi. Lingvopoetik nuqtayi nazardan, har ikkala tur ham poetik diskursda estetik va ekspressiv effekt yaratish imkoniyatiga ega bo'lib, normadan ongli ravishda chekinishning muhim mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

7. Soletsizm sintaktik strukturaning buzilishi orqali ritm va intonatsiyaning me'yoriy tashkilini izdan chiqaradi, ritmik kutilmalarni buzadi va intonatsion konturlarni beqarorlashtiradi. Natijada nutqda emotsional zo'riqish, semantik urg'ulash va estetik effekt kuchayadi. Shu jihatdan, soletsizm lingvopoetik tahlilda prosodik tizim bilan uzviy bog'liq bo'lgan muhim stilistik omil sifatida baholanishi lozim.

8. She'riy nutqda soletsizm semantik ko'pqatlamlilikni yuzaga keltiradi, hissiy-psixologik holatlarni grammatik shakl orqali ifodalaydi, ritm va intonatsiyaning qayta tashkil etadi, estetik ta'sirni kuchaytiradi. Foregrounding mexanizmi orqali poetik tilning estetik funksiyasini faollashtiradi, muallifning individual poetik uslubini shakllantirishga xizmat qiladi.

9. She'riyatda soletsizm lingvistik xato sifatida emas, balki maqsadli poetik strategiya sifatida amal qiladi. U normani buzish orqali semantik urg'u yaratadi,

subyektivlik va affektiv holatlarni modellashtiradi, shoirning individual uslubini shakllantiradi, begonalashtirish orqali estetik idrokni faollashtiradi, poetik funksiyaning kuchayishiga xizmat qiladi. Shu bois soletsizm poetik diskursda mazmuniy-estetik transformator vazifasini bajaradi. Bu esa shoir nutqining taniluvchanligini ta'minlab, poetik uslubning stilistik identifikatori sifatida xizmat qiladi.

10. Klassik she'riyatda anjambmang ko'pincha yumshoq, ritmik va sintaktik silliqlikni saqlovchi vosita bo'lsa, zamonaviy she'riyatda u keskinlik, fragmentlik va semantik kutilmaganlik yaratishga xizmat qiladi. Anjambmang sintaktik uzilish darajasiga ko'ra (yumshoq va keskin), sintaktik birlik turiga ko'ra (fraz, so'z birikmasi va so'z darajasidagi), kompozitsion joylashuviga ko'ra (misralararo va bandlararo), hamda maxsus klassik shakllar sifatida rejet va kontre-rejet kabi ko'rinishlar ajratiladi. Anjambmang turlarining ko'pligi va funksional rang-barangligi uning she'riy diskursda universal va ko'p qatlamli lingvopoetik hodisa ekanini tasdiqlaydi.

11. Anjambmang she'riy nutqda sintaktik va metrik chegaralarning mos kelmasligi natijasida yuzaga keladigan poetik hodisa bo'lib, u she'r ritmining shakllanishida faol ishtirok etadi. Anjambmang she'riy ritmni tezlashtiruvchi va uzluksizlashtiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi: sintaktik birlik misra chegarasidan oshib ketgani sababli pauza kuchsizlanadi, urg'u va intonatsion markazlar qayta taqsimlanadi. Shu yo'sinda anjambmang ritmni statik metrik sxemadan chiqarib, uni harakatdagi, jarayonli hodisa sifatida idrok etishga olib keladi.

12. Anjambmang va she'riy ritm o'rtasidagi munosabat antagonistik emas, balki funksional-dialektik xarakterga ega: anjambmang ritmni buzmaydi, balki uni moslashuvchan, nutqiy va ekspressiv tizim sifatida qayta tashkil etadi. Shu sababli anjambmang she'riy ritmning tirikligi va individual ijodiy tabiatini namoyon etuvchi muhim poetik mexanizm sifatida talqin qilinadi.

13. Anjambmang she'riy nutqda faqat formal-metrik hodisa emas, balki chuqur semantik va pragmatik funksiyalarga ega bo'lgan ko'p qatlamli poetik mexanizmdir. Anjambmang she'riy satr va sintaktik butunlik o'rtasidagi nomuvofiqlik orqali mazmunni qatlamlashtiradi. Fikrning keyingi misraga ko'chishi semantik kutilmaganlikni yuzaga keltirib, obraz va g'oyaning chuqurroq idrok etilishiga xizmat qiladi. Shu bois zamonaviy poetika va lingvopoetikada anjambmang mazmun va kommunikativ strategiya tutashgan nuqta sifatida baholanadi.

14. Satr uzilishi sababli yuzaga kelgan sintaktik noaniqlik o'quvchini faol interpretatsiyaga undaydi. O'quvchi ma'noni tiklash jarayonida muallif bilan "hamkorlik" qiladi, bu esa pragmatik ta'sirchanlikni oshiradi. Anjambmang poetik nutqni sun'iy qat'iylilikdan xalos etib, og'zaki nutqqa xos bo'lgan uzilish, pauza va intonatsion siljishlarni modellashtiradi. Bu esa she'rning kommunikativ tabiati kuchayishiga olib keladi. Anjambmang metr-ritmik tizim bilan semantik oqim

o'rtasida ziddiyat hosil qilib, she'riy nutqda dinamik harakatni ta'minlaydi. Ushbu ziddiyat poetik matnning estetik samaradorligini oshiradi.

15. Anjambmang va soletsizm poetik nutqda yuzaki strukturaviy buzilish sifatida emas, balki estetik ma'no ishlab chiqaruvchi universal mexanizmlar sifatida namoyon bo'ladi. Har ikkala hodisa til va she'riy normaning ongli ravishda buzilishi orqali poetik diskursni avtomatlashuvdan chiqaradi hamda matnning ichki dinamikasini kuchaytiradi. Har ikkala fenomen semantik noaniqlik va ko'pqatlamlilikni faollashtiradi. Bu jarayon poetik nutqning pragmatik intensivligini oshirib, o'quvchini passiv qabul qiluvchi emas, balki faol interpretatorga aylantiradi.

16. Anjambmang va soletsizm poetik diskursda norma va og'ish dialektikasiga asoslangan, kognitiv, semiotik va pragmatik darajalarda faol ishlaydigan, poetik nutqni yangilovchi va estetiklashtiruvchi umumiy mexanizmlar tizimini tashkil etadi. Soletsizm diskursni ichidan yemiruvchi, grammatik qarshilik vositasi. Anjambmang esa diskursni chegaralarda siljituvchi, intonatsion strategiyadir. Ularning birgalikda qo'llanishi poetik diskursda maksimal semantik va affektiv zichlikni ta'minlaydi.

17. Soletsizm poetik diskursda til me'yorlarining ongli ravishda buzilishi orqali subyektivlik, ekspressivlik va semantik keskinlikni kuchaytiradi. Soletsizm diskursda muallif pozitsiyasini faol tarzda namoyon etuvchi, nutqni pragmatik jihatdan faollashtiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Anjambmang esa poetik diskursda sintaktik va metrik tuzilma o'rtasidagi ziddiyat orqali diskursiv dinamika yaratadi. Diskursiv vaqtni cho'zish, semantik urg'uni siljitish va ritmik kutilmaganlik hosil qilish vazifasini bajaradi.

18. Zamonaviy she'riyatda soletsizm endi faqat grammatik buzilish emas, balki ong oqimi, individuallik va nutq tabiiyligini ifodalovchi estetik vositaga aylandi. Anjambmang esa ritmik uzilishdan tashqari semantik keskinlik va ko'p qatlamli ma'no yaratish usuli sifatida qo'llanmoqda. Ikkala fenomen ham matn ichidagi kommunikativ dinamika va o'quvchi bilan dialogni kuchaytiradi. Soletsizm – nutq subyektivligini, anjambmang esa o'qish jarayonidagi intonatsion taranglik va interpretativ bo'shliqlarni kengaytiradi.

19. Zamonaviy shoirlar normadan og'ish orqali o'ziga xos poetik identitet yaratadi. Soletsizm shaxsiy nutq modeli, anjambo'mang esa fikrning uzluksiz oqimini ifodalovchi vosita sifatida xizmat qiladi. Zamonaviy she'riyatda soletsizm va anjambmang transformatsiyasi ularni oddiy stilistik hodisadan murakkab diskursiv va semantik mexanizmlarga aylantirdi. Ular nafaqat shakliy buzilish, balki yangi estetik paradigma – fragmentarlik, subyektivlik va o'quvchi ishtirokiga asoslangan poetik tafakkurning asosiy komponentlariga aylandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2016. – 53 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi: “Bizning buyuk va dono xalqimiz o‘z tarixida sharaflı sahifalarnı ochishga qodir” // “Xalq so‘zi” gazetasi, 25.01.2020. №19 (7490).

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. // Xalq so‘zi, 2019 yil 9- oktabr: №209 (7439).

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. <http://lex.uz/docs/3765586>

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. <http://www.lex.uz/docs/3171590>

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida. <http://lex.uz/docs/3207162>

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida Xorijiy tillarnı o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. // www.lex.uz

8. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси// Национальное информационное агенство. Миллий ахборот агентлиги. - <https://uza.uz/ru/politics/poslanie-prezidenta-respublikiuzbekistan-shavkata-mirziyoev-25-01-2020>

I. Ilmiy-nazariy adabiyotlar

a) milliy nashrlar

9. Abdurahmonov A. Turkiy adabiyotning qadimgi davri. –T.: Yangi asr avlodi, 2005. – 378 b.

10. Adabiyot nazariyasi. 1-jild. –Toshkent: Fan, 1978. – 356 b.

11. Adabiyot.11-sinf: darslik-majmua / B.To'xliyev, B.Karimov, K.Usmonova.-Toshkent: 2018. – B. 98.

12.Adabiyot. Majmua. III qism. B.To‘xliyev, T.Shermurodov, Sh.Isayeva.- Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2010. –B. 618.

13. Ahmedov S., Qosimov B., Qo'chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot. - Toshkent: 2015. – B. 152.
14. Boboyev T. Adabiyotshunoslik sohalari. – Toshkent: O'zbekiston. 2002. – 427 b.
15. Салохий Д. Навоий назмиёти. - Самарқанд, Zarafshon, 2013. -142 б.
16. Е.А. Коммуникативная структура текста. – Л.: Наука, 1989. – С. 5-64.;
17. G'.Abdurahmonov, Sh.Shoabdurahmonov, A.Hojiyev. O'zbek tili grammatikasi. II tom. – Toshkent: Fan. 1976. – 559 b.
18. G'.G'ulomning poetik mahorati. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 13-may. 2023, – 244 b.
19. G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. – Toshkent: O'qituvchi, 1987. – 256 б.
20. Koshg'ariy M. Devonu lug'otit turk. 3-tomlik. 1-tom. –Toshkent: O'zbekiston SSR fanlar akademiyasi nashriyot, 1960. – 499 b.
21. Lutfullayeva D.E. Yillar sarhisobi: o'zbek tilshunosligining mustaqillik davri taraqqiyoti. Istiqlol davri tilshunosligi, adabiyotshunosligi va folklarning dozarb masalalari mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. – Toshkent, 2021.
22. Muhammadjonova G. “80-yillar oxiri va 90-yillar boshlari o'zbek she'riyatining lingvopoetik tadqiqi”. Filol. Fan. nomz... ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoref. – Andijon. 2003. – 25 s.
23. Ne'matov N., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent, 1995. – 146 б.
24. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. – Toshkent, 2002. – 231 б.
25. Nurmonov A. Tilshunoslikning adabiyot bilan munosabati, Tanlangan asarlar. 3 jildli. – Toshkent: Akademnasr, 2012. –1210 b.
26. Nurmonov A., Mahmudov N. va boshqalar. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. – Toshkent: Fan, 1992. – 292 б.
27. O'rinboyeva E., Nurmatova S., Lingvopoetika – tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishi sifatida. O'zbek va tojik adabiyotida zullisonaynlik an'anasi. – 259 b.
28. O'rinboyev B., Musayev A. Umumiy tilshunoslik (o'quv qo'llanma). – Toshkent: Oltin kitob, 2022. – 200 b.
29. Orzibekov R. O'zbek lirik she'riyati janrlari. -T., Fan, 2006. -354 b.
30. Orzibekov R. O'zbek lirik she'riyati janrlari. -T., Fan, 2006. -354 b.
31. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent. 2003. – 220 b.
32. Rahmatullayev Sh. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tili. – Toshkent. 2006. – 476 b.
33. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent, 2013. – 312 b.
34. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent. 2010. – B. 499-500.
35. Sayfullayeva R.R., Abuzalova M.Q., Mamadaliyeva N.S., Yuldasheva

D.N. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent, 2020. – 288 b.

36. Sh.Safarov. Til nazariyasi va lingvometodologiyasi. – Toshkent: Bayoz, 2015. – B. 56.

37. To‘xliyev B., Karimov B., Usmonova K. Adabiyot. 11-sinf: darslik-majmua. –Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2018 – 55-b.

38. To‘ychiyev Ummat. O‘zbek poeziyasida aruz sistemasi. – Toshkent: Fan, 1985, – 212-b.

39. Tohirov S. Mumtoz g‘azallar vaznini o‘rganishning ayrim jihatlari. Тил ва адабиёт муаммолари. – Сам: СамДУнашри, 2010. –21-26 б.

40. Tohirov S. O‘zbek she‘riyatida aruz. – Sam., SamDU nashri, 2010. – 68 b.

41. Turniyozov N.Q. O‘zbek tili struktal sintaksisiga kirish. – Samarqand: SamDU, 1989. – 76 б.

42. Umirqulov B. Poetik nutq leksikasi. -Toshkent: Fan, 1990. – 109 b.

43. Umurov H. Adabiyot qoidalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2002 – 206 b.

44. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent, 2019. – 245 b.

45. Valixo‘jayev B. Alisher Navoiy she‘riyati. – Samarqand, SamDU nashri, 2001. – 100 b.

46. Xolmanova Z. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Shafolat Nur Fayz, 2020. – 256 b.

47. Xolova M. O‘zbek she‘riyati: tarixi va nazariyasi. –Toshkent: Navro‘z, 2018, – 116 b.

48. Yo‘ldoshev I., Sharipova O‘. Tilshunoslik asoslari. Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2007. – 192 b.

49. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: Fan, 2007. – 156 b.

50.Yo‘ldoshev Q., Qosimov B., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot. – Toshkent: Sharq.2013.– 368.– B. 5.

51.Yo‘ldoshev Q., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot. – Toshkent:Yangiyo‘l poligraf servis, 2014. – B.188.

52. Yusupov K. O‘zbek adabiy tilining leksik-semantik va stilistikasi. – Toshkent: Fan, 1986. – 134 б.

53. Юсупов Й. К. Теоретические основы сопоставительной лингвистики. – Тошкент: Фан, 2007. – 126 с.

54. Абдурахмонов Ғ., Сулаймонов А., Холиёров Х., Омонтурдиев Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Олий ўқув юртларининг филология факультетлари сиртки бўлим студентлари учун қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – 208 б.

55. Абдухалимова, С. У. Ўзбек тилшунослигида синтаксис ва қўшма гаплар назарияси / С. У. Абдухалимова. - Текст: непосредственный // Молодой ученый. - 2020. - № 20 (310). – 674-676 б.

56. Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. МАТ. 16-том, -Т.: Фан, 2000. – 334 б.

57. Бегматов М.Б. Лисоний мулоқот ва гапнинг вербаллашуви.- “Тил ва ижтимоий-маданий мулоқотлар” мавзусидаги Республика илмий-амалий анжумани материаллари (1-китоб). – Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2013. – В. 79.
58. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент, 1985. – 202 б.
59. Бобоев Т. Шеър илми таълими. –Т., Ўқитувчи, 1996. – 344 б.
60. Boboyev T. Adabiyotshunoslik sohalari. – Toshkent: O‘zbekiston. 2002. – В. 427.
61. Бобокалонов Р. Ўзбек тилида семантик-функционал шаклланган сўз-гаплар талқини. – Тошкент: Фан, 2006. –126 б.
62. Бушуй Т.А., Сафаров Ш.С. Тил қурилиши: таҳлил методлари ва методологияси. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 112.
63. Валихонов А. Ғазал нафосати. –Т.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1985. – 232 б.
64. Дониёров Х., Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадиий стиль. – Тошкент: Фан, 1988. – 209 б.
65. Дониёров Х., Мирзаев С. Сўз санъати (махорат ва тил ҳақида мулоҳазадар). – Тошкент: Ўзадабийнашр, 1962. – 316 б.
66. Жамолхонов Ҳ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Дарслик. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2013. – 406 б.
67. Йўлдошев Б. Бадиий нутқ стилистикаси. – Самарқанд, СамДУ нашри, 1982. – 82 б.
68. Йўлдошев Б. Бадиий нутқ стилистикаси. – Самарқанд, СамДУ нашри, 1982.
69. Йўлдошев Б. Ўзбек тилшунослигида матн ва уни ўрганиш муаммолари // Лингвопоэтика, структур филология ва когнитив таълим муаммолари (халқаро илмий анжуман материаллари). 2-қисм. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2006.
70. Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. –Тошкент: Фан, 2006.
71. Йўлдошев М. Бадиий матннинг лисоний таҳлили. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2008.
72. Каримов С. Ўзбек тили функционал стилистикаси. Монография. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2010. – 192 б.
73. Қўнғуров Р., Каримов С., Қурбонов Т. Ўзбек тилининг функционал стиллари. Ўқув қўлланма. – Самарқанд: СамДУ нашри, 1984. – Б. 53.
74. Қурбонова М., Сайфуллаева Р., Боқиева Г., Менглиев Б. Ўзбек тилининг структурал синтаксиси. Ўқув қўлланмаси. – Тошкент. 2003.
75. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. –Тошкент: Академнашр, 2013. – Б. 83.

76. Қўчқортоев И. Бадиий нутқ стилистикаси. – Тошкент: ТошДУ нашри, 1975. – 96 б.
77. Қўчқортоев И. Бадиий сўз устаси. – Тошкент, 1967. – 32 б.
78. Komilov N. Tasavvuf. Ikkinchi kitob. -Toshkent: O‘zbekiston, 1999. – В. 34.
79. Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi (Sintaksis). – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. – 228 б.
80. Мамажонов А. Текст лингвистикаси. Ўқув қўлланмаси. – Тошкент, 1989. – 28.
81. Махмараимова Ш. Лингвокультурология. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Чўлпон номидаги НМИУ, 2017. – 164 б.
82. Маҳкамов Н., Эрматов И. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 2013. – Б. 144.
83. Маҳмудов Н. Тилимизнинг тилла сандиғи. Мжтимоий-маърифий эсселар. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2012. – 152 б.
84. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 228 б.
85. Миртожиев М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-жилд. – Тошкент: Университет, 2004. – 222 б.
86. Миртожиев М.М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – 288 б.
87. Мукаррамов М. Ҳозирги ўзбек тилининг илмий стили. Монография. – Тошкент, 1984. – 160 б.
88. Мухаммедова Д. Матн ва унинг турлари // Истиқлол ва тил. 3-қисм. – Тошкент, 2007. – Б. 17-19.
89. Носиров О. ва б. Ўзбек классик шеърят жанрлари. – Т., Ўқитувчи, 1979. – 184 б.
90. Нурмонов А. Гап ҳақида синтактик назариялар. – Тошкент, 1988. – 99 б.
91. Нурмонов А., Маҳмудов Н., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Тошкент: Фан, 1992. – 292 б.
92. Пардаев А.С. Явление отраженной синонимии в русском языке. – Ташкент: MUMTOZ SO‘Z, 2014. – 128 с.
93. Расулов И. Ҳозирги ўзбек адабий тилида бир составли гаплар. – Тошкент – 1974. – Б. 43-47.
94. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. Икки китобдан иборат дарслик. 2-китоб. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – 212 б.
95. Салоҳий Д. «Бадоеъ ул-бидоя» малоҳати. – Т., Фан, 2004. – 135 б.
96. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: «Сангзор» нашриёти, 2006. – 92 б. – Б. 17.
97. Сафаров Ш. Семантика. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2013. – 344 б.

98. Сафаров Ш. Тил назарияси ва лингвометодология. – Тошкент: Баёз, 2015. – 376 б.
99. Сафаров Ш., Тоирова Г. Нутқнинг этносоциопрагматик таҳлили асослари. – Самарқанд, 2007. – Б.34.
100. И.Султон (Иззат Султон). Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – 392 б.
101. Тоҳиров С. XV асрнинг биринчи ярми туркий шеъриятида туюқ ва рубойи.//Мавлоно Лутфий шеърияти ва давр адабий муҳити муаммолари. Илмий мақолалар тўплами. Самарқанд, СамДУ нашри, 2010. 50-57-бетлар. Ташкент: «MUMTOZ SOZ», 2014. – 158 с.
102. Тўйчиев У. Адабий турлар ва жанрлар: 3 жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: Фан, 1993. – 248 б.
103. Турниёзов Н. Матн лингвистикаси. – Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2003. – 86 б.;
104. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили (лексикология, фонетика, морфология), қайта ишланган, тўлдирилган учинчи нашри. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 399 б.
105. Турсунпулатов М. Лексика узбекской разговорной речи. – Ташкент, Фан, 1986. – 68 с.
106. Ўзбек тили грамматикаси, икки томлик, 1-том. Морфология. – Тошкент: 1975. – 612 б.
107. Ўзбек тилининг структурал синтаксиси. Ўқув қўлланмаси. – Тошкент, 2003. – Б. 48.
108. Умуркулов Б. Бадиий адабиётда сўз. – Тошкент: Фан, 1993. -132 б.
109. Ўринбоев Б. Ўзбек тили сўзлашув нутқи синтаксиси масалалари, – Тошкент: Фан, 1974. – 148 б.
110. Ўринбоев Б. Функционал услубият ва унинг моҳияти. – Тошкент: Фан, 1992. – 34 б.
111. Ўринбоев Б., Ўринбоева Д. Ҳозирги ўзбек тилининг сўзлашув услуби. – Тошкент: Фан, 1991. – 161 б.
112. Хайруллаев Х. Предикативлик ҳодисаси ва унинг ифода объектлари. – Самарқанд, 2002. – 92 б.
113. Храпченко Б.М. Текст и его свойство // Вопросы языкознания. – М., 1985., №2. – С. 7.
114. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Т.: Фан, 1999. -240 б.
115. Ҳожиев А.Тилшунослик терминларининг изохли луғати. – Тошкент, 2002. –168 б.
116. Ҳожиев А. Ҳозирги ўзбек тилида форма ясалиши. –Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – Б.6.
- 117.
118. Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға.// Ўзбек тили ва адабиёти, 2002, 1-сон, –147 б.

119. Шайхзода М. Асарлар. 6 томлик, 4-том. Ғазал мулкининг султони.- Т.: Бадиий адабиёт нашриёти, 1972. -372 б.
120. Шаҳобиддинова Ш., Исоқов З. Матн ва уни боғловчи воситалардан бири//Ўзбек тили ва адабиёти. 2004, №6, -73-76 б.
121. Шоабдурахмонов Ш. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. –447 б.
122. Шомаксудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Х. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи. 1983. – 247 б.
123. Шукуров Р. Сўзнинг морфологик вариантлари. – Тошкент: Фан, 1990. – 93 б.
- 124.** Shukurov N. Gʻafur Gʻulomning lirik poeziyadagi mahorati.– Toshkent: Fan. 1966. – B. 70.
125. Элтазаров Д. Тилдаги тежамкорлик тамойили ва қисқарув. Монография. – Самарқанд, СамДУ нашри, 2004. – 110 б.
126. Юсупов К. Ўзбек адабий тилининг лексик-семантик ва стилистик хусусиятлари. – Тошкент, Фан, 1986. – 124 б.
127. Toʻxliyev B., Shermurodov T., Isayeva Sh. Adabiyot. III qism. – Toshkent: Choʻlpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2010.– 188 б.
128. Vohidov E. Shoir-u sheʼru shuur: Adabiy oʻylar. – Toshkent: Yosh gvardiya.1987. – B. 76.
129. Shukur, Eshqobil.Yashil qushlar (Sheʼrlar).–Toshkent: Yozuvchi,1995.– B.11.

b) Xorijiy nashrlar

- 130.** Жирмунский В. М. Введение в метрику: Теория стиха. – Ленинград: Academia, 1925. – 284 б.
131. Щерба Л. В. Опыты лингвистического анализа. – Ленинград, 1957.– 188 с.
132. Лотман Ю. М. Структура художественного текста. – Москва: Искусство, 1970. – 384 с.
133. Телия В. Н. Объект лингвокультурологии между Сциллой лингвокреативной техники языка и Харибдой культуры (к проблеме частной эпистемологии лингвокультурологии) // С любовью к языку: сб. науч. трудов. – М.; Воронеж: ВГУ, 2002. – С. 21.
134. Abrams M. H. A Glossary of Literary Terms (11th edition). – Boston: Wadsworth Cengage Learning, 2015.– 448 p.
135. Allan R.J. Homeric Enjambment. – Oxford: Oxford University Press, 2000
136. Аполлоний Дискол. On Solecism; Verbs and Their Arguments. – John Benjamins; Cambridge: Cambridge University Press, 2000. – 281 p.
137. Артур Рембо. Le Bateau ivre («Маст кема») // Les Illuminations («Ёритилишлар»). – Париж: Alphonse Lemerre, 1871.–103 p.

138. Attridge, D. *Poetic Rhythm; An Introduction*.—Cambridge: Cambridge University Press, 1995.— 274 p.
139. Austin J. L. *How to Do Things with Words*. — Oxford: Oxford University Press, 1962. — 168 p.
140. Авчиева Т. А. XXI аср шоирларида анжамбеман кучли стилистик усул сифатида // *Общественные и гуманитарные науки. Известия ДГПУ*. — 2015. — № 1. — Б. 53–55.
141. Балашов-Ескин К. М. Poetic Enjambments as the Phenomenon of V. A. Sosnora's Poetic Syntax // *Русская речь*. — 2021. — № 2. — С. 100–115. DOI: 10.31857/S013161170014713-3.
142. Балли Ш. *Traité de stylistique française*. — Париж, 1909. — 2 т. — Жами 595 бет (331 + 264 б.)
143. Барт Р. *Le degré zéro de l'écriture* (Нутқ ёзувининг нол даражаси). — Париж, 1953. — 264 p.
144. Barthes R. *Le degré zéro de l'écriture*. — Paris. 1953.—220 p.
145. Богранд Р. А. Information, expectation, and processing; On classifying poetic texts // *Poetics*. — Amsterdam. — Vol. 7. — № 1. — 1978. — P. 20.
146. Benveniste É. *Problèmes de linguistique générale*. — Paris: Gallimard, 1966. — 356 p.
147. Brik O. M. “Ritm i sintaksis” (Ритм и синтаксис). *Noviy LEF*, 1921. —P. 25.
148. Brogan, A. T. V. F. & Greene, D. *The Princeton Encyclopedia of Poetry and Poetics* (4th ed.). Princeton: Princeton University Press, 2012.—1639 p.
149. Blohm, S., Hohl, C., Michaeli, R., Vesper, C., Menninghaus, W., & Schleewsky, M. (2018). Sentence Judgments and the Grammar of Poetry: Linking Linguistic Structure and Poetic Effect. *Poetics*, 69, 41–56.
150. Beaugrande R.A. Information, expectation, and processing; On classifying poetic texts.— *Poetics*, Amsterdam, vol.7.N 1.1978. — P. 20.
151. Crystal, D. *The Cambridge Encyclopedia of the English Language*. Cambridge: Cambridge University Press, 2003. — 506 p.
152. Crystal, D. *A Dictionary of Linguistics and Phonetics*. 6th ed. — Malden, MA & Oxford: Blackwell Publishing / John Wiley & Sons, 2008/2011. — **529 p.**
153. Culler, J. *Theory of the Lyric*. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 2015. —P. 384.
154. DergiPark. Turkish Academic Journals Platform. — Ankara, Turkey: DergiPark, 2025. URL: <https://dergipark.org.tr>
155. Eco, U. *The Open Work*. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 1989.—273 p.
156. Empson W. *Seven Types of Ambiguity*. — London, 1953.— P. 273.
157. Федотов О. И. *Основы русского стихосложения. Метрика и ритмика*. — Москва: Флинта, 1997. — 336 с. — С. 36–37.

158. Festinger L. *A Theory of Cognitive Dissonance*. – Stanford: Stanford University Press, 1957. – 291 p.
159. Fussell, Paul. *Poetic Meter and Poetic Form*. – New York: McGraw-Hill, 1979. – 188 p.
160. Garner, B. A. *Garner's Dictionary of Modern Legal Usage* (2nd ed.). – New York: Oxford University Press, 1995. – 953 p.
161. Гаспаров М. Л. *Современный русский стих: Метрика и ритмика*. – Москва: Наука, 1974. – 487 с.
162. Гаспаров М. Л. *Метр и смысл*. – Москва: Фортуна ЭЛ, 2012. – 416 с. – ISBN 978-5-9582-0045-0. – 416 с.
163. Гаспаров М. Л. *Очерк истории русского стиха. Метрика. Ритмика. Рифма. Строфика*. – Москва: Фортуна Лимитед, 2000. – 352 с. – ISBN 5-85695-020-8. – С. 352.
164. Гаспаров М. Л. *Избранные труды. Т. IV: Лингвистика стиха. Анализы и интерпретации*. – Москва: Языки славянской культуры, 2012. – 720 с. – ISBN 978-5-9551-0618-2. – С. 720.
165. Гавранек Б. *О функциональном расслоении литературного языка // Пражский лингвистический кружок: Сборник статей*. – Москва: Прогресс, 1967. – С. 338–377.
166. Genette G. *Narrative Discourse: An Essay in Method*. – Ithaca: Cornell University Press, 1980. – 285 p.
167. Grice P. *Logic and Conversation. // Syntax and Semantics. Vol. 3: Speech Acts*. – New York: Academic Press, 1975. – P. 41–58.
168. Григорьев Б. П. *О задачах лингвистической поэтики // Известия АН СССР. Серия литературы и языка*. – Москва, 1966. – Т. 25. – Вып. 6.
169. Григорьев В. П. *Поэтика слова*. – Москва: Наука, 1976. – 74 с.
170. Gyugo Viktor. *Les Châtiments*. – Paris: Poulet-Malassis et de Broise, 1853. – 407 с.
171. Haider, 2024. *Studia Metrica et Poetica*. – Tartu, Estonia: University of Tartu Press, 2024. – ISSN 2346-6901.
172. Хендрикс У. О. *Three models for the description of poetry // Journal of Linguistics*. – Ленинград, 1969. – Т. 5. – № 1.
173. Hjelmslev L. *Prolegomena to a Theory of Language*. – Madison: University of Wisconsin Press, 1961. – 144 p.
174. Hollander John. *Vision and Resonance: Two Senses of Poetic Form*. – New Haven: Yale University Press, 1975. – 370 p.
175. Iser W. *The Act of Reading: A Theory of Aesthetic Response*. – Baltimore: Johns Hopkins University Press, 1978. – 239 p.
176. Jakobson R. *Closing Statement: Linguistics and Poetics*. – 1960. – 28 p.
177. Jauss H. R. *Toward an Aesthetic of Reception*. – Minneapolis: University of Minnesota Press, 1982. – 232 p.

178. Жирмунский В. В. Введение в теорию стиха. – Ленинград, 1924. – 168 с.
179. Жирмунский В. М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. – Москва: Наука, Ленинградское отделение, 1977. – 407 с.
180. Жирмунский В. М. Теория стиха. – 1975. – 664 с.
181. John Milton. *Paradise Lost*. – Book XII. – London: Samuel Simmons, 1674. – 336 p.
182. Culler Jonathan. *Theory of the Lyric*. – London: Routledge, 2017. – 336 p.
183. Кацнельсон Р. Д. О стиховой строке // Вопросы языкознания. – 1966.
184. Кожин А. Н. Структура и функционирование поэтического текста // Очерки лингвистической поэтики. – Москва: Наука, 1985. – С 38.
185. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 242 p.
186. Leech G. *Principles of Pragmatics*. – London: Longman, 1983. – 250 p.
187. Leech, G. *A Linguistic Guide to English Poetry*. – London: Longman, 1969. – 240 p.
188. Leech, G. *Language in Literature: Style and Foregrounding*. – London: Longman, 2008. – 244 p.
189. *Linguistische Grundlagen poetischer Texte*. – Tübingen: Niemeyer, 1973. – 87 p.
190. Липгарт А. А. Основы лингвопоэтики. – Москва: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2016. – 168 с. – ISBN 978-5-397-05375-4. – 168 с.
191. Лотман Ю. М. Анализ поэтического текста. – Ленинград: Просвещение, 1972. – 271 с.
192. Лотман Ю. М. Структура художественного текста. – Ленинград: Просвещение, 1970. – 384 с.
193. Mack, D. *Metaphoring as speech act: Some happiness conditions for implicit similes and simple metaphors* // *Poetics*. – Amsterdam, 1975. – Vol. 4. – № 2/3. – P. 221-256.
- 194.
195. *Merriam-Webster's Collegiate Dictionary. 11th ed.* – Springfield, MA: Merriam-Webster, Inc., 2003. – 1623 p.
196. Moskvina V. P. Enjambment and Verse Segmentation (on the Aspects of Terminology) // *The Bulletin of the Russian Academy of Sciences: Studies in Literature and Language*. – Vol. 78, No. 1, 2019. – Pp. 34–52. – 19 p.
197. Мукаржовский Я. О языке басни // *Slovo a slovesnost*. – Praha, 1940. – R. 6. – С. 407.
198. Мукаржовский Я. Эстетическая функция, норма и ценность. – Прага, 1936. – 120 с.
199. Mukařovský J. *The Word and Verbal Art*. – London: Yale University Press, 1977. – 260 p.

200. Barry, Peter. *Beginning Theory: An Introduction to Literary and Cultural Theory*. 4th ed. – Manchester: Manchester University Press, 2017. –288 p.
201. Пospelов Н. О. Введение в литературоведение. – Москва: Высшая школа, 1976. –320 с.
202. Ricoeur P. *Time and Narrative*. – Chicago: University of Chicago Press, 1984. –287 p.
203. Riffaterre M. *Semiotics of Poetry*. – Bloomington: Indiana University Press, 1978. –213 p.
204. Riffaterre, M. *Stylistic Context*. – *Word*. – New York, 1960. – Vol. 16, No. 3. – 390 p.
205. Роберт Фрост. Остановка у леса снежным вечером // In *New Hampshire: A Poem With Notes and Grace Notes*. – New York: Henry Holt and Company, 1923.-72 с.
206. Festinger L. *A Theory of Cognitive Dissonance*. – Stanford: Stanford University Press, 1957.– 292 p.
207. Sanders W. *Linguistische Stiltheorie: Probleme, Prinzipien und moderne Perspektiven des Sprachstils*. – Göttingen: Vandenhoeck & Ruprecht, 1973. **86 p.**
208. Semino, E. *Stylistics and Linguistic Variation in Poetry*. – London: University of London, 1997. –225 p.
209. Шапир М. И. Отклонение от нормы как поэтический приём // *Статьи по теории поэзии*. – Москва, 2002.– 656 с.
210. Щерба Л. В. *Избранные работы по языкознанию*. – Москва: Учпедгиз, 1957.–304 с.
211. Щерба Л. В. *Фонетика французского языка*. – Москва: Издательство литературы на иностранных языках, 1957. –312 с.
212. Shakespeare W. *Shakespeare's Sonnets*. – London: Thomas Thorpe, 1609.–154 p.
213. Шекспир В. *Хамлет*. – Тошкент: Ўзбекистон давлат нашриёти, 1963.–208 b.
214. Шкловский В. Б. *Искусство как приём*. – 1917.–14 с.
215. Шкловский В. Б. *О поэзии и заумном языке*. – Петроград, 1919.-104 с.
216. *Словарь литературоведческих терминов* / ред.-сост. Л. И. Тимофеев, С. Б. Тураев. – Москва: Просвещение, 1974. – 510 с.
217. Stockwell P. *Cognitive Poetics: An Introduction*. – London: Routledge, 2002.–193 p.
218. Столович Л. Н. *Эстетическое в действительности и в искусстве*. – Москва: Искусство, 1972. – 287 с.

219. Study Darter UK. Online Learning and Academic Resources Platform. – UK: Study Darter, 2025. URL: <https://www.studydarter.co.uk> (дата обращения: ...).
220. Sylvia Plath. *Daddy // Ariel*. – London: Faber and Faber, 1965. – 86 p.
221. Taylor T. J. *Linguistic Theory and Structural Stylistics*. – Oxford etc.: Pergamon Press, 1980. – 192 p.
222. Todorov T. *Poétique*. – Paris: Éditions du Seuil, 1973. – 252 p.
223. Томашевский Б. В. Теория литературы. Поэтика. Учебник. – Москва: Аспект Пресс, 2002. – 334 с.
224. Третьяковский В. К. Новый и краткий способ к сложению российских стихов. – Санкт-Петербург, 1735. – 40 с.
225. Тынянов Юрий. Проблема стихотворного языка. – Москва: Сов. писатель. Academia: 1965. – 301 p.
226. Шкловский В. Б. Воскрешение слова. – Санкт-Петербург, 1914. – 24 с.
227. Виктор Гюго. *Les Châtiments*. – Paris: Poulet-Malassis et de Broise, 1853. – 407 p.
228. Виноградов В. В. О языке художественной литературы. – Москва, 1959. – 656 с.
229. Виноградов В. В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. – Москва: Издательство АН СССР, 1963. – 255 с.
230. Винокур Г. О. Понятие поэтического языка. – Москва: Учпедгиз, 1959. – 240 с.
231. Weinreich U. *Explorations in Semantic Theory // Current Trends in Linguistics, Vol. 3: Theoretical Foundations*. – The Hague–Paris, 1966. – 128 p.
232. Widdowson H. G. *On the Deviance of Literary Discourse // Style*. – Fayetteville, 1972. Vol. 6, No. 3. – 14 p.
233. Холшевников В. Е. Основы стиховедения: Русское стихосложение. – Санкт-Петербург: Издательство Санкт-Петербургского университета, 1996. – 180 с. – ISBN 5-288-01650-X. – 180 с.
234. Якобсон Р. О. Новейшая русская поэзия. Набросок первый: В. Хлебников. – Прага: Политика, 1921. – 44 с.
235. Якобсон Р. О. Лингвистика и поэтика // В кн.: Структурализм: «за» и «против». – Москва: Прогресс, 1975. – 460 с.
236. Винокур Т. Г. Закономерности стилистического использования языковых единиц. – М.: Наука, 1980. – 238 с.
237. Воробьев В. В. Лингвокультурология: (Теория и методы). – М.: Изд-во Росс. ун-та Дружбы народов, 1997. – С. 12.
238. Востоков А. Х. Русская грамматика. Изд. 12-е. – СПб: Издание книгопродавца д. ф. Федорова, 1874. – 216 с.
239. Гальперин И. Р. Очерки по стилистике английского языка. – М.: Просвещение, 1958. – 460 с.

240. Головин Б.Н. Основы культуры речи. – М.: Высшая школа, 1988. – 320 с.
241. Ефимов А.И. Стилистика художественной речи. – М.: Изд-во МГУ, 1961. – 520 с.
242. Звегинцев В.А. Семасиология. – М., 1967. – С. 16.
243. Касарес Х. Введение в современную лексикографию. – М.: Изд-во иностранной лит-ры, 1958. – 354 с.
244. Кисилева Л.А. Вопросы теории речевого воздействия. – Л.: Изд-во ЛГУ, 1978. – 160 с.
245. Кодухов В.И. О языковых значениях. – Л., 1972. – С. 58.
246. Кожин А.Н., Крылова О.А., Одинцов В.В. Функциональные типы русской речи. – М.: Высшая школа, 1982. – 223 с.
247. Кожина М.Н. Стилистика русского языка. – М.: Просвещение, 1983. – 223 с.
248. Кожина М.Н. Стилистика русского языка: Учебник для вузов. – Москва: Флинта, Наука, 2008. – 464 с.
249. Колшанский Г.В. Контекстная семантика. – М.: Наука, 1980. – 150 с.
250. Колшанский Г.В. Семантика слова в логическом аспекте. Язык и мышление. – М., 1967. – С. 196.
251. Комлев Н.Г. Компоненты содержательной структуры слова. – М., 1969. – С. 107-114.
252. Красных В.В. «Свой» среди «чужих»: миф или реальность? – М.: ИТДГК «Гнозис», 2003. – С.297.–320 с.
253. Кубрякова Е.С. Язык и знание: На пути получения знаний о языке. – Москва, 2004. – С.319.– 560 с.
254. Квятковский А. П. Поэтический словарь. – Москва : Советская энциклопедия, 1966. – 376 с.
255. Кацнельсон Р. Д. О стиховой строке // Вопросы языкознания. – 1966.
256. Лукьянова Н.А. Экспрессивная лексика разговорного употребления. – Новосибирск: Наука, 1986. – 232 с.
257. Маслова В. А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001. – 208 с.
258. Маслова В.А. Лингвокультурология: учебное пособие для студ. высш. учеб. Заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2010. – 208 с.
259. Мезенцева В.С., Розенталь Т.М. Лингвистические аспекты интерпретации языковых единиц. – М., 2001. – 160 с.
260. Плотников Б.А. Основы семасиологии. – Минск: Высшая школа, 1984. – С. 46. – 223 с.
261. Солнцев В.М. Язык как системно-структурное образование. – М.: Наука, 1977. – 342 с.
262. Стернин И.А. Лексическое значение слова в речи. – Воронеж: Изд-во Воронежского ун-та, 1985. – 172 с.

263. Тишкова В.А. Исследования по социально-культурной антропологии. – М., 2004. – 336 с.
264. Токарев Г.В. Лингвокультурология. – Тула: Издательство ТГПУ им. Л. Н. Толстого, 2009. – С. 40.-160 с.
265. Трубецкой Н.С. История. Культура. Язык. – М.: Прогресс, 1995. – 799 с.
266. Федоров А.И. Семантическая основа образных средств языка. – Новосибирск: Наука, 1969. – 92 с.
267. Федотов О. И. Основы русского стихосложения. Метрика и ритмика. – Москва: Флинта, 1997. – С. 36-37.
268. Филин Ф.П. О языковой норме // Проблемы нормы в славянских литературных языках в синхронном и диахронном аспектах. – М., 1976. – С. 13. – 272 с.
269. Чижик-Полейко А.И. Стилистика русского языка. Часть 1. – Воронеж: Изд-во Воронежского ун-та, 1962. – 116 с.
270. Шанский Н.М. Лексикология современного русского языка. – М.: Высшая школа, 1972. – 328 с.
271. Шаховский В.И. Категоризация эмоций в лексико-семантической системе языка. – Воронеж: Изд-во Воронежского ун-та, 1987. – 192 с.
272. Шаховский В.И. Эмотивный компонент значения слова и методы ее описания. – Волгоград: Изд-во Волгоградского ун-та, 1983. – 96 с.
273. Шмелев Д.Н. Русский язык в его функциональных разновидностях. – М.: Наука, 1977. – 335 с.
274. Шмелев Д.Н. Современный русский язык (лексика). – М.: Просвещение, 1977. – 335 с.
275. Щерба Л.В. Языковая система и речевая деятельность. – Л.: Наука, 1974. – 428 с.
276. Щерба Л.В. Фонетика французского языка. – Москва: Изд-во литературы на иностранных языках. 1957. – 272 с.
277. Якубович В. П. Лингвокультурология. – М., 2005.– 192 с.
278. Никитина Л.К. Окказиональные слова и способы их образования // Актуальные проблемы русского словообразования. – Самарканд: СамГУ, 1972. – С.190.

II Luga'tlar

279. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 4 tomlik. T. III. – Toshkent: Fan, 1984. – 624 b.
280. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 4 tomlik. T. IV. – Toshkent: Fan, 1985. – 636 b.
281. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 4 tomlik. T.II. –Toshkent: Fan, 1984. – 644 b.
282. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. –Toshkent: «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi» nashriyoti, 2002. –168 b.
283. Homidiy H., Abdullayeva Sh., Ibrohimova S. Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati. –Toshkent: O'qituvchi, 1970. – 336 b.

284. Mahmudov. N, Xudoyberganova D. O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati. –Toshkent: «Ma’naviyat», 2013. –318 b.
 285. O‘rayeva D., Quvvatova D. Jahon adabiyoti terminlarining izohli lug‘ati. – T.: ‘Navro‘z’ nashriyoti, 2019. – B.66. – 192 b.
 286. O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati. I jild / N.Mahmudov tahriri ostida. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – 592 b.
 287. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh tomlik, 2-tom. – Toshkent.: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. -680 b.
 288. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh tomlik, 5-tom. – Toshkent.: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.-680 b.
 289. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jild. – Toshkent: 2023. –B. 84-85-86.– 704 b.
 290. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. –Toshkent: Akademnashr, 2013. – 408 b.
 291. Худойбергано́ва Д. Лингвокультуро́логия терми́нларининг қичқа́ча изоҳли луғати. – Тошкент: Турон замин зиё, 2015. – 41 б.
 292. Ҳожи́ев А. Лингвистик терми́нларнинг изоҳли луғати. – Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1984. – 144 б.
 293. Лингвистический энциклопедический словарь. – М.: Русский язык, 1990. – 685 с.
 294. Маҳкамов Н., Эрматов И. Тилшунослик терми́нларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 2013. – 144 б.
 295. Маҳмудов Н., Одилов Ё. Ўзбек тили энантиосемик сўзларининг изоҳли луғати // Маҳмудов Н., Одилов Ё. Сўз маъно тараққиётида зиддият. – Тошкент: Академнашр, 2014. – Б. 131. –153 б.
 296. Салаев Ф., Қурбониезов Г. Адабиётшунослик атамаларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. – 332 б.
 297. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Икки томлик, 1-том. –М: 1981. -632 б.
 298. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Икки томлик, 2-том. –М: 1981. -715 б.
 299. Худойбергано́ва Д. Лингвокультуро́логия терми́нларининг қичқа́ча изоҳли луғати. – Тошкент: Турон замин зиё, 2015. – 41 б.
 300. Ахманова О.С. Словар лингвистических терминов. – М.: УРСС: Едиториал УРСС, 1996. – 571 с.
 301. Комлев Н.Г. Словар иностранных слов. – М.: ЭКСМО, 2006. – 669 с.
- II. Badiiy adabiyotlar:**
302. Azim Suyun. Ziyoyo‘li. – Toshkent: Yosh gvardiya. 1986. – 96 b.
 303. Cho‘lpon. Asarlar. 4 jild. I jild. – Toshkent: Akademnashr 2016. –368 b.
 304. Do‘stqorayev Boybo‘ta. Yassaviy kim edi. – Toshkent. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1994. –32 b.

305. Faxriyor. Ayolgʻu. –Toshkent: Sharq. 2000. – 128 b.
306. Gʻ. Gʻulom. Viqor. Lirika. – Toshkent: Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1980. – 176 b.
307. Gʻ. Gʻulom. Tanlangan asarlar. – Toshkent: oʻzbek davlat nashriyoti, 1953, – 456 b.
308. Gʻ. Gʻulom. Asarlar. V tomlik. 2-tom. Toshkent, 1964, – 456 b.
309. Gʻ. Gʻulom. Tanlangan asarlar. Nazm va nasr. - Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – 352-b.
310. Hamroyev Farrux. Dunyoning ismi. – Toshkent: Gʻ. Gʻulom nashriyoti. – 128 b.
311. Hamroyev Farrux. Onamning uyi. – Toshkent: Akademnashr, 2025. – 160 b.
312. Haqqulov Ibrohim. Ahmad Yassaviy hikmatlar. – Toshkent. Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti. 1991. – 256 b.
313. I.K. Mirzayev I.K. “Sheʼriy matnning lingvopoetik talqini muammolari (Zamonaviy oʻzbek sheʼriyati materiali asosida). Fil.fan.dok.diss. – Toshkent: 1992
314. Komilov N. Tasavvuf. Ikkinchi kitob. -Toshkent: Oʻzbekiston, 1999. – 208 b.
315. Mirtemir. Onaginam. Saylanma asarlar. - Toshkent: Gʻ. Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1979. – 352 b.
316. Миртемир. Шеърлар. – Тошкент: ЎзССР Давлат бадий адабиёт нашриёти, 1961. – 192 b.
317. Mirtemir. Yodgorlik. – Toshkent: Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1978. – 144 b.
318. Mirtemir. Asarlar. Toʻrt jildlik. – Toshkent: Gʻ. Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti. 1980. – B. 366.
319. Mirzo Zebo. Nurli kunlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi. 2004, – 128 b.
320. Navoiy A. Mukammal asarlar toʻplami. 15-tomlik. Navodir ush-shabob. 2-tom. – Toshkent: OʻzSSR davlat badiiy-adabiyot nashriyoti. 1963. 548 b.
321. Navoiy A. Mukammal asarlar toʻplami. 20-tomlik. Xazoyin ul-maoniy. Favoyid ul-kibar. 6-tom. – Toshkent: OʻzSSR davlat badiiy-adabiyot nashriyoti. 1990. – 656 b.
322. Navoiy A. Mukammal asarlar toʻplami. 20-tomlik. 1-tom. Badoyeʼ ul-vasat. –Toshkent: Oʻzbekiston SSR ”Fan” nashriyoti. -1987. – 664 b.
323. Nosir U. Unutmas meni bogʻim. Sheʼrlar. Dostonlar. –Toshkent: Adabiyot va sanʼat nashriyoti. 1988. – 256 b.
324. Olimjon H. Xayolimda boʻlding uzun kun. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – 160 b.
325. Olimjon H. Bolalik. Tanlangan asarlar. – Toshkent: OʻzSSR davlat nashriyoti. 1951. – 320 b.

326. Olimjon H. O'zbekiston. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1965. – 288 b.
327. Oripov A. Jannatga yo'l. Sohibqiron. – Toshkent: Nurafshon biznes nashriyoti. 2020. – 288 b.
328. Oripov A. Umr manzillari. She'rlar, she'riy trakt, g'azallar. – Toshkent: Tafakkur qanoti, 2019. – 352 b.
329. Oripov A. Yangi she'rlar. Ikkinchi nashr. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – 160 b.
330. Oripov A. Birinchi muhabbatim. She'rlar. To'plovchi va nashrga tayyorlovchilar L.Tangriyev va boshqalar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 224 b.
331. Oripov A. Onajon. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2001. – 496 b.
332. Oydinniso. Hovur. – Toshkent: G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2011. – 128 b.
333. Qayumov Aziz. Akademik G'afur G'ulom. – Toshkent, 2008. – 64 b.
334. Rabg'uziy N. Qissasi Rabg'uziy. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 1990. – 240 b.
335. Rahimjonov N. Mustaqillik davri o'zbek she'riyati. Tamoyillar, tajribalar, saboqlar. – Toshkent: Fan, 2007. – 160 b.
336. Rahmon Sh. Saylanma. – Toshkent: Sharq. nashriyoti, 1997. – 256 b.
337. Rahmon Shavkat. Gullayotgan tosh. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1985. – 80 b.
338. Rahmon Sh. Turkiylar. Saylanma. – Toshkent: Sharq nashriyoti. 1997. – B. 338
339. Shukurov N. G'afur G'ulomning lirik poeziyadagi mahorati. – Toshkent: Fan. 1966. – 176 b.
340. Suvonova J. Dardim mening quvonchim mening. – Samarqand: Turon nashr, 2021. – 152 b.
341. Suvonova J. Kechinmalar poetikasi va uslubiy mahorat qirralari. Ilmiy-ommabop risola. – Samarqand. 2020. – 96 b.
342. Suvonova J. Oq va qora. – Samarqand: Mahorat. 2024. – 176 b.
343. Suvonova J. Usmon Azim she'riyatida badiiy tafakkur. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2012. – 96 b.
344. To quyosh sochgayki nur. Erkin Vohidov hayoti va ijodi zamondoshlari nigohida. – Toshkent: O'zbekiston, PMIU, 2016. – 507 b.
345. Usmon Azim. Baxshiyona. Dramatik balladalar. – Toshkent. 1990. – B. 15-16
346. Azim U. Insonni tushunish: she'rlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979. – 80 b.
347. Azim U. Saylanma: she'rlar. – Toshkent: Sharq, 1995. – 408 b.

- 348.** Azim, Usmon. Surat parchalari: she'rlar va doston. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1986. – 104 b.
349. Vohidov E. O'zbekim. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – 400 b.
350. Vohidov E. Ruhlar isyoni. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980. – 80 b.
351. Davron X. Bolalikning ovozi: she'rlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986. – 132 b.
- 352.** Davron X. Qaqnus: she'rlar. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1987. – 208 b.
353. Yassaviy A. Devoni hikmat. – Toshkent: Fan, 1966. – 172 b.
354. Yo'ldosheva M. Meni yasha, olam. Yoshlik. Jurnal. 2012-yil, 4-son. 38-bet
355. Yu. Xos Hojib. Qutadg'u bilig. – Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbab ijodiy uyi, 2007. – 200 b.
356. Yugnakiy A. Hibatul haqoyiq. - Toshkent: Akademnashr, 2019. – 112 b.
357. Vohidov E. O'zbekim. – Toshkent: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980. – 176 b.
358. Yusuf Muhammad. Saylanma: She'rlar. Dostonlar. Xotiralar. – Toshkent: Sharq, 2004. – B. 34
359. Yo'ldosheva M. Meni yasha, olam. "Yoshlik" jurnali. 2012-yil, 4-son. – B. 38.
360. Shekspir V. Shekspir sonnets. – London: Thomas Thorpe, 1609. – 120 b.
361. Shekspir V. Tanlangan asarlar. 5 -jildlik. 3-jild. -Toshkent: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1983. – B. 7.

IV. DISSERTATSIYALAR:

- 362.** Butov R. N. She'riy matndagi grafika: an'analar va innovatsiyalar (XX asr she'riyati asosida): fil. fan. nomz. diss. – Ijevsk, 2010. – 227 b.
- 363.** Dmitrienko O. A. Maktabda V. Nabokov asarlarini o'rganishda mazmuniy va stilistik to'siqlarni yengib o'tish: ped. fan. nomz. diss. – Sankt-Peterburg, 1997. – 198 b.
- 364.** Фомина Ольга Александровна. Стихосложение В. С. Высоцкого и проблема его контекста: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Самара, 2005. – 22 с.
- 365.** Колцова Л. М. Актуальное членение предложения и графические средства его оформления в поэтической речи (на материале русской советской поэзии): дис. ... канд. филол. наук. – Воронеж, 1984. – 168 с.
- 366.** Власов К. А. Система стиха И. А. Бродского (проблемы метра и ритма): дис. ... канд. филол. наук. – Москва, 2005. – 284 с.

- 367.** Копылова С. А. Функционирование многоточия в русских литературных текстах XVIII–XX веков: дис. ... канд. филол. наук. – Москва, 2000. – 186 с.
- 368.** Матвеева Наталья Александровна. Инглиз шеърининг ритмик тузилиши ва унинг концептуал мазмунининг эволюцияси: силлабо-тоник шеърининг ривожланиши мисолида: филол. фан. номз. дисс. автореф. – Москва, 2009. – 30 б.
- 369.** Мирзаев И.К. Шеърининг лингвопоэтик талқини муаммолари (замонавий ўзбек шеърининг материали асосида): филол. фан. д-ри дисс. – Тошкент, 1992. – 356 б.
- 370.** Монахов С. И. Трехсложные размеры в истории русской литературы: проблемы ритмической эволюции и формирования семантических моделей поэтического языка: дис. ... канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2008. – 228 с
- 371.** Muqimova Z.R. Lingvomadaniy kodlarning olamning lisoniy manzarasidagi oʻrni (oʻzbek tili barqaror birliklari misolida). Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2025. -79 b.
- 372.** Nikolayevna Anna. Jozef Brodskiy sheʼriyatida tonik sheʼriyatning evolyutsiyasi: Fil.fan.nomz.diss. – Moskva: 2003. – 223 b.
- 373.** Pashkov Aleksandr.V.V.Mayakovskiyning sheʼriy nutqining toʻgʻri tashkil etilishi. Sillabo-tonik sheʼr: Fil. fan. nomz. diss. – Moskva: 2006.–174 b.
- 374.** Игушева Юлия Сергеевна. Шеърининг матн ва бадиий услубда интонацион реминисценциялар: филол. фан. номз. дисс. – Бийск, 2005. – 226 б.
- 375.** Степанов А. Г. Семантика стихотворной формы: Фигурная графика, строфика, enjambement: дис. ... канд. филол. наук. – Тверь, 2004. – 186 с.
- 376.** Сулова Е. А. Интонация и стиль поэтической речи (на материале поэзии XX века): дис. ... канд. филол. наук. – Самара, 2005. – 180 с.
- 377.** Таджиев Канимкул. Творчество Максуда Шейхзаде-переводчика: дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1984. – 192 с.
- 378.** Васильева Т. Н. Поэтика твердых форм в якутской лирике: особенности освоения восточных и европейских художественных традиций: дис. ... канд. филол. наук. – Якутск, 2007. – 172 с.
- 379.** Абдусайдов А. Язык газеты и литературная норма: Автореф.дис...канд.филол.наук. – Ташкент, 1988. – 23 с.
- 380.** Бабаханова Д.А. Официально-деловой стиль современного узбекского литературного языка: автореф.дис. ...канд.филол.наук. – Ташкент, 1987.– 24 с.
- 381.** Махмудов Н. Эллипсис в узбекском языке. Автореф. дис...канд. филол. наук. – Ташкент, 1978. – 20 с.
- 382.** Милованова Н.Я. Экспрессивность в стиле научной прозы: автореф. дис. канд. филол. наук. – Баку, 1982.– 18 с.

383. Натадзе М.Р. Принципы построения лингвистической стилистики и стилистический аспект сопоставления языков: автореф. дис. док-ра филол. наук. – Тбилиси, 1975. – 48 с.

384. Усмонова Х. Ҳукукий нормаларни ўзбек тилида ифодалашнинг илмий-назарий муаммолари. Филол. фан. докт. ... дисс. автореф. – Т., 2004. – 44 б

385. Ходжаев Т.Х. Повелительное наклонение в современном узбекском языке. Автореф. дис...канд. филол. наук. – Самарканд: 1963. – 22 с.

386. Худайберганаева Д. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талкини: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2015. – 240 б.

387. Абдусайидов А. Язык газеты и литературная норма (на материале местных и республиканских газет 70–80-х годов): автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1988. – 23 с.

388. Ernazarova I. Muallif soʻz ijodkorligining lisoniy-kognitiv tahlili (Eshqobil Shukur ijodi misolida). Filol. fan. b. falsafa dokt... diss. – Samarqand. 2022.

389. Тўхтасинова О. Ю. Ўзбек тилида лексик окказионализмлар ва уларнинг бадиий-эстетик хусусиятлари: Филол. фан. номзоди ... дис. – Т., 2007. – Б. 4.

V. Ilmiy toʻplam, jurnal va gazetalardagi maqolalar

390. Bright Mind Publishing: <https://brightmindpublishing.com>

391. Brill. Reference Works. referenceworks.brill.com. – Leiden/Boʻston: Brill, 2025. URL: <https://referenceworks.brill.com>

392. Britannica Online. Chicago: Encyclopaedia, Inc, 1768. URL: <https://www.britannica.com>

393. De Gruyter, Brill. Academic publishing platform. – Berlin/Leiden: De Gruyter Brill, 2025. URL: <https://www.degruyterbrill.com>

394. De Gruyter, Brill. Academic publishing platform. – Berlin/Leiden: De Gruyter Brill, 2025. URL: <https://www.degruyterbrill.com>

395. De Gruyter, Brill. Academic publishing platform. – Berlin/Leiden: De Gruyter Brill, 2025. URL: <https://www.degruyterbrill.com>

396. DergiPark. Turkish Academic Journals Platform. – Ankara, Turkey: DergiPark, 2025. URL: <https://dergipark.org.tr>

397. Каримова О. A Comparative Analysis of Poetic Devices: Alliteration, Assonance, and Enjambment in English and Uzbek Poetry. – Қўқон университети хабарномаси, 2025. – Б. 192–194.

398. Lingvopoetik va xalqona poetik tasvir. <https://adabiyotxazinasi.com/index.php/conf/article/view/126>

399. Oxford University Press. OUP Academic. – Oxford: Oxford University Press, 2025. URL: <https://academic.oup.com>

400. Poem Analysis: Solecism (Wikipedia, lingvistik taʼrif): <https://en.wikipedia.org/wiki/Solecism>

401. Preminger A. Brogan, T. V. F. & Greene D. The Princeton Encyclopedia of Poetry and Poetics (4th ed) – Princeton; Princeton university Press, 2012

402. RCSI Journals Platform.-Moscow:RCSI Scientific Publishing Platform, 2025. URL: <https://journals.rcsi.science>
403. RCSI Journals Platform.-Moscow:RCSI Scientific Publishing Platform, 2025.URL:<https://journals.rcsi.science>
404. Russkaya Rech'.(Russian speech). Scientific journal published by the Russian Academy of Sciences;ISSN 0131-6117.1967
405. Samuel Coleridge'ning "Frost at Midnight" va "Dejection: An Ode"
406. Solecism – Literary Device (Poem Analysis):<https://poemanalysis.com/literary-device/solecism>
407. Study Darter UK. Online Learning and academic resources Platform.–UK:Study Darter. 2025.URL:<https://www.studydarter.co.uk>
408. UEA Digital Repository-University of East Angliya
409. University of Canberra Research Portal.–Canberra:University of Canberra, 2025.URL;<https://researchprofiles.canberra.edu.au>
410. University of East Angliya.UEA Digital Repository. Retrieved march 15, 2026, from <https://uea.figshare.com>
411. University of Tartu Library."OJS (Open journal Systems): Scientific journal publishing environment"– ojs.utlib.ee.2025
412. Wikipediya contributors. Solecism.-I: Wikipediya:The Free Encyclopedia.–San Francisco; 2025.URL: <https://en.wikipedia.org/wiki/Solecism>
413. Баскаков Н.А. Структурные и функциональные стилистические модификации в тюркских языках // Развитие стилистических систем литературных языков народов... - Ашхабад. 1968. – С. 57-70.
414. Береговская Э.М. Проблемы исследования зевгмы как риторической фигуры // Вопросы языкознания, 1985, № 3. – С. 59-67.
415. Википедия В. Vinogradov an'anasida poetik til va estetik funksiya (Ziyonet manbasi):
416. Винокур Т.Г. О содержании некоторых стилистических понятий // Стилистические исследования. – М.: Наука, 1972. – С. 7-106.
417. Гальперин И.Р. О понятиях "стиль" и "стилистика". – ВЯ, 1973, №3. – С.22.
418. Гуломов А. Адабий тил нормалари // Ўзбек тили нутқ маданиятига оид масалалар: илмий тўплам. – Тошкент: Фан, 1973. – Б. 55–65.
419. Зализняк А.А. Тил ва маданият муносабати ҳақида // Тилшунослик масалалари. – Москва, 2005.
420. Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек адабий тилининг лексик нормалари // тўплам. – Тошкент, 1973. – Б. 37–47.
421. Юсипова Р.Р. Лексико-семантические особенности устойчивых глагольных сочетаний в турецком языке // Тюркско-монгольское языкознание и фольклористика. – М.: Наука, 1960. – С. 113–130.

VI.Internet saytlari

422. degruyterbrill.com
423. dergipark.org.tr

424. eajournals.org +
425. Encyclopedia Britannica
426. Encyclopedia Britannica
427. Encyclopedia.com
428. Fussell, Paul, Poetik Meter and Poetik Form.
429. geniusjournals.org
430. <https://api.ziyonet.uz/uploads/books/10001253/cU3FW7tsAVKV66f.p>

df

431. <https://en.wikipedia.org/wiki/Foregrounding>
432. https://en.wikipedia.org/wiki/Jan_Muka%C5%99ovsk%C3%BD
433. <https://oriens.uz/uz/journal/article/tilshunoslikda-lingvopoetika-va-lingvopoetik-vositalarning-organilishi-tarixi>
434. izv-oifn.imli.ru
435. megaobuchalka.ru Megaobuchalka – Prosodic stylistic means
436. merriam-webster.com
437. ojs.utlib.ee
438. org nextscientists.com
439. pdfs.semanticscholar.
440. pdfs.semanticscholar.org
441. referenceworks.brill.com
442. russkayarech.ru
443. russkayarech.ru
444. UEA Digital Repository
445. University of Canberra Research Portal
446. Wikipedia. Enjambment; Literariness
447. Википедия
448. Википедия Jan Mukařovský – foregrounding va estetik funktsiya (strukturaviy poetika konteksti):

SHARTLI QISQARTMALAR:

449. DDA – doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati
450. LSG – leksik-semantik guruh
451. NDA – nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati
452. O‘TIL – 5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, besh tomlik. Toshkent, 2006.
453. O‘TIL – O‘zbek tilining izohli lug‘ati, ikki tomlik, 1-2-tomlik. -M, 1981.
454. O‘TSIL – Hojiyev A. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati. Toshkent, 1974.
455. TTIL – Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati

MUNDARA

Kirish.....	2
Til va ritm kategoriyasi. Til va ritm tushunchalarining lingvopoetik talqini.....	8
She'riy nutqda strukturaviy buzilish va estetik effect.....	25
Soletsizm va anjambmangning poetik diskursdagi umumiy va farqli jihatlari.....	37
Soletsizm fenomenining tarkibiy va mazmuniy-funksional tahlili. Soletsizmning lingvistik mohiyati va tasnifi.....	61
Soletsizmning ritm va intonatsiyaga ta'siri.....	79
She'riyatda soletsizmning mazmuniy-estetik funksiyalari.....	92

Anjambmang fenomenining strukturaviy va funksional xususiyatlari. Anjambmang va uning turlari.....	108
Anjambmang va she'riy ritmning o'zaro aloqasi.....	121
Anjambmangning mazmuniy va pragmatik vazifalari.....	133
Soletsizm va anjambmangning qiyosiy va integrativ tahlili. Ikkala fenomenning umumiy poetik mexanizmlari.....	150
Soletsizm va anjambmangning diskursiv funksiyalari.....	166
Zamonaviy she'riyatda soletsizm va anjambmangning transformatsiyasi.....	187
Xulosa.....	218
Foydalanilgan adabiyotlar.....	224

